

**I.G‘afurov, O.Mo‘minov,
N.Qambarov**

TARJIMA NAZARIYASI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi tomonidan 5220100-Filologiya (tillar bo‘yicha),
5220600 tarjima nazariyasi va amaliyoti ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsuya etilgan*

**«Tafakkur Bo‘stoni»
Toshkent - 2012**

UDK: 8125(075)

81.2-7

G'29

G'ofurov Ibrohim

Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv
qo'llanma /I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. – Toshkent :
Tafakkur-Bo'stoni, 2012. 216 b.

KBK 81.2-7

Taqrizchilar: p.f.d., professor T.Q.Sattorov,
f.f.n., dotsent T. Oltiyev.

Mazkur o'quv qo'llanma Davlat Ta'lim Standarti hamda
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fani namunaviy o'quv dasturi, ishchi
o'quv dasturiga muvofiq tayyorlangan.

U oliy o'quv yurtlarining tarjimonlik fakultetlari talabalari
uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada hozirgi fan yutuqlari,
olimlar va tajribali tarjimonlarning fikr-mulohazalari o'z aksini
topgan.

O'quv qo'llanma talabalarning tarjimonlik qobiliyatini
rivojlantirishga yo'naltirilgan.

ISBN – 978-9943-362-56-7

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I. Tarjima nazariyasi predmeti va uning vazifalari.....	9
§1. Tarjima nazariyasi predmeti va uning vazifalari.....	9
§2. Tarjima nazariyasi fanda nisbatan yangi soha.....	15
§3. Tarjima fan sifatida.....	18
§4. Tarjimada soʻzlarning qiyosiy oʻrganilishi.....	21
§5. Tarjimada ekvivalentlik.....	22
II. Tarjima va madaniyat.....	24
§1. Aloqa vaziyat, belgili harakat va tarjima.....	24
§2. Madaniyat va tarjima oʻzaro aloqalariga nisbatan turliyondashuvlar.....	25
§3. Tarjima va madaniyat.....	26
§4. Tarjimada madaniyatga oid muammolar.....	28
§5. Tarjimada soʻzlarning madaniy maʼnosi.....	30
§6. Tarjimadagi madaniy moslashish holatlari.....	31
§7. Xalqlar aloqasining til va tarjimadagi aksi.....	35
III. Tarjimonlik faoliyati tarixidan.....	37
§1. Yevropa olimlarining tarjimonlik faoliyati.....	37
§2. Tarjima va yangi ijtimoiy harakatlar.....	48
§3. Dunyo tarjima tarixi.....	50
§4. Alisher Navoiy va tarjima.....	67
§5. Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari.....	73
§6. Qurʼon tarjimasi.....	75
§7. Oʻzbekistonda tarjimonlik faoliyati.....	87
IV. Tarjimaning leksik muammolari.....	104
§1. Kontekst va uning tarjimadagi ahamiyati.....	104
§2. Leksik birliklar tarjimasi.....	106
§3. Leksik transformatsiya.....	108
§4. Muallif va tarjimon: til topish muammosi.....	115
§5. Muqobili yoʻq soʻzlarni tarjima qilish.....	119

§6. Soʻz - tarjimaning ish materiali.....	122
§7. Tarjima jarayon va faoliyat mahsuli.....	127
V. Tarjimaning grammatik muammolari.....	135
§1. Tarjimada grammatik muvofiqlik.....	135
§2. Tarjima qilishdagi grammatik qiyinchiliklar.....	138
§3. Tarjima qilishda grammatik transformatsiyalardan foydalanish.....	139
§4. Grammatik transformatsiyada oʻrin almashish hodisasi.....	141
§5. Tarjimada grammatik ekvivalentni tanlash.....	144
VI. Tarjimaning frazeologik muammolari.....	148
§1. Iboralar yoki frazeologik birliklar tarjimasini.....	148
§2. Milliy xususiyatga ega frazeologik birliklar va ularning tarjimasini.....	151
§3. Tarjimada frazeologik birliklarning mos kelishi.....	156
§4. Frazeologizmlarda soʻzlarning birikishi.....	159
§5. Lugʻatlar va frazeologik birliklar tarjimasini.....	161
VII. Tarjima turlari.....	164
§1. Ketma-ket tarjima qilish.....	164
§2. Vizual tarjima qilish (Sight translation).....	165
§3. Sinxron tarjima va uning tarixi.....	167
§4. Tarjima jarayonida eslatma yozuvlar (Note-taking).....	173
VIII. Tarjima metodlari.....	176
§1. Kompressiya va uning tarjimada ishlatilishi.....	176
§2. Takrorlash (shadowing).....	179
§3. Tarjima davomida maʼlumotlarni esda saqlab qolish.....	180
§4. Tarjima qilishda gaplarning qayta qurilishi.....	184
§5. Tarjima qilishning yoʻllari.....	190
§6. Tarjimonlikda interferensiya hodisasi.....	191
IX. Sheʼriy tarjima.....	195

KIRISH

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Yer yuzining turli qit'alari va mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan odamzod nasllari o'z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositasida ham namoyon qildi. Uni xalqlararo aloqa vositasiga aylantirdi, undan doim samarali tarzda foydalandi. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir-birlaridan xabardor bo'ldi, o'zaro borish-kelish qildi. Shu bilan birga savdo, hunarmandchilik, uy-joy, yo'l qurilishi, dehqonchilik, aslaha-anjomsozlik kabi sohalarni asrma-asr tadrijiy rivojlantirib, yo'lga qo'yib bordi. Odam qavmlari qulay va xatarsiz hayot kechirishni bir-biridan o'rgandi, bir-biriga yo'l ko'rsatdi, bir-biridan ulgi oldi va rang-barang madaniyatlarining jozibali qirralarini bir-biriga namoyon qildi.

Insoniyatning o'zaro munosabatlari, muomalalari, muloqotlari, turli-tuman aloqalarga tashna-yu ehtiyojmand karvonlari o'n ming yillardan buyon dunyo o'lkalarini kezadi, qit'alardan qit'alarga o'tadi. Ketilgan shu karvonlar safida savdogarlar, sarkardalar, olimlar, din ulamolari, targ'ibotchilar, munajjimlar, hunarmandlar, tabobatchilar, hakimlar qatorida, albatta tarjimonlar ham bo'ladilar. Til bilgich, tushuntirgich, aqlu zakovatli va hamisha hushyor, ko'proq tillarni bir-biriga og'zaki o'giradigan bu kishilarga u zamonlarda tilmocho, ya'ni bir tilni ikkinchi tilga ag'daruvchi, muloqotlar va bitishuvlarni tushunarli hamda qoidali qiluvchi, tomonlar o'rtasida ahdlashuvlar va murosallarni bitiruvchi, deb qarar edilar.

Qavmlar o'rtasida muomala-munosabatlarning me'yori, ittifoqlarning bitimlari, shartnomalari, xalqlarning o'zaro ahd-u paymonlari bilimdon tarjimonlar-tilmochoqlar orqali hal bo'lardi.

Tilmochoqlar ishlarning o'zaro muvofiq, adolatli bitishi va xalqlarning totuvliklariga xizmat qiladilar. Ular insoniyat qavmlarini turli jaholat balo-ofatlari, behuda qirg'inlardan saqlashga sa'yi-harakat qilardilar. Tilmochoq o'zini tilchi deb ham bilgan. Tilmochoqlarning

tilchiligi juda katta aqlu zakovatni talab qilar, ular tarixiy-ijtimoiy jarayonlarda paritet-tenglikni vujudga keltirishga urinardilar. Tilchi va tilmoch hamma vaqt o'z davri madaniyatining oldingi qatorlarida borardi. Shu tariqa tarjimonlik insoniyat yaratgan sohalar ichida bebaho, qadrli, oliyjanob, ilg'or faoliyat turiga aylandi.

Tarjimonlar xalqlarning bir-birlarini bilish va o'rganishlariga tengsiz hissa qo'shdi. Birinchi tarixchilar, geografiya, geodeziya bilan shug'ullanuvchi kishilar ham tarjimonlar ichidan yetishib chiqdi.

Jumladan, Immanuil Kant o'zining falsafada buyuk inqilob yasagan "Sof aqlning tanqidi" asarida "samarali tasavvur" (продуктивное воображение) degan tushunchani kiritgan va tahlil qilib bergan. Dunyoni bilish falsafasining markazida ana shu "samarali tasavvur" turganidek, u tarjima sohasi va faoliyatining mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunish va tushuntirishga ham xizmat qiladi. "Samarador tasavvur" so'zlarning quruq ma'nolaridan nafosat yaratadi. Quruq ma'noning nafosat mevasiga aylanishi – shaklning mazmundorlik kasb etishi tarjima ijodining dialektikasi va qimmatini belgilaydi.

Kantning fikricha, idrok samarador tasavvur tufayli ongning nazoratisiz o'z tushunchalarini hosil qiladi. Kantcha "tasavvurning saliqasi (qobiliyati) uning o'z-o'zidan, tabiiy bo'lishi". U xayoliy bir narsa bo'lmay, hissiyot va idrok sintezining ishchi quroli. Aytaylik, rus tilida "голубой" so'zidan "голубь" so'zi kelib chiqdi. Keyin bir tilmoch ulardan "*приголубит*" degan g'alati shoirona, harakat ma'nosini anglatadigan obrazli so'zni yaratdi. Bu so'zlarning mag'iz ma'nosida "ko'k", "moviy" tushunchalari saqlangan. Ammo tamomila boshqa narsalarni anglatadigan so'zlar yaralgan.

O'zbek tilida "kabutar" (kaptar) so'zi mavjud. Uning ma'nosini mag'zida ham "ko'k-moviy" tushunchasi turadi. O'zbek tilining tarixiy qatlami ichida "ko'karchin" degan so'z bor. U ko'hna lug'atlarimiz va mumtoz adabiyotimiz matnlarida, folklor asarlarida uchrab turadi. Голубой – ko'k-moviy, голубь – kabutar, kaptar, ko'karchin (yovvoyi kaptarni ko'karchin deyishgan) – rus tilidagi so'zlarning ma'nosi bilan o'zbek tilidagi so'zlarning ma'nosi

va hatto kelib chiqishi – etimologiyasi ham bir-biriga aynan mos. Lekin endi rus tilida *приголубит* degan fe'l so'z hosil bo'ldi-ku, uni o'zbek tilida nima deymiz, nima deb ag'daramiz? Agar qanday bo'lsa shunday kalkalashtirsak, unda "ko'karchinlashmoq" yoki "kaptarlamog" deyishga to'g'ri keladi. Ammo o'zbek tilida hech qachon bunday g'ayritabiiy so'zni uchratmaganmiz, balki bundan keyin ham uchratmasak kerak. Ikki tilli lug'atlarimizda *приголубит* – erkalamog, silab-siypalamog, deb tarjima qilingan. Erkalamog – o'zbekcha-ruscha lug'atda – баловать, ласкать, нежить, deb o'girilgan. Lekin "приголубит" keltirilmagan. Agar "ko'k" ma'nosini saqlagan holda "приголубит" tarjima qilinadigan bo'lsa, unda o'zbek tilidagi qadimgi "ko'kay" so'zini qo'llagan tarzda "ko'kaylamog" yoki "ko'kalamog" yoki "ko'kaladi" deb o'girsak, etimologiyaga benihoya mos tushgan bo'lardi. To'g'ri, "Ko'kay" besh tomlik izohli lug'atga kiribdi. Lekin uning "ko'ks", "ko'krak" degan ma'nolari aytilmabdi. Faqat dil, ko'ngil deb izohlanib, xalq dostonlaridan chiroyli misollar keltirilgan. Aslida ko'kay – dilning qo'rg'oni. Shunda: agar Hojimat Asalgulning yetimcha qizini ko'kayladi, deb misol tuzsak, bu misoldagi "ko'kayladi" so'zi ruscha "prigolubit" degan so'zning ayni "oltin" tarjimasi bo'ladi.

Bir zamonlar Trediakovskiy degan shoir rus tilida hech angiab bo'lmaydigan, aytilishi ham noqulay ikki so'z o'rniga hali shungacha rus tilida bo'lmagan "vliyaniye" degan so'zni kiritgandek, boshqa bir XVIII asr shoiri Xeraskov "двусмысленность" degan so'zni, imperatritsa Yekaterina esa boloxonador ma'nosidagi "высокопарность" degan so'zni, M.V. Lomonosov esa juda ko'plab rus tili talaffuziga moslashgan yangi atamalar, neologizmlarni kiritganidek, "ko'kaylamog" ham boshini silamog, bag'riga oimog ma'nolarini tilimizga muvofiq, talaffuzimizga uyg'un tarzda anglatgan bo'lardi.

Tarjima badiiy va lug'at faoliyatining spetsipik turi. Tarjima badiiy, ilmiy ijod kabi til, tafakkur va fantaziya bilan ish ko'radi. Badiiy tarjimada ma'no va uslub, kolorit bilan birga poetika asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Poetikani chiqarish va yaratishda yuqorida

aytilganidek, Kantning idrok va hissiyoti sintezi va ulardan vujudga keladigan tabiiylik birinchi darajali ahamiyatga ega. “Prigolubit” soʻzini “koʻkaylamoq” deb oʻgirarkanmiz, soʻzning tasviriyl kuchini yuzaga chiqargan boʻlamiz. Tarjimada esa tasviriylilik va tabiiylilikning oʻrmini boshqa hech narsa bilan toʻldirib boʻlmaydi.

I. TARJIMA NAZARIYASI PREDMETI VA UNING VAZIFALARI

§1. Tarjima nazariyasi predmeti va uning vazifalari

Tarjima nazariyasi predmeti – tarjima amaliyoti, tarjima asarlari, tarjima jarayonlari, tarjimon faoliyati, tarjima tarixi va ularni o'rganish asosida tug'ilgan til bilan chambarchas bog'liq, tarjimaning qonun-qoidalari, yo'l-yo'riqlarini aks ettiradi va umumlashtiradi.

Tarjima nazariyasi tarjimaning keng jonli amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlar, rang-barang tajribalarni ilmiy-tanqidiy o'rganadi, tarjima qoidalari va tamoyillarini, ularning chegaralari, me'yorlarini bayon qiladi.

Shu ma'noda tarjima nazariyasi va tarjimashunoslik (xuddi adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslik kabi) bir-biriga juda yaqin va biri-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Faqat esda tutmoq kerakki, tarjimashunoslik ichiga tarjima tanqidi ham kiradiki, u ta'bir joyiz bo'lsa, tarjimashunoslikning tilchisi va shu bilan birga uning avangardidir. Tarjima tanqidi bag'oyat xayrli sohadir. U tarjimachilik tajribalari, tarjimalarning sifati, saviyasi, amaliy ahamiyati, o'quvchilar doirasiga ta'siri, ijtimoiy-estetik qirralari, tarjima tiliga har tomonlama ta'siri (lug'at boyligini kengaytirishi, yangi tushunchalar, atamalar, terminlar bilan to'ldirishi, ifodaviy-hissiy ta'sir quvvatini ko'tarishi) tafakkur qobiliyatining yangidan yangi qirralarini ochishi, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni sezilarli tarzda faollashtirishi va o'z o'rnini bilan tezlashtirishiga xizmat qiladi.

Tarjima tanqidi tarjima bilan birga asliyat va uning muhitiga ham kirib boradi. Nazariyaning boyishi yo'lida izlanishlar olib boradi, tarjima qoidalari va prinsiplarining hayotiyligi, ilmiy qimmatini oshiradi, ongli amaliyotni mustahkamlaydi, turli konsepsiyalarni sinovdan o'tkazadi. Nazariy yangiliklarga yo'l ochadi, nazariyani qotib qolishidan, dogma tusiga kirishidan va qolaversa, G'arb tarjimashunoslik ilmida bo'layotganidek nazariyani ortiqcha murakkablashtirish, ba'zi o'rinlarda uni tushunib bo'lmaydigan

darajada soxta ilmiylashtirishdan ogohlantiradi. Tarjima barcha ijod jarayonlari kabi og'ir kechadi. Lekin bu degani uning qonun-qoidolari, prinsiplarini haddan ortiq chigallashtirish, ayrim hollardan pashshadan fil yasashga sira hojat yo'q. Chunonchi, yirik Amerika olimi, tarjimashunos va lingvisti YU. Nayda tarjimada ekvivalentlik haqida gapirganda, uni nisbiy (formal) hamda dinamik ekvivalentliklarga ajratib ko'satadi. Nisbiy ekvivalentlikda har bir so'z doim unga muvofiq so'z bilan tarjima etiladi, asliyat tilidagi gap bo'laklari, nutq birliklari tarjima tilida o'zgartirilmadan o'z holicha saqlanadi. Barcha idiomalar kalka qilinadi. Asliyatdan uzoqlashishlar izohlab boriladi. Dinamik ekvivalentlikda esa leksika va grammatika adaptatsiya qilinadi, matn o'quvchiga tushunarli bo'lishiga harakat qilinadi. "Avtor tarjima tilida shunday yozgan bo'lardi", deyidigan darajaga yetkaziladi (B.N. Комиссаров. Общая теория перевода. Проблема переводоведения в освещении зарубежных ученых. М. 1999. с.53-54). Tarjimada eng yaqin ekvivalentlikka erishishni Yu. Nayda muhim deb hisoblaydi. Ikki til o'rtasidagi muvofiqliklar va farqlanishlar hamda bularni yengib o'tishda qo'shish, tushirib qoldirish va o'zgarishlar qilishga to'g'ri kelishini ta'kidlab ko'rsatadi. Endi bu fikrlarni V.V. Alimovning "эквивалентом является равнозначное соответствие, как правило, независящее от контекста" (B.B. Алимов. Теория перевода. М. 2005 г. стр. 35) degan ta'rifi bilan qiyoslab ko'ring. Boshqa ko'p nazariy kitoblardagi ta'riflar ham shunday murakkab va chigal. Nazariyotchilar tarjima qoidalarini iloji boricha bir-birlaridan chigalroq va shu bilan originalroq qilib chiqarishga musobaqalashayotganiday taassurot qoldiradilar. Qancha ko'p murakkab va noyob terminlar qo'llansa, nazariya shunchalik ilmiyroq bo'lib ko'rinadi deb o'ylaydilar. Nazariya nazariyotchilar uchun emas, amaliyotchilar uchun, jarayonlarni ravshanlashtirish uchun yozilishini xuddi unutib qo'yganday bo'ladilar. Amerika tarjimashunosi S. Bassnett-Makgayr xonim «Tarjimon avvalo o'quvchi, u matnni talqin etuvchi o'quvchi», deb yozadi. (B.N. Komissarov. Yuqoridagi kitob. str.59). Matnni talqin etuvchi o'quvchi degan gap, avvalo, tanqidchiga tegishli. Tarjimon ham bir

qarashda faqat o'quvchi, talqinchi bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin uning asosiy xususiyati o'quvchiligi emas, tarjimonligi va undan ham muhimi, ijodkorligi. Biz hammamiz, avvalo, o'quvchimiz. Lekin o'quvchilik bu – ishning boshlanishi, xolos. Tarjimon o'z ona tilida yangi matn yaratadi.

Ertalab quyosh chiqib, ufqdan bosh ko'targanda, u okeanning ko'z ilg'amas muhitida aks etadi. Quyoshning okeandagi jilvalangan aksi bu quyoshning ayni o'zi emas. Lekin biz buni ayni o'zi deb o'rganib qolganmiz. Quyoshning aksi to'liqlarda tovlanadi, alvon ranglar hosil qiladi, uning jilvalarida milliardlab mayda baliqlar raqsga tushadi. Asliyat matni, tili bilan tarjima matni tili o'rtasida quyosh bilan uning okeandagi aksi o'rtasidagi farqqa o'xshash o'zgachaliklar bo'ladi. Adaptatsiya, adekvatlik, ekvivalentlik va o'zga turfa transformatsiyalarda, transpozitsiyalarda, interferensiyalarda shunday farqlar va muvofiqliklar, muodilliklar aks etib turadi. Nazariy qoidalar ni murakkablashtirmay ularni ko'proq amaliy rang-barang misollar bilan tushuntirish va talqin, tahlillarda teranlikka erishish - nazariyaning vazifasidir.

Albatta, qoidalar ishni saranjom qilishga, tartibini belgilashga yordam qiladi, yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Buni qadimdan o'q tarjimonlar va mualliflar, tasnifchilar juda yaxshi bilganlar. Ko'hna xitoy donishmandi Konfutsiy (Kun-szi) fikrini eslash kifoya: "Qoida bo'lmagan narsaga qarama! Qoidasi bo'lmagan narsani – eshitma! Qoida bo'lmagan narsani – gapirma! Qoidasiz harakat qilma!" (Lunyuy, XII, I). Hayot va odob qoidasini esa u quyidagicha tushuntirgan edi: "Ota-onang tirik ekan, ularga qoidasi bilan xizmat qil. Ular qazo qilgach, qoidasi bilan yerga topshir. Qoidasi bilan ularga qurbonlik qil". U yana shunday deydi: "Agar hukumat qoidaga rioya qilsa, xalqni boshqarish oson". Ko'rinib turibdiki, qoida xoh hayotda bo'lsin, xoh fan va ijod sohalarida tartibga soluvchi, vazifalarni belgilovchi, ularni ado etishlikning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatuvchilik ahamiyatiga ega.

Tarjima nazariyasi adabiyot nazariyasi bilan yaxshi qo'shnichilikning totuv aloqalarida shakllandi, o'z qonun-qoidalari,

prinsiplari, konsepsiyalarini ishlab chiqdi deb baralla aytishimiz mumkin. Shu bilan birga tarjima nazariyasi o'z mustaqil yo'li, asosi, juda boy hayotiy tajribalar maktabiga ega. Shuning uchun u mustaqil fan sohasi sifatida qad rostlay oldi va yashovchan fan sifatida o'zini oqladi.

Tarjimashunoslik esa tilshunoslik, tarixshunoslik, falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik kabi o'zaro yaqin fanlarning doimiy ta'sirida oyoqqa turdi. XX asrning 60-yillaridan e'tiboran ushbu "ittifoqchi" fanlar safiga san'atshunoslik ham tortildi. Tarjima tanqidi doirasida tarjima poetikasi va estetikasi degan bepoyon mavzular silsilasi ham maydonga chiqdi.

Adabiy-badiiy, ilmiy-texnik, gazeta-jurnal, og'zaki-sinxron, mashina tarjimalarning amaliyotdan kelib chiqayotgan qonun-qoidalari yo'l-yo'riqlari, me'yorlari, usullari, ko'nikmalari shakllana boshladi. Ishda mukammallikka intiluvchi bu ijodiy-ilmiy jarayon hech qachon to'xtamaydi.

Tarjimachilik nazariyasining vujudga kelishi va uning universal qoidalarining ishlanishi ijodiy tarjima amaliyotiga keskin va xayrli ta'sir qildi. XX asrning o'rtalaridagiga nisbatan olganda ham, tarjimalarning sifati va saviyasi sezilarli darajada ko'tarildi. Tarjimada savodsizlik, taglama (подстрочник) tarjimalardan foydalangan holda tarjima qilish, vositali tillar orqali tarjima qilish ancha kamaydi. Asliyat va tarjima tilining butun qirralari va nozikliklari, bir-birlariga qay darajada mos va muvofiq ekanliklari, ziddiyatli, murakkab tomonlarini qiyosan mukammal bilish hozirgi zamonda tarjimaning eng birinchi shartlaridan ekanligi hamma yerda tan olindi.

Adabiy-badiiy asarlar tarjimasi uchun bu ham kamlik qiladi. Asliyat va tarjima tillarining poetik ifoda xazinalarini bilish, so'zlar va gap qurilishlarining semantik, sintaktik, stilistik olamlarida, tilshunoslik dunyosida o'z ishini aniq biluvchi va tasavvur qiluvchi ko'zi ochiq usta g'avvos kabi harakat qilish – badiiy so'z, ilmiy tafakkur sohalarida nozik hissiyotli san'atkor singari ijod qilish - tarjimonlik kasbining bosh xususiyati, uning

mas'uliyatni qanday bilishi, madaniyatining asosi, tamal toshi deb qaraladigan bo'ldi. Tarjima matnining asliyat matniga va uning janr hamda poetik xususiyatlariga mosligi, adekvatligi, barcha xususiy va umumiy universal talablarning o'zaro uyg'unligi, ekvivalentlik va interpretatsiya tamoyillari, so'zlarning bir tildan boshqa tillarga o'tganda metamorfozasi, rang-barang pragmatik kuzatishlar va xulosalarning barchasi o'z ilmiy andozalarini topdi. Tarjima ikki til yoki tillar o'rtasidagi voqelikning hosilasi. Tarjima nazariyasida lingvistikaning o'rnini beqiyos. Keyingi o'n yillarda nazariyada lingvistik muammolar ko'p va qayta-qayta ishlanmoqda. Ulardan ma'lum bo'lmoqdaki, tarjimada lingvistikasiz ishonch bilan qadam tashlash qiyin. Shu bilan birga lingvistik muammolar qatorida tarjimaning poetik, estetik, psixologik, falsafiy, ijtimoiy muammolarini chuqur va izchil o'rganish, tarjima tanqidiga hozirgiga qaraganda kuchliroq e'tibor qaratish bu jozibador sohaning muhim vazifalari sirasiga kiradi. Tarjimashunoslik o'zining mana shunday qirralari bilan hamisha jozibador va samarali bo'loladi.

Tarjimon mehnatini hech qachon ikkinchi darajali deb tushunmaslik kerak. Uning mehnati yozuvchi mehnati bilan barobar. Ulug' Gumboldtning "til – faoliyat" degan mashhur aforizmi hammadan ko'ra ko'proq tarjimonlarga tegishlidir. Tarjimon tilni harakatga keltiradi. Uning mehnati tilni faoliyat manbayiga, faoliyatni esa til manbayiga aylantiradi. Zotan tarjimon mehnati bois tillarning xazinalari yangi so'zlar, terminlar, ifodalar, gapning g'aroyib, ilgari ko'rilmagan, sinalmagan sintaktik qurilishlari bilan boyiydi. Tarjimonning ijodiy mehnati bois til yangilanadi.

Tarjimonni o'quvchi dedik, ijodkor dedik, tilchi, razvedkachi dedik, yangilik yaratuvchi dedik. Bularning bari tarjimon mehnatida o'z moddiy aksini topadi. Tarjimon mehnatining qandayligi, bu mehnatning tabiati, yo'nalishini juda oddiy bir jumla tahlili vositasida ko'rib chiqaylik.

Olaylik, "Iskandarning shoxi bor" degan jumla. Tarjimon, aytaylik, bir ertakning kontekstida inglizchaga, fransuzchaga yoki nemischaga, umuman Yevropa xalqlari tillaridan biriga o'girmoqchi.

Qaraylik, uning izlovchi fikri nimalar ustida to'xtaladi, nimalarga diqqat-e'tiborini qaratadi.

Avvalo, jumla sodda. U allaqanday afsonaviy Iskandar degan shaxsning shoxi borligidan darak beryapti. Bu juda kutilmagan favqulodda xabar. Odam bolasining ham shoxi bo'ladimi? Shox shoxdor hayvonlarda bo'ladi. Lekin uch so'zdan, ikki qo'shimchadan, o'n to'qqizta xarfdan, o'n sakkizta tovushdan tuzilgan bu ega kesimli gap yetti bo'g'inli bir misra she'rga ham o'xshaydi. 4+3 tarzida ravon turoqlarga ham bo'linadi. Tarjimon bu jumla Iskandar haqidagi tarixiy afsonaga tegishli ekanligini biladi. U Iskandar zamonasi yunon sarbozlari buqa mugizli bosh kiyim dubulg'a kiyganlaridan xabardor. Iskandar ham janglarda o'z askarlari qatori shunday mugizli shlem kiyganligi ehtimoldan uzoq emas. U Sharq kishilarining ko'ziga manglayida shoxi bor odam bo'lib ko'ringan. Ruslar Aleksandr Dvurogiy deydilar. Lekin poronocet emas aslo. Ammo Yevropa o'quvchisi "Iskandarning shoxi bor" degan jumlaning qanday qabul qilarkin? Tarjimon shox va bor so'zlarining ko'p ma'nolar tashuvchi so'zlar ekanligiga ham qaraydi. O'zbek tilida omonimiya hodisasi ancha rivojlanganligi, hatto unga asoslangan tuyuq degan sof turkiy she'riy janr ham mumtoz adabiyotda ko'p qo'llanilganligini xayolidan o'tkazadi. Shox – butoq, cho'p; shox – mugiz; shox – podshoh; shox so'zi vositasida yasalgan birikmalar: palonchining shoxi bormi? shoxi chiqibdimi? palonchining shoxini sindirmoq; palonchi shox tashlayapti; palonchining shoxiga uryapti; maqol: ho'kizning shoxiga ursang, tuyog'i sirqiraydi. Leksemalar: shox ariq, shox yo'l, shox soqqa va h.k. Afsonada "Iskandarning shoxi bor" degan so'z bu – sir. Shunday degan kishi darhol jazoga tortiladi. Bu sirdan xabardor cho'pon uni ko'tarib yurolmaydi. Uni kimgadir aytib, ichini bo'shatib, sirdan xalos bo'lishni o'ylaydi. Sirni borib quduqqa aytadi. Qutuldim deb, yengil tortadi. Quduqdan qamish o'sib chiqadi. Cho'pon qamishdan nay yasab chaladi. Naydan hadeb "Iskandarning shoxi bor", degan sado chiqadi. Afsonaning ma'nosi: inson bolasi birovning sirini ko'tarib yurolmaydi. U ochiq yashashni istaydi. Lekin har qanday sir bir kun kelib yuzaga chiqadi.

Ko‘rinishdan oddiy jumla tarjimon hayolida shuncha assotsiatsiyalar uyg‘otadi. U jumlaning yevropa tillariga tarjima qilarkan, bularning barini hisobga oladi.

Tarjima tillarni mukamal bilish, egallash bilan yuzaga chiqadi. Qadimgi adiblarimizdan biri Yusuf Xos Xojib mashhur “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida inson hayotida tilning o‘rni shunday ta’riflagandi:

Uquvga, bilimga tilmochdir bu til
Yoritguvchi erni ravon tilni bil.
Kishini til ulug‘lar, topar qut kishi
Kishini til tubanlar, yorilar boshi...

Tarjimon tilning mana shunday ulug‘lovchi, odamni baxtiyor qiluvchi imkoniyatlarini ishga solib, taraqqiyotga xizmat qiluvchi shaxsdir.

§2. Tarjima nazariyasi fanda nisbatan yangi soha

O‘zbekistonda tarjima nazariyasini yaratish yo‘lidagi urinishlar XX asrning o‘ttizinchi yillarida boshlangan edi. Bu ishga adabiyotshunos yoki tilshunos olimlar emas, bevosita tarjimachilik amaliyoti bilan faol shug‘ullangan, yangi davr tarjimachiligini oyoqqa turg‘izishga g‘ayrat bilan kirishgan Mannon Roiq, S.YE. Palastrov, Sanjar Siddiq, Sotti Husayn, M.Salye singari ijodkor, bilimdon, ma’rifatli tarjimonlar kirishgan edilar. Ular o‘ttizinchi yillarda yozgan bir qator risolalarida rus va jahon adabiyotidan qilinayotgan tarjimalarning sifatiga, adekvatligiga, tarjimachilikda savodxonlik va mas’uliyat masalalariga va bularga amalda qanday rioya qilinayotganligiga jamoatchilikning e’tiborini tortgan, tarjimachilik bilan bog‘liq ilk masalalarga juda muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan adabiy, ilmiy-ma’rifiy hodisa sifatida qaragan edilar. O‘sha paytda umidli va talantli tarjimon kabi tanilib kelayotgan Mannon Roiq va Sanjar Siddiq ilk

bora tarjima nazariyasi qo'llanmasini yaratishga uringan va bunga muvaffaq bo'lgan edilar. Mannon Roiqning "Nafis adabiyotni tarjima qilish haqida bir tajriba" (1932 y.), S.YE. Palastrovning "Badiiy asarlar tarjimasining sifati uchun" (1935 y.), Sanjar Siddiqning "Adabiy tarjima san'ati" (1936 y.) risolalari hajman katta bo'lmasada, ilk marotaba tarjima nazariyasini uning amaliyotiga bog'lab o'ta aktual tarzda qo'yganligi, tarjima prinsiplari, baholash mezonlari, ekvivalentlik darajalari va umuman tarjimachilik vazifalarini ilmiy yo'nalishda belgilashga intilganliklari juda katta qimmatga ega edi. Ushbu ilk nazariy risolalarni hozir topish amri mahol. Allaqachon nodir kitobga aylangan.

Tarjimashunos olim, filolog tadqiqotchi, g'ayratli fan tashkilotchisi G'aybullal Salomov ancha izlanishlardan so'ng Sanjar Siddiq asarining saqlanib qolgan nusxasini topishga muyassar bo'lib, uni o'zining "Til va tarjima" (1966 y.) tadqiqotida batafsil bayon qilib berdi. Uning yutuq va kamchiliklariga to'xtaldi. Asarning "Badiiy tarjima haqida", "Tarjima ijodiy ish", "Tilning sofligi va tarjimon", "Tarjima sohalari va tarjimachilik shartlari", "So'z qurilishidagi farqlar", "Uslub masalalari", "Yanglishlar", "Matbuot tili" singari boblarini G'aybullal Salomov keng sharhlab o'tdi. Sanjar Siddiq o'ttizinchi yillarda o'rta chiqargan nazariy muammolardan keyingi davrda shu G'aybullal Salomov tadqiqoti orqaligina tanishish imkoniyatiga ega bo'lindi.

XX asrning 40–90-yillarida O'zbekistonda tarjimashunoslarning ancha katta guruhi samarali ish olib bordi. Tarjimashunoslikning G'aybullal Salomov asos solgan maktabi vujudga keldi. Tadqiqotchilik ruhida ilmiy faoliyat olib borgan olimlar ichida L. Abdullayeva, E. Aznaurova, N. Vladimirova, G. G'afurova, N. Komilov, Q. Musayev, YU. Po'latov, M. Rasuliy, V. Rahmonov, S. Salomova, Z. Umarbekova, H. Homidov, A. Hojiahmedov, S. Olimov, Z. Isomiddinov ma'lum darajada Sanjar Siddiqning ishini davom ettirib, tarjimalarning sifatiga asosiy e'tiborini qaratdilar. Ular rus tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan rus tiliga, qardosh tillardan (qirg'iz, qozoq, *fatar, *firkman, *ozarboyjon, qoraqalpoq va qo'shni fors, to-

jik, arab, hind, xitoy) o'zbek tiliga bajarilgan tarjimalarni tarjimashunoslikning universal va xususiy masalalari doirasida ancha qiziqarli tahlil qildilar, xuddi Roiq va Siddiq kabi tarjimada ma'no chiqarish, uning sifatini asliyat darajasiga ko'tarish kabilarga izchil urg'u berdilar. Shu davrda yuzaga chiqqan ilmiy tadqiqotlar ichida G'aybulla Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari" (1983 y.), "Til va tarjima" (1966 y.), "Tarjima tashvishlari" (1983 y.) singari ilmiy-nazariy kitoblari, olim, shoir, nazariyotchi Jumaniyoz Sharipovning "O'zbekistonda tarjima tarixidan" (1965 y.), "Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar" (1972 y.) asarlari rang-barang boy material asosida tarjima nazariyasi va tarixining muhim muammolarini jahon tarjimashunosligidagi g'oyalar va fikrlar, qarashlarga hamohang tarzda yoritdi. Tarix qa'rlarida tarqalib yotgan juda qimmatli faktlarni aniqladi va tarjimashunoslik tafakkuri doirasiga tortdi.

Tarjima va tarjimashunoslikning, undagi qarashlarning chuqurlashu-vida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi olimlari tomonidan yaratilgan "O'zbekistonda badiiy tarjima taraqqiyoti" (1986 y.), "O'zbekistonda tarjimachilik" (1988 y.), "O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi" (1985 y.) maqolalar to'plamlari hamda 1970-1980 yillarda ketma-ket chiqib turgan "Tarjima san'ati" deb atalgan turkum kitoblar uslub, kolorit, adekvatlik, so'z tanlash, ekvivalentlik, tarjimon mahorati singari masalalar ustida ilmiy muhohasalar va muhokamalar olib bordi. Bular kabi kitoblar XX asr tarjimashunosligi tarixining noyob mulki bo'lib qoldi. Ularda O'zbekistonda ijod qilgan yirik tarjimonlar faoliyati va tajribalari ham ancha chuqur yoritildi.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqishi, xalqaro aloqalarning kengayishi, mamlakat o'quv-ta'lim jarayonlarining tubdan yangilanishi, kadrlar tayyorlashga yangi talablarning qo'yilishi, mutaxassislarga ehtiyojlarning ortishi – tarjima nazariyasi qo'llanmalarining davrga mos va monand yangi namunalarini yaratish, rang-barang va juda boy amaliy tajribalarni yangicha nuqtai nazar va ilmiy nazariy asoslarda umumlashtirish hamda yoritishni talab qiladi.

Ushbu darslik mana shu dolzarb va oliyjanob ilmiy maqsadni

amalg oshirish yoʻlidagi bir urinishdir. Unda Jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakultetining tarjimonlar tayyorlashdagi koʻp yillik tajribalari ham hisobga olindi. Tarjimonlik fakulteti dotsentlari I. Gʻafurov, O. Moʻminov, N. Qambarov tomonidan yozilgan bu ish ularning oʻquv-pedagogik faoliyati tajribalari, yangi davrdagi tarjimachilik faoliyatida bevosita ishtirok etish, jarayonlarni sinchiklab kuzatib borish, turli xalqaro tarjimonlar anjumanlarida qatnashish, yangidan-yangi ilmiy adabiyotlarni kuzatish, yoshlarning muammolarini oʻrganish jarayonlarida yuzaga kelgan hayotiy fikrlar, gʻoyalarni umumlashtirishga qaratildi.

Ushbu darslik tarjimon mutaxassisligiga kadrlar tayyorlovchi universitetlar va tarjimashunoslik muammolariga qiziquvchilar uchun moʻjallandi.

§3. Tarjima fan sifatida

Tarjima nazariyasi fani. Tarjima nazariyasi muhim fanlardan biri boʻlib, u tarjimada uchraydigan muammolarni hal qilishda yordam beradi. U oʻz obʻyektiga ega.

Tarjima nazariyasi fani qiyosiy tilshunoslikdan ajralib chiqqan. U asosan semantika aspekti boʻlib, semantikaga oid hamma savollar tarjima nazariyasiga taalluqlidir. Tilning ijtimoiylashuvini va u bilan aloqador boʻlgan tillarni oʻrganuvchi sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) ham tarjima nazariyasi bilan bevosita bogʻliqdir. Tarjima nazariyasining asosiy maqsadi bir necha turdagi matnlarni tarjima qilish usullarini aniqlashdan iboratdir. U tarjima nazariyasida koʻrsatilgan matnga mos variantlar tanlashda turli xil qoida, tamoyillar tarjima boʻyicha olimlarning turli xil fikrlari haqida maʼlumot beradi. Tarjima nazariyasi va madaniyatining umumiy, tabiiy va shaxsiy mavzulari haqida axborot berishga harakat qiladi. Tarjima nazariyasi tarjima maktablarining asosiy tamoyillari va faoliyati bilan tanishadi. Bu tarjima malakasini oshiradi. Horijiy tilni mukammal oʻrganishga va ona tilini chet tili bilan qiyoslashda ular oʻrtasidagi farq va oʻxshashliklarni aniqlashga imkon tugʻdiradi.

Biron matnni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish lingvistikaga oid jarayondir. 1980 yillardan oldin tilshunoslar til nazariyasi va tarjima orasidagi bog'liqlikka juda kam ahamiyat berishgan. Chunki bunday bog'liqlik avval o'tilmagan va tarjima nazariyasi asta-sekinlik bilan rivojlana borgan, bu jarayonning sust bo'lishiga bir sabab tilshunoslar til hodisalarini tarjimaga qo'llamaganligidir. Tarjimonlar til nazariyasida matn, semantika nazariyasini qo'llamoqdalar. Tilshunoslik nazariyasi tarjima nazariyasi bilan juda muhim aloqadorlikda bo'lib, uni tarjima jarayonida amalda tadbqiqilinadi.

Tipologiya tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlanishlarga e'tibor qaratadi. Uni tarjima nazariyasiga tadbqiq etishni tavsiya etadi. Tarjima nazariyasi lingvistlar e'tiborini muloqotga qaratishga undaydi. U faqat so'zlar yig'indisidan iborat bo'lgan matn tarjimasiga emas, tinglovchilar bilan aloqa, mualliflikning va tinglovchilarning madaniyati va dunyoqarashi, tinglovchilarning qanday qabul qilishiga ham ahamiyat beradi. Tarjimon asliyat matnini to'g'ri tarjima qilishi uchun o'sha jarayon haqida muayyan asosli bilim hamda ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. Tarjima nazariyasi kontrastiv lingvistikadan farq qiladi. Kontrastiv lingvistika turli hil tizimlarning o'xshash xususiyatlarini taqqoslashni o'rganadi. Tarjima nazariyasi o'z o'rganish ob'yektiga ega, u kontrastiv lingvistikaning qoidalariga suyanadi.

"Muallif va tinglovchilar aloqasida suhbat qayerda va qachon bo'lib o'tganligi, so'zlovchi va tinglovchining yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, ular o'rtasidagi munosabat, ularning bir-biri bilan aloqasining sabablari haqida so'zlanadi yoki bayon etiladi."¹

Tarjimonlarga sotsiolingvistika, etnografiya va psixolingvistikani o'rganish ham zarurdir.

"Konsentualizatsiya tilshunoslar qo'llaydigan nazariya bo'lib, agar tarjimon matn jarayoni haqida ma'lumotga ega bo'lmasa, uning talqini noto'g'ri bo'lishi mumkin. Tarjimonning maqsadi muloqotda va to'g'ri muloqotni tashkil etishdir."²

¹ Mildred L. Larson Meaning based translation a Guide to cross-language Equivalence. University of America.

²Engene Toword. A science of translating. Zeiden 1964. p 120.

Tilshunoslik fanining tarjima nazariyasi va amaliyotiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Boshqa tomondan tarjima tilshunoslik nazariyasidan ko'ra ancha ko'proq bilimlarni o'z ichiga oladi. Semantikaga qiziqish uyg'otishdan oldin tarjimonlar atamashunoslik bilan yaqindan shug'ullanganlar.

Tarjimonlar uchun tarjima jarayoni asosiy matndan to'g'ri termini tanlay bilish hisoblangan. Terminologiya (atamashunoslik) bo'yicha maxsus lug'atlar yaratilgan. Ko'pchilik tarjimonlarning ilmiy ishlari terminologiyaga bag'ishlangan.

Eng mos muqobilni topish tarjimada juda muhim sanaladi, bu sohada tilshunoslik nazariyasining hissasi beqiyosdir. Tarjimon odatda asliyat tilidagi eng yaqin muqobilni tarjima qilinayotgan tilga moslashga harakat qiladi.

Tarjima ilmiy-nazariy o'rganish ob'yekti bo'lishi zarur. Unda tahlil va uyg'unlashtirish jarayoniga, matnda nimaga ahamiyat berish lozimligiga, qanday axborot zarurligi va maqsadga erishish uchun nimalarga e'tibor qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tarjima murakkab jarayon bo'lib, tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillarni o'z ichiga oladi. Tarjimaning har xil aspektlari yuqoridagi fanlar metodlari bilan o'rganilishi mumkin.

Shu kungacha tarjima ustida olib borgan ko'pchilik nazariy-ilmiy tadqiqotlar tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan.

Tarjimaning lingvistik nazariyasi turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasidagi nutq muloqot formalarini o'rganadi. Bu nazariyaning asosi keng ma'noda aytganda tilshunoslikdir. Makrolingvistikada o'zining yangi tarmoqlari bo'lsa, psixolingvistika, sotsiolingvistika, matn lingvistikasi, kommunikativ lingvistika va boshqalar ham ilmiy shakllangan bo'lib, madaniyat, jamiyat, til strukturasi va uning funksiyasini o'rganadi. Insonlar o'rtasida muloqotni yaratuvchi til ularning hamma faoliyatlari, hayotining asosini qamrab oladi.

Tarjimaning umumiy nazariyasi tarjima universallari bilan ish ko'radi, bu sohada hamma boshqa nazariyalarni o'rganish uchun asos bo'ladi. U tarjima nima va u qanday bo'lishi haqida ma'lumot beradi.

§4. Tarjimada soʻzlarning qiyosiy oʻrganilishi (Tipologiya)

Tarjimada qiyosiy tilshunoslik yutuqlaridan unumli foydalaniladi. Tarjimada qiyosiy tahlildan maqsad, tarjima jarayonidagi umumiy qoidalarni oʻrganishdir.

Tarjima nazariyasida qiyosiy tahlil soʻz va gaplarning qiyosiy tahlil natijasi sifatida qabulqilingan fakt (dalil)larga asoslangan. Ingliz tilidagi soʻzlar bilan boshqa tildagi soʻzlarning turli xil xususiyatlarini qiyosiy oʻrganish ingliz va boshqa tillardagi soʻzlarning turli xil xususiyatlari mavjud ekanligini koʻrsatadi.

Soʻz shakli, oʻzaro bogʻlangan soʻzlarning semantik tuzilishi va ularning nutqda ishlatilishi turli xil tillarda turlichadir. Har bir tilning oʻzining leksik tuzilishi mavjuddir. Lekin hamma maʼnolarida emas, yaʼni ingliz tilidagi soʻzning maʼnosini ifodalovchi oʻzbek tilidagi soʻzni topish mumkin. Misol uchun, “hand” soʻzining maʼnolarini uning maʼnosini ifodalovchi “qoʻl” soʻzi bilan taqqoslang.

Bundan tashqari, ingliz va oʻzbek tillarida oʻzaro bogʻlangan soʻzlar turli xil yasama soʻzlarni hosil qiladi. Misol uchun: “hand” (handful, handiness), “qoʻl” (qoʻlla, qoʻlsiz, qoʻlli).

“To take” feʼli uning maʼnosini ifodalovchi “olmoq” soʻzlari bir qancha maʼnolarda bir-biriga mos kelmaydi. Misol uchun: To take an exam – imtihon topshirmoq; To take tea – choy ichmoq; To take off – yechinmoq; imtihon olmoq –to give an examination; dam olmoq-to have a rest; rasm olmoq – to photograph.

Oʻzbek tilidagi soʻzning semantik tuzilishida shu soʻzning maʼnosini ifodalovchi ingliz tilidagi soʻzda mavjud boʻlmagan aniq shakliy maʼno mavjud boʻlishi mumkin. Misol uchun: Bu voqea menga katta maktab boʻldi – This event was a good lesson to me.

Ingliz tilidagi soʻzning leksik valentlik darajasi oʻzbek tilidagi soʻz bilan bir xil emas. Misol uchun: Oʻzbek tilidagi “koʻtarma” soʻzi “qoʻl” va “stul” kabi otlar bilan birikishi mumkin. Lekin uning maʼnosini ifodalovchi ingliz tilidagi “to raise” feʼli “hand” oti bilangina birika oladi (“to raise hands”, lekin “to raise chair” emas, balki “to lift chair” boʻladi).

Ingliz tilidagi bir qancha bir turdagi sinonim soʻzlarni oʻzbek tilidagi bitta soʻz bilan tarjima qilish mumkin. Misol uchun: “accept, admit, adopt, take, receive” feʼllari “qabul qilmoq” soʻzini ifodalaydi. Oʻzbek tilidagi “rassom” soʻzi ingliz tilida uch turli soʻz bilan ifodalanadi. Ular “painter, artist, drawer”. “Blow” soʻzi oʻzbek tilida oltita soʻz bilan tarjima qilinadi (urish, zarba, zarb, urilish, taqillatish, tepish). Ingliz tilidagi 20 dan ortiq soʻz “urmoq” tushunchasini ifodalaydi. Ular “blow; smack; slap; whack; poke; dig; rap; knock; stroke” va h.z.

Baʼzi tillar sezilarli darajada maxsus maʼnolarga ega boʻlgan soʻzlarga boy boʻlib, boshqalari esa umumiy tushunchalarni ifodalaydi va ikkilamchi maʼnolarni rad etadi. Fransuz tili odatda juda ham mavhum til hisoblansa, nemis tili esa aniq, oʻziga xos tushunchalarga boy til hisoblanadi.

Nemis tilida fransuz tilidagi bir umumiy tushunchani ifodalovchi uch – ta maxsus feʼl mavjud boʻlib fransuz tilida koʻp holatlarda yasama soʻzlardan, nemis va ingliz tillarida esa koʻproq qoʻshma soʻzlardan foydalaniladi: cendrier-ashtay, aschenbecher; theriere-tea pot...

Ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻzlarning tuzilishini qiyosiy oʻrganish bir qancha sodda, yasama va qoʻshma soʻzlar bir-biriga deyarli toʻgʻri kelishi mumkinligini koʻrsatadi. Ammo biz ingliz tilidagi soʻzlarni oʻzbek tiliga tarjima qilayotganimizda baʼzi tafovutlarni koʻramiz. ingliz tilida yasama yoki qoʻshma soʻzlarga qaraganda sodda soʻzlar koʻproq qoʻllaniladi. Oʻzbek tili yasama va qoʻshma soʻzlarga boy boʻlib, ular ingliz tilidan farqli oʻlaroq nutqda koʻp qoʻllaniladi. Biz ingliz va oʻzbek tillaridagi baʼzi jumalarni misol tariqasida keltiramiz. Misol uchun: pocket (pock), hamlet (ham), “Pock”, “ham” morfemalari yagona (boʻlinmas) morfemalardir, chunki ular maʼno anglatmaydi.

§5. Tarjimada ekvivalentlik

“ST” (“Source translation – Asl nusxa matni”) va “TT” (“Target translation – Tarjima matni”) oʻrtasidagi oʻxshashlik darajasini

aniqllovchi tarjima­dagi semantik ekvivalentlikning muammolari haqida ma'lumotga ega bo'lish muhimdir.

Agar biz "TTs" ni "STs" bilan qiyoslaganimizda ikki matn o'rtasidagi semantik o'xshashlik darajasini tarjima jarayonida farq qilishni bilib olishimiz mumkin. Shunga ko'ra, tarjima ekvivalentining bir qancha turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan,

1) maybe there is some chemistry between us that doesn't mix – xarakteri bir-biriga to'g'ri kelmaydigan odamlar ham bo'ladi.

2) A rolling stone gathers no mass- kim uyida o'tiraolmasa uni mehribonlik kutmaydi.

3) That's a pretty thing to say – Uyalsang bo'lardi!

Bunda biz original va uning tarjimasida umumiy ma'no yoki tuzilishidagi noo'xshashlikni topa olmaymiz. Til birliklarining mutlaq noo'xshashligi ikki matn o'rtasidagi aniq mantiqiy o'xshashlikning yo'qligi bilan izohlanadi, aslida esa ular "bir xil narsa haqida" degan xulosaga olib keladi, chunki ular ayni yoki o'xshash vaziyatni tasvirlaydi.

Shu narsa aniqki, ikki gap ham umumiy ma'noga ega. Ularning tarkibidagi bu umumiy jihat mos keluvchi mazmunni yetarli darajada ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, u tarjimada original (tarjima qilinayotgan matn)ning tarkibiy qismidagi barcha ma'nolarni saqlab qolgan axborotni o'z ichiga oladi.

Misollardan biz shuni ko'rishimiz mumkinki, original va uning tarjimasidagi umumiylik matnning umumiy mazmuni va majoziy ma'nosidir, ya'ni bir so'z bilan aytganda, umumiy xulosani yoki matn aspektidagi ma'nodorlikni tarjimon asosiy tarkibdan yoki birikuvdan shaxsda gavdalan­tira olishi lozim. Ingliz tilida "original (asl) matn nima xaqida ekanligi", "unda nima deyilganligi; yoki qanday bayon etilganligi"- tasvirlanmaydi, balki faqatgina "unda nima deyilmoqda", ya'ni asosiy ma'no va matnning asosiy mazmuni tasvirlanadi.

Bu turdagi misollar leksik yoki strukturaviy birliklarning paralelligi yo'qligi bilan tasvirlanadi.

II. TARJIMA VA MADANIYAT

§1. Aloqa vaziyat, belgili harakat va tarjima

Shuni aytish kerakki, tarjimada soʻz tanlashga taʼsir qiladigan yosh, jins va bilim faktorining mavjudligi sababli muloqot vaqtida ham koʻp faktorlar mavjud. Turli xil lugʻat turli joyda qoʻllaniladi, kimningdir uyida, doʻstlari bilan odatiy suhbatida.

Misol uchun, “mastlik” soʻzi badiiy nutqda qoʻllansa, “kayf” – ogʻzakida, “qotib qolgan” – oddiy nutqda ishlatiladi. Rasmiy nutqda – Dr Jones, norasmiyda – John va Buddy – oddiyda. Rasmiy muomalalarda, radio, TV xabarlarida rasmiy nutq qoʻllaniladi. Norasmiy nutq jonli til jarayonlarida qoʻllaniladi.

Rasmiy nutqning doirasi chegaralangan, norasmiy nutq esa odatda vaziyatga bogʻliq boʻladi. Yozishmalarda ham odatda rasmiylikka rioya etiladi va davlat idoralariga yozilgan xat bilan shaxsiy xatlar tili orasida ancha farqlar boʻladi.

Texnik terminologiya ham maxsus konnotativ xususiyatga ega. Baʼzida insonlar jamiyatda bilish darajalarini yoki professional fikrlashni koʻrsatish maqsadida texnik, kasb-hunarga doir lugʻatlardan foydalanadilar. Texnik soʻzlarning qoʻllanilishi bundan xabardor boʻlmaganlarga tushunarsiz boʻlishi mumkin. Tarjimon kim bilan gaplashayotganligiga qarab texnik soʻzlarni qoʻllashi kerak. Tibbiy shifokorlar uchun tarjima qilingan byulleten “incision”, “lesion”, “tonsillectomy” kabi soʻzlarni oʻz ichiga olishi mumkin. Hattoki bir tildagi lugʻat birliklar bir viloyat yoki mamlakatda bir xil qoʻllanilishi va bir maʼnoni anglatishi boshqa viloyat yoki mamlakatda esa ikkinchi boshqa maʼnolarni ifodalashi mumkin. Misol uchun Qoʻshma Shtatlarda “cookie” – pechenye, Avstraliyada esa pechenye “biscuit” deb aytiladi. Tarjimon viloyatlar orasidagi tilga doir farqlarni bilishi muhimdir va koʻpchilikka tushunarli boʻladigan soʻzni qoʻllashi kerak. Agar kimdir mahalliy hududdagi soʻzlovchiga tarjima qilayotgan boʻlsa, albatta, u oʻsha hududda ishlatiladigan shaklni tanlashi shart.

Har bir madaniyatda belgili (symbolic) hisoblanadigan aniq harakat mavjud bo'ladi. Agar harakat shunchaki so'zma-so'z tarjima qilinsa, uning ma'nosi yo'qqa chiqadi. Bu asosiy tilda muhim ma'noga qaratilmagan hech qanday harakat bo'lmasa paydo bo'ladi. Masalan: He nodded his head.

Agar asliyat tilida bosh qimirlatish "ha" ni bildirsa va tarjima tili madaniyatida bunday belgi ma'noga ega bo'lmasligi mumkin. Ba'zi madaniyatlarda bosh qimirlatish ijobiy emas salbiy ma'noga ega bo'lishi ham mumkin.

Agar harakat shakli qabul qiluvchi tilidagi boshqa shakl bilan bog'langan bo'lsa, ba'zida belgili harakatni tarjima qilish qiyin bo'ladi. Misol uchun, agar asliyat tilida "musht ko'rsatish" berilgan bo'lsa, tarjimon imo-ishora ma'nosini aniqlashtirish uchun "g'azab" ni ko'rsatishi mumkin. Biroq, agar, "Musht ko'rsatish" tarjima tilida boshqa ma'noni bildirsa, bu tarjima o'quvchilarni matnni tushunishiga halal beradi.

Muhimi shuki, tarjimon asliyat tilida ham, tarjima tilida ham, belgili harakat har xil ma'noga egaligidan xabardor bo'lishi kerak.

Quyida ingliz tilida belgili harakatni ifodalovchi ba'zi harakatlar berilgan. Siz harakatning zamonini, tabiiy ingliz tilini qo'llang.

1. Burnini qimirlatish. – Wrinkling up nose
2. Qoshini ko'tarish (chimirish) – Raise eyebrow
3. Yelkasini qisish (uchirish) – Shrug of shoulders
4. Boshini qimirlatish (likirlatish) – Nod of head
5. Tishini g'ijirlatish – Clench teeth
6. Yelkasini orqaga qisish – Hands on hips, feet apart

§2. Madaniyat va tarjima aro aloqalarga turli yondashuvlar

Aynan bir ijtimoiy haqiqatni yoritayotgan ikki til bir-biridan farqlanadi. Turli jamiyatlarda yashovchi kishilar dunyoni – o'zlariga xos ravishda ko'radilar,- degan edi Edvard Sepir.

Sepirning bu g'oyasi keyinchalik Benjamin Li Uorf tomonidan

tasdiqlangandi. Ular adabiyot va san'atni umumiylikda xuddi 2 tizimi, ya'ni ular tilning 1 yasovchi tizimidan vujudga kelgan va xuddi Sepir yoki Uorf aytganidek, til madaniyatsiz bo'lishi mumkin emas. Til yurak bo'lsa, madaniyat tana va ularning o'zaro faoliyati hayot energiyasining davomiyligini vujudga keltiradi. Ya'ni yurakni operatsiya qilayotgan jarroh, uni o'rab turgan tanani nazarga olmay iloji yo'q.

Tilshunos Roman Yakobson o'zining maqolasida tarjimaning uch turini ko'rsatadi:

1. Til ichida tarjima yoki qayta nomlash (bir tilda og'zaki belgilarni boshqa belgilar orqali izohlash);

2. Tillararo tarjima yoki tarjima (og'zaki belgilarni boshqa tilda ifodalash);

3. Ma'nolararo tarjima.

Sinonimlar lug'ati so'zga to'liq sinonim yoki vaziyatga qarab qo'llanuvchi sinonimlarni beradi, ammo har ikki holatda ham absolyut sinonim bo'lishi mumkin emas. Chunki to'liq ekvivalent hech qaysi kategoriyada ishtirok etolmaydi. Yakobson fikricha, barcha she'riy tarjimalar to'liq tarjima emas.

§3. Tarjima va madaniyat

“Madaniyat” so'zi birinchi marta ingliz olimi Edvard B.Taylorning 1871 yilda nashr etilgan “Primitive Culture” kitobida foydalanilgan. Taylorning fikriga ko'ra, madaniyat bilim, ishonch, qonun, an'analar va jamiyatning turli a'zolari tomonidan qabul qilingan turli odatlarni o'z ichiga oladi. Tarjima biror matnning shunchaki ekvivalenti emas, bu asl nusxani qayta yozishdek qiyin va murakkab jarayon. Bu bir madaniyatning boshqasiga ta'siri. Tarjima faoliyatini tushunish uchun, biz madaniyat va til tushunchalarini aniqlashtirib olishimiz, til va madaniyat o'rtasida aloqalariga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Lingvist Gari Vizerspun bu aloqalarga o'z fikrini bildirib yozadi: “Agar biz madaniyatga lingvistika nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, madaniyatning bir

tomonlarga tushunchasiga ega bo'lamiz. Agar tilga madaniyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, tilning bir tomonlarga tushunchasiga ega bo'lamiz".

Madaniyat elementlarini tarjima orqali boshqa til muhitiga uzatish jarayoni murakkab masala. Madaniyat kundalik turmush tajribalarining murakkab to'plami, u tarix, ijtimoiy tizim, din, kundalik urf-odatlar va an'analarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy aloqalar ham madaniyat elementidir. Ba'zi madaniyatlarda, odamlar katta oila sharoitida yashashga o'rganishgan va bu har bir oila a'zosiga kundalik muomalada murojaat qilish ehtiyojini tug'diradi. Har bir insonga uning nomini atab chaqiriladi. Katta oilalarda yashash G'arb xalqlariga u qadar xos bo'lmagani bois, murojaatni ifodalovchi so'zlarni tasvirlashga ingliz tili birmuncha oqizlik qiladi. Ba'zi madaniyat egalarida kishilar o'zlaridan kattalarga muayyan tarzda hurmat bilan tog'a, amma deb murojaat qilishadi. Ingliz tilida bu holda ma'lum qiyinchiliklar yo'q emas.

Ba'zi rasmiyatchiliklarni ifodalash ham o'ta chigal, masalan, "rahmat" so'zi holatdan kelib chiqib turlicha tarjima qilinadi (sovg'a uchun, xizmat uchun, biror sabab bilan rahmat aytib minnatdorchilik bildirish).

Kiyim, zeb-ziynat, oziq-ovqat buyumlari ham tarjimada muammo tug'diradi. Masalan, ovqat ta'mi yoki uning xususiyatlarini hech qachon eshitmagan odamga tarjima qilish befoyda.

An'analarga va urf-odatlar ham madaniyatning bir bo'lagidir. Xoh to'y, xoh motam, xoh festival bo'lsin, uning ortidagi tarixi, ahamiyati, zamiriga yashiringan simvolizm tarjimon uchun qiyinchilik tug'diradi.

Madaniyatdan madaniyatga o'tgan sari e'tiqod, hissiyot ham o'zgaradi. Oq rangi ba'zi madaniyatlarda soflikni, qora esa yovuzlikni bildirishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, madaniyat shaharlar, tashkilotlar, maktablar kabi aniq narsalarni o'z ichiga olib qolmay, g'oyalar, urf-odatlar, oila namunalari va tillar kabi mavhum narsalardan ham tashkil topadi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, madaniyat jamiyatning yashash tarzi, hayot tarzini bildiradi. U

osongina o'zgaradi va yo'q bo'lib ketishi mumkin. Chunki u faqat bizning ongimizdadir. Bizning yozma tilimiz, davlat, binolar va boshqa inson qo'li bilan yaratiladigan narsalar-madaniyat mahsulidir. Tarjima esa albatta asl matnni qayta yozishdir. Qayta yozish esa yangi fikr, yangi ixtirolarni, yangi janrlarni aks ettirishi mumkin va tarjima tarixi adabiy yangilik tarixi yoki bir madaniyat layoqatlarini boshqa madaniyat qoshiga solishdir. Tarjima faoliyat sifatida yoki faoliyat natijasi sifatida madaniyat tushunchasidan ajralmas tushunchadir. Bunga tarixda bir madaniyatni ikkinchisiga tanishtiruvchi ikkita misol mavjud. Biri turli hind tillarida yozilgan Budda muqaddas kitobini xitoy tiliga, ikkinchisi grek (yunon) olimlari va faylasuflari kitoblarini grek va suriya tilidan, ularni islom dunyosiga tanitish maqsadida arab tiliga tarjima qilinishidir.

Tarjima san'ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan va o'ynab kelmoqda. Tarjima tobora o'sib borayotgan, bir tilning jozibasini boshqa tilga ko'chiruvchi va o'quvchilarning hurmatini qozonishni maqsad qilib qo'ygan aqliy ijodiy faoliyatdir. Madaniyat tushunchasi inson faoliyatining uch turiga qaratilgan: biz individual tarzda fikrlaganimiz va harakat qilganimiz uchun shaxsiy; biz guruh bo'lib faoliyat yuritganimiz uchun – kollektiv; jamiyat o'zini aks ettirgani uchun – ifodaviy.

Til – ijtimoiy bo'lib, usiz ijtimoiy faoliyat yo'q. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, tarjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog'liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisadir.

§4. Tarjimada madaniyatga oid muammolar

Har bir aloqa yoki asl xabarning amaliy qimmatini mavjud. Tarjimon xabarning dalillar bayonoti, taklif, buyruq yoki hazil ekanini bilishi lozim. Misol uchun "Men bilmayman" ("I don't know") (hold) faqatgina bayonot kabi tarjima qilinmaydi, balki ikkilanish ("Ko'ramiz") degan ma'nosini ham berishi mumkin. "What gives" – Amerika shevasida "Ishlar qalay" degan savol mazmunini beradi. Bu tarjima xabarni lingvistik va madaniy to'siqlar orqali o'tkazish

jarayonidir. Madaniyat – turmush tarzi va uning ko‘rinishi o‘zini ifodalash uchun o‘ziga xos tildan foydalanuvchi omma uchun g‘ayrioddiydir. Biz “madaniy” terminini umumiy va shaxsiy tildan ajratishimiz kerak. “O‘lmoq”, “yashamoq”, “yulduz”, “stol”, “oyna” kabi tushunchalar umumiy bo‘lib, ularni tarjima qilishda muammo yo‘q. Ammo “steppe”, “dacha”, “challar” kabi tushunchalar ma’lum madaniyatga oid va tarjimada muammolarni vujudga keltiradi. Biz tilning maqsadi va manbai o‘rtasidagi o‘xshashlikka e’tibor berishimiz lozim. Til grammatikada turli madaniy natijalardan (jonsiz narsalarning rodlari), murojaat shakllari (sir, janob, xonim) dan iborat. Til qanchalik maxsus fenomenga aylanib borsa (flora va fauna), madaniy xususiyatlarga ega bo‘lib borsa, tarjima uchun muammolar keltirib chiqaraveradi.

Ko‘pgina madaniy odatlar oddiy tilda tasvirlanadi. Edvard Sepir tilni ijtimoiy haqiqatga yo‘lboshlovchi deb ataydi. Insonlarning tajribasi jamiyatning til odimlari bilan keng miqyosda belgilangan va har bir tizim alohida haqiqatni tasvirlaydi. Aynan bir jamiyat haqiqatlarini aks ettiruvchi ikki til bir-biriga o‘xshamaydi. Turli jamiyatlardagi foydalaniladigan so‘zlar ham turlichadir. Shu sababdan, til madaniyat yuragidir.

Madaniyat tilda o‘z aksini topadi. Masalan, yaponlar odatda “yo‘q” so‘zini ishlatishmaydi. Ular “yo‘q” deyishdan qochish uchun boshqa so‘zlar yoki gaplar ishlatishadi. Agar yaponlar sizning taklifingizga: “Men bu masalani xotinim bilan maslahatlashib ko‘rishim kerak” deb javob qaytarsa, bu uning rad javobi bo‘ladi. Agar yaponga qo‘ng‘iroq qilib soat 6 da ko‘rishishni aytsangiz va u: “Ha, soat oltida deng?” deb javob qaytarsa, tushuningki, sizning taklifingizga rozi emas.

Milliy odatlar narsa – hodisalar faqat o‘ziga xos bo‘lsa, ular tarjima qilinmaydi, masalan, sari, kimono, mahsi, kavish kabilar. Bular xuddi madaniy terminlardek o‘quvchilar uchun tushuntirib beriladi. Agar maxsus so‘z ahamiyatga arzimaydigan bo‘lsa, u oddiygina boshqa so‘z bilan almashtiriladi.

Ijtimoiy madaniyat haqida so‘z borganda, tarjimaning ma’no

bildiruvchi va ajralmas ma'no muammolarini hisobga olish lozim. Mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayoti unda aks etadi. Masalan, davlat boshlig'i (president, prime minister) yoki parlament nomlari (milliy assambleya, senat) juda oson, ya'ni ular xalqaro yoki oson tarjima qilinadigan so'zlardan tashkil topgan. Milliy parlamentlar nomlari tarjima qilinmaydi: Masalan, Bundestag (Germaniya), Storting (Norvegiya), Riksdag (Shvetsiya), Eduskunta (Finlandiya), Knesset (Isroil), Duma (Rossiya), Oliy Majlis (O'zbekiston). Bu nomlar administrativ hujjatlar uchun asl holicha yoziladi. Vazirliklar nomlari to'g'ri tavsiflanishiga ko'ra adabiy tarjima qilinadi. Shu sababdan "Treasury" – moliya vazirligi; "Home office" – ichki ishlar vazirligi; Adolat qo'riqchisi yoki Himoya vazirligi, Milliy havfsizlik vazirligi, va h.o.

Shunday qilib, tarjima yuzlashadigan eng qiyin muammolardan biri buyumlar yoki voqea – hodisalarning leksik ekvivalentini topishdir. Tarjimon faqatgina ikki tilni emas, balki ikki madaniyatni taqqoslaydi. Madaniyatlarning farqi tufayli tarjima qilinadigan tildagi tushunchalarda tarjima qilinayotgan tilda leksik ekvivalent bo'lmashligi mumkin. Bu geografiya, urf-odatlar, e'tiqodlar, dunyoqarashlar va boshqalarning turlichaligi tufayli bo'lishi mumkin. Tarjimon tushunchalarni ifodalash uchun tarjima tilida yangi yo'l va usullarni topishi zarur.

§5. Tarjimada so'zlarning madaniy ma'nosi

Bir tilda iqtisod, ekologiya, hayvonlar, suv, tog'lar, shahar odamlar boshqalarga qaraganda ko'proq mashg'ul bo'ladigan narsalarni ifodalovchi so'zlar va frazalar juda ko'p. Buyuk Britaniyada suv iqtisodi, baliqchilikka doir so'zlarning ko'pligi oddiy hol, chunki bu orol mamlakat, u suv bilan o'ralgan.

Tarjima qilishda eng katta muammo madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub aholi biror narsaga o'z dunyoqarashidan kelib chiqib qaraydi. Bir-biriga ekvivalentdek ko'rinadigan so'zlar aslida ekvivalent bo'lmashliklari

mumkin. Masalan, “cho‘chqa” so‘zi o‘zbek tilida ma’lum darajada salbiy bo‘yoqqa ega. Ammo “pig” Amerikada bu so‘z neytral ma’noda qo‘llanadi.

Turli madaniyatlar turli yo‘nalishga ega. Masalan, o‘zbek madaniyatida ko‘proq bog‘dorchilik, dehqonchilik, chorva, maishiy hayot manzaralari katta o‘rin tutadi, Amerikada esa ish, pul topish, sport, foyda olishga diqqat-e’tibor kuchli. Ba’zi jamiyatlar texnikaga ko‘proq, ba’zilari kamroq yo‘naltirilgan. Bu farq muayyan mavzu borasida gap borganda ishlatish mumkin bo‘lgan lug‘atlar sonida aks etadi. Bunda o‘z o‘rniga qarab, gap borganda texnik va notexnik lug‘atlardan foydalanish mumkin. Agarda manba tildagi matn yuqori texnik jamiyatdan olingan bo‘lsa, bunda boshqa tildagi notexnik jamiyatga tarjima qilish qiyin bo‘ladi. Agar kimdir Afrika madaniyatiga oid ijtimoiy fan haqidagi kitobni tarjima qilayotgan bo‘lsa, bunda ko‘p hollarda unga ekvivalent topish qiyin bo‘ladi. Hujjatlarni qadimgi eskimos tiliga qorni hech qachon ko‘rmagan. sahroda yashovchi arab tilidan tarjima qilish qiyin. Madaniyatlar turlicha bo‘lgani bois, ko‘pincha ekvivalent topish mushkul. Madaniyat so‘zlarning ishlatilishida aks etadi. Masalan, Amerikada “qo‘y” so‘zini – o‘ylamasdan ish qiladigan, kamgap, bosiq insonlarga nisbatan qo‘llashadi. O‘zbekistonda “paxta” so‘zi ko‘p qo‘llanadi, ammo bu so‘z Buyuk Britaniyada paxta o‘stirilmagani bois qo‘llanilmaydi.

§6. Tarjimadagi madaniy moslashish holatlari

Muayyan holatda ishlatiladigan so‘zlar, ularning ma’nosiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Muayyan so‘z aloqa o‘rnatilgan vaziyatdagi turli faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. Tarjimon vaziyatga bog‘liq bo‘lgan so‘z ma’nolaridan xabardor bo‘lishi lozim. So‘zlar munosabat va tuyg‘ularni ifodalaydi. Masalan: “ona” so‘zi ko‘pgina insonlar uchun ijobiy ma’noga ega. “Ayol” so‘zi boshqa tomondan neytral ma’noga ega, ammo “jodugar” so‘zi ko‘pchilik inglizlar uchun salbiydir. So‘zlar insonlarda hissiy javob paydo qiladi. Yuqoridagi so‘zlarning barchasi bir insonga nisbatan qo‘llanishi yoki qo‘llanmasligi

mumkin. Soʻz bir insonga qaratilgan boʻlsa ham ular orasida hissiy boʻyoqda farq boʻladi. Masalan: “father”, “daddy”, “dad”, “pop” soʻzlari leksik birliklar, ularning barchasi oldingi avloddan boʻlgan qarindosh kishini ifodalaydi. “Ota” – “father” soʻzi hurmatni “adajon” – “daddy” – yaqinlikni ifodalaydi. Insonlar koʻpincha soʻzlarni denotativ maʼnosiga eʼtibor berib qolmay, ularni hissiy boʻyoqdorligiga ham qarashadi.

Soʻzning konnotativ maʼnosi madaniy tarzda boʻladi. Bir madaniyatda ijobiy maʼnoga ega boʻlgan soʻz boshqa madaniyatda salbiy maʼnoda kelishi mumkin. Masalan: “tribe”-“qabila” soʻzi. Dunyoning baʼzi qismlarida insonlar “tribe”-“qabila” deb atashlariga toʻgʻri munosabatda boʻlishadi. Baʼzi joylarda insonlar bunday atalishni yoqtirishmaydi.

Toʻgʻri maʼnoda, qabila-etnik guruhdir. Agar soʻz tarjima uchun tanlangan boʻlsa, soʻzning ijobiy va salbiy tomonlari ham hisobga olinishi kerak. “Tulki” soʻzi ingliz tilida yolgʻonchi, ayyor maʼnosini beradi. Baʼzi tillarda bu soʻz hech qanday his chaqirmaydi, hatto ijobiy maʼnoda boʻlishi mumkin. Asliyat tilidagi toʻliq neytrallikka ega boʻlgan soʻzlar adabiy tarjima natijasida tarjima qilinayotgan tilda kuchli his-tuygʻuni ifodalashi mumkin. Soʻzlar oʻzlarining ajralmas maʼnosida ham oʻzgarishi mumkin. Yuqoridagi “qabila” soʻzi neytral maʼnoda boʻlsa ham, keyinchalik salbiy yoki ijobiy maʼno kasb etishi mumkin. Soʻzlar koʻpincha salbiydan ijobiy tomonga yoʻnalib boradi. Masalan: “skinny”-“qotma”, “thin”-“ozgʻin”, “slender” – “nozik” koʻpchilik insonlar uchun quyidagi maʼnolarga ega: “skinny” – “qotma” – salbiy, “thin” – “ozgʻin” – neytral, “slender” – “nozik” – ijobiy. Maʼnosiga koʻra ular sinonimlar. Lekin ular turlicha qoʻllanadi. “Fat” – “semiz” – salbiy, “overweight” – “ortiqcha vaznli” (semiz) – neytral, “plump” – “toʻlaroq” – ijobiy. Tarjimon asliyat tilidagi soʻzlarning turli maʼnolaridan va tarjima qilinayotgan tildagi muqobillaridan xabardor boʻlishi lozim.

Sinonimdek koʻringan sifatlarni aslida oʻzaro almashtirib boʻlmasligi mumkin. Masalan: “beautiful” – goʻzal, “handsome” – kelishgan, “lovely” – koʻrkam, “pretty” – suluv soʻzlari bir

ma'noda kelsa ham, turlicha qo'llanadi. Ular kelishgan – erkaklarga, otlarga, mebel qismlariga nisbatan, ko'rkam – ayol kishiga, gullarga nisbatan, go'zal – neytral so'z bo'lib, ko'plab kontekstda qo'llanishi mumkin. So'zlar o'zining yangi va eskirganligiga ko'ra ham farq qiladi. Umuman aytadigan bo'lsak, so'zlar – arxaik, eskirgan, neytral va zamonaviy bo'ladi. Har bir tilda o'ziga xos arxaik va eskirgan so'zlar mavjud bo'ladi. Ba'zi hollarda tarjimada zamonaviy so'zlarni qo'llash to'g'ri kelmasligi mumkin. Chunki bu kabi so'zlar qabul qilinmagan. Boshqa tomondan, arxaik so'zlar jamiyatning ba'zi a'zolari tomonidan rad etilishi mumkin. Masalan: “thee” – “sen” va “thou” so'zlarini qo'llovchilar diniy yoki shu kabi so'zlarni ishlatuvchi ma'lum guruhga oid insonlar bo'lishi mumkin. Shu sababdan bu kabi so'zlar hozirgi kunda tarjimada ishlatilmaydi.

Tilning lug'atini o'rganayotib, so'zlarning ma'nolari nimalarni anglatishi, ularning eski yoki yangi, hozirgi lug'atda neytral o'rinda turishiga e'tibor qaratish lozim. Tarjimada ba'zan eski va yangi so'zlar almashtirib qo'lanishi mumkin va tarjimon bu kabi holatlarni nazarda tutadi. Tarjima uchun tanlangan eng yaxshi so'zlar – barcha uchun tushunarli so'zlardir. So'zlar turli madaniyatlar rivojida ijobiy va salbiy ma'nolar tashiydi. Aytib o'tganimizdek, o'ta salbiy ma'noli so'zlar, evfemizmni hosil qiladi. Evfemizmning mavjudligi o'sha so'zning o'ta salbiy ma'noli ekanidan dalolat beradi. Ba'zi madaniyatlarda o'lgan inson nomini aytish taqiqlanadi. Boshqalarida esa, bolalarni o'tgan ajdodlari nomi bilan atash ijobiy munosabat belgisidir. Bundan tashqari, ijobiy tabular ham bo'lishi mumkin. Masalan: yahudiy aholisi hurmat bilan Xudo nomini evfemistik yo'l bilan ifodalaydilar. Bu ism oddiy suhbatlarda qo'llanilmay, osonroq bo'lgan, “hammadan ulug'” kabi so'zlar ishlatiladi. Bu kabi so'zlar adabiy tarjimada hisobga olinishi zarur.

Leksik birikmalarning tanlanishi suhbat kim bilan bo'layotganiga ham bog'liq. Shu sabab so'zlovchiga qarata murojat qilishda lug'at boyligidan foydalanish taqozo etiladi. Inson ilmiy universitetning auditoriyasida, kichkina bola bilan gaplashganda esa yana boshqacha so'z yuritadi.

Ko'pgina tillarda "baby talk" – "bola tili" deb atalgan nutq turi mavjud. Ingliz tilida, biz agar "Baby wants milk" – "Bola sut ichishni xohlayapti" yoki "Daddy loves you" – "Adang seni sevadi" kabi gaplarni eshitsak, darhol kichik bolaga qaratilganini anglaymiz. Kichik bolalar bilan og'zaki aloqa maxsus grammatik tuzilishlarni o'z ichiga olishi yoki tovush o'zgarishlarini qo'llanilishi yoki "bolabop" gaplar aytilishi mumkin.

Kichik bola bilan gaplashilganda, "old man" – "qariya" kabi so'zlar o'rniga "dad" – "dada" qo'llaniladi, "mother" – "ona", so'zi o'rniga "mammy" – "oyi" deyishadi. Bundan tashqari lug'at bolaning tushunishini ta'minlaydigan so'zlarni o'z ichiga oladi va chegaralangan bo'ladi. O'smirlar ham bir-birlari bilan gaplashganda o'ziga xos so'zlarni qo'llashadi. Kattalar bu so'zlarni qo'llashmaydi. Har qanday guruhda hamma xalq tushunadigan lug'at mavjud bo'ladi, lekin ular faqat yoshi katta insonlar tomonidan qo'llaniladi. Albatta tarjimon maxsus yoshga tegishli lug'atlardan qochishi aniq va hech qanday yosh chegaralariga tegishli bo'lmagan, ko'pchilik tushuna oladigan lug'atdan foydalanadi. Ba'zi tillarda ayollarning va erkaklarning nutqlari orasida farqlar mavjuddir. Bu farqlar oddiy, chunki erkaklar boshqa, ayollar boshqa narsalar haqida so'zlashadilar. Erkaklarning qurilish, biznes, siyosat, diniy huquqlar va boshqa o'zlari band bo'lgan kasbga oid maxsus lug'atlari mavjud. Ayollarning uy tutish, tarbiya, tikish, pishirish va hokazolarga oid maxsus lug'atlari bor. Masalan: o'zbek tilida "voy o'lay", "qurib ketgur", "baloga uchragur", "juvarmarg bo'l" kabi birikmalar ayollar nutqida uchraydi. Erkaklar ularni ishlatmaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, tarjimon noto'g'ri moslashishga yoki tushunmovchiliklardan qochish maqsadida leksik ekvivalentlarni tanlashdagi chegaralardan xabardor bo'lishi lozim. Masalan, Yaponiya muomala madaniyatida xushfe'llik alomatlarini e'tiborlidir.

Yaponlar kim bilan gaplashishiga va kim haqida gapirishiga qarab leksik birlik tanlaydilar. Hindlarsa o'z lug'atlarida bir ma'noni bildiradigan, lekin oddiy-"humble", hurmat – "honorific" va neytral – "neutral" ma'nolarda turlicha qo'llaniladigan so'zlarni bergan.

Bunday ma'no farqlarini "wife" – xotin so'zining ingliz tilidan o'zbekchaga tarjimasida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: wife – umr yo'ldoshim, rafiqam, xotinim, ayolim, uy bekam.

Oddiy so'zlar kimgadir to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilinganda ishlatiladi. Hurmat bildiruvchi so'zlar nomi ulug' insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Shu sababi: Yapon xushfe'lligini ifodalab tarjima qilayotganda ayni shunga mos so'zlarni tanlash muhimdir. Yapon tilidan tarjima qilayotganda buni doim e'tiborda tutish zarur. Muhimi, tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asarga mansub xalqning madaniyatini bilishidir. Tarjima o'rtacha m'lumotli insonlar tushunadigan darajada qilinishi maqbuldir.

§7. Xalqaro aloqalarning til va tarjima-dagi aksi

Tarjimalarga xalqlar o'rtasida ma'rifat tarqatish vositasi deb qarash, u orqali o'zga xalqlar bilan yaqinlashishni ko'zlash davom etib bordi. To XX asrgacha Sharq xalqlarining ko'plab madaniy, ilmiy, tarixiy, adabiy yodgorliklari o'zbek tiliga o'girildi.

XVI asrda mashhur muarrix Rashididdinning "Jome' ut – tavorix" hamda Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" tarixiy asarlari Ko'chkinchixonning buyrug'iga ko'ra Darvesh Ali tomonidan o'zbek tiliga o'girildi. Vosifiyning shu davrda yozilgan bag'oyat qimmatli "Badoye' ul – vaqoye" asarini XIX asrda Dilovarxo'ja o'zbekchalashtirdi. "Boburnoma" 1586 yilda fors tiliga, 1826 yilda ingliz tiliga (Jon Leyden va V.Erskin), 1705 yilda golland tiliga, 1828 yilda nemis tiliga (A.Kayzer), 1871 yilda fransuz tiliga (Pave de Kurteyl) hamda rus tiliga bir necha marta tarjima qilindi. (J.Sharipov. O'zbekistonda tarjima tarixidan. T., 1965, s. 69). Yirik tadqiqotchi olim Jumanioy Sharipovning o'rganishicha, Xomushiy degan shoir 1682 yilda buyuk fors adibi Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarini ham nasr, ham she'r bilan o'zbek tiliga ag'dardi. Bu asar ko'p zamonlar o'zbek xalqi o'rtasida qo'lma-qo'l va davrama – davra o'qilib yurdi. Bu tekis, ochiq va ishonarli tarjima natijasidir. XX asrning ikkinchi yarmida zamonaviy o'zbek shoirlari "Shohnoma"ni yangidan tarjima qilib xalqqa tortiq qildilar. "Kalila va Dimna"

XIII asrdan buyon o'zbek tiliga bir necha bor o'girilib, xalq ichida keng o'qilgan va mashhur bo'lgan tarjima asarlardan hisoblanadi. Uning mumtoz tarjimasi yirik shoir Qori Fazluloh Almaiyl qalamiga mansub bo'lib, O'zbekistonda shuhrat qozondi, kitobxonlarning sevimli asariga aylandi. Bu asar XX asrning 60-yillarida sharqshunos Suyima G'aniyeva tomonidan zamonaviy o'zbek tiliga izohlar bilan tarjima qilindi. Tarjimashunos Jumaniyoz Sharipovning uzoq tarix qatlaridan avaylab, sinchiklab yiqqan boy ma'lumotlariga qaraganda, XIX asrda va XX asrning boshlarida Xorazmda tarjimachilik ancha kuchli ravnaq topgan. Bu yerda ko'plab yirik shoir, tarixchi, solnomachi, tarjimonlar yetishib chiqdi. O'zbekistonda bu davrda adabiyot va tarjimashunoslikning rivojida Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Bayoniy, Rojiiy, Komil Xorazmiy, Tabibiy singari ulkan shoir tarjimonlar sifatida ham faol faoliyatda bo'ldilar. Ular tomonidan "Ravzat us-safo", "Tarixi tabariy", "Zafarnoma", "Guliston", "Haft paykar", "Yusuf va Zulayxo", "Qobusnoma", "Bahoriston", "Hasht bihisht", "Axloqi Muhsiniy", "Ra'no va Zebo" singari qator tarixiy, adabiy, axloqiy mumtoz asarlarning tarjima qilinishi XIX–XX asr boshlarida O'zbekistonda tarjimachilik yangi pog'onalariga ko'tarilib borganligidan darak berdi. Almaiyl, Ogahiy, Bayoniy, Xondayliqiyga kelib tarjima tili ancha baland badiiy saviyaga erishdi, u hozirgi zamonaviy o'zbek tilining ustuvor bo'lishida va keng tomir otishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Tilda aniqlik, yorqinlik, soddalikka intilish kuchaydi. Bayoniy, misol uchun "mardumoni Turon" deyish o'rniga "Turon xalqi" degan afzal emasmi, "tashrif aylab" degandan ko'ra sof o'zbekcha qilib "kelib" deyish yaxshi bo'lmaydimi deb shu kabi muhim savollarga yechim topdi. Tildagi hashamdorlikni Bayoniy "zabondarozlik" deb atadi va hamkasblarini sodda, tushunarli va ifodaviy yozishga, to'g'ri tarjima qilishga undadi. Bayoniyning o'zi XVI asr shoiri Binoiyning "Shayboniynoma" asrini fors tilidan juda go'zal o'zbek tiliga tarjima qildi va namuna ko'rsatdi. Bayoniy tarjimalaridan bo'lajak XX asr o'rtalaridagi tarjimachilikning isi kelib turadi.

III. TARJIMONLIK FAOLIYATI TARIXIDAN

Badiiy tarjimada ilk ijodiy prinsiplarning shakllanishi

§1. Yevropa olimlarining tarjimonlik faoliyati

Ushbu bobda biz mashhur yozuvchilar, filosoflar, tilshunolar va boshqalarning tarjimonlik faoliyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Elfrik X-asrning mashhur yozuvchisi bo'lib, u tarjimonlik bilan ham shug'ullangan. U "Tavrot"ning ("Old Testament") "Ibtido" ("Genesis") kitobini birinchi bo'lib tarjima qilgan. Bu kitobni Elfrik lotin tilidan o'girdi. Shu bilan birga, Elfrikning bu asarini to'la tarjima deb atash ham qiyin, zero uning asari erkin hikoyaga yaqin turadi. "Ibtido" ("Genesis") tarjimasining kirish qismida Elfrik ingliz tilining xususiyatlarini tarjimada hisobga olish lozimligini ta'kidlab o'tgan. Elfrik atamalarga izoh va tushuntirishlar bergan. U ayni zamonda lotin tili grammatikasini ham ingliz tiliga tarjima qilgan.

Mil. avv. I-asrda yashagan mashhur rim yozuvchisi va notig'i Sitseron yunon notiqdari asarlarini til me'yorlarini buzmaganda holda lotin tiliga ag'dargan. U asliyat tilining tuzilishi va ma'nosini saqlab qolgan, lekin u so'z tanlashda lotin tilining xususiyatlariga amal qilgan. Shuning uchun u matnni so'zma-so'z tarjima qilgan, har bir jumlada ma'no va so'z ta'sirini aks ettira olgan. "O'ylashimcha, kitobxon mendan aniqlikni talab qiladi" degan Sitseron va yunon mualliflarining asarlarini aniq uslubda lotin o'quvchilariga yetkazgan. U tarjima matnining o'ziga xos xususiyatlari - shakl, tarkib va fikr moyilligiga alohida e'tibor qaratgan.

Shunga o'xshash badiiy uslubning ifodasi sifatida rim shoiri Katullning antik yunon shoirasi Sapfo (Sappho)ga bag'ishlangan mashhur she'rini keltirish mumkin. Sitseron yozuvchi yoki notiq bo'lishni xohlaganlarga tarjima bilan shug'ullanishni juda foydali deb hisoblaydi va ularga shu ijod turi bilan shug'ullanishni tavsiya etadi. Rim shoiri Goratus (Horatus) o'zining "She'riy san'at haqida" ilmiy asarida so'zma-so'z tarjima qilishga uringan tarjimonlar ustidan

kuladi. Rimliklar fikricha, tarjimadagi eng muhim narsa ma'no va aslyatning ta'sir kuchini ifodalashdir.

Buni "Injil" matnining erkin tarjimasida payqashimiz mumkin, misol uchun bu qadimiy kitobning mil. avv. II-asrda Simmaxom (Simmahome) tomonidan qilingan yunon tilidagi tarjimasi va milodiy IV-asrda Gironimus (Hieronymus) tomonidan qadimiy yahudiy tilidan lotin tiliga qilingan tarjimasini keltirish mumkin. Ularda aslyat matnning asl ma'nosini bera olishga intilishi seziladi. Tarjimon to'g'ridan-to'g'ri o'zining vazifasi so'zma-so'z tarjima qilish emas deb ta'kidlaydi, asosan ma'noni chiqarishga diqqat qilganini yozadi. Aslyat matnining tarkibini va ma'nosini to'g'ri chiqara olish prinsipiga rioya etadi. Bu tarjimonning aniq bir ideologik maqsadga suyananini ko'rsatadi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, Yunoniston va Rim o'rtasida tarjimalar bo'yicha o'zaro fikr almashilib turilgan. Bunday sa'y-harakatlar millatlarning xalqaro munosabatlarini chuqurlashtirib, insoniyat madaniyatining yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Elfrikning "Grammatika"sidan maktablarda uzoq vaqt lotin tilini o'rganishda qo'llanma sifatida foydalanilgan. Ma'lumki, Angliyada XII-asrda taxminan 30 tacha maktab bo'lgan. Elfrik tarjimasining tili boy va fikr-mulohazalari terandir. XII-asr o'rtalarida ingliz tarjimoni Adelard (Etelord) ba'zi arab tilidagi astronomik va matematik asarlarni lotin tiliga tarjima qildi. U Fransiya ta'lim olgan, keyin Ispaniya, Italiya, Shimoliy Afrika va Osiyoda bo'lgan. U arab tilini o'rganib qirol Genrix I hukmronligi davrida Angliyaga qaytgan. Adelard Evklidning "Elementlar" asarini arab tilidan lotin tiliga o'girdi. Bu tarjima 1482-yil Venetsiyada nashr qilingach, ular faqatgina Italiyadagina emas, balki Fransiya, Angliya va Germaniya maktablarida ham qo'llanilgan.

Adelard yana boshqa asarlarni ham arab tilidan tarjima qilgan. U Aristotelning tabiiy-ilmiy asarlarini tarjima qilgan deb yozishadi. Adelard ilohiyot, astrologiya va matematikaga oid asarlar ham yozgan. U arab arifmetikasi qoidalarini Yevropaga olib kelgan va yoygan shaxs hisoblanadi.

“Britanlarning tarixi” asarini tarjima qilgan Galfrid Monmut XII-asr oʻrtasida Gʻarbiy Uelsda yepiskop boʻlgan. XII-asrning oxiri va XIII-asrning boshida “Britanlarning tarixi” asarining ingliz tilidan fransuz tiliga qilingan tarjimasi paydo boʻlgan. Fransuz shoirlari va yozuvchilari bu tarjimadan foydalanishgan. Galfrid oʻzining fikrlarini oddiy uslubda ifodalab kitobxonlar eʼtiborini tortgan, bu esa tarjima tarixida juda qiziqarli holatdir. Galfrid tilning uslubiy darajalarini juda yaxshi farqlay olgan. U, bu haqidagi fikrlarini oʻzining asarlarida yozib qoldirgan.

XIII-asrning mashhur faylasuflaridan biri Rotjer Bekon (1214–1294) oʻz asarlarida grammatika, mantiq va falsafaga oid muammolarning yechimini topishga uringan. Uning oʻylashicha, hech kim biror asarni ona tiliga oʻsha tilining barcha goʻzal ifodalari bilan tarjima qilib bera olmaydi. Chunki har bir tilning tarjima qilinayotganda saqlab qolib boʻlmaydigan oʻziga xos xususiyatlari bor. Shuning uchun Bekon chet tillarini oʻrganishning muhim jihatlari yozgan.

Faylasuf Rotjer Bekon oʻz asrining keng fikrli ilmlilaridan biri boʻlgan. Oʻzining asarlarida ilohiy va tabiiy-ilmiy muammolardan tashqari grammatika, mantiq, falsafa va filologiyada yechimi topilmagan savollar ustida ham ishlagan.

Rotjer Bekon oʻzining bosh asarida shunday yozadi: bir til ikkinchi bir tilga tarjima qilinayotganda tarjima qilinayotgan tilning oʻziga xos sifatlarini saqlab qolishning imkoni yoʻqdir. Hattoki shevalar ham bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, agar kimdir mantiqni yaxshi bilsa, uni oʻzining ona tiliga tarjima qilishga urinadi, keyin u oʻzining tarjimasi asliyatdan farq qilishini payqaydi. Ular boshqa tildagi koʻp soʻzlardan foydalanishadi.

Faylasufning fikricha, tarjimon faqatgina tillarni bilish emas, balki subʼyektni ham tadqiq etish shartdir. Rotjer Bekon uning davrida bunday bilimga hech kim ega boʻlmaganligini yozadi.

Rotjer Bekon boshqa tillardan lotin tiliga kirib kelgan soʻzlarning transliteratsiya va transkripsiyasida sezilarli buzilishlarga yoʻl qoʻyilganligini eslatib oʻtadi. Uning fikricha, matn tarjima

qilinayotgan paytda ba'zi tushuntirishlar keltirish lozim.

Rotjer Bekonning bu fikr-mulohazalari sochiq holda bo'lgani uchun tarjimonlik amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadi.

Buyuk Alfred (849–901) – u G'arbiy Saksoniya qiroli bo'lib, Angliyada, Ventejda tug'ilgan. U Oksfordda maktablarga asos solgan, G'arbiy Saksoniyaga eng yaxshi ziyolilarni olib kelgan. Alfredning tarjimonlik faoliyatining cho'qqisi 886-893 yillarga to'g'ri keladi. U Boetsiyning "Filosofiya tasallisi" (Boethius "Consolation of philosophy"), Brid va Orosiovosning tarixiy kitob, va Gregoriy Buyukning "Pastoral Care" (cho'ponlar hayoti tasvirlangan) asarlarini tarjima qilgandir. Alfred xalq ta'limini bosqichma-bosqich rivojlantirdi. U yangi va eski monastirlarni qurdi va qayta tikladi va diniy axloqqa e'tibor qaratdi. Alfred tarjima qilish uchun ta'limni rivojlanishiga muhim bo'lgan diniy, tarixiy va filosofik asarlarni tanladi. Alfredning dastlabki tarjima asarlari "Dialoglar", "Anglo-saksonlar xronikasi", "Cura Pastorals" edi. "Cura Pastorals" IX-asrda tarjima qilingan. Kitobning asosiy maqsadi ruhoniylarga yordam berish edi. Alfred bu kitobni tarjima qilish sabablarini muqaddimasida izohlagan. Alfred o'zining tarjimalarida lotin tilining murakkab tuzilishlaridan foydalanmagan.

Buyuk Alfredning keyingi tarjima asari Bridning "Inglizlarning diniy tarixiy (Ecclesiastical history of the English people) kitobi edi. Bu kitob Angliya cherkovi tarixini hikoya qiladi. Muallif kitobida Angliya Qirolligi tarixining voqealariga to'xtalgan.

Qirol Alfred adabiy me'yorlarni rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Xronologiyaga oid asarlar tarjima uslublarining rivojlanishini boshlab berdi. Alfred davridagi siyosiy barqarorlik madaniy va adabiy taraqqiyotni ta'minladi.

("Orosious") Orosiosnoma qadimgi ingliz nasri edi. Uning asari buyuk Alfred tomonidan tarjima qilingan. Orosios o'zi ispan monaxi, u IV-asrda tug'ilgan. Asar sayohatnomalar usulida yozilgan. Bu asar dastlab lotin tilidan tarjima qilingan. Alfred o'zining tarjimasini soddalashtirgan. Lotin tilining juda murakkab qo'shma gaplaridan foydalanmagan. Uning tarjimasini aniq (exact)

tarjimadan ko'ra erkin tarjima deyish to'g'riroqdir. Alfred yana "Qadimgi ingliz xartiyalari" degan asarni ham tarjima qilgan va bu tarjima Angliyaning tarixan shakllangan, qadimiy dialektlardan biri bo'lgan "Myersian" dialektida yozilgan. Alfred o'z tarjimalarini ingliz ruhiyatiga moslashga harakat qilgan.

Joffrey Choser (1340–1400) ingliz adabiyoti tarixidagi eng atoqli shoirlardan biri edi va u tarjimalar bilan ham shug'ullangan. Joffrey Choser hayoti taqdirning kutilmagan burilishlariga boy bo'lgan, u qirol Edvardning Fransiyaga qarshi qilgan yurishida ham ishtirok etgan; urushda u asir tushib qolgan, ko'p qiyinchiliklarni ko'rib, keyin, yana boyib ketgan shaxs edi. Hayotining so'nggi damlari Richard II va Genrix IVlar hukmronligi davrida osuda o'tgan; unga katta hurmat ko'rsatilib Vestministr Abbeyga dafn etilgan.

Uning Fransiyaga, ayniqsa, Italiyaga qilgan diplomatik sayohatlari ijodi uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Joffrey Choserning ijodiy faoliyati tarjima bilan boshlangan. U "Atirgul haqidagi roman" she'rini tarjima qilgan. Tadqiqotchilarning taxminicha, tarjimadagi fragmentlar Joffrey Choserga tegishlidir. Tarjima fransuz she'riyatidagi texnikani o'rganish yo'lidagi yaxshi tajribadir va buni ingliz tilida sinab ko'rishning imkoniyatidir. Ma'lumki, Fransuz ta'siri davrida Joffrey Choser bir qancha fransuzcha she'rlarni tarjima qilgan, lekin ular bizgacha yetib kelmagan.

Italiya ta'siri davrida u birin-ketin noyob asarlarni tarjima qilgan, chunonchi Boetsiyning "Filosofiya tasallisi" asari shular jumlasidan.

"Troya tarixi" Benua de Sent Moraning "Troya haqidagi hikoyat" asarining tarjimasi edi.

Joffrey Choser tarjimalari ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biz uning ijodida asl nusxadan so'zma-so'z qilingan tarjimalarni ko'rishimiz mumkin, xattoki fransuz tilidan qilingan tarjimalarida ham bunday holat ko'zga tashlanib turadi. Asliyat mazmuni va mohiyatini to'la ifodalash yo'lidan borgan. Bunday tarjima esa fenomen (kamdan-kam uchraydi)dir.

Joffrey Choser lotin tilidagi ilmiy asarlarni sodda tarjima qilishga ham qiziqqan.

Jon Viklif (1320–1384) oʻz davrining yirik diniy arboblardan boʻlgan. U Oksfordda taʼlim olgan va uning keyingi barcha faoliyati shu universitet bilan bogʻliq boʻlgan. Jon Viklifning diniy qarashlari va fikrlari oʻzining asarlarida ifodalangan. Viklifning farazicha, “Injil” diniy eʼtiqodning asosiy manbai boʻlishi lozim. Shu narsaga boʻlgan ishonch. Injilni ingliz tiliga tarjima qilishga Viklifga turtki boʻldi.

Jon Viklif “Bibliya”ni ingliz tiliga tarjima qilib reformatsiyaga oʻz hissasini qoʻshgan namoyonda boʻlgan. U tarjimani 1387-yilda tamomlagan, oʻz ijodida pamfletlar ham yozgan.

Shu pamfletlari uchun u cherkovga qarshi maʼnaviy zarar yetkazganlikda ayblanib hibsga olingan. Jon Viklifning “Injil” tarjimasini qoʻlyozma sifatida koʻchirib olishgan va bu qoʻlyozmalar juda koʻp odamlar tomonidan oʻqilgan va koʻpaytirilgan.

U Injilni ingliz tilining London lahjasida tarjima qilgan. Tarjima ingliz tilining kuchayishi va mustahkamlanishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Angliyaning oʻrta asrlardagi yana bir mashhur tarjimoni Villiam Kakstondir.

Villiam Kakston (1422–1491) Angliyaning dastlabki nashriyotchisidir. U ish faoliyatini savdogarlikdan boshlagan. 1446-yilda Niderlandiyaning Bryugge shahriga yoʻl oladi va yerda u ingliz savdogarlariga boshchilik qiladi. Bu vaqtda Bryugge ulkan madaniy markaz boʻlib, koʻp yozuvchilar-u tarjimonlar, harf teruvchilar, sanʼatkorlar, miniaturachilar va kitobsozlar yashagan; adabiyot va sheʼriyat ham gullab yashnagan edi.

Madaniy muhit Villiam Kakstonda adabiyotga boʻlgan qiziqishni uygʻotadi. XV-asrning oʻrtalarida u fransuz tilidan “Troya tarixi”ni tarjima qila boshladi. Bir vaqtning oʻzida u bosmaxona ishlarini ham oʻrganadi. 1474-yilda u oʻz tarjimasini yakunladi va uni oʻzi bosmadan chiqardi.

1476-yil Villiam Kakston Angliyaga qaytdi va bosmaxona ochdi. Angliyada ilk marta bosmadan chiqarilgan kitob ham

tarjima asar edi. Villiam Kakston “Faylasuflarning nutq tuzilishi va aforizmlari” asarini fransuz tilidan tarjima qildi.

Villiam Kakstonning bosma kitoblari yuqori tabaqa vakillari va boy savdogarlarga mo‘ljallangan edi. Uning kitoblari ancha qimmat turar edi.

Villiam Kakston 90 dan ortiq kitoblarni bosmadan chiqardi va ularning ko‘pini o‘zi tarjima qildi. Shulardan biri “Aeneid”(“Eneida”) fransuz tilidan proza shaklidagi hikoya tarzida tarjima qilingan Vergiliyning asari edi. “Dunyo bag‘ri” asari lotin tilidagi XIII-asrga oid “qomusiy” she‘r bo‘lib ilk marta rasmlar bilan bezatilib bosmadan chiqarilgan kitob edi. “Metamorfozalar” Ovidiyning asari bo‘lib fransuz tilidan proza shaklida tarjima qilingan. Villiam Kakston turli boshqa tarjima asarlarni ham bosmadan chiqargan. Shuningdek, S.Bonaventuraning “Isoning tug‘ilishi haqidagi fikrlar” asarini Nikolay Lav Jan de Galopning fransuzcha tarjimasidan ingliz tiliga o‘giran.

Villiam Kakston bosmadan chiqargan asarlar orasida “Cantebury tales”, Joffrey Choserning “Consolations by philosophy” tarjimasi, Lijetning she‘rlari, Tomas Malorining “Arturning o‘limi” asari, huquqga oid adabiyotlar, tarixiy va tibbiy asarlar bor edi.

Tomas Malori Villiam Kakstonni ingliz adabiyoti tarixida birinchi ingliz noshiri va “Arturning o‘limi” romanini bosmadan chiqargan shaxs sifatida ta’riflaydi. Biz Villiam Kakstonning tarjimalariga nazar tashlasak, u lotin va fransuz tillarining aslligini saqlab qolishga intilgani, shuning uchun uning tarjimasi “murakkab adabiy tarjima” sifatida mashhur bo‘lganini ko‘ramiz. Villiam Kakston tarjima qilgan so‘zning ma’nosini izohlash uchun sinonimlardan keng foydalangan.

Tadqiqotchilar Villiam Kakston asosan mexanik tarjimaga e’tibor bergan deb hisoblaydilar.

O‘zining tarjimalarida Villiam Kakston qo‘shma, mavhum va yangi so‘zlardan yoki ingliz tilida birinchi marta qo‘llanayotgan so‘zlardan foydalangan. Bosib chiqargan asosiy adabiyotlari ingliz tilining orfografiyasi va uslubiyatining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Juan Luis Vayves (1492–1540) XV-asr oxirida yashagan ispan gumanisti edi. 1531 yil nashr qilingan kitobi “Namunalar yoki tarjimalar”da u tarjima tamoyillari va metodlarini quyidagicha tasvirlaydi:

“Tarjima bu bir soʻzning bir tildan boshqa tilga oʻgirilayotganda maʼnoning aslligini saqlab qolishdir. Baʼzi tarjimalarda siz faqat maʼnoni, boshqalarida esa faqatgina ibora va toʻgʻri talaffuzni koʻrishingiz mumkin. Kimdir Demosfen yoki Markus Tullius nutqlarini yoki boʻlmasa Gomer va Vergiliyning sheʼrlarini boshqa tilga oʻgirmoqchi boʻlganda, u dastlab va asosiysi matn va nutqni tuzilish tarkibiga eʼtibor qaratishi lozim boʻladi. Agar u tarjima qilgan boʻlsa, u tillar oʻrtasidagi katta farqni anglagan boʻlishi lozim, agar u oldin qilmagan boʻlsa, hech qaysi bir til boshqa bir tilning uslubiy xususiyatlari va nutq tuzilishi bir-biriga mos keladigan darajada boy emasligini, hattoki eng qadimgi tillarda ham ahvol shundayligini sezadi”.

Juan Luis Vayves matnlar ifodalaydigan maʼnoni erkin tarjima qilinishi lozim va tarjimon maʼnoni shakllantirish uchun nimanidir tushirib qoldirishi yoki qoʻshishi mumkin deb taʼkidlaydi. Juan Luis Vayves fikricha, tarjimalar shunchaki sanʼat yoʻnalishlari yoki fanlar bilan uygʻun boʻlib qolmasdan, balki hayotiy ham boʻlishi lozim. Ular hayotga va maʼlum bir davrga, shu bilan birga asliyatga uygʻun boʻlishi lozim.

Leonardo Bruni (1374–1444) Platon va Aristotel asarlarini tarjima qilgan italiyalik tarjimonlardan yana biri boʻlib, u 1420-yilda nashr qilingan “Tarjima qilishning toʻgʻri usuli” asarida XV-asrning tarjima muammolari haqida yozgan. Bu kitobida u tarjimonning mahoratini tasvirlagan va quyidagi oltinga teng soʻzlarni keltirib oʻtgan: “Tarjimonning qudrati bir tildagi matnni boshqa bir tilga oʻgirayotganda keltirilgan maʼnoni saqlab qolishda deb taʼkidlayman. Agar tarjima qilayotgan shaxs har ikki tilni keng va chuqur bilmasa, u yaxshi tarjima qila olmaydi. Lekin bu yetarli emas, koʻp odamlar matnni izohlarsiz, musiqani esa ashulasiz anglay oladilar, ammo tarjima unday emas, bunda izoh va tushuntirishlar zarur. Toʻgʻri

adekvat tarjima buyuk va qiyin narsadir. Albatta, dastlab, siz tarjima qilayotgan tilingizni yaxshi bilishingiz va bilimingiz chegaralangan yoki oz bo'lmashligi lozim, chuqur tajribaga ega bo'lish, hamda bilimlarni kunda faylasuf, notiq, shoir va yozuvchilarning asarlari yoki nutqlarini mutola qilib kengaytirish kerak".

XVI-asrda asarlar ingliz adabiyotida Sharq ruhiyati bilan yozila boshlangan. Bunga misol qilib Shekspirning ustози Kristofer Marloning "Buyuk Temurlang" dramasini (1587) keltirishimiz mumkin. Bu asar ingliz rinessans davrining dastlabki ustunidir. Asar Markaziy Osiyo haqidagi ma'lumotlar asosida yozilgan.

Kristofer Marlo ma'lumotlarni turli xil manbalardan olgan.

O'rta asrlar Yevropasida Martin Lyuter va Dreyden og'zaki va yozma tarjimalarga qiziqqan shaxslar edi. 1522-yilda Lyuter "Injil"ni tarjima qildi. Bu tarjima zamonaviy adabiy nemis tiliga tamal toshini qo'ydi. Qirol Jeymsning "Injil"i (1611) esa ingliz tili va adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Tarjimonlikning muhim davrini Shekspir va uning zamondoshlari davom ettirishgan.

Viktor Gyugo mashhur fransuz romannavisi, shoir va dramaturgi bo'lib Shekspir tarjimalariga muqaddima yozgan.

XIX–XXI asrlarda Yevropada tarjimonlik faoliyati. Ko'p olimlar bu davrda tarjima nazariyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Professor Piter Nyumark haqiqiy tabiiy tarjimoni qoniqarli darajada tushunish masalasiga muhim hissasini qo'shgan. Piter Nyumark tarjima nazariyasiga oid adabiyotlarni o'rgandi. U tarjima texnikalaridan dars berar, ko'p yillik tajribaga ega edi. Piter Nyumark semantik va og'zaki tarjima qilish asoslarini yaratishga katta hissa qo'shdi. Uning ta'kidlashicha, yozma tarjimada matnning semantik tarkibiga e'tibor qaratilsa, og'zaki tarjimada asosan tinglovchining anglagan narsasiga va javobiga diqqat qaratiladi. Piter Nyumark bu tafovut matnlar o'rtasidagi xilma-xillik bilan bog'liq bo'lishi kerak deb hisoblaydi.

XX-asrda Piter Nyumark tarjima nazariyasini boyitgan "Tarjimaga kirish", "Tarjima qo'llanmasi" asarlarini yozgan va u tabiiy tarjima ustida tadqiq olib bordi. U Londondagi Politexnika Universitetida tarjima texnikasidan dars bergan.

Amerikalik tilshunos Ketford tarjima nazariyasidagi bir tartibdagi grammatikaga murojaat qildi. U tarjimani kategoriyaga ajratib darajalar, tuzilishlar, soʻz toifalari, birikmalar va tizimlar oʻrtasidagi oʻrin almashuvni shakllantirdi. U kontekst bilan kontekst oʻrtasidagi farqni ajratdi. U boshqa nazariyotchilarga qaraganda tarjima imkoniyatlariga koʻproq cheklovlar oʻrnatdi.

Oʻzining “Lingvistik tahlil va tarjimonlik” kitobida kontekst maʼnosini tarjimaning asosi sifatida koʻrsatadi va tarjima nazariyasini tilning yangi nazariyasining asosi sifatida, hamda falsafaning mustahkamroq poydevori sifatida koʻradi.

Yevgeniy Nayda “Injil”ni qilgan tarjimasi bilan mashhurdir. U tarjimada semantik elementlar tasviriga koʻp eʼtibor qaratgan. Yevgeniy Nayda tarjimadagi semantik tuzilishga va oʻgirilgan soʻzlarni mos ekvivalentini topishga qiziqqan. U tarjimada tarkibiy tahlildan foydalandi. Tarjimonlik qoidalari va tartiblarini yaratdi va tarjimaning sifatiga katta eʼtibor qaratgan.

Doktor Mildred va Larson tarjima nazariyasining rivojiga katta hissa qoʻshishgan. Ular tarjima nazariyasini semantik nuqtai nazaridan tadqiq etishgan. Ular istiora va oʻxshatishlar tarjimasi ustida ishlaganlar. Adabiy tarjimadagi semantik buzilishlari toʻgʻrilagan. Janob Larson sintaksis, semantikaning oʻzaro taʼsirini va matndagi gap boʻlaklari oʻrtasidagi tafovut namunalarini tushuntirishga va tasvirlashga harakat qilgan.

XX-asrning eng yaxshi tarjimonlaridan biri Alan Daff boʻlgan. Alan Daff universitetda maʼruzalar oʻqigan, Hindistondagi Britaniya kengashi Vakolatxonasida ham ishlagan, Xitoyda ham dars bergan. Tarjimon sifatida bir qancha kitoblarni nashrdan chiqargan.

Buyuk Britaniyaning yana bir mashhur tarjimoni Alan Malley ham 1962–1988 yillarda Britaniya kengashi Vakolatxonasida ishlagan. U Italiya, Fransiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda ingliz tilidan dars bergan. Juda koʻp sheʼrlar tarjima qilgan. Alan Daff va Alan Malley “Tarjima bu lingvistik va madaniy tafovutlar orqali maʼlum bir matnni shakllantirish” deb yozgan.

Rossiyada, rus tilshunoslari ham tarjimonlikning rivojlanishiga

katta hissa qo'shishgan. Ular tarjimonlikning rivojlanishida yangi yo'nalishlar ustida izlanishlar olib borishdi, yangi yo'nalish va usullarni tadqiq etishdi.

A.D.Shveytser, L.B.Barxudarov, V.N Komissarov va boshqa tilshunoslar tarjimaning lingvistik nazariyasini yaratishga faol harakat qilishdi. A.D.Shveytserning "Tarjima va tilshunoslik" kitobida tarjimaning asosiy nazariy muammolarini izohlashga harakat qildi va gazeta materiallari tarjimasiga ham ko'p ahamiyat berdi. Muallif lingvistik ilmiy tadqiqot metodlarining qo'llanilish imkoniyatlarini tarjimaning tahlili sifatida tasvirlaydi. A.D.Shveytser ifoda vazifasining o'zaro bog'lanish o'rini va ingliz tili hamda rus tilida uni amalga oshirish vositalarini o'zaro qiyoslashga harakat qilgan. Muallif nutq tuzilishining funksional farqlariga va tarjimada anglashilgan fikrni ifodalovchi tarjimaning pragmatik aspektiga katta e'tibor qaratgan.

L.S.Barxudarov tarjimaning semantik muammolari yechimini topishga harakat qilgan. U tarjimaning yetkazib berishi kerak bo'lgan ma'nosi, pragmatik ma'nosi, interlingvistik ma'no va grammatik ma'nosi kabi muammolari haqida yozgan. Uning asari o'sha davrdagi tarjimaning lingvistik nazariyasining taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Levitskaya va Fitterman o'zlarining "Tarjimonlik muammolari" kitobida ingliz tilidan rus tiliga o'girilayotgan tarjimada ingliz tilidagi gaplarni majhul tuzilishi, omonim shakllari, uslubiy va bir tildan boshqa bir tilga o'girish metodlari kabi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Ular ingliz va rus tillarining qanchalik boy ekanligini ko'rsatuvchi tarjima usullari ustida tadqiqot olib borishdi. Mualliflar tarjimada grammatik o'zgarishlarni ko'rsatib berishgan. Hissiy ma'noni ifodalovchi so'zlarning tarjimasi juda yaxshi tasvirlangan.

Tarjimonlikning eng muhim muammolari A.V.Fyodorovning "Tarjimonlik nazariyasining umumiy asoslari" kitobida keltirilgan. A.V.Fyodorov tarjima nazariyasini mustaqil tilshunoslik fani deb ta'kidlaydi. U barcha voqea-hodisani tarjima qilsa bo'ladi deb

hisoblaydi, lekin hech bir til biror asosiy aqliy jumla tasvirini bir soʻz bilan ifodalab bera olmaydi deb ishonadi.

V.N.Komissarov oʻzining “Slovo o perevode” kitobida tarjima nazariyasini uch yoʻnalishga ajratadi: Ifodalovchi, semantik va oʻzgartiriladigan.

Uning ekvivalent nazariyasi besh toifaga ajratiladi: leksik birliklar, soʻz birliklari, maʼlumot, vaziyat va munosabat.

§2. Tarjima va yangi ijtimoiy harakatlar

XIX asrning oxiri XX asrda dunyoda imperiyalar tarqalib ketdi. Kolonial tobelikda yashab kelgan koʻp xalqlar ozodlikka chiqdi, mustaqil milliy davlatni tuzish, tiklash va qurishga erishdi. Demokratiya, ozodlik, tenglik, birodarlik gʻoyalari yer yuziga keng tarqaldi. Tarjimachilik bu kabi ulugʻ gʻoyalarning tez tarqalishiga yalovbardorlik qildi. BMT bu va boshqa ilgʻor, insoniyatning kelajagi bilan chambarchas sotsial gʻoyalarni ijtimoiy, maishiy, siyosiy, madaniy hayotga tadbiq etish, ularni turli xalqlarning yashash sharoiti, urf-odatlarini, eʼtiqodlari, dunyoqarashlariga moslashtirish, muvofiqlashtirish, uygʻunlashtirish, ochiq jamiyatlar barpo etishda turli mamlakatlarga real yordam koʻrsata boshladi. Madaniy, ilmiy, ijtimoiy sohalarni birgalikda rivojlantirish, tabiatni kelajak uchun asrash borasida yer yuzi miqyosida juda katta ahamiyatga ega boʻlgan xalqaro qonunlar qabul qilindi, shartnomalar imzolandi va ular haqiqiy kuchga kirib, insoniyat yangi taraqqiyot va yangi imkoniyatlar orbitasiga chiqdi. XX asrda birinchi va Ikkinchi jahon urushi keltirgan cheksiz fojialardan keyin integratsiyaga intilish-globallashuv jarayoni tezlashdi. Ilm-fan, texnikaning mislsiz taraqqiyoti, insoniyatning koinot va oʻzga sayyoralar toʻgʻrisidagi bilimlari, tushunchalarining kengayishi, rang-barang ulkan ixtirolar va kashfiyotlar-hamkorlik, murosasabr-toqat, tinchlik-faromonlik mislsiz qadriyatlar sifatida ustuvor mavqega ega boʻlishi – bularning hammasi XX asrda tarjimachilikning tengsiz surʼat bilan rivojlanishiga olib keldi.

XX asr tarixga ilmiy-texnikaviy rivojlanish asri, jumladan, tarjimachilik keng rivojlangan, qanot yozgan asr bo'ldi.

XIX asrning so'ngi choragidan e'tiboran O'zbekistonda tarjimachilik yangi o'zanga kirdi. Shu davrda katta miqyosdagi madaniy harakatning dastlabki kurtaklari unib chiqdi. Rossiya, Yevropada antik madaniyatlarning namunalarini ilk bora zamonaviy o'zbek tiliga o'girish tajribalari ko'zga tashlandi. O'zbeklar Pushkin, Tolstoy, Gogol, Krilovning ayrim kichik asarlari bilan birinchi marotaba shu davrda tanishdilar. Matbuotning tarmoq otishi, o'quv dargohlarining mislsiz kengayishi, savodxonlik darajasining ko'tarilishi, tarjimachilikni yil sayin, kun sayin kuchaytirib bordi.

XX asrning o'rtalariga ayniqsa, oltmishinchi yillarga kelib, O'zbekiston dunyo adabiyotlari eng ko'p tarjima qilinadigan o'lkalardan biriga aylandi. Milliy zaminda ko'plab yuksak professional layoqatli tarjimon ijodkorlar yetishib chiqdi. Rus mumtoz va zamonaviy adabiyoti qon-qardosh mamlakatlar, uzoq-yaqin o'lkalar adabiyotining eng qimmatli madaniyat ko'rsatkichi bo'lgan namunalari mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjimalar milliy tilning o'sishi, lug'at boyligining kengayishi, turli soha terminlarining ishlanishi, tartibga solinishi, til normalariga muvofiqlashtirilishi, turli-tuman yo'nalishdagi lug'atlarni tayyorlab nashr etishga yo'l ochdi.

Dunyo adabiyotidagi rang-barang uslublar-sentimental, romantik, simvolik, realistik uslublardan to avangard uslublargacha o'zbek adabiy tili chamanzorida o'z o'rni, maydoni, ifodaviyligiga ega bo'ldi. Yigirmanchi asrda tarjimachilik sohasida ro'y bergan eng ulug' ishlar sirasiga – Forobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Ulug'bek singari ajdodlarning arab, fors tillarida yozilgan asarlari sharqshunoslar tomonidan o'zbek, rus, ingliz tillariga muvaffaqiyat bilan tarjima qilindi. Allomalarimiz yaratgan mo'tabar obidalar xalqning real, harakatdagi mulkiga aylandi.

XX asrning ikkinchi yarmida Fanlar Akademiyasi, bir qator g'ayratli olimlar, fan tashkilotchilari, universitetlarning sa'y-harakatlari bilan tarjimashunoslik mustaqil fan sohasi sifatida

shakllandi. Tarjimonlar tayyorlashga, xorijiy tillar mutaxassislarini yetishtirishga katta e'tibor qaratildi. Ilmiy salohiyatlar yuzaga chiqarildi. Natijada asliy tillardan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish imkoniyatlari ochildi. Tarjimachilik tarixini o'rganish va yoritish tarjima nazariyasini tushunish va rivojlantirishga, tarjimachilik amaliyoti sifati va saviyasini ko'tarishga xizmat qiladi degan fikr ham mustahkamlanib bordi.

§3. Dunyo tarjima tarixi

Dunyo tarjima tarixi – dunyodagi juda ko'p xalqlar adabiyotining o'sib borish, shakllanish jarayonlarini va o'zaro aloqalari qanday bo'lganligini ham aks ettiradi.

Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko'rsatadi.

Ilk tarjimalar insoniyatning bir-biriga tomon ochgan karvon yo'llarida tug'ilgan. Folklor va xalqlarning turli o'yinlari bilan tanishish va tomoshalarda tillardai-tillarga tarjimalar ishtiyoqi va ehtiyoji tug'ilgan.

Tarjima tarixi turli xalqlar adabiyotlarining bir-biridan ajralib, cheklanib qolganini emas, balki, aksincha, hamma vaqt – juda qadim zamonlardan tortib hozirgi kungacha, bir-biriga intilib, yaqinlab borgan, bir-biridan ta'sirlanib taraqqiy etganligini isbotlamoqda.

Ilk tarjima namunalari odamzodning yodida qolmagan. Lekin ular odam, non, ota, ona, uka, singil, kun, oy, osmon, yer, yo'l, ot kabi so'zlardan va ularning boshqa tillarga tarjimalaridan iborat bo'lganligini tasavvur qilish qiyin emas. Bu so'zlardan tarjimalar folklor asarlariga o'tganligini ham andak fantaziya ishlatib ko'z o'ngimizga keltirishimiz mumkin.

Dunyo tarjima tarixi deganda Sharq va G'arb adabiyoti tarjima tarixini tushunish va ularni bir-biridan keskin ajratib qo'ymagan holda o'rganishni nazarda tutish to'g'ri bo'ladi. Bu ayni chog'da ularning vujudga kelishi va o'sishining o'ziga xosliklari, har birining takrorlanmas belgilari va xususiyatlari bo'lishini aslo inkor etmaydi.

Tarjima tarixi Eng Qadimgi Dunyo, Oʻrta Asrlar, Yangi va Eng Yangi deb ataladigan, juda uzoq davom etadigan tarixiy davrlarni oʻz ichiga oladi.

Qadimgi zamonlardan bugungi kungacha tarjima Yer yuzining Oʻrta Yer dengizi havzasi, Sharqda Ikki Daryo Oraligʻida yashovchi xalqlar (shumerlar, suryoniyar, bobulonliklar, ossuriyaliklar, xettlar), Misr, Eron, Hindiston, Xitoy, Turon mamlakatlari mintaqalarida ayni bir vaqtning, oʻzida ham ijtimoiy madaniy aloqalar vositasi, ham yozma adabiyotning bir turi, tarmogʻi sifatida rivojlanadi.

Bu shunday yirik madaniy hodisaki, tarjima adabiyotlari tarixidan ijtimoiy tuzumlar, tabaqalarning oʻzgarishlarinigina emas, insonning ongida kechgan oʻzgarishlarning evolyutsion jarayonlarini ham aniq kuzatish mumkin. Ayrim xalqlar oʻz taraqqiyotlarida oldinroq ilgarilab ketgandirlar, ayrimlari orqaroqda qolgandirlar, bundan qatʼiy nazar, tarjima onglardagi, fikrlardagi, maʼnaviy-ruhiy dunyoqarashlardagi, ilm-fanlardagi oʻzgarish jarayonlariga juda chuqur va har tomonlama taʼsir koʻrsatgan deb ayta olamiz.

Miloddan avvalgi III – I asrlardagi ellinizm madaniyati deb ilmda atalib kelayotgan madaniyat gullab yashnagan davrlarda, Aleksandr Makedonskiy Sharqqa – to Turon, Xitoy, Shimoliy Hindistonga dovur yurishlaridan soʻng Aleksandriya, Pergam, Antioxiya degan yangi madaniy shaharlarda dunyoning yangi madaniyat markazlari bino boʻldi. Bu yerlarda yunoncha museyon deb ataladigan qiroatxonalar va kutubxonalar vujudga keldi. “Papiruslar poytaxti” deb nomlangan Aleksandriyada Ptolemey degan podshohlarning sulolalari 500 mingdan ortiq kitoblarni butun dunyodan yigʻib keltirib toʻpladilar. Museyonlarda turli mamlakatlardan olimlar, tilmochlar, turli tillarning bilimdonlari, tarixchilar, kitob sahifalovchilar – sahhoflar, kitob taʼmirlovchilar yigʻiladigan boʻldilar. Ular turli tillardagi matnlarni qiyoslash, tuzatish, tarjimalar qilish, kitob shaklida dumaloqlab koʻpaytirish, nusxa koʻchirish bilan shugʻullandilar. Museyonlarda tarix, filologiya, geografiya, astronomiya, geometriya, botanika, anatomiya, fiziologiya, falsafa, tibbiyot, geodeziya, matematika, fizika kabi fanlar boʻyicha tekshirishlar va tadqiqotlar oʻtkazildi. Yevklid.

Arximed, Aristarx, Dikearx, Aristotel, Feofrast singari olimlarning ixtiro va kashfiyotlari ilm-fanning rivojiga yangi yo'l ochdi. Insoniyat alifni topgandan so'ng iyerogliflar, mixxa'lar va boshqa turli xalq uchun soddalashtirilgan yozuvlarni o'ylab topdi. Museyonlar insoniyatning ilk akademiyalariga aylandi. Islom madaniyati keyinroq vujudga kelgach, bu akademiyalar yanada gulladi.

Mana shu Aleksandriyada Ptolemey Filadelf II zamonida (islom olamida bu nom Almajistiy shaklida mashhur) miloddan avalgi 285–246 yillarda butun insoniyat sivilizatsiyasining taqdiriga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan, tarixda buyuk bir o'zgarish yasagan tengsiz bir voqea bo'lib o'tdi. "Tavrot"ning eng qadimgi besh muqddas kitobi (Qadimgi Ahd) yunon tiliga tarjima qilindi. Bu tarjima insoniyat tarixiga "Septuaginta" nomi bilan kirdi. Tarjima jarayonining o'zi ham g'oyatda ustalik hamda bilimdonlik, donishmandlik bilan tashkil etildi. Butun ilm olamidan maxsus tanlab olingan yetmishta til bilimdoni to'plab kelindi. Yetmish olim bir-biridan mutlaqo xabari bo'lmagan holda qadimiy oromiy-ivrit tilidan yunon tiliga "Tavrot"ning dastlabki besh muqaddas kitobini o'girdi. "Septuaginta"ning ma'nosi ana shundan, ya'ni yetmish shorih (sharhlovchi) talqini deganidir. Shu tariqa "Tavrot" ning saqlanib qolgan yagona ivrit-oromiy nusxasidan yetmishta yunon tilidagi tarjima nusxalari yaratildi.

"Tavrot" yunon tili bag'rida qaytadan dunyoga keldi. Shu davrda bu voqea tengsiz bir mo'jiza deb qabul qilindi. "Tavrot"ning yunoncha tarjimasi asliyat matniga har jihatdan muvofiq va asl ekvivalent sifatida qabul qilinib, tan olindi, qonunlashtirildi ("Istoriya vseмирnoy literatury", M., 1983, tom 1, str. 503). Bu dunyo xalqlarini "Tavrot" g'oyalari, ta'limoti bilan tanishtirishda ilk ulug' qadam bo'ldi. Nasroniylikning tug'ilishi ham shu ajoyib mo'jiziy tarjima namunalaridan beshlandi. Keyingi asrlarda "Septuaginta"ga Sulaymon hikmatlari kitobi, "Yangi Ahd"ning 27 kitobi va jumladan, "Xushxabar"ning 4 kitobi, Apostollarning maktublari kirdi. Shu tariqa tarjima tufayli va uning vositasida xristianlikning qonunlashtirilgan muqaddas kitobi yuzaga keldi. "Yangi Ahd" tarkibiga kirgan barcha

bitiklar hamda havoriylarning maktubotlari, jumladan “Qiyomat” ham yunon tilida bitilgan va dunyoga tarqagan edi.

Eng qadimgi zamonlarda, ya’ni miloddan avvalgi III–I asrlarda yer yuzida Rim sivilizatsiyasi yuksaldi. Rim respublikasi Sharqqa va G’arbga tomon juda kengayib Rim imperiyasiga aylandi. Rim butun Sharq madaniyatini o’zlashtirishga kirishdi. Tarjimalar, kitob nashr etish, kitob savdosi, xalq kutubxonalari ochish keng yo’lga qo’yildi.

Shu davrda tarjima tarixidagi yana bir ulkan burilish sodir bo’ldi. Homer dostonlari lotin tiliga o’girildi. “Tavrot” lotinchada jarangladi. Mark Tulliy Sitseron davrida (miloddan avvalgi 106–43 yillar) tarjima qilish ravnaq topdi. Sitseronning o’zi Platon, Ksenofont, Demosfen, Esxin, Arat asarlarini lotin tiliga o’girdi. Ulardan ilhomlanib o’zining mashhur falsafiy asarlarini yozdi. Yunon – Rim madaniyatining tengsiz uyg’unlashuviga xizmat qildi.

Bu ulkan voqealar insoniyat madaniyati va uning rivojida tarjimalarning o’rni qanchalik yuksak bo’lishini ko’rsatdi.

Aleksandr Makedonskiy Sharq safarida kechganda bu yurtlardan “Avesto” va hind eposlarini yig’ib, Yunonistonga jo’natdi. “Avesto”ning muhim kitoblari ham yunon tiliga o’girildi.

Muqaddas matnlar tarjimalarida asliyatga to’g’rilik, ma’noni buzmaganda tarjimani chiqarish, ilohiy matnlarning yuksak shoironaligi, hayajonlarini saqlash birinchi o’ringa qo’yildi. Buyuk amaliyotda tarjimaning mana shu prinsiplari shakllandi va keyingi zamonlardagi tarjimalarga yuksak an’ana va badiiy-falsafiy namuna kabi o’tib bordi. Tarjimachilikning beqiyos darajada rivojlanishini boshlab berdi. Tarjimalar tufayli ta’limotlar, buyuk axloqiy andozalar yuzaga chiqdi va insoniyatning madaniylashuviga xizmat qildi. Bu tarjimalar adabiy janrlarning taraqqiyotiga ham juda katta ta’sir ko’rsatdi.

Iyeremiya, Iyezekiil (miloddan avvalgi 593–574 yillar) kabi payg’ambarlarning ko’p qayg’uli, ayriliq azoblarini kuylagan qo’shiqlari yunonchaga o’girilib, undan Yevropa sarhadlariga tarqaldi. Dovud ohangarning (miloddan avvalgi XI–X asrlar) “Dovud psaltiri” deb nomlangan qo’shiqlar kitobi yunon va lotin tarjimalari vositasida

dunyoga tarqaldi. Sulaymon payg‘ambarning “Qo‘shiqlar qo‘shig‘i” (miloddan avvalgi IV–III asrlar) butun Yevropa adabiyotining vujudga kelishi va mundarijasi hamda dunyoni, insonni idrok etish darajasiga behad kuchli ta‘sir o‘tkazdi. Bunday she‘rlarni psalom deb atashardi.

Psalom – tor chertish degani. Bizningcha chertmaga to‘g‘ri keladi. Psaltirion so‘zi esa musiqa asbobi arfani bildiradi. Bizningcha, torga to‘g‘ri keladi. Psalomlar xuddi qadim turkiy qo‘shiqlar kabi kuylab, kuy jo‘rligida aytilgan. Shuning uchun ular tarona deyiladi.

Shunday qilib, miloddan ancha oldingi davrlarda Aleksandriyada xuddi Xitoy va Hindistondagi olimlar, faylasuflar jamoalari kabi museyonlarda ilk tarjima maktablari tashkil topdi. Ularda dunyo tarjima adabiyotlari tarixining tarix, adabiyot, folklor, falsafa va tug‘ilib kelayotgan boshqa fan sohalariga doir ko‘zga ko‘ringan asarlari yunon, lotin, qadimgi arab, paxlaviy tillariga o‘girildi, O‘rta Yer dengizi havzasi mamlakatlari, Yaqin, O‘rta Sharq, Xitoy, Hindiston, Tibetda ilk kitob dunyolari, kitob xazinalari vujudga keldi. Eramizdan ilgarigi 190 yillarda kotib Bin Sira ajoyib bir “Donishmandlik kitobi” yaratgan edi. Miloddan avvalgi 132 yilda Bin Siraning nabirasi Misrga kelib, museyonda o‘tirib ajdodining donishmandlik kitobini yunon tiliga o‘girdi. O‘sha zamon madaniy dunyosida Bin Siraning kitobi nabirasining tarjimasida juda mashhur bo‘ldi, boshqa tillarga o‘girildi. Bu kitob haqida tasavvurga ega bo‘lmoq uchun uning ikki hikmatini keltiramiz:

“Sho‘ri qursin o‘ti ketgan yurakning. Sho‘ri qursin madori yo‘q bilakning. Sho‘ri qursin ikki cho‘pning boshini tutgan osiyning! Sho‘ri qursin qo‘rqoq yurakning!”

“O‘zingga me‘yoridan ortiq mashaqqat qidirma, kuching yetmaydigan narsani sinama, qurbing yetmaydigan ishga urinma”.

Miloddan oldingi zamonlarda Hindiston, Xitoy, Tibet, Eronda falsafa, tarix, astronomiya, geometriya, matematika singari fanlar g‘oyatda rivojlandi. Bu mamlakatlarning donishmandlari dunyoni

kezib tinmay odamzotga qanday yashash, qanday yo‘ldan borish, qanday axloqqa rioya qilishni o‘rgatar, o‘z falsafiy, e‘tiqodiy qarashlarini hikmatlar va juda sodda obrazli yozilgan qisqa she‘rlarida targ‘ib qilardilar.

Konfutsiy, Lao Szi, Budda, daosizm ta‘limotlari shu davrlarda keng yoyildi. Shu kabi allomalar mudom Sharq o‘lkalarini kezishar, turli tillarni o‘rganishar, boshqa xalqlarning kitoblari bilan tanishar va ularni o‘z tillariga tarjima qilardi. Chunonchi, uyg‘oq ko‘zli Gautama Budda Shimoliy Hindistonda, Turonga yaqin qo‘shni o‘lkada shaklar qabilasida dunyoga kelib, kamol topib, haqiqat asroriga yetgach, 40 yil Shimoliy Sharqiy Hindiston va qo‘shni o‘lkalarni poyi piyoda kezdi. Har yerda odamlarni dunyo tashvishlaridan qanday qutulishga o‘rgatdi, hammaga tushunarli sodda hikmatlarda ifodalangan ta‘limotni xalq ichida yoydi (miloddan avvalgi VI–V asrlar). Keyin bu hikmatlar sanskrit kitoblarida ta‘limotning qoidasi kabi muhrlandi. Qiziq shuki, bu hikmatlar bizga Xitoy va Tibetda qilingan tarjimalari orqali yetib keldi. Bu voqea “Tavrot” ning yunonchaga o‘girilgan tarjimasida hozirgi davrlargacha yetib kelganligini eslatadi va tarjimalar insoniyat madaniyati rivojlanishida qanchalar ulkan ahamiyatga ega bo‘lganligidan yana bir karra darak beradi. (Г. Бонгард-Левин. Проповедник, поэт, драматург. В книге Ашвагхоша. Жизнь Будды. М., 1990 г. стр. 34–35).

Bundan 2 ming yillar ilgari Kushon saltanati shohi Kanishka saroyida yashagan va kotiblik qilgan shoir va donishmand Ashvagxosha payg‘ambar Gautama Buddaning hayoti haqida “Buddacharita” (“Buddaning hayoti”) deb atalgan doston yozdi. Bu doston xitoy, tibet, tay, mo‘g‘ul va boshqa tillarga tarjima qilib o‘qilardi. U XX asr boshlarida S. Levi tomonidan fransuz tiliga va ulug‘ rus shoiri Balmont tomonidan rus tiliga o‘girildi. Doston syujeti Sharq, G‘arb va slavyan o‘lkalariga “Varlam va hind shahzodasi Ioasaf haqida qissa” nomida tarqalgan. Bu tarjimalar bari “Buddacharita”ning yunon tiliga qilingan tarjimasiga asoslangan edi. Bunda “bodxisattva” degan sanskritcha so‘z yunoncha orqali Ioasafga aylangan, forsha-arabcha tarjimalarida esa u Budosaf

deb atalardi. Tarjima Yevropada adabiyotlarning avj olishiga, yangi janrlarning paydo bo'lishiga xizmat qildi. U Volter tomonidan fransuzchaga ag'darildi. Mashhur ispan dramaturgi Kalderon esa uning asosida "Hayot uyqu demakdir" degan dramasini yozdi. "Buddacharita" Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonining syujet chiziqlarida ham o'z aksini topgan. Farhodning yoshligi, uning ilmlar o'rganishi, dunyoni kezishiga o'tlanishi, haqiqat izlashi baayni shahzoda Gautama Buddaning yoshlikdagi hayoti va izlanishlariga hamohangdir. O'rta asrlar donishmand shoiri Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" da xo'b topib aytganidek:

"Uqushka, bilishka bu tilmoch til"...

Haqiqatdan ham, til dunyo adabiyotlarining o'zaro aloqalarida bebaho tilmoch bo'ldi.

Milodiy VIII asrning o'rtalaridan o'zlarini tiklab olgan arablarning Sharq sari va uzoq G'arb sari yurishlari boshlandi. Ular Eron orqali ko'hna Turon yerlariga ham kirib keldilar. Miqyosi keng o'lkalarga islom ta'limoti, islom shariati, islom madaniyati va yashash taomillari yoyildi. Sof arab tilida "Qur'on Majid"ni o'rganish, yodlash, unga e'tiqod qilish Eron va Turon shaharlarining odatiy ta'limiy hayotiga aylandi. Qur'onni chuqur o'rganish, yodlash va har kuni uning asosida yashashga intilish natijasida uning mo'jizaviy qissalari turli xalqlar xotirasiga kirdi. Yozma va og'zaki adabiyotning tasvir manbalariga aylandi. Anbiyolar qissalari keng tarqaldi. Xalq ichida Xizr, Luqmon, Zulqarnayn, Yusuf va uning akalari, G'or Ahllari qissalari aytilib, kuylab yuriladigan bo'ldi.

Islom va Qur'on madaniyati ta'sirida Turon zaminida IX–XII asrlarda ilm-fan, falsafa, tibbiyot, ilohiyot, adabiyot, tarix, folklor uyg'onib, yangi rivoj yo'liga chiqdi. Samarqand, Buxoro, Shosh, Xorazm yoshlari Misr, Suriya, Iroq, Eron, Vizantiya shaharlariga tahsil qidirib bordilar. Bag'dod, Misr, Shom, Rumo akademiyalari, tarjima maktablarida ham o'qib, ham amaliy ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ldilar. Xalifaliklar davrida Turon diyorlaridan yetishib chiqqan

Muhammad Muso Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qaffol Shoshiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Farg'oni singari adibu udabolar, olimu ulamolar fanlarni yangi darajaga ko'tardilar, yangi fan sohalarini yaratdilar.

XII asrdan boshlab Xorazmiy, Farg'oni, Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Bashshar Ibn Rushd (Averroes) asarlari Yevropada lotin tiliga tarjima qilina boshladi. Yevropa qit'asiga yangi ilmiy qarashlar ixtirolar to'loqini olib kirdi. Bag'dod akademiyasi, uning tarjima maktabida, arab Ispaniyasining Andalusiya'dagi Toledo shahrida yangi tarjima maktablari bu kabi olimlarning juda ko'p asarlarini lotin, ispan, italyan, fransuz tillariga o'g'irish yo'lida buyuk xizmatlar qildi.

Turon o'lkalaridan chiqqan bu olimlar tarjimalarga, til o'rganishga, boshqa xalqlar madaniyatlarini o'zlashtirishga juda katta qiziqish bilan qarardilar.

Mashhur faylasuf Abu Nasr Farobiy bir necha tillarni mukammal egallagan edi. U Aristotelning "Metafizika", "Fizika", "Logika" singari asarlarini sharhlab tarjima qildi. Uning bu sharhlari arab dunyosida shuhrat qozondi. Ibn Sino Aristotel va yunon falsafasini Farobiynig arabcha sharh-tarjimalari orqali o'qib o'rganganligini yozib qoldirgan.

Tarixiy tarjimachilikda sharh yo'li bilan, bayon qilish, nihoyat erkin va taqlid yo'li bilan tarjima qilish usullari keng urf bo'ldi. Milodiy IX asrda xalifa Xorun ar-Rashid (786–809), xalifa Ma'mun (813–833), xalifa Mutavakkil (847–861) davrida keyinchalik "Ma'mun akademiyasi" deb mashhur bo'lgan "Baytul hikma" ilmiy fan va tarjimalar rivojiga katta xizmat ko'rsatdi.

Xorun ar-Rashid Vizantiyaga qilgan yurishlarida yunon kitoblarini yig'ib kelishni buyurar va ularni arab tiliga o'g'irishni tashkil etardi. Bu jihatdan u Xorazmda qadim Xorazm kitoblarni o'tga yoqqan Qutaybadan tubdan farqlanardi.

Ma'mun yunon ellaridan kitoblar to'plab keltirish uchun olimlardan iborat maxsus ekspeditsiyalar ham uyushtirib turgan. Chunonchi, abbosiy xalifalarning saroylarida hizmat qilgan tibbiy

olim va mutarjim Ibn Masavayx o'z qobiliyatli shogirdi, ulkan tarjimon Xunayn Ibn Ishoq bilan birga juda ko'p tibbiyot va munajjimlik kitoblarini arab tiliga o'girdilar. Olim va tarjimon Xubaysh Dimishqiy, arab faylasufi, qomuschi olim Abu Yusuf Kindiy (vaf. 870 y.) yunon tibbiyot kitoblarini o'girib, ularga keng sharxlar yozdilar. Tarjimalarning matnlari tahrirlari bilan shug'ullandilar. Bu kabi olimlar antik dunyo merosini o'zlashtirishda, ilm-fan taraqqiyotida juda katta rol o'ynadilar. Arab ilmiy atamashunosligini yaratish yo'lida jiddiy ishlar olib borildi.

Mashhur tarjimon Sobit Ibn Qurra Arximed, Evklid, Galen asarlarini o'girdi, ilmiy atamalarni yaratishda muttasil ishladi. Mahmud Muso Xorazmiy o'sha paytda Bag'dodda "Baytul hikma"da ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanarkan, xalifaning buyrug'iga binoan buyuk hind munajjimlik kitobi Sidxantani tabdil yo'li bilan ixchamlashtirib qayta yaratdi. Unga o'z kuzatishlari va fikrlarni qo'shib, "Ziji Xorazmiy" deb mashhur bo'lgan asarni yozdi. "Ziji Xorazmiy" Yevropa va dunyo tarixiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Toshkentlik yirik ulamo Qaffol Shoshiyning Tavrotni arab tiliga tarjima qilishi (904–976), "Bahs odobi", "Husni Jadal", "Dialektika go'zalligi" asarlari Sharqda mashhur. U imom Surajiyning shogirdi, ulug' imom degan unvonga sazovor bo'lgan. Toshkentdagi Xasti Imom ansambli uning nomi bilan atalgan. Xalifaning Vizantiyaga yurishida qatnashgan. Xalifalikning turli yirik lavozimlarida vazifadorlik qilgan.

Turkistonning ishonchli muarrixlaridan biri Ma'sumxon o'g'li Xo'jamuhammad Hakimxonning "Intixobut tavorix" asarida hikoya qilinishicha, Vizantiya yurishlaridan birida Qaffol Shoshiy Vizantiya hukmdori qo'lga asir tushib qoladi. Hukmdor o'z asirining dongdor faqix, tilshunos ekanligidan xabar topib, unga asirlikdan ozod bo'lish evaziga "Tavrot"ni arab tiliga tarjima qilishni buyuradi. Qaffol Shoshiy rozi bo'ladi. Faqat oromiy- ivrit tilidagi asl nusxani topib berishlarini so'raydi. U eng ko'hna manbadan Tavrotni arab tiliga o'giradi va Vizantiya hukmdoriga taqdim etadi. Hukmdor uni juda katta mukofotlar bilan siylab, Qaffol Shoshiyni ham, u bilan birga

asirlikda yurgan mingta islom askarlarini ham ozod etadi. Qaffol Shoshiy ozod etilgach askar bilan Bag‘dodga qaytadi. Xalifa mingta islom askarini asirlikdan ozod qilishga ko‘maklashgani uchun unga juda katta in‘omlar hadya etadi. Qaffol Shoshiy Xalifadan Shosh shaxrida buzilib yotgan, xarob bo‘lish holiga kelgan sug‘orish kanallarini tiklashga yordam berishini so‘raydi. Xalifa rozi bo‘lib, katta miqdorda mablag‘ ajratadi. Qaffol Shoshiy ona shahriga qaytib Shosh hokimi bilan birgalikda sug‘orish kanallarini tiklashga kirishadi (Usmonxon Alimov. Xazrati Imom. T., 2008).

Abdulloh ibn al-Muqaffo (724–759) “Panchatantra” ni arab tiliga o‘girdi. U Eronda tug‘ilib, zardusht diniga e‘tiqod qilgan. 35 yoshida zindqlikda ayblanib xalifa Al- Mansur amriga ko‘ra o‘ldirilgan.

“Panchatantra” qadim paxlaviy tiliga tarjima qilingach, Muqaffo uni pahlaviychadan arab tiliga o‘giran. Uning tarjimasi arab olamida va so‘ng Ispaniya, Italiya orqali butun Yevropaga “Kalila va Dimna” nomi bilan keng shuhrat taratgan. Asar qahramonlari ikkita chiyabo‘ri- Karataka va Damanaka nomlarining buzilib aytilishidan Kalila va Dimna bo‘lib ketgan. Ibn Muqaffo o‘z tarjimasini o‘sha zamon arablari va musulmon sharqi o‘quvchilarining tushunchalariga, ularning didlariga moslashtirdi. O‘zidan xam yangi qismlar qo‘shdi. Matnni arab maqollari, hikmatlari bilan boyitdi. “Qur’oni karim”dan turli oyatlar qo‘shdi. Ibn Muqaffo juda katta mohir tilchi va shoir edi. U II asrda bunyod bo‘lgan qadimgi shoxlar tarixi xaqidagi tarixiy “Xvatay- namak” (shoxlar kitobi) ni ham arab tiliga ag‘dardi.

X asr arab tarixchisi al-Mas‘udiyning xabar berishicha, hindlarning ming ertagi paxlaviy tiliga o‘girilgan. Bu ertaklar keyinchalik Muqaffo tomonidan arab tiliga tarjima qilingan. Kuchli tarzda arabiylashtirilgan bu noyob tarjima “Ming bir kecha” nomi ostida butun dunyoga mashhur bo‘lib ketdi. X asr tarixchilaridan yana biri Hamza Isfaxoniyning ma‘lumotlariga ko‘ra, Parfiyaning oxirgi arshakiylar sulolalari davrida paxlaviy tiliga 70 ta asar o‘girilgan.

XII asrga kelib Ispaniyaning Toledo, Seviliya shaharlarida tarjimonlar hay‘atlari tashkil topgan. Toledo maktabi deb nom

qozongan ushbu hay'at a'zolari arab va paxlaviy tilidagi qimmatli ilmiy-adabiy, tarixiy yodgorliklarni lotin, ispan, italyan tillariga o'girib, Yevropada ilm-fan va tafakkur taraqqiyotiga mislsiz hissalarini qo'shganlar. Toledoga yig'ilgan tarjimonlar arab, ivrit, suryoniy, oromiy, lotin, yunon, paxlaviy tillarini chuqur bilishardi. Ular Aristotel, Platon, Sokrat, Yevklid, Ptolemey, Galen, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy, Ibn Rushd asarlarini lotin tiliga o'girdilar, "Kalila va Dimna", "Sindbodnoma", "Ming bir kecha" kitoblarini Yevropaga yoydilar. Muarrixlar Toledo kutubxonalarida 400 mingdan ortiq kitob to'planganligini xabar qilib o'tganlar.

VIII–XIII asrlarda qadimiy turkiy uyg'ur tiliga buddaviylik ta'limotini yoritgan badiiy falsafiy asarlar o'girildi. Ular ko'proq xitoy, tibet, to'xar tillaridan tarjima qilindi. "Suvarnaprabaxasa", "Oltin yoruq" buddaviylik ta'limoti yo'lida yozilgan rivoyatlar, naqllar, duolar kitobi bo'lib, uni X asrda beshbaliqlik Singu Seli Tudung xitoy tilidan turkiyga ag'dardi. Bu turkiy tildagi ilk tarjima edi.

To X asrga qadar qadimgi turkiy uyg'ur tillariga Moniy ta'limotini yorituvchi bir necha badiiy-falsafiy, ta'limiy asarlar ham o'girilgan. Ular turkiy tillardagi yozma adabiyotlarning tug'ilishi, turkiy tillar grammatik imkoniyatlarining shakllanishiga katta xizmat qildi. Yozuv madaniyatimizda sakkizinchi asrdagi toshbitiklardan to Burhoniddin Rabg'uziyning "Anbiyolar qissasi" deb atalgan ulug' asarigacha besh yuz yildan ortiqroq vaqt o'tdi. "Anbiyolar qissasi" dan so'ng eski o'zbek tilining yangi davri, eski o'zbek adabiyoti va nasrining yangi yo'li boshlandi. Eski yangi o'zbek adabiy tilining uyg'onishi boshlandi. Rabg'uziyning "Anbiyolar qissasi" 1311 yilda yozilgan edi. Xuddi mana shu davrda Qur'onning ilk eski o'zbek tilidagi tafsiri dunyoga keldi.

XII–XIV asrlarda Qadimgi Xorazm madaniyati bilan Oltin O'rda madaniyati tutashdi. Bu madaniyatning vujudga kelishi va rivojlanishida Nizomiy Ganjaviyning faoliyati va ijodiyoti juda katta ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sirning ilk yirik samarasi Qutb Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy "Panj ganj" ("Besh xazina") ga kirgan "Xisrav va Shirin" dostonining eski o'zbek tiliga tarjimasida namoyon bo'ldi.

“Xisrav va Shirin” 1340 yilda tarjima qilindi. Garchi IX–XIII asrlarda hali tarjimaning ilmiy, badiiy, tarixiy tamoyillari shakllanmagan, ilmiy-nazariy asoslari ham, tabiiyki, yaratilmagan edi. Har holda bu davr yozma yodgorliklarida tarjima qoidalariga haqidagi fikrlar hamda bu sohada to‘laroq kuzatishlarni uchratmaymiz. Beruniyning tarjimalar haqidagi ilk fikrlari, Muqaffo tarjimasiga haqidagi mulohazalari rivojlantirilmay “Hindiston” asari sahifalarida qolib ketdi. Lekin Beruniyning: “Mening butun orzu-niyatlarim, jon-u dilim bilimlarni tarqatishdan iborat...” (“Hindiston”, 21) degan so‘zlari madaniyat yaratuvchilarning ongga o‘rnashib, asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga o‘tib bordi. IX – XI asrlarning buyuk ma’rifatparvarlari aytgan bu kabi so‘zlar Qutb Xorazmiyning qalbiga ham cho‘g‘ bo‘lib tushdi. Uning 1340 yilda “Xisrav va Shirin”ni tarjima qilishga jazm qilishi o‘sha ma’rifat hamda vatanparvarlik cho‘g‘ining ilk alangasi edi. Xorazm va Oltin O‘rda madaniyatining namoyandalari Ganjaviyni o‘z shoirlari kabi e‘zozlardilar. Qutb tarjimasiga misolida biz madaniyat yaratishga intilishni va bu yaratuvchilik hamda mas’uliyatni yuksak darajada anglash namunasini ko‘ramiz. Bu tarjimaga yuksak yondoshuv edi. Adabiyotimizda tarjimaga badiiy san’at deb qarashning ilk porloq hodisasi bo‘ldi.

O‘zbek adabiyotida tarjimaning san’atga aylanishi Qutbning “Xisrav va Shirin” asaridan boshlanadi. Qutb birdan bu san’atni juda baland darajaga olib chiqdi. Eski o‘zbek tilining shoirona ulug‘ qudratini ochdi va sharafladi. U o‘zining yirik shoir va so‘z sohibi ekanligini to‘la ko‘rsatdi.

U: “ushbu forsi tilini chevardim”, deydi. Tarjimaga nisbatan ilk bora “chevurmoq” so‘zini qo‘llaydi. Bu so‘z “o‘girish”, “ag‘darish”, “urish” kabi tarjima qilish ma’nosini anglatadigan so‘zlar yoniga juda go‘zal va obrazli sinonim bo‘lib qo‘shildi. U yana bir tarzda aylantirmoq degan ma’noni ham bildiradi. So‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga aylantirish.

Qutb o‘z asarining debochasida tarjima jarayonining juda muhim prinsiplaridan birini tilga oladi:

*Qazontek qaynab ush savdo pishurdim
Nizomiy bolidan halvo pishurdim...*

Tarjima qilishning dastlabki prinsipi shuki, tarjimon original , ya'ni asliyat matni bilan bir qozonda qaynamaguncha, qaynab u bilan bir butunlik hosil qilmaguncha san'at paydo bo'lmaydi. Ya'ni demak, original teksti bilan "qaynash", ya'ni uni har tomonlama bilish, tushunish, egallash, bu – tarjimaning birinchi eng muhim prinsipi. Qutb shuni juda topib aytgan. Unga ijodiy yo'l kabi amal qilgan.

Ikkinchi prinsip: "savdo pishirish". Bu tarjima strategiyasi tamoyilining ayni o'zi. Mazkur o'rinda "savdo pishirish" deganda, Qutb bir necha ma'nolarni nazarda tutadi. Avvalo, kelishish, muomala qilish, ya'ni qanday va nimaga tarjima qilishni aniqlash. Ikkinchi strategik masala: juda mushkul, ko'p muammoli masalalarni o'rta qo'yish va hal etish. Tarjima boshdan oxir ijod jarayoni: ijod esa telbalik vasvasalaridan uzoq emas. Qutb shu ijodiy masalalarning hammasini hal qildim demoqchi va buning uchun sof o'zbekcha "savdo pishirish" iborasini (turg'un birikma) ustalik bilan qo'llayapti. Bir birikma bilan ko'p ma'nolarni anglatyapti. Bu o'rinda "pishirmoq" fe'li "bitirmoq", "hal qilmoq" degan ma'nolarni bildiradi. Keyingi misradagi "pishirmoq" esa to'g'ri ma'noda – taom pishirmoqni anglatadi. O'zbek she'riyatida shoirlar shaklan o'xshash, lekin ma'nolari boshqa-boshqa so'zlardan benihoya ustalik bilan foydalanadilar, so'zning yuksak san'atini yuzaga chiqaradilar . Bu va yana ko'p boshqa o'rinlarda Qutb ko'xna o'zbek she'riyatining bu usulidan mohirona istifoda etadi.

Qutb tilga olayotgan "boldan halvo pishirish" haqida.

Asal qaynatilsa, u eng laziz halvoga aylanadi. Bu bir. Ikkinchidan, Qutb Nizomiy asliyatini bol deb juda oliy darajada ulug'layapti. Uchinchidan, boldan pishirilgan halvo undan kam bo'lmaydi, shirinlikda aslo undan qolishmaydi. Lekin bu halvo pishirish natijasida yuzaga keladi. Ehtimol unda bolning tabiiyligi yo'qdir, lekin u baribir boldan yaraldi va bol kabi tatiguvchiga laziz

bo'ldi. Qutb bu so'zlari bilan tarjimani hunar deb aytayapti. Ya'ni halvo pishirishni faqat san'at bilan barobar qo'yyapti. Nima uchun Qutb bu yerda bol, halvo, qozon, qaynash, pishirish, savdo so'zlariga murojaat qilyapti?

Qutb o'zining o'quvchilari — o'zbeklar bol va halvo nimaligini, qozondek qaynash qanday bo'lishini va savdo pishirish-muomala kishidan qanchalik ustalik talab qilishini biladilar. O'zbeklar dunyoning keng chamanzorlarining farzandlari: ular bolning nimaligini bilib, chamanzorlarda yetishtiradilar va shoirona obrazlarni qo'llab xalqchil fikr yaratadilar. Dunyo tarixida tarjimachilikda saroylar, hukmdorlar, yirik a'yonlar, boy savdogarlarning o'rni juda katta bo'lgan. Tarjimalarning qariyb bari ularning buyrug'i, amr-farmoni, iltimoslari bilan ro'yobga chiqqan. Chunki bu ishni shu qodir zotlardan o'zga rag'batlantira oladigan boshqa kuch bo'lmagan. Qutbga "Xisrav va Shirin"ni tarjima qilish buyurilgan. Nizomiyni jon-dildan sevgan, uni o'ziga pir deb sanagan Qutb bunga jon-dildan rozi bo'lgan: "Ko'ngul farmonini jon birla tuttum..." — deydi u bu haqda. Bu tarjimaga ulug' bir muhabbat hamda e'tiqod bilan kirishganligini bildiradi. Qutb juda yirik shoir edi. U tarjimaning qanday bo'lishi kerakligini savqi tabiiy bilan anglab yetdi. Bu adabiy tarjima sohasida juda katta inqilob edi.

1390 yilda Oltin O'rda o'zbek shoirlaridan Sayfi Saroiy Shayx Sa'diyning "Guliston" axloqiy — didaktik asarini o'zbekchaga tarjima qildi. U xuddi Qutb Xorazmiy kabi tarjimaga juda katta mas'uliyat bilan ijodiy yondoshdi. Tarjimasida o'sha zamon o'zbek tilining jonli qatlamlarini namoyon qildi. Shu ikki asarda tarjimaga uning prinsiplaridan biri sifatida ijodiy mas'uliyatli munosabat shakllandi. Bu keyinchalik tarjimachilik metodlarining shakllanishida xamirturish bo'ldi. Ular tarjima asarlarini o'z davrining o'quvchilari tushunchalariga va dunyoqarashlariga moslashtirdilar. Matnga o'z original ijod namunalarini ham qo'shdi. Keyinroq "Guliston" yana Ogahiy, Ma'sud Axmad kabi shoirlar tomonidan bir necha marotaba tarjima qilindi. Lekin shu keyingi tarjimalar bilan muqoyasa etilganda ham Sayfi Saroiyning tarjimasi o'zining tarovati va poetik

go‘zalligi bilan ajralib turadi, har bir so‘zda yirik shoirning nafasi va qalamining qudrati aks etadi. Sayfi Saroiy ham Qutb kabi o‘z ijodiy manfaatlari, ehtiyojlarini tarjima orqali ifodalaydi.

XIV asrda yashagan shoir Haydar Xorazmiy Qutb izidan borib Nizomiylar Ganjaviyning “Panj ganj”iga kirgan “Maxzan ul -asror” falsafiy-ta’limiy dostonini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

*Menki pishurdim bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydan olib choshni...*

deb izohladi Haydar Xorazmiy o‘z ijodiy jasoratini. Uning tarjimasida shoir qanchalar zabardast she’r sohibi bo‘lganligi ravshan ko‘zga tashlanib turadi . O‘zbek shoirlari o‘z ijodiy ishlarini laziz taom tayyorlashga qiyos qiladilar . Bu sodda fikrlash tarziga o‘xshab ko‘rinsa-da, tagida chuqur ma’no yotadi. U milliy xalqona fikrlash namunasidir. 1353 yilda Turonning Sirdaryo bo‘ylarida dunyoga kelgan dunyodagi eng go‘zal oshiqona dostonlardan biri “Muhabbatnoma” da ham shunga yaqin o‘zbekona fikrlash , his qilish, o‘xshatish yo‘sinlariga har satrda duch kelamiz:

*Bu daftarki bo‘lubtur Misr qandi-
deb ta’riflaydi o‘z asarini Xorazmiy.*

Nil nayshakarlaridan tayyorlangan sarg‘ish kallaqandlarning shirinligi, og‘izdan mazasi ketmasligi, shifobaxshligi olamga mashhur bo‘lgan. Shoir o‘z ishqiy, sho‘h, o‘ynoqi dostonini yozib uni kallaqandga o‘xshatadi. Asarni o‘qiganda bu o‘xshatish qancha sodda bo‘lmasin, bag‘oyat rost ekanligiga har damda guvoh bo‘ladi kishi.

Qutb Nizomiyni juda sinchiklab o‘qidi va g‘oyatda nozikta’blik bilan o‘zbekchaga aylantirdi. U Nizomiylar so‘zlarini aynan qanday bo‘lsa shunday boshqa tilga ko‘chirishdan qochdi. Lekin misralarda asliyat ohangdorligi shoironaligi , hikmatafzoligi bilan baslashadigan ohangdorlik va shoirona hikmatlar yaratdi. Qutbning originalga nisbatan qanday transformatsiyalarni amalga oshirganligini kuzataylik.

Nizomiyda:

Naxustin bar guftash: K-az kujoiy?

Biguft: az dori mulki oshnoyi.

Biguft: on jo ba san'at dar chi ko'shand?

Biguft: anduh xarandu jon furushand.

Bigufto: jon furushi dar adab nest,

Biguft: az ishqbozon in ajab nest...

Qutbda:

Burun so'rdi: ne yerliksan, tiyu san?

Ayittikim: oshiqqlar shahridanman.

Ayitti: onda ne san'at qilurlar?

Ayitti: jon sotib qazg'u olurlar.

Ayitti: jonni sotmoqlik xato ul

Ayitti: ishq yo'lida ham ravo ul...

Keltirilayotgan parchada “mulki oshnoyi” degan birikma bor: Oshnolar mamlakati. Qutb uni oshiqqlar shahriga aylantiradi. Albatta, bunday qaralsa, oshno boshqa, oshiq boshqa. Oshnolik martabasidan oshiqlik martabasi ayniqsa shoirlar nazarida ancha balandroq. Ular ayni paytda o'zaro ma'nodosh. Ammo oshiqqlar shahridanman, deyish Farhod tilida juda kuchli jaranglaydi. Originalga nisbatan tushunchaning shoirona kuchi ortadi. Oshnolar yurti deyish Xisrav tilida kamtarlik va andishani ifodalaydi. Tarjima iborasida esa Farhod oshiqqlar shahridanman, deb Xisravning yuziga tik qarayotganday, uning hamiyatiga tegishga urinayotganday tuyuladi. Bu yerda o'zbekona keskinlik va to'g'rilik ham yo'q emas. Qutb Nizomiyning go'zal, anduh xarandu jon furushand degan so'zlarini “jon sotib qazg'u olurlar” deb talqin etadi. Aniq va go'zal ekvivalentlikka erishadi. Faqat Qutb so'zlarning o'rinlarinigina o'zgartiradi va urg'uni jon sotishga beradi. Qutb qilgan yana bir o'zgarish Xisravning “jon sotish adabdan emas” so'zini talqin etish bilan bog'liq. Xisrav o'zining kuchli rad qilib bo'lmaydigan aforizmi bilan Farhodni butunlay mot qilganday ko'rinadi. Tasavvur qilish mumkin: Farhod bu so'zdan so'ng qancha vaqt sukutga botdiiykin? Ammo Nizomiy

bu yerda hariflar(raqiblar) o'rtasidagi tortishuv – dialogni huddi qilichbozlikday ko'rsatadi. Oraga qil ham sig'maydi. Lekin Farhod g'oyatda hozirjavob. U: ishqbozlar uchun bu holat ajablanarli emas, deydi. “Ul xato” deydi. Ishq yo'lidagi bunday xato – xato emas demoqchi bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, transformatsiyalarda shoironalik, obrazli va fikriy mantiqiylik, yangi ma'no jilvasini topadi. O'sha zamonlarda transformatsiya tushunchasi bo'lmagandir. Lekin Qutb uning nimaligini ijodiy amaliyotida turli bo'yoqlarda ko'rsatdi. Bunday transformatsiyalar Qutb, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiyda har qadamda uchraydi. Bunda har bir talant o'z nazariyasini o'zi yaratganday tuyuladi. Nazariya bo'lmay turib, yuksak tarjima asarlar yaratish amaliyotlarini faqat shu so'z bilangina izohlash mumkin. Bu XIX yoki XX asrda jahon tarjimashunosligida “tarjima san'ati” degan tushuncha paydo bo'lguncha ming yillar oldin bunday san'at amaliyotga kirganligini ko'rsatadi.

Qutb, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiy ijodlarida tarjima ilk bora yuksak san'at darajasiga ko'tarildi. U o'zbek tilining ifodaviy quvvati va imkoniyatlarini to'la namoyon qildi. Tilimizning mag'ziga adabiy, ijtimoiy, madaniy aloqalarda ko'plab kirib kelgan xorijiy so'zlarni yedirib yubordi, ularni o'zbek tilining tabiiy ajralmas mulkiga aylantirdi. Rabg'uziyning “Anbiyolar qissasi”dan so'ng Sayfi Saroiyning “Guliston” tarjimasida tilimizning naqlar, hikoyatlar, rivoyatlar, aforizmlar (hikmatlar) qatlami yuzaga chiqdi. Bu kabi tarjimalar o'zbek tili taraqqiyotiga amalda xizmat qildi.

Tarjimalar XV asrga kelib Alisher Navoiy ijodiyotida yana yangi darajaga ko'tarildi.

Tarjimalar jahon adabiyotlarida javob asarlar yozish an'anasini tug'dirdi. Xondamirning mashhur “Makorim ul-axloq” asarida Navoiyning “Xamsa” si Shayx Nizomiyning “Panj ganji” muqobilida yozildi, degan fikrni o'qiymiz. Muqobil adabiyotlar- bular ulug' asarlarga musobaqa tarzida-javob tarzida yozilgan asarlardir. “Panchatantra”, “Ming bir kecha”, “Siddxanta” ga qanchadan qancha muqobil asarlar yaratilgan bo'lsa, Shayx Nizomiyning “Panj ganji”ga buyuk shoirlar tomonidan necha o'nlab javob asarlar yaratildi.

XV asrga kelib Qutb, Saroiy, Haydar an'analari Alisher Navoiy ijodiyotida davom etdi va badiiy jihatdan yana bir necha bosqich yuksakka ko'tarildi.

§4. Alisher Navoiy va tarjima

Alisher Navoiy 1481-yilda ustozi, qimmatli do'sti Abdurahmon Jomiyning "Chihl hadis" ("Qirq hadis" yoki "Arba'in"), "Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds" tazkirasini (tarjima nomi "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat"- "Muhabbat shabbadalari.") 1495 yilda, hazrat Aliga nisbat beriladigan hikmatli hadislarini to'rt qofiyali ruboiylar shaklida 1485 yilda ("Nazm-ul-Javohir" nomida) tarjima qildi. Alisher Navoiy 1498 yilda o'zining yirik falsafiy, majoziy asari ("Lison ut-tayr") – "Qushlar tili"ni (o'zi bolalikdan sevib mutolaa qilgan, umrining so'nggi damlarigacha bu muhabbatini o'zgartirmay saqlagan buyuk shoir Fariddidin Attorning "Mantiq ut-tayr" – "Qushlar mantiqi") falsafiy-majoziy dostoniga muqobil – javob tariqasida yozdi.

Alisher Navoiy bu asarida badiiy tarjimaning yangi-yangi shakllarini qo'lladi. Tarjimani yuksak ijod darajasiga olib chiqdi. Navoiy o'zi bu asarlariga yozgan sharhlarida ularni tarjima deb kamtarlik bilan izohlasa-da , lekin aslida bular tarjimadan yuksalib chiqqan, tom asliy-original asarlardir. Navoiy tarjima deganda buyuk kamtarlik ko'rsatib ustozlarga payravlik qilganini aytdi. Bu payrav asarlarda u tamomila o'z original fikrlarini olg'a surdi, o'zi ochgan original badiiy shakllarni istifoda etdi.

Navoiy Sharq adabiyotlarini, tarix kitoblarini o'qiganda, ulardan topgan yirik yombi gavharlardan fayzu bahra olarkan, o'zi olgan fayzu bahrалarni xalqiga ham sog'indi, xalqim shu zavqlardan bahrador bo'lsin dedi. Forsiy, arabiy uslublarda yaratilgan buyuk asarlar huddi noyob injularday mag'rib daryolari yoqalariga to'kilgan ko'yi uni dunyoga keltirgan o'zbek xalqi manfaatlari, estetik (fasih) tarbiyasidan bir chekkada qolib ketishini hech qachon istamadi. "Mag'rib daryosi yoqasi" – bu Navoiyning o'z iborasi va

u “Nazm ul-javohir” debochasida qayd etilgandir (Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 15-jild. T., 1999. 127-b.). Boshqa xalqlar bu kabi ulug‘ asariardan o‘ziga naf topganda, Navoiy bunday bahradorlik o‘z xalqiga ham yetishini orzu qiladi. Bu ijodiy, insoniy orzularini ro‘yobga chiqarishda har qanday qiyinchiliklar bo‘lmasin, ularni o‘z uhdasiga oladi.

Chunonchi, u shunday deydi: “Bu orzu ko‘p dag‘dag‘a solur erdikim, turkiy tili bila men ham ul laolini (durlarni) orasta qilg‘aymen...” “mo‘g‘ul uslubi” bilan men ham ul javohirlarni pirosta (bezash, terish) etgaymen... to andin turk ulusiga ham hazzi shofi (qoniqarli, yetarli rohat) va bahrayi vofi (to‘liq bahra) muyassar bo‘lg‘ay” (o‘sha jild, 128-b.). Navoiy bu yerda turkiy til deganda, avvalo o‘zbek tilini nazarda tutadi. Uning turkiy til degani barcha o‘rinlarda o‘zbek tili deganidir. Orzuning dag‘dag‘a solishi deganda, u ijodiy ilhom bezovtaligi va tinimsiz chaqiriqlarini bir-biriga munosib, muvofiq va uyg‘un tarzda terib chiqish, tartib berishni ko‘zda tutadi. Bu ham ijod, ham tarjima ijodining juda ham muhim shartlaridan biridir. Tarjimon huddi ijodkor kabi ilhomlanmaguncha san‘at darajasidagi tarjima asarini yaratishi qiyin. Ilhomyorlik, orastalik, ijodiy tartibga intilish va buni ish usuliga aylantirish ulug‘ tarjima asarlar yaratilishining shartlaridandir. Tarjima shartlari deganimizda biz Navoiy ko‘rsatgan ushbu shartlar-prinsiplarni ham qayd etib o‘tamiz va ularni tarjima ijodining hozir ham o‘z kuchini yo‘qotmagan eng muhim prinsiplari qatoriga kiritamiz.

Navoiyning qanday tarjima qilganligi haqidagi bu so‘zlarida “mo‘g‘ul uslubi bilan ul javohirlarni pirosta etgayman”, degan tilak ham bildiriladi. “Mo‘g‘ul uslubi” deganda Navoiy bizga ko‘pda tanish bo‘lmagan badiiy talqin uslubini eslaydi. Matn uslubini aniqlash jihatidan juda muhim bu tushuncha nazarimizda sodda, barchaga tushunarli, ortiqcha bezaklardan holi bir uslub – badiiy uslub turini anglatlsa, ehtimol. Navoiy ana shu “mo‘g‘ulcha uslub,” ya’ni sodda va aniq yo‘l bilan so‘z javohirlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yib terib chiqishni nazarda tutayotganga o‘xshaydi. Har holda “mo‘g‘ulcha uslub” turkiyona uslubga esh va yaqin bo‘lsa kerak.

To‘g‘rirog‘i turkiyona uslubning ro‘y-rost sinonimidir. Ana shunday shartlar barobarida ado etilgan tarjima, albatta, elga tushunarli va uning to‘liq bahrador bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Navoiy “so‘z bog‘i ajoyib gulistondir”, deydi va bu bog‘ning rayhonlarini xalqqa yetkazish yo‘lida izlanish mashaqqatlaridan qaytmaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, Navoiy tarjimaning turli g‘aroyib shakllarini topadi. U “Nazm ul-javohir”da hazrat Aliga nisbat berilgan bir satr so‘z bilan aytilgan hikmatlarning (ularning soni 250 dan ortiq) har biriga to‘rttala misrasi ham mukammal qofiyalangan ruboiy bag‘ishlaydi. Har ruboiyda hikmatning ma‘nosini keltiradi, ham unga she‘riy sharh yozadi. Hikmat ichida hikmat yaratadi. Bu hikmatlar inson ahloqining turli jihatlarini qamrab oladi. Misol uchun, kishining odobi uning boyligidan yaxshiroqdir degan mazmundagi hikmatni Navoiy quyidagicha rivojlantiradi:

*Gar yo ‘qdur adab, ne sud oltun unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin.... (137-b.)*

Sharqda ma‘lum bir mazmun yo‘nalishidagi qirqta hadisni to‘plash va sharhlash adabiy an‘anaga aylangan. Abdurahmon Jomiy axloqiy-diniy yo‘nalishdagi qirq hadisni to‘plab, ularni mavizaomiz ruboiylar bilan sharhlagan va bu asari “Chihil hadis” nomi bilan asrdoshlari o‘rtasida shuhrat topgandi. Navoiy ustoziga buyuk hurmatining ifodasi sifatida 1481-yilda “Chihil hadis”ni o‘zbek tiliga o‘girdi. O‘zi qattiq amal qilgan hayotiy g‘oyasiga sodiq qolgan holda bu asarning ham debochasida o‘z turkiy – o‘zbek ulusini odamiy yashamoqlik uchun zaruriy axloqiy pand – nasihatlardan fayz olishlarini maqsad qilganini aytib o‘tdi. Bu qirq hadisda Allohni, uning insonlarga ato etgan cheksiz ne‘matlarini anglash, qadrlash, eslash va ularni komil hayot andozalariga aylantirishga chaqirdi. Navoiy bunda ham har bir ruboiy tarjimasini yuksak original asar darajasiga ko‘tardi, hikmatlarga kuchli ifodaviylik bag‘ishladi. Birgina misol. Navoiy “jannat onalarning oyog‘i ostidadir” degan hadisga shunday javob yozadi:

*Onalarning oyog'i ostidadur
Ravzayi jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'i visolini istar esang,
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i...*

Alisher Navoiy tarjimalari ichida 1495-yilda yozilgan “Nasoyim ul – muhabbat” alohida badiiy, tarixiy, falsafiy, biografik qimmatga ega. Bu Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarining tarjimasi. U ustozga eng buyuk hurmat-e'tiborning aks sadosi. Bunday asar yozish g'oyasini Jomiyga Navoiyning o'zi bergan. Buni asar debochasida aytib o'tadi. Asar tarjimasidan Navoiy bir qancha pragmatik maqsadlarni ko'zlagan. Ular hozirgi tarjima nazariyalarida doim tilga olinadigan va sharhlanadigan, chegaralari belgilanadigan (xususan, V.N.Komissarov, L.S.Barxudarov, P.I.Kopanev, V.N.Krupnovning tarjima nazariyasiga bag'ishlangan qator ishlarida) tarjima pragmatikasi mavzuida qamrab olinadigan masalalarni qo'zg'aydi va ularga ajoyib bir misol bo'loladi. Navoiy bu asar tarjimasidan kuzatgan pragmatik maqsadlar nimalardan iborat?

1. Navoiy Jomiyning bu asari zamon ahliga ko'p foyda va fayz-u zavq keltirayotganiga o'zi guvoh bo'ladi.

2. Kitob forsiyda ishoratlar tilida bitilgan. Har kim bu kitobdan o'z qiziqishlari doirasida talay-talay manfaatlar topmoqda. Navoiy bu asar yigirma yil mobaynida halq ichida mashhur bo'la borganligini kuzatdi.

3. Yigirma yildan buyon turkiy uluslar ushbu mo'tabar kitobning kimyodek hayotbaxsh so'zlaridan bahramand bo'lolmay kelmoqdalar. O'z elining bu haqiqatlardan mahrumligi Navoiyni qiynaydi.

4. Yigirma yil ichida hamisha bu kitobni tarjima qilishni ko'ngliga tugib yuradi. Doim uni munosib tarzda tarjima qila olramikinman, elga manzur bo'larmikan? – deb o'ylaydi. Jomiy haqiqatlarni bayon etishda ko'proq nozik ko'ngillar tushunadigan ishoratlar lafzida so'z yuritadi. Men uni ravshanroq alfoz so'zlar va

ochuqroq ado usullar bila o'tkara olg'aymuman? – degan xayollarga botadi.

5. Nihoyat, yigirma yilgi orzulardan so'ng Navoiy bu ijodiy rejasini amalga oshirishga kirishadi.

6. Yigirma yil mobaynida Navoiy maqsadidan ham xalqning ma'naviy manfaatini ko'zlashdan voz kechmadi, shu bilan birga ishning dushvorligi va azimligini ham unutmadi.

Navoiy yigirma yil nimalarga tayyorgarlik ko'rdi? Bu savolga javob Tarjima pragmatikasining ikkinchi qismini tashkil etadi. U ko'proq Navoiy tarjima ustida ado etgan bir qator transformatsiyalar hodisasi bilan chambarchas bog'liq. Navoiyning o'zi asar ustida qanday o'zgarishlar bajarganligini birma-bir aytib o'tadi: Jomiyning kitobida unga zamondosh va suhbatdosh bo'lgan donishmand shayxlarning tarjimai hollari, faoliyatlari keltirilmagan edi. Navoiy ularning barini topib, ular haqida yozib kitobga qo'shdi. Ikkinchidan, bir qator donishmand valiy zotlarning fikrlari hamda qarashlari Navoiy zamonasi kishilarining qarashlariga to'g'ri kelmay qolgan, ularni takrorlash zamon ahllari o'rtasida turli tushunmovchiliklar va janjallarga sabab bo'lishi mumkin edi. Uchinchidan, Navoiy kitobning nomini o'zgartiradi. Unga do'stlik va muhabbat shabbodalari degan nom qo'yadi. Bu shabbodalardan kishilarning ruhlari toza bo'lishini istaydi.

Jomiyning kitobida 618 ta shayx donishmand mutasavvif haqida hikoya qilingan edi. Navoiy ularning sonini 770 taga yetkazdi. 150 ga yaqin donishmand va ayniqsa, ayollar ichidan chiqqan donishmandlar haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradi. Navoiy katta miqyosdagi mualliflik ishlarini ado etdi. Kitob islom olami mutasavvif donishmandlari haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, qomusiy ahamiyat kasb etgan asarga aylandi.

Navoiy bu asarda tarjima amaliyoti va san'ati uchun juda katta qimmatga ega fikrni aytib o'tadi. U ham bo'lsa, tarjimada ravshan alfoz hamda ochiq ado haqidagi fikrlardir. Jomiyning ramzga to'la, ishoratlarga boy tiliga nisbatan ravshan alfoz va ochiq ado tushunchasi o'zgacha badiiy lingvistik vazifalarni nazarda tutadi. Ravshan alfoz

bu Navoiyning o'z iborasi. U ravshan, aniq, tushunarli so'zlar degani. Navoiy tarjimada shu ikki uslubiy hodisani dasturilamal qilib oladi. Tarjimaning ravshanligi va ochiq usulda bo'lishini qoida darajasiga ko'tardi. Tarjima nazariyasining ikki muhim qoidasiga tamal toshini qo'ydi. Bu uzoq tarjima amaliyotlarining ilmiy-nazariya tomonga tashlangan ilk qadami natijasi edi. Navoiy bu o'zi ochgan ulug' qoidalarni umrining oxirida yaratgan "Lison ut-tayr" dostonida yuksak badiiy darajaga olib chiqdi. Ushbu majoziy-falsafiy, axloqiy dostonni Navoiy umrining oxirida, 1499-yilda yozdi. Lekin bu ajoyib asarning g'oyasini yuragida ellik yildan ortiqroq parvarishladi. U hali yosh bolalik paytlari maktabda saboq ola boshlaganda, Attorning (XII asr) "Mantiq ut-tayr" dostonini o'qigan, unga oshifta bo'lib yod olgan, doston ta'sirida qattiq xayol olamiga g'arq bo'lgan, so'ng otanonasi uning sog'ligi yomonlashganidan xavfsirab bu kitobni mutolaa qilishni yosh Alisherga man etgan edilar. Lekin "Mantiq ut – tayr" ("Qushlar nutqi") asari uning yuragiga muhabbat kabi o'rnamashib, uni umr bo'yi tark etmadi. U qachon bo'lmasin, shu doston yo'lida bir asar yozaman deb niyat qilib yurdi. Umr oxiriga yeta boshlaganini payqagandagina, asar butunlay yozilmay qolishidan xavfsirab va ustod Attor oldidagi burchini o'tolmay qolishidan tashvishlanib, nihoyat 1498-yilda "Lison ut-tayr" ni ("Qushlar tili") yozishga o'tirdi.

Asar debochasida u dostonni "Mantiq ut-tayr"ga tarjima rasmi bilan yozishga jazm etganligini, payrov asar bino etishga kirishganligini ta'kidlab o'tadi. Navoiyning bu asari softarjima emas. O'z tili bilan aytganda, "tarjuma rasmi" bilan yozilgan asar. Tarjima asarning Navoiy yaratgan yana bir shakli. Ikkinchi tomondan, u "Javob usuli"da yozilgan "muqobil" asar. Unda tarjima elementidan ko'ra originallik elementlari kuchliroq. Buni bir misoldan ham tasavvur qilsa bo'ladi. Asar hikoyatlar, qoliplovchi rivoyatlar, naqlar bir-biri ichida keladigan shaklda bitilgan, undagi 63 hikoyatdan faqat 12 tasigina tarjima. Navoiy peshvo va Xudo izlagan, Xudoning haqiqati hamda borliqdan uning zuhurotini qidirgan o'ttiz qushning majoziy obrazlari, ularning dunyoning yetti mashaqqatli vodiysini

kezib, boshqa bir majoziy siymo – Semurg‘ni axtarishdagi rang-barang sarguzashtlari va bahsu munozaralari orqali o‘zining olam qurilishi, vahdat ul – vujud (yagona vujud) haqidagi g‘oyalarini ilgari surdi, XV asrning axloqiy, ilohiy qarashlarini bayon qildi.

*Oltmishqa umr qo‘yg‘onda qadam
Qush tilin sharx etkali yo‘ndum qalam.
Shayxning ruhidin ist imdod etib
Ko‘rgach istimdod, ul imdod etib... –*

deb tushuntirgan edi Navoiy o‘z holi hayotini va oldiga qo‘ygan ulkan maqsadini. Yana bir g‘aroyib hol shuki, Navoiy asar yakunidagi hikoyat – tamsillaridan birida Attorni va o‘zini qaqnus qushiga o‘xshatadi. Qaqnus degan qush bir umr cho‘p to‘plar ekan. Umr poyonga yetganda shu cho‘plar xirmoni ustiga chiqib, shunday o‘rtanib fusunkor sayrar ekanki, kuyning zo‘ridan yonib ketar, o‘zi qurgan cho‘p xirmon ham alanga olar, so‘ng bu gulxanning cho‘g‘i ichidan yangi qaqnusning jo‘jasi bosh ko‘tarib kuylab chiqar va yana o‘z navbatida darhol olam cho‘plarini yig‘ib xirmon uya boshlarkan. Navoiy Attorni xirmonini yig‘ib, kuylab kul bo‘lgan katta qaqnusga, o‘zini esa uning cho‘g‘ xirmoni kulidan bosh ko‘tarib chiqqan qaqnusga qiyos qiladi. Bu majoz, tanosib juda chuqur ma’noga ega. Va u “Lisoni ut-tayr”ning qanday vujudga kelganini, “tarjima rasmi” bilan qanday bino bo‘lganini, ulug‘ o‘zbek shoiri undan nima ma’nolar ko‘zlaganini anglashda kalit bo‘lib xizmat qiloladi.

Navoiy tarjima shakllarining rivojlanishiga, tarjimalarda yuksak san’atkorlikka erishish usullariga yo‘l ochdi. Tarjimalarga ijodiy yondoshish va chuqur mazmundorlikka erishish Navoiydan nasllarga meros bo‘lib qoldi.

§5. Alisher Navoiy asarlarining jahon tillariga tarjimalari

XV-asrda, mumtoz adabiyotimiz gullab yashnagan davrida, tarjimonlikka bo‘lgan e’tibor yo‘qolmagan edi. Alisher Navoiy o‘zbek tilining rivojlanishiga katta xissa qo‘shgan. Buyuk o‘zbek

shoiri Alisher Navoiy adabiy va ilmiy asarlar bilan band bo'lishiga qaramay u o'zining ustози Abdurahmon Jomiyning "Chil hadis", "Nafohot ul-uns", "Nazm ul javohir"" kabi asarlarini turkiy tilga tarjima qilgan. Bulardan tashqari u Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asaridagi ba'zi hikoyalarni tarjima qilgan. XV–XVI-asrlarda Alisher Navoiyning asarlari tarjimonlarning e'tiborini o'ziga qaratgan. XVI-asrda uning "Majolis un-nafoyis" asari fors tiliga Faxri ibn Sulton tomonidan tarjima qilingan. Kristofer Armoni Alisher Navoiyning "Sabbai sayyor"ini tarjima qilgan va italyan tilida nashr qilgan. Keyinroq esa bu asarlar nemis, ingliz va boshqa Yevropa tillariga o'girildi. Ingliz tarjimoni Edvard Braun, rus tarjimonlari Beresin, Bartold va boshqalar Alisher Navoiy asarlarini tarjima qilishgan. Aksariyat tarjimonlar so'zma-so'z o'girishgan. Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tillarning asoslari va boyluklarini to'liq tasvirlagan. U turkiy tilning sinonim so'zlarining xilma-xil boyligini tahlil qildi va ularning fors tiliga turli xil yo'l bilan tarjima qilib ko'rsatib bera oldi. Buyuk o'zbek shoiri tarjimonlar o'zlarining tarjimalarini so'zma-so'z emas, balki ma'noma-ma'no tarjima qilishga e'tiborlarini qaratishi lozim deb hisoblagan.

Alisher Navoiy asarlarining rus tilida 10 jildda nashr qilinishi bizning mamlakatimiz uchun buyuk adabiy-tarixiy voqea bo'ldi. Bu nashr o'zbek adabiyoti va tilining asoschisi, daho shoir Alisher Navoiyning xorijiy tilga o'girilgan ilk tanlangan asarlari to'plami edi. Jildlar tarkibida oldin va keyin qilingan tarjimalar o'rin olgan. "Tanlangan asarlar" to'plamidan Alisher Navoiyning "Xazoin ul-maoniy" asariga kirgan "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoye ul-vasat", "Favoid ul-kibar" devonlari, "Xamsa"ga kirgan dostonlari o'rin olgan. Ular do'stlik va bag'rikenglik kabi g'oyalar bilan yo'g'rilgan. Navoiyning she'riy asarlari 38 ta tarjimon tomonidan o'girilgan. Ular ichida N.Lebedev, S.Ivanov va Rojdestvenskiylarning tarjimalari nafosati bilan ajralib turadi. V.Zvyaginseva, L.Penkovskiylar ham Navoiyning iirikasidagi chuqur falsafiy ma'no, romantizm, musiqiy ritm aslligini yaxshi

saqlashgan.

Mashhur shoir S.Lipkin “Layli va Majnun” dostoni tarjimasi ustida juda katta mehnat qildi.

S.Ivanov Navoiyning “Lison ut-tayr” asarini mahorat bilan o‘girdi.

Navoiyning ikki kitobi “Mahbub ul-qulub” (A.Rustamov tarjimasi) va “Muhokamat ul-lug‘atayn” (Malaxova) asl nusxadan rus tiliga asarlarning fikriy teranligi, so‘z boyliklari va ma’no tovlanishlarini saqlab o‘girganligi diqqatga sazovordir.

§6. QUR’ON TARJIMASI

Qur’on tarjimasi tajribalaridan.

YO YAHYO, XUZIL KITOBA BIQUVVATIN

“Maryam”, 12-oyat.

Yo Yahyo, kitobni mahkam tut ...

Xudo har bir insonga uning bo‘yin tomiridan ham yaqin deyilgan. Xuddi shuningdek, Allohning kalomi ham har bir insonga shunday yaqin. Xudoning o‘zi mehr bilan yaratgan va tarbiyalagan Insonga yetkazgan SO‘ZLARI – pandu nasihatlar, yashamoq yo‘l-yo‘riqlari, tartib-intizomlari, man etganlari hamda buyurganlari: iroda etmish barcha hukmlarini inson qanchalar teran tushunib, anglab yetsa, ular haqida butun aqlining kuchini ishlatib o‘ylasa, fikr yuritsa, o‘z hayotini hidoyat asosiga qursa, Alloh bilan Inson o‘rtasida yaqinlik hamda Kalom bilan Inson o‘rtasida yaqinlik shunchalar ortib boradi. Alloh o‘zi aytmoqchi, faqat yaxshilikka buyuradi, yomonlik va turli razolatlar, qonxo‘rlik va turlicha nafs tug‘yonlaridan, ularning fojiali oqibatlaridan qaytaradi.

Qanchadan-qancha odamzod qavmlari qabohat chohiga botib ketdi. Yer yuzi sayyora miqyosida ne-ne to‘fonlar, zilzilalar, mangu sovuq, mangu issiqliklar girdobida qayta-qayta bino bo‘ldi. Keyingi

zamonlardagi Birinchi va Ikkinchi jahon urushi qirg'inlari, tirik jonzotlar uzra yadro kurollarining portlatilishi, ularning Yerni mahv etish maqsadida tinimsiz sinab ko'rilishi, din niqobi ostida yovuz tajovuzlarning avj olishi - bular bari Oxir zamon nishonalaridir. Yer kurrasini Shimoliy va Janubiy qutblarning tarang muzliklari mustahkam tutib: turadi. Endilikda ayrim buyuk davlatlar shu ikki Qutb tagidagi boyliklarning zahiralarini talash va birdan bir makonimiz bo'lmish sayyoramizni tuxum po'chog'idek qilib qo'yish rejalarini tuzib, bir-birlari bilan kon, joy talashmoqda. Sayyoramizni bunday talon-taroj qilishga urinishlar – og'ir zamonlarning nishonalaridir. O'z-o'zidan Qiyomat hech qachon bo'lmagay. U faqat razolat so'ngi nuqtaga ko'tarilgandagina va Inson shu go'zal sayyorada umrguzarlik qilishga noloyiq, nobop bo'lib qolgan oxirgi palladagina ro'y beradi. Qur'onning har bir oyati shundan darak beradi va o'zni tiyish odamlar va ularning hozirgi zamon jamiyatlarining o'z qo'lida, irodasida. Alloh buning ibratlari va sahoqlarini MEHRIBONLIK KITOBI bo'lmish Qur'onda ta'sirli qissalar, ibratli masallar, Inson aqlini quvvatlantiruvchi hikmatlar va mav'izalarda Rahm qudrati bilan aytib o'tadi.

Istiqlol tufayli O'zbekistonda Qur'on va muqaddas Hadislarni nashr etish, tushunishning yangi zamoni boshlandi. Qur'onni bilish va yuraklarga jo etishning yangi davri keldi.

Qur'onga rioya etish, uning hidoyatiga ergashish, to'la bahramand bo'lish vaqti yetdi.

Qur'onga rioya etmoqlikning eshiklari ochildi, chunki endi uni har kim bilmog'i mumkin.

O'zbekiston honadonlariga Qur'onning o'zbek adabiy tiliga bir emas bir necha tarjimalari ishonch va iymon bilan kirib bordi. O'tgan asrning elliginchi-oltmishinchi yillarida biz, arab tilidan bexabar yoshlar Qur'onning rus tiliga muhtaram Sablukov va Krachkovskiy tarjimalarini kutubxonalardan bazo'r topib o'qishga muyassar bo'lganmiz. O'shanda ilk bor yuragimizga Qur'on muhabbati tushgan. Bu butun dunyodagi insonlarga yuborilgan hidoyat deb anglaganmiz.

Qanday saodatli ziyomand zamonlar yetishib keldiki, arab tili, islom ilmi, madaniyati, tarixi, diniy va dunyoviy ahkomlari, ularning zamona kishilari hayot tarzidagi o'rnini yaxshi bilgan arab tili bilimdonlari - allomalar tomonidan Qur'onning sharhlar bilan ta'minlangan "ma'nolar tarjimalari" amalga oshirildi. O'zbekistonda yashovchi kishilar ilk bora Qur'on ma'nolari, ilohiy ohanglari, timsollari, mo'jiza o'gitlari okeaniga o'z ona tili qudrati, poetik salohiyati to'liqida yetishib bordilar. Tubsiz ma'nolarni ilgari faqat g'avvos musavvirlar, qilni qirq yorgan ulamolar, darveshlar, faqihlar, qoriyu qurrolargina anglab bilgan bo'lsalar, endi Allohning sara kishilargagina emas, jamiki o'zi yaratgan, tarbiyalagan insonlarga qarata aytgan xos so'zlarini xalqning keng vakillari, qatlamlari bilish, tushunishlariga azim, erkin yo'llar ochildi. Islomning nimaligini mullalarning og'zaki bayonlari, sharhlari, tushuntirishlari va o'ziga yarasha tushunchalari orqali eshitgan-bilgan kishilar endi o'zlari, o'z savodlari darajasida, ishtiyoqlari qadr qilgancha Qur'on va Hadis ichiga kirib boryaptilar.

Albatta, tarjima har qancha mukammal bo'lmasin, hech qachon u asliyatning o'rnini bosolmaydi. Tarjima asliyatga tenglasholmaydi. Ibodatda esa asliyat o'rniga o'tmaydi. Asl ohang, asl so'z va asl sir-sinoat doim asliyatning o'zida. Islomda ibodatlarni asliyat birla ado etish bu mislsiz ne'mat!

Shular bilan birga Qur'on yolg'iz arab tilli xalqlarning emas, Yer yuzidagi barcha xudojo'y, pokdil, yaxshilik tuyg'usi bilan yashaydigan va umrlarni shular bilan o'ichaydiganlarning mulki, ma'naviy-ruhiy xaloskor so'zi, umr dovonlarida eng mustahkam tayanchi.

Shuning uchun Qur'onning dunyodagi barcha tillarga tarjima qilinishi madaniy-ma'rifiy hodisadir. Tarjima esa ma'rifat elchisi.

Keyingi o'n yillar ichida Qur'onning Shayx Alovuddin Mansur (1992), Shayx Abdulaziz Mansurov (2001), Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (1991), Shayx Shamsiddin Boboxonov (1991), Sayyid Mahmud Taroziyning (1994), izohli, sharhli, tafsirli tarjimalari o'zbek tilida dunyo yuzini ko'rdi. Bu tarjimalarning

umumiy xususiyati sodda, tushunarli zamonaviy o‘zbek adabiy tilida yangraganligidir.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti 2000 yilda XII–XIII asrlarning yodgorligi deb hisoblab kelinayotgan “Turkiy tafsir”ning faksimil nashrini amalga oshirdi. Tilimizning o‘sha zamonlardagi ifoda qudratini Qur’onday o‘lmas obida tarjimasida vositasida namoyon qilgan ushbu bebaho asarning muallifi ismi hali hamon ilm dunyosiga qorong‘uligicha qolmoqda. Ammo uning tili, tekshiruvchilar bir og‘izdan ta’kidlashganday, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va ayniqsa, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiy va Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning ulug‘ asarlari tiliga nihoyatda yaqin, yana ham to‘g‘rirog‘i, shu ko‘hna o‘zbek adiblarining asarlarida mujassamlashgan umumiy o‘zbek adabiy tilida yaratilgandir. Ayniqsa, u “Qisaiy Rabg‘uziy” hamda “Xisrav va Shirin” tiliga, uslubiga shu qadar hamohangki, uni Qutb yoki Rabg‘uziy yozmaganmikin degan xayolga ham borasiz. Lekin aniq dalil bo‘lmagach buni qat’iy aytolmaysiz. Turdi “to‘qson iki bori o‘zbek elidur ...” – degan jumlanı yozib qoldirgan. O‘zi to‘qson ikkita bo‘lsa ham, lekin yagona umumiy o‘zbek tili (lahjalardan qat’i nazar) ularning barchalarig‘a tushunarli til edi. Qur’onning ilk tarjiması mana shu yagona o‘zbek tilida yaratilgan ulkan madaniy obida. Tafsir muallifi Qur’on oyatlari ostiga juda sodda va o‘ta tushunarli o‘zbekcha tarjimasini beradi. O‘qigan kishi oyatlarning asli hamda o‘zbek tiliga tarjimasida ularning to‘g‘ri ma’nolarini o‘zlashtirib boradi. O‘zbek tilimizga ko‘p xizmatlar kilgan ulkan olim A.K. Borovkov “Tafsir”ning ifodaviyligi, til xususiyatlarining qimmatiga lol qolib darhol “Leksika Sredneaziatskogo tefsira XII–XIII vv.” degan juda qimmatli leksik kitobini (1963) yaratgan edi.

Tarixan qisqa davr ichida Qur’onning mana shunday rang-barang tarjimalarining zamon o‘quvchisiga taqdim etilishini juda katta tarixiy-madaniy hodisa deb atash mumkin. Bu, birinchidan, Qur’onga haqiqiy qiziqishning ortgani. Ikkinchi yoqdan, asliyatga iloji boricha yaqinlashib borishga intilishlar kuchayganini ko‘rsatadi. Uchinchidan, talqin va sharhlarda diniy-mistik qobiqlardan asta-

sekin chiqib, keng dunyoqarash bilan ilmiy sharhlashga o'tish har qalay sezilmoqda. Shu bilan birga bu tarjimalarning har biri o'ziga yarasha qimmatga ega. Yana bir bor qimmatli jihati shundaki, ular ilmiy asosi mustahkam, har tomonlama dunyo tajribalari asosida tekshirilgan akademik nashrga yo'l ochadi. Bu tarjimalarsiz akademik nashrni tasavvur qilib bo'lmaydi. Yevropa, Amerika, ayrim Sharq mamlakatlarida Qur'onning ilmiy akademik tarjimalari amalga oshirilgan. Germaniyada qilingan tarjimalar ichida sharqshunos R. Paretning 1963–1966 yillarda chiqargan nemis tili tarjimasi eng aniq ilmiy tarjimalardan sanaladi. Inglizcha akademik nashri 1969 yilda Angliyada "Qur'on interpretatsiyalari" (talqinlari) deb nomlanib nashr etilgan. Qur'onning boshqa tillarga qilingan eng yangi tarjimasi mualliflaridan ajoyib tarjimon Valeriya Poroxova Damashq- Moskvada 1995 yilda nashr etilgan nodir tarjimasida ushbu ingliz tilidagi tarjimaga iqtibosan o'z tarjimasini "Koran. Perevod smyslov" deb nomlaganligini yozadi. (Коран. Перевод смыслов. Дамаск – Москва, 1995 г.) Valeriya Poroxova arab tilini juda chuqur biladi. U ko'p vaqtlar arab ulamolari doiralari ichida yashagan va Qur'onni o'rganishga juda ko'p yillarni sarflagan. U kitobga yozgan so'zboshida «ma'noni imkoni boricha aniq ifodalash» - tarjimonning asosiy maqsadi ekanligini aytadi. U Qur'onning ilmiy talqin qilishning ahamiyati haqida bir qator mulohazalarini o'rta qo'yadi. Valeriya Poroxova Qur'onni she'riy tarjima etishga jazm etadi. Emotsional ko'tarinkilikni berishda katta natijalarga erishadi. Shu bilan birga tarjimaning adekvatligi ustida jiddiy qayg'uradi. Qur'onni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi degan fikr juda qadimlardan beri mavjud. Shuning uchun tarjimada ko'proq tafsir, ya'ni bayon va sharh yo'lidan boorish, ya'ni tafsir qilish odat tusiga kirib, an'anaga aylangan. So'zma-so'z tarjimalar Qur'on oyatlari ostida, aniqrog'i asliyat bilan birga berib boriladigan tarjimalardagina qo'l kelishi va Qur'onni o'rganishda samarali amaliy foyda keltirishi mumkin. Lekin asliyatdan holi tarzda so'zma-so'z tarjimani chiqarib bo'lmaydi.

Ma'nolar tarjimasi degan tushunchani ham turlicha anglash

va tushunish ehtimoldan uzoq emas. Ma'nolar tarjimasini deyilganda talqinlar, interpretatsiyalarga – ularning nozikliklariga yo'l ochiladi. So'zma-so'z tarjimada so'zlar va jumalarning aniq tarjimalari ifodalanadi. Lekin bunda badiiylik va uslub yuzaga chiqmaydi. «Tafsir»ning tarjimasini shunday so'zma-so'z tarjimaning yaqqol namunasi. Hazrat Sayyid Mahmud Taroziy tarjimasini ham shunday so'zma-so'z tarjimaga yaqin. Uni ham faqat asliyat bilan birga o'qigan ma'qul. U Qur'on oyatlariga so'zma-so'z, jumla-bajumla ergashib, ularga hamroxlik qilib boradi.

Hazrat Sayyid Taroziy (Oltinxon To'ra - 1991 yilda 98 yoshida vafot etgan) ning sharh tarjimasini 1990 yilda Istanbulda asliyat bilan birga nashr qilingan. U «Turkiston tiliga tarjima» deyilgan. Xorijiy mamlakatlarda yashovchi turkistonliklarning til xususiyatlari, tushunchalariga mos holda chiqarilgan. Sayyid Taroziy tarjima va sharhni 1956 yilda tamomlagan. 1975 yilda Pokistonda bosmadan chiqargan. Taniqli arabshunos Ismatulla Abdullayev 1994 yilda ana shu nashrdan o'zbek kirillitsasiga tabdil etib, o'z hisobidan 100 nusxa nashr etdi. U o'z so'zboshisida Qur'onning o'zbek tiliga tarjimalari tarixi, Oltinxon To'ra tarjimasini, hayoti, ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Ismatulla Abdullayevning nashrida faqat Oltinxon To'ra tarjimasining o'zi (asliyatsiz) keltirilgan. «Tafsiri Hilol» tarjimasini ham oyatlar bilan esh kelib, ularni so'zma-so'z izohlab boradi. Alouddin Mansur tarjimasida esa sharhlarga keng o'rin ajratiladi. Sharhlar ham alohida, ham oyatlar tarjimalari ichida, ham qavs ichida keng qo'llaniladi. Muallif Qur'on ma'nolari ilk o'qiyotgan o'quvchiga tushunarsiz bo'lib qolishidan qattiq hadiksiraydi va ketma-ket izohlar bilan oyatlar ichini to'ldirib tashlaydi. Bu sharhli tarjima uchun unchalar g'ayritabiiy emas. Lekin ko'p o'rinlarda kalom sharhlar va izohlar ichida ko'rinmay ketadi. Bu ma'noni qabul qilishni juda qiyinlashtiradi. Bu tomondan Abdulaziz Mansur tarjimasini ancha oldinga siljigan. Oyatlar oralab izohlar ancha meyorida qo'llangan. Lekin bu yerda ham oyatlararo izohlar kalomni har tomondan bo'lib va bo'g'ib turadi. Kalom yaxlit emas. Qabuli ham yaxlit emas. Kalomga qaray desangiz, izoh qolib ketadi,

izohlarga e'tibor qilay deyilsa, kalom uzuk-yuluq qolib ketadi. Buning ham birdan-bir sababi kalomning noto'g'ri o'qilishidan hadiksirash. Holbuki, aniq, adekvat tarjima qilinsa, noto'g'ri o'qish, tushunishga o'rin qolmaydi. Bu ikki e'tiborli tarjima yuzasidan chiqarish mumkin bo'lgan dastlabki xulosalar quyidagicha:

1. Oyatlarni aniq tarjima qilish va ularda faqat Xudoning o'zi tushirgan kalomnigina aks ettirish. Oraga hech qanday izoh, sharh, bayon qo'shmaslik.

2. Sharh, bayon, izohlar juda zarur. Ular har qancha bo'lganda ham ortiqchalik qilmaydi. Lekin ularni o'z o'rnida alohida qilib berish. 2001 yilgi nashrda shunday alohida sahifa tagida keltirilgan qisqa sharhlar bor. Lekin ular yetarli emas. Juda ko'p istilohlar, realiylar sharhsiz, tushuntirishsiz qolib ketgan. Bunda Germaniya, Angliya, Fransiya, Amerika, Misr ilmiy akademik nashrlaridan ulgi olish foydali bo'lardi. I.YU. Krachkovskiy hamda Valeriya Poroxova oyatlar kalomini sof holda tarjima qilib, barcha izohlarni alohida o'ringa qo'yadilar. Nazarimizda bu, ayniqsa, ilohiy matnlar tarjimasida g'oyatda zarur ilmiy usuldir.

IKKINCHI XULOSA:

Qur'on istilohlari, atamaları imkoni boricha chuqur va har tomonlama tadqiq qilinishi va ushbu tekshirishlar ilmiy tarjimalarga singdirilishi zarur.

Bizning so'zlashuv va yozuv tajribalarimizda so'zning orttirma darajalarini qo'llashga mayllar ancha kuchli ko'zga tashlanadi. Chunonchi, Sayyid Mahmud Taroziy hazratlari "Bismilloxir Rahmonir Rahim" kalomini quyidagicha ifoda qiladilar: "Ibtido qilinur behad mehribon va nihoyatda rahmdil Alloh nomi ila". Bunda "ibtido qilinur", "behad" va "nihoyatda" degan so'zlar mubolag'a. Asliyatga nisbatan ular ortiqcha. Asliyat kalomi yombi, qisqa va tez esda qoladi. Insof bilan aytganda, uch asliy so'z orasiga ortiqcha so'z nari tursin, hatto havo zarrasini ham kiritib bo'lmaydi. Ko'pso'zlilik doimo tarjimani susaytiradi, lo'ndalikka va ta'sirchanlikka

putur yetadi. Muhtarama Valeriya Poroxova “Rahmon”ni “Всемиловитый» degan soʻz bilan oʻgiradi. «Vse» degan orttirma daraja bu yerda oʻrinsiz. Matnda «kulli rahmon» deyilayotgani yoʻq. Shuning uchun Krachkovskiy «миловитый» deb beradi va toʻgʻri qiladi. Bu kalomni muhtarama mutarjim doktor Sumayya Afifiy hamda doktor Abdel Salom al-Mansiy Qurʼonning rus tiliga qilingan eng yangi tarjima nashrida ham «Во имя Аллаха милостивого, милосердного!» – deb talqin etadilar. Shamsiddin Boboxonov, Abdulaziz Mansur, Alouddin Mansur «Mehribon va Rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman)», deb oʻgiradilar. Bu ayni adekvat tarjima. Oʻzbek oʻquvchisiga yaxshi tushunarli. Bismilloh, lo iloha ilalloh singari oʻta xos iboralar hamda Allohning goʻzal ismlarini asliyatda qanday boʻlsa, tarjimalarda ham shunday oʻzgartirmay saqlash oʻrinli boʻlar edi. Bularni har qanday tarjima matnida arabchasi qanday boʻlsa, shundayicha ifodalash va alohida izohda ular tarjimasini koʻrsatib oʻtish matn koloritini, uning ohangdorligini kuchaytiradi. Alloh islom diniga, uning ahkomlariga eʼtiqod qilgan millionlab kishilar qalbiga xuddi shu asl sifatlar, nomlar bilan kirib borgan va shunday qabul etilgan. Atributlarni oʻzgartirish oʻzini oqlamaydi. Tarjima qonuniyatlariga koʻra ham realiylarni asl holicha berish oʻzini oqlaydi. Yana bir muhim jihati asl realiylar, istiloh-atamalar bilan birga islom gʻoyasining oʻziga xosliklari boshqa til muhitlariga ham oʻtib boradi. Ular islomning oʻziga xos din ekanligiga urgʻu beradi. Realiiylarni oʻz asl holicha berish ilohiy matnning yuksak koloritini saqlashga xizmat qiladi. Moʻmin, islom, musulmon, iymon, Aʼloh, rasul, xanif, karim, rahim, rahmon, qahhor, jabbor, fiqh, hadis, shariat singari yuzlab tushunchalar va atamalar ming yildan ortiq davrdan buyon tilimizga qanday singib, oʻzlashib ketgan boʻlsa, Allohning goʻzal ismlari-sifatleri ham shunday singib, oʻzlashib boraveradi. Bunda oʻzlashish sari solingan katta yoʻl toʻsiqsiz kelajak ufqlari sari olib boradi. Alloh ismlari bilan birga ilohiy suralarning asl nomlari ham tilimizga kiradi va bora-bora tarjimasiz ham tushunarli boʻlib qoladi. Shuning uchun ayrim tarjima variantlarida suralarning nomlari asl holicha keltirilayotgani, sahifa ostidagi izohlarda ularning

ma'nosi va ayrim hollarda ularning tarixiy ma'nosi keltirilayotgani o'quvchi uchun katta davlatdir. Suralarning asl nomlarini bilish bilan tushunchalarimiz boyiydi, Qur'onning ilohiy yuksak muhitida nafas olishga yetaklaydi. Bu kabi keng va chuqur, zaruriy ishlarni, matnga oid ishlanmalarni, albatta ilmiy akademik nashrda amalga oshirish o'z-o'zidan zaruratga aylanadi. Akademik nashr qiziquvchilar va o'rganuvchilarning har qanday savollariga labbay, deb javob beroladigan nashr bo'ladi. Uning yaratilishida hozirgacha bo'lgan barcha tarjima versiyalari ulkan asos, moya vazifasini o'taydi. O'z-o'zidan ravshanki, hozirgi bir qancha tarjima variantlari bo'lmaganda akademik nashr haqida so'z yuritish ham qiyin bo'lardi.

Hozir qo'limizda mavjud va katta minnatdorlik bilan foydalanilayotgan nashrlarning har birining o'z foydali, yutuq tomonlari, jozibasi bor. Ular juda katta jasoratli mehnat va izlanishlar natijasida yuzaga chiqqan.

Lekin hali bizda Qur'onning asl hissiy-ruhiy, badiiy qudrati va shiddati, nazm ohangdorligining tovlanishlari va mo'jizalari adekvat saqlangan o'zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgan emas. Ayniqsa, o'ttizinchi pora suralarining shaxdu shiddat va samoviy hayajonlari ifodalangan o'rinlar kamdan-kam uchraydi. Eng oliy hayajonli o'rinlarda ham oyatlar iloji boricha soddalashtirib, iloji boricha tushunarli qilib berishga xarakat qilingan. Bu hozirgi barcha versiyalarning umumiy xususiyati. Ko'pincha bu yuksak ilohiy hayajonlarni tarjima so'zida ifoda qilib bo'lmaydi, degan fikr yuradi. Va ko'p payt ijodkor qo'llarni bog'laydi. Lekin domla Sablukov, domla Krachkovskiy, Valeriya Poroxova xonim hatto she'riy yo'l bilan buni o'z tillarida har qalay ifodalash usulini topishga urindilar-ku, O'zbek tilida ham eng adekvat tarjima eng hayajonli (Qur'on darajasidagi hayajonli) tarjima bo'lishini orzu qilamiz.

XX asr jahonning ulkan alloma adiblaridan biri Umberto Eko tarjima nima degan savolga javob berarkan, u «aynan aytish», deydi. Ya'ni original tilidagi matnni har qanday boshqa tilda aynan aytish, to'g'rirog'i aynan ifodalash. Tarjimaning eng oddiy, eng to'g'ri ta'rifi. Uni tarjimaning universal ta'rifi deb aytish

ham mumkin. Shunga ko'ra, oyatlarning ayrim tarjimalariga nazar tashlaylik. «Maorij» surasida qiyomat manzaralari bag'oyat o'tkir va ta'sirli qo'rqinch iboralarda ta'riflanadi. Undan bir oyat: "Yavma takun s-samou kal-muxli" (70,8).

"U kunda osmon yog'ning quyqasidek bo'lib qolur".

Abdulaziz Mansur tarjimasi (588-b.)

«В тот день, когда небо будет как мед расплавленная»

Л. Крачковский tarj., 471-b.

"U kunda osmon eritilgan mis kabi bo'lib qolur".

Alouddin Mansur tarj., 458-b.

«Тот день, когда расплавленной медью станет небо».

Валерия Порохова tarj., 613-b.

«Ul kun osmon bo'lur eritilgan mis kabi».

Sayyid Taroziy tarj.

«В тот день небо будет подобно расплавленному серебру».

Sumayya Afifiy va Al-Mansiy tarj., 1168-b.

"Ul kun ko'k bo'lur erigan oltun kumush kabi".

XII asr eski o'zbek tili tarjimasi.

Qur'on asliyatiidagi "kal-muxli" birikmasining qaysi bir tarjimasi to'g'ri? To'rt tarjimon uni "eritilgan mis kabi" deb talqin etadi.

Nisbatan yangi va to'la, jiddiy Qohira nashrida "eritilgan kumush kabi" deb o'giriladi.

Eritilgan mis bilan eritilgan kumushning farqi bormi? XII asrdagi noma'lum muallifimiz esa bu holni "erigan oltun kumush kabi" deb tasavvur qilmoqda. Eng yangi tarjimonimiz esa butunlay o'zgacha tasavvurda: "osmon yog'ning quyqasidek bo'lib qolur" degan talqinni taklif etmoqda.

Xo'sh, bu talqinlarning qay biri to'g'ri? Qay biri originalga yaqin? "Kal-muxli" birikmasining asl ekvivalenti qanday ifodalanadi?

Zamon o'quvchilariga shu kabi-ko'pdan ko'p o'rinlarni aniqlab berish uchun ilmiy akademik nashr zarur emasmi?

Barcha mufasssirlar Qur'onni o'qish va uqish Yaratganga yaqinlashish yo'li, zulmatdan yorug'likka chiqish va yetishish yo'li, deb to'g'ri tushuntiradilar. Qur'onning o'z shahodatiga suyanib, uni turli o'zgarish va o'zgartirishlardan Allohning o'zi asraydi deb uqtiradilar. 2000 yil ruschaga qilingan tarjimaning Qohira nashrida doktor Muhammad Tantaviy so'zboshida shunday haqqoniy fikrlarni aytadi: "Odamlar va xalqlar Qur'onni va uning yo'l-yo'riqlari, ahkomlarini o'zlariga rahbar qilib olsalargina baxt-saodatga erishadilar. Ushbu hidoyatga Qur'onning, uning kalomlarining ma'nolari, ifodalarini talqin qilmasdan, tushuntirmasdan, tadqiq etnasdan yetib bo'lmaydi, mana shu ilm-ta'limotni tafsir deb atashadi (talqin deyishadi)" (O'zbekchaga tarjima. Qohira nashri, 2000 yil. 12–13-b). Shunday tafsirlarsiz bu kitobni anglash mushkul, deb yozadi u yana. Islom ulamolari hazrat Tantoviy va hazrat Zarkoviy Qur'onni tafsir qilganda iloji boricha sodda va shu bilan birga iloji boricha aniq qilib tushuntirishga da'vat etadilar. Suyutiyy, Ibn Battol kabi ulug' allomalar ilohiy kitobni boshqa tillarga tarjima qilish mumkin. Ammo bunda bir muhim shartga rioya qilish darkor. Birinchidan, asl matnni aniq va so'zma-so'z berib, uning ostida boshqa tilga o'girilgan ma'nolarini aks ettirish lozim. Mana shu eng to'g'ri yo'l deb, aytganlar. Har holda ilohiy matnlarning o'zbek tiliga tarjimasi tamoyillari, qoidalari, yo'l-yo'riqlari muayyan tarzda aniq ishlab chiqilishiga zarurat tug'ilayotgani sezilmoqda. Bularga grammatik, badiiy tamoyillar, sharhlash, izohlash tamoyillari va ularning eng mukammal shakllari kiradi. Yevropa olimlari sinchkovlik bilan Qur'on atamalari, terminlari, realiylari ustida qunt bilan tekshirishlar olib borganlar. Hatto akad. N.YA. Marr "Arabcha "hanif" termini va uning paleoantolgik yoritilishi" degan risola ham yozgan (1920).

Terminlarga boqaylik: "U osmonlar va yerni olti kunda yaratib, so'ngra Arsh uzra mustaviy bo'lgan zotdir" ("Al-xadid", 4).

"Yaratdi ko'klarni taqi yerlarni olti kun ichinda ondin so'ng arig'lik bo'ldi arsh uza" ("Tafsir"). "Arig'lik" bu yerda sokinlik, tinchlik ma'nosida.

“Tafsir” soʻzma-soʻz tarjimani oyatlar ostida berib borayotgan boʻlsa ham, “huallaziy” ni tushirib qoldiradi. Undan keyingi soʻzlarni, juda sodda va aniq oʻgiradi. Faqat ohangdorlikni saqlash uchun “arz” soʻzini “yerlarni” deb agʻdaradi. “Koʻklarni va yerlarni” – juda ohangdor.

Zamonaviy tarjimon bu yerda “osmonlar va yerni”, deydi. “Arz”ni “yerlar” deb olish toʻgʻri boʻladimi? “Arz” matnda yer sayyorasi maʼnosida kelyapti. Uni “yerlar” deb olish unchalik toʻgʻri emas. Boyxoʻjaning yerlari deyish mumkin. Yer kurrasining qitʼalari deyish mumkin. Lekin “Arsh”ni “yerlar” deyish toʻgʻri boʻlmaydi. “Arsh” ni “yerlar” deb bergan holda “Tafsir” “Arsh” ni oʻz holicha aks ettiradi. Eng yangi tarjimalarda ham tushuncha oʻz holicha “Arsh” deb olingan. Endi juda qisqa boʻlgan oyatni koʻraylik:

“Hual-aziz ul-hakim” (“Al-hadid”).

“U qudrat va hikmat sohibidir” (1-oyat).

Tarjimon “aziz” va “hakim” ni “qudrat va hikmat sohibi” deb oʻgiradi. Shu suraning uchinchi oyati: “U Avval, Oxir, Zohir va Botindir. U barcha narsani biluvchidir”, deb agʻdariladi. Yaʼni asl matndagi Avval, Oxir, Zohir, Botin tushunchalari oʻz holicha keltiriladi. Nega oldingi oyatdagi. “Aziz” va “Hakim” tushunchalari tarjimada berildi-yu, keyingi oyatda oʻsha qatordagi Allohning toʻrt goʻzal sifati asl holicha olindi? Biz bu gapni tamoyillarning shakllanmaganligiga misol uchun olmoqdamiz. Notoʻgʻri tarjima demoqchi emasmiz.

Yondoshuvlar turlicha. Shuning uchun tarjimada asliyatda yoʻq “zotdir”, “sohibidir” degan ortiqcha soʻzlar koʻp ishlatiladi. Holbuki, bunga hojat yoʻq. “Oxir” va “Zohir” asl holicha olinganda, “Alim” – “biluvchi” deb agʻdariladi. “Barcha narsalarni biluvchi Alimdir” – deb aslni saqlagan holda koloritini keltirib oʻgirish ham mumkin. Buning uchun esa tarjima tamoyillari mukammal ishlangan boʻlishi zarur. Sayyid Taroziy talqinida esa, aytaylik, “Avval” va “Oxir” oʻzicha olingan holda “Zohir” va “Botin” – “Oshkora” va

“Maxfiy” deb qayd etiladi. Bu ham bir tamoyilga amal qilmaslikdan. Yoki bir tarjimon “Aziz” ni “G‘olib” deb o‘giradi, boshqa tarjimon uni “Qudrat sohibi” deb oladi. Xos otlarni xilma-xil talqin etish joyiz emas. Bular tarjima matnlarini haddan tashqari soddalashtirishga olib boradi. “Allohning chiroyli ismlari bordir. Uni o‘shalar bilan atangizlar” (“A’rof”). Chiroyli ismlarga chiroyli rioya joiz.

“Alloh, deb chorlangiz, yoki Rahmon deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlar-da (joyizdir). Zero, uning go‘zal ismlari bordir” (“Al-Isro”). Bu yerda “zero”, “joyiz” ortiqcha yuk. Gapning grammatik to‘g‘ri qurilishi topilmagan. Ammo tarjimon “Alloh”, “Rahmon” so‘zlarini tarjima qilmasdan berish zarurligini bunda yaxshi his qilgan. Nega “Qur‘on”, “Lavh ul-mahfuz” so‘zlarini tarjima qilishni aslo hayolimizga keltirmaymiz? Tarjima qilsa bo‘ladi-ku! Lekin bunga zarurat yo‘q. Qur‘on tarjimalarida uslub yo‘q. U shakllanib yetmagan. Emotsionallik yo‘q. U ham shakllanib yetmagan. Shuning uchun Allohning janob Muhammadga murojaatlari “Siz” deb olinsa, boshqa elchilarga “Sen” deb aytiladi. Payg‘ambarlar esa Allohga “Sen” deb nido qiladilar. Qanday bo‘lishi kerak? Qaybir yo‘l to‘g‘ri? Andisha yo‘li to‘g‘rimi? Haqiqat yo‘limi? Tarjimani ilm, ijod, ma‘rifat deb anglash yo‘limi?.

§7. O‘zbekistonda tarjimonlik faoliyati

Tarjimonlik ijtimoiy hayot taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq, ya’ni madaniyat, san‘at va adabiyot tarixi bilan uzviydir. Arab yurishlari siljib borgan mamlakatlarda, shu qatorda hozirgi O‘zbekiston hududida Islom dini o‘rta asrlarda yagona dinga aylandi, arab tili esa ilm-fan tili maqomiga ko‘tarildi. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo madaniy hayotida tarixiy-adabiy janrlarga daxldor asarlar tarjimalari sezilarli o‘rin tutdi.

VIII–XI asrlarda fan, san‘at, adabiyot, madaniyat yuqori darajada rivojlandi. Bu davrda Farobiy, Ibn Sino va Beruniy kabi mashhur olimlar yetishib chiqdi. Ularning barchasi arab tilida ijod qilishgan. Ularning faoliyatida yunon, rum va lotin yozuvchilarning

asarlari tarjimalari muhim o'rin egallaydi. Biz ularni qadimiy tarjimachilik madaniyatimizni boyitgan ilk tarjimonlar sifatida qadrlaymiz va Sharq Renessans davrining vakillari deb qaraymiz. Bu allomalar ko'p tillarni bilishar va o'z asarlarini turli xil tillarda-fors, arab, yunon, sanskrit, suryoniy tillarida yozishardi. Misol uchun, Farobiy bir qancha sharq tillarini bilgan va o'z asarlarini asosan yunon va fors tillarida yozgan. Mashhur olim Abu Ali Ibn Sino o'zining ilmiy asarlarini arab tilida yozgan. Uning tibbiyotga oid mashhur asari "Tib qonunlari" va falsafiy asari "Davo haqidagi kitob" Yevropa tillariga tarjima qilingan.

Ahmad al-Farg'oniy dunyo madaniyatini rivojlanishiga ulkan xissa qo'shgan. Bizga faqatgina 8 ta kitobi ma'lum. Uning qo'lyozmalari Parij, Berlin, London, Qohira va Hindiston kutubxonalarida saqlanmoqda. Al-Farg'oniy tarjimachilik rivojlanishi uchun ham sa'y-harakatlar qilgan. U qadimgi yunon olimlarining kashfiyotlarini lotin tilidan arab tiliga tarjima qilib ommaga tarqatdi. 1669-yilda allomf asarlari Yakob Gamus tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan.

Buyuk olim, faylasuf va tarixchi Abu Rayhon Beruniy Markaziy Osiyo tarjima tarixiga, ayniqsa O'zbekistonning tarjima tarixiga katta hissa qo'shgan. Bu davrning barcha olimlari kabi Beruniy ham o'z asarlarini asosan arab tilida yozgan, arab tilidan fors tiliga ham tarjima qilgan.

Abu Rayhon Beruniy qomusiy olim bo'lib, tarjimachilik haqidagi fikr-mulohazalarini yozib qoldirgan. Beruniyning to'g'ri tarjima haqidagi fikrlari uning ilmiy-ma'rifiy qarashlariga muvofiq bo'lgan va uning falsafiy qarashlari esa X–XIII asrlardagi tarjimonlik faoliyatidagi muammolarning yechimini topishga yordam bergan. Beruniy o'zining "Hindiston" asarida Gomerning "Iliada" va "Odisseya" asarlaridan parchalar keltirgan. Biz uning kitoblarida yunon, rum va hind yozuvchilarining asarlaridan tarjima qilingan parchalarni ko'rishimiz mumkin. Mohirona adabiy tarjimadan Beruniy o'z ijodiy faoliyatida samarali foydalangan. U arab, tojik, sug'diy, xorazmiy, suryoniy, yahudiy, hind, sanskrit va yunon

tillaridagi asarlarni o'qigan va ularga sharhlar yozgan. Uning tarjimalari orasida "Qissai Vomiqu Uzro", "Qosimus-surur va aynul-hayot", "Hurdmiizdiyor va Mehriyor", "Bomiyonning ikki sanami", "Dah, Moh va Kiromiduht", "Nilufar" eposlarining tarjima kitoblari bor. U bu asarlarni fors tilidan tarjima qilgan bo'lib ular "qiziqarli va hayajonli hikoyalar" deb "Fehrast"da ta'kidlangan. Beruniy 60 dan ortiq asarlarni tarjima qilgan va hind tilidan arab tiliga o'girilganlari "Patanjala"³ nomi bilan mashhurdir.

Mahmud Koshg'ariyning ham tarjimonlik faoliyati tarixda katta iz qoldirdi. U qimmatli "Devonu lug'atit-turk"ni yaratgan. O'zining lug'atida turk qabilalarining shevalariga xos so'zlarning arab tilidagi ekvivalentlarini keltirgan. Yirik arabshunos olim Solih Mutallibov "Devonu lug'atit-turk" asarini XX asr o'rtalarida arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib uni buyuk olim sifatida ta'riflaydi. U XI asrda yashab ijod qildi. Koshg'ariy turkiy tilida gaplashilgan ko'p joylarga borgan va uni har tomonlama o'rgangan. U turkiy qabilalarning til xususiyatlarini, ulardagi umumiylikni va farqlarni aniq tavsiflagan. So'zlarni ot va fe'llarga bo'lgan. Bu esa Markaziy Osiyodagi qiyosiy tilshunoslikning boshlanishi edi.

Abulqosim Mahmud bin Umar Zamaxshariy XII asrda yashagan bo'lib, "Jorulloh" hamda "Xorazm faxri" nomiga sazovor bo'lgan. U Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib arabcha-forscha "Muqaddimat-ul adab" ("Adab ilmiga kirish") lug'atini yaratgan shaxs edi. Unda arabcha so'zlarning forscha va turkiycha tarjimasi berilishi leksikologiyada qimmatli hodisa bo'ldi. Olim so'zlarning etimologiyasiga alohida ahamiyat qaratdi. Uning asarlarini tahlil qilish O'zbekistonda tarjimachilikni o'rganishga katta yordam beradi. Olim ko'p sohalarga oid atamalar haqida ham qimmatli fikrlar, ma'lumotlar qoldirdi.

Sayfi Saroiy o'zbek shoiri va tarjimonlaridan biridir. U Oltin O'rda va Misrda yashagan. Fors va arab tillari, adabiyoti, xalq og'zaki ijodiyotini chuqur bilgan va lirik she'rlar yozgan. U Misrda yashagan paytida Sa'diyning "Guliston" asarini turkiyga tarjima qilgan. Uning

³Buyuk siymolar, allomalar. Toshkent: 1995, 1 kitob 48 b.

tarjimasi halqona bo'lib, asl matnning ifodaviyligini saqlagan.

Xorazmdagi tarjimonlik maktabining asoschilaridan biri Muhammad Rizo Ogahiy. U tarixchi, tarjimon va o'zbek mumtoz adabiyotining mashhur shoiri bo'lgan. Ogahiy o'zbek tiliga Sharqning mashhur "Xaftpaykar"; "Guliston", "Shoh va gado", "Yusuf va Zulayho", "Bahoriston" kabi Ganjaviy, Sheroziy, Dehlaviy, Jomiy, Hiloliy asarlarini va "Zafarnoma" "Nodirnama", "Ravzat us-safo" kabi tarixiy asarlarni tarjima qilib, XIX asrning buyuk tarjimoniga aylangan. Najmiddin Komilov o'zining Ogahiyning tarjimonlik mahorati va tarjimonlikning an'analari haqidagi tadqiqotlarida buyuk shoirning adabiyotimiz rivojiga qo'shgan hissalarini keng yoritgan.

Ogahiy mahoratli tarjimon sifatida 19 ta asarni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan va u madaniy merosimizni boyitgan.

Ogahiy Munis Xorazmiy oxiriga yetkazmagan asari "Ravzat us-safo"ni 2–3-jildlarini tarjima qilgan. Ogahiy quyidagi tarixiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan: "Nodirnama" (Muhammad Mahdixon), "Zafarnoma" (Sharafiddin Ali Yazdiy), "Tazkirai Muqimxoniy" (Muhammad Yusuf Munshiy), "Tabaqoti Akbarshohiy" (Nizomiddin Ahmad Hiraviy), "Ravzatus-safoi Nosiriy" (Rizoqulihon Hidoyat); adabiy asarlardan "Haft paykar" (N.Ganjaviy), "Guliston" (S.Sheroziy), "Hasht-bihisht" (Xusrav Dehlaviy), "Zubdat-ul hikoyat" (Muhammad Voris), "Yusuf va Zulayho", "Solomon va Ibsol", "Bahoriston" (A.Jomiy), "Shohu gado" (B.Xiloliy), "Badoye ul-vaqoye", tarbiyaviy-falsafiy asarlardan "Qobusnoma" (Kaykovus), Miftoh ut-tolibin" (N.Baljuvoni), "Ahloqi Muhsiniy" (Xusayn Voiz Koshifiy) va boshqalar.

Biz o'tgan asrlarda qadimiy madaniyatimizni boyitgan jafokash tarjimonlar Sharq Renessans davrining vakillarini behad qadrlaymiz va ularni tarjimachilikni asoschilari sifatida o'rganamiz. Bu mashhur allomalar o'z asarlarini turli (fors, yunon va hatto Sanskrit) tillarida yozishgan. Misol uchun, Farobiy bir qancha sharq tillarini bilgan va o'z asarlarini asosan arab, yunon va fors tillarida yozgan edi. Mashhur olim Abu Ali Ibn Sino esa o'zining ilmiy asarlarini arab va she'riy asarlarini fors tilida yozgan. Uning tibbiyotdagi mashhur asari "Tib

qonunlari” va filosofik asari “Davo xaqidagi kitob”i Yevropa tillariga tarjima qilingan.

Ingliz adabiyoti XX-asrning 30-yillariga kelib, tarjima qilina boshlandi. Hozirgi kunga qadar bir qancha Amerika va Lotin Amerika yozuvchilarining, jumladan 20 dan ortiq ingliz yozuvchilari va shoirlarning kitoblari jumladan, Shekspir sonetlari, Bayron she’rlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. “Robinzon Kruzoning sayohatlari” asari o‘zbek tiliga ingliz adabiyotidan qilingan ilk tarjimadir. Bu kitobni 1911-yilda o‘zbek tiliga Muhammad Fozil Otabek ozarboyjoncha bayon tarjimadan ag’dargan.

O‘zbek adabiyotida badiiy tarjimachilikdagi ilk yorqin misollar Xamza Xakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir, Zulfiya va boshqa ko‘plab ijod ahllarining qalamiga mansubdir.

O‘zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor A.P.Chexov asarlarining eng yaxshi tarjimonidir. U o‘zining hikoyalarida fenomen (his-tuyg‘u tajribasi bilan payqaladigan hodisa)ning mohiyatini ochib berdi. A.P.Chexov xikoyalarining tarjimasi yozuvchi-tarjimonlarga A.P.Chexov tabiatini o‘rganishga chuqurroq yordam bergan va bu esa uning iste’dodi kuchini his qilishga va o‘zbek kitobxonlariga taqdim etishga imkon berdi.

1950-yillarning oxiriga kelib O‘zbekistonda tarjima tarixi va nazariyasi tadqiq etila boshlandi, taniqli yozuvchi olim va tarjimon Jumaniyoz Sharipov “O‘zbekistonda tarjima tarixidan”, “Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar ” kabi monografiyalar chiqardi. Taniqli olim va fan tashkilotchisi G‘.Salomov “Tarjima nazariyasiga kirish”, “Tarjima nazariyasi asoslari” kabi darslik va qo‘llanmalar yozdi, “Tarjima san’ati” kabi turkum to‘plamlarni chiqarishga bosh-qosh bo‘ldi.

1917-yilgacha qilingan tarjimalar V.Raxmonova, H.Hamidova, N.V.Vladimirova, T.Qarayeva, M.Soipova, N.Komilov va R.Vohidovlar tadqiqotlarining muhim ob‘yekti bo‘lgan.

O‘tgan asrning o‘rtalarida tarjima nazariyasini keng qamrovli tadqiq etish davom etdi, ularda nazariyaga oid ko‘p ma’lumotlarga

oydinlik va aniqlik kiritildi, tarjimonlar faoliyati o'rganildi. Najmiddin Komilov o'zining "Xorazm tarjima maktabi" nomli doktorlik dissertatsiyasida quyidagi an'anaviy tarjima maktablarini o'rgangan:

XII–XVI-asrlardagi Xirotda tarjima maktabi;

XVI–XVIII-asrlarda Qoshg'ar tarjimonlik markazining vujudga kelishi;

XIX–XX-asrning boshlarida Turkistonda tarjimonlikning rivojlanishi.

XX-asrning boshlarida ma'rifatparvar Fitrat tarjimonlik faoliyatini rivojlanishida ancha katta xissa qo'shgan. Fitrat shoir, yozuvchi va olim bo'lgan. Fitrat Turkiyada ta'lim olgan va u Sharq yozuvchi va shoirlarining adabiyoti va tarixini o'rgangan.

U Bedil, Umar Xayyomning mumtoz she'riyatini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon yangi o'zbek she'riyatining asoschilaridan biri bo'lgan. U 1897-yilda Andijonda dunyoga kelgan. Dastlab u Islom dini asosiy o'rin tutgan maktabda, so'ng madrasada ta'lim olgan. Arab, fors, rus tillari bilan birga barcha rus va sharq adabiyotini ham o'rgangan va o'zbek badiiy tarjima maktabining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U Maksim Gorkiyning "Ona" romanini, Pushkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov" va Shekspirning "Gamlet" va yana boshqa bir qancha asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Abdulla Qodiriy tarjimonlik ravnaqiga ham katta xizmat ko'rsatgan adibdir. Abdulla Qodiriy chet tillarni o'rganishni qadrlagan. U arab, rus, fors, turk, tatar, ozarboyjon tillarini o'rgangan. Mashxur rus yozuvchisi Chexovning "Xameleon" hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Abdulla Qodiriy ruscha-o'zbekcha lug'atni tuzishda qatnashgan. Abdulla Qodiriy asl nusxa va tarjimaning mazmun jihatdan bir biriga mos kelishiga katta e'tibor bergan. XX asrda O'zbekistonda faol tarjimonlik maktabiga asos solindi. Mirzakalon Ismoil, Mirziyod Mirzoidov, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zimatov, Husan Ruzimetov, Odil Sharopov, Odil Rahimov, To'xtasin Jalolov, Sharif

Tolib, Shoislom Shomammedov, Rahmonberdi Muhammadjonov, Ansoriddin Ibrohimov, Tohir Ibrohimov, Zinatilla Ashurboyev, Nabi Muhamedov, Jamol Kamol, Ubaydulla Karimov, Yanglish Egamova, Asomiddin O'rinboyev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibrohim G'afurov, Nizom Komilov, Ozod Sharafiddinov bu maktabning yorqin vakillaridir.

N.Komilov, X.Karomatov, N.Vladimirovalar tarjima tarixini tadqiq etish ishini boshladilar. Hamidulla Karomatov Kristofer Marloning "Amir Temur" asarini o'rgandi, o'zbek tiliga o'girilgan matnning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berdi. N.V.Vladimirova esa ayniqsa G'arb bilan Sharq adabiyotini tarjima qilish sohasidagi ba'zi muammolarga yechim topishga intildi.

G'aybullla Salomov O'zbekistondagi tarjima nazariyasi asoslari ustida ilmiy faoliyat olib bordi. U tarjimada milliy hususiyatlarni aks ettirishga katta e'tibor bergan va frazeologizmlarni tarjimada ifodalash yo'llari, she'riy tarjimalarning o'ziga xosliklari ustida ishlagan. Kitoblarda u tarjimada shakl va tarkibning yaxlitligini saqlab qolish to'g'risida nazariy bilimlar bergan. Shuningdek, G'aybullla Salomov chet el tarjimonlari tomonidan qilingan "Boburnoma" tarjimalarini mukammal tahlil qilib chiqdi. 1922-yilda "Boburnoma" hozirgi fors tiliga Murod Qarluqi tomonidan tarjima qilingan. Qarluqining tarjimasini G'aybullla Salomov asl nushaga yaqinroq deb topdi. "Yaqinroq" so'zining ma'nosi shundaki, u aniq, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan deb xulosa chiqargan.

Jumaniyoz Sharipov "Badiiy tarjima va mohir tarjimonlar" kitobida (1972-yilda "Fan" nashriyoti), Ogahiy, Avloniy, Murodxo'ja, Oybek, Mirtemir va Zulfiyaning ijodiy mahoratini ochishga harakat qildi. Badiiy tarjimaning nazariy asosini, she'riy tarjimaning milliy uslubini, tarixiy – nazariy tarjima metodologiyasini, tarjimonlar mahorati qirralarini tahlil qildi.

1970–1975-yillarda Gyotening "Faust" (E.Vohidov), Dantening "Ilohiy komediya", "Do'zax"(A.Oripov), Nozim Hikmatning "Inson manzaralari" (R.Parfi) kabi asarlarning o'zbek tilida chiqishi she'riy tarjimaga yangicha yondoshuvlar paydo bo'lgani, Navoiy

an'analari o'z ijodiy davomini topganini ko'rsatdi.

Shekspir uch asr o'tsa-da yozuvchi sifatida haligacha tirik. U Angliyaning Stratford Ayvon shahrida tug'ilgan. Tarjimonlarning har bir avlodi Shekspirni yangitdan kashf etadi. Cho'lpon, G'afur G'ulom, Uyg'un, Maqsud Shayxzoda kabi yirik o'zbek adiblari Shekspir asarlarini shoirona yangratib, o'zbek xalqiga tuhfa etdilar. Garchi Shekspirni ular vositali til orqali qayta yaratgan bo'lsalarda, asarlarning buyuk dramatik ta'sirchanlagini saqlab qololdilar. O'zbekistonda Mustaqillikdan oldin tarixiy sharoit taqozosi bilan G'arbiy Yevropa adabiyotlari o'zbek tiliga aksaran rus tili orqali tarjima qilindi. Mustaqillik yillarida adabiy, tarixiy va publitsistik asarlarni asl tillar va xususan, ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish harakati kuchayib boryapti. Chunonchi shoir Jamol Kamol Shekspir asarlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri o'girishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Fayzullo XXI-asr tarjimachiligida alohida o'rin tutadi. U bevosita erdu va hind tilidan o'zbek tiliga bir necha yirik hind asarlari, filmlarini o'girdi. Prem Chandning "Yordam" (1974), "Jang maydoni" romanlarini, "Maxabxarata", "Ramayana", "Sangam", "Bazigar", "Mirzo G'olib" singari e'tiborli kino asarlarni mohirona tarjima qildi.

Umid qilamizki, XXI-asr texnik tarjima asri bo'ladi. Shubhasiz, olimlar tarjimalarni kompyuterlashtirish borasida izlanishlar olib borishadi. Tarjimachilikda izlanish betinim davom etadi.

OZOD SHARAFIDDINOV – TARJIMON

Nardasen, ver bir xabar,
Maxzunim, o' mushfiq padar?
Zoti poking nardadir?
Daryodami, sahrodami?
Nardasen oh, nardasen,
Dunyodami, uxrodami?

Abdulla To'qay

Ustoz Ozod Sharafiddinovning tarjimalarini ilk marotaba oltmishinchi yillarning ikkinchi yarmi – yetmishinchi yillarda o‘qiganmiz. Bu Prosper Merimening “Karl IX saltanatining yilnomasi” edi. Yoki to‘g‘rirog‘i, E.Kazakevich degan taniqli yozuvchining o‘sha oltmishinchi yillarda yangi so‘zday qabul qilingan va tushunilgan “Ko‘k daftlar” degan mo‘‘jaz qissasi edi. Keyin Prosper Merime. Ozod Sharafiddinov fransuz tarixining badiiy in‘ikosi ichiga hozirgi zamon o‘zbek tili vositalari bilan ancha chuqur yorib kirolgan va Merimega xos pafosni tarixiy muhitning poeziyasini chiqara olgan edi. Shu bilan birga bular o‘sha paytlar nom qozonib kelayotgan adabiy tanqidchining tarjimalari ekanligi sezilardi. Mana endi hozir Ozod Sharafiddinov tarjimalari dunyosi haqida so‘z yuritish – turli xalqlarga mansub rang-barang adiblar, publitsistlar, mutafakkirlar, faylasuflarning ajoyib-g‘aroyib g‘oyalari va ularning ajib bir tarzda kesishgan, tutashgan – oltin tutashtirmalar olami to‘g‘risida gapirish bilan barobar.

Bu tarjimalar kakhkashoni⁴ (bu ko‘tarinki so‘z Ozod Sharafiddinovning ko‘p yillar mobaynida qilgan tarjimalarining nihoyatda rang-barangligini boshqa so‘zlardan ko‘ra aniqroq aks ettiradi) – Ozod Sharafiddinov o‘z zamonasining belgili bir ma‘rifatparvari sifatida katta madaniy-ma‘rifiy olamlar ichida, ular qurshovi va quchog‘ida yashaganligini va tinmay ijod qilganligini ko‘rsatadi.

Tarjima ijodiy jarayon va unda ba‘zi bir psixologik-ruhiy diqqatga sazovor holatlarni kuzatish mumkin: chunonchi, kishi tarjima ishiga avvalo o‘ziga hamroh, maslakdosh izlab, urinadi. Tarjima og‘irchilikda bo‘lsa-da, doimo ijodiy nafas bilan yashash, ijodning tirik tomirini ushlab turishga bo‘lgan ulkan ehtiyojning mevasi. Chunonchi, Sanjar Siddiq, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon, Usmon Nosir, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir, Zulfiya tarjimalariga ular yaratilgan muhitdan kelib chiqib shunday qaralsa, o‘rinli deb o‘ylaymiz.

Ha, ijodkor tarjimaga avvalo o‘ziga ijodiy hamroh izlab yuz

⁴ Kakhkash- Somon yo‘li

tutadi. Hamfikir topilgach, keyin fikrlar musobaqasiga o'tadi.

Bizning qadim va hozir o'zbek tarjimonlarimizga eski ko'z ilg'amas zamonlardan – Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Qutb Xorazmiy, Qaffol Shoshiy, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiy va nihoyat, Alisher Navoiydan meros bo'lib kelayotgan, nasldan naslga o'tayotgan katta e'tiborga loyiq bir ijodiy fikrni esga olib o'taylik. U Al-Mansur topshirig'iga ko'ra buyuk "Siddxanta"ni tabdil etib, uni zamonasi va butun islom Sharqi madaniyatlari uchun qayta yaratarkan, dunyo falakiyot ilmiga, uning taraqqiyotiga mislsiz hissa bo'lib qo'shilgan "Ziji Xorazmiy"ni dunyoga keltirarkan: "Men bu asarimni odamlarga foyda keltirsin, deb yozdim", deb qayd qilib o'tdi. Tarjimalar orqali o'z xalqi ongini ochish, xazinalarini boyitish, ruhoniylar tarzda sarafroz etish g'oyasini Beruniy ham "Hindiston"da, Qutb "Husrav va Shirin"da, Saroiy "Guliston"da, Navoiy esa "Nasoyim", "Nasrullaoliy", "Lison ut-tayr", "Nazm ul javohir"da aniq odamparvarona, vatanparvarona so'zlar bilan bayon etib o'tganlar. Tarjimadan o'z xalqini insoniyat yaratgan buyuk madaniyat obidalaridan bahramand etishlikni maqsad qilib qo'yg'alar.

XX asrning eng mahsuldor va eng sinchkov tarjimonlaridan biri Ozod Sharafiddinov o'z tarjimachilik amaliyotida shu olijanob merosiylar g'oyani muvaffaqiyat bilan davom ettirdi.

Undan juda katta ilmiy, publitsistik, ma'rifiy, badiiy tarjima asarlari yangi avlodga meros qoldi.

Uzoq vaqt mobaynida bunyod bo'lgan ushbu tarjima merosini diqqat bilan kuzatgan kishiga shu narsa ravshan bo'ladiki, Ozod Sharafiddinov doimo va izchil tarzda tarjimaga jiddiy pragmatik nuqtai nazar hamda ijodiy, sotsial bir maqsad bilan yondoshgan.

U tarjima qilinadigan asarlardan fikr izlagan.

O'z oldiga o'quvchilarda muayyan tarjima asari orqali muayyan fikr uyg'otish, fikr hosil qilishlikni maqsad qilib qo'yg'an. Bu uning elliginchi yillarda Belinskiy, Dobrolyubov, Gorkiydan qilgan ilk tarjimalaridayoq ko'zga tashlangandi.

Ozod Sharafiddinov fikr uyg'otish, fikr hosil qilish deganda,

avvalo kitobxon fikrini yangilash, boyitishni nazarda tutardi. Fikrni yangilash esa o'quvchini yangi fikr dovonlariga olib chiqish, bir pog'ona yuqoriga ko'tarish, to'rt qadam ilgariroq qadam tashlash degani bilan teng edi. Yana bir qiziq ijodiy xususiyatni ham qayd etib o'taylikki, Ozod Sharafiddinov o'zining toshqin, suronli adabiy tanqidchilik faoliyatida, jo'shqin maqolalarida yangi fikr aytish, fikr yangilanishini birinchi o'ringa qo'yardi. Bezovta fikr qaynashlari bilan zamondoshlarini o'ziga jalb etar, bahslarga tortardi. Doim fikrlashga, muloqotga, bahsga intilish uning insoniy ijodkorlik tabiatida yetakchi maylga ega edi. Fikrsiz yasholmaslik unda tug'ma odat, tug'ma fe'l bo'lsa ehtimol.

Muttasil o'qish-o'rganish, bilim xazinalariga intilish, g'ayur kitobxonlikda bu mayl uning ijodining, xususan, tarjimachiligining xarakterli, o'ziga xosligiga aylanganligi ayon ko'zga tashlanadi. Intelлектning chanqoqligi, fikr uyg'otish va uni yangilashga bo'lgan tunganmas ishtiyoqni uning yuzlab shogirdlari, tinglovchilari darslarida o'tirib ham kuzatganmiz. Darslar qizg'in fikrlashlarda o'tardi. Domlamiz fikrini jilovlash, qolipga solish emas, parvozga undardi, qanotlantirardi, fikrchanlik muhitida nafas olishga undardi.

Nima uchun Ozod Sharafiddinov tarjimachilikda Merime, Oskar Uaylddan, Anatoliy Ribakov, fors adib Tonkaboniygacha qamrab olishga urinadi?

Nima uchun Maksim Gorkiyning boshqa asarlarini emas, ayni kam tanilgan "Shaxsning yemirilishi" asarini tarjima uchun tanlaydi?

Nima uchun o'qishlari va tarjimalari doirasiga Stefan Sveyg, Vasil Bikov, Efraim Sevila, Vladimir Voynovich, Paulo Koelo, Xans Ioaxim Shadlix va o'nlab asarlarini olib kiradi?

Nima uchun Ortega-i-Gasset, Olvin Toffler, Zbignev Bjezinskiy, Aleksandr Genis, Jan Jak Russo va Yuxan Borgenlar ustida mashaqqatli qora ter to'kadi? Bu bilan yuragimizning qorong'u puchmoqlarini elektr nurlari bilan yoritmoqchi bo'lib urindimikin?

Lev Tolstoyning keng ma'lum bo'lmagan va keng tarqalmagan "Iqromoma"sini qidirib topadi va ko'zlari yaxshi ko'rmay qolgan bo'lishiga qaramasdan, labiga bir tomchi suv tekkizib uzoq uyqusiz

tunlar lupada o'qib dard bilan o'zbekchalashtiradi? Nima uchun?

Uning bu fidokorligini qaysi so'z, qaysi ta'rif bilan izohlasa bo'ladi? U shunday uzoq tunlar nimalarni o'yladi, boshidan kechirdi, qanday tug'yonlarga g'arq bo'ldi ekan? U btkorga "Iqromnoma"ni qo'lga olmagandir? Tolstoy dahosi etagida bu fikrlar uning xuddi o'z fikrlari kabi o'rtangan yuragidan toshib chiqmadimikin? Elliginchi yillarning boshida, yigit chog'lari Mirtemirning o'zi qattiq hayajonlanib o'qigan she'ri bot-bot yodiga tushmadimikin, yuragiga dalda bermadimikin, so'nayotgan hayot piliklarini yana bir karra ko'tarib, ravshanroq qilib qo'ymadimikin?

Qog'ozda qolsin mayli,
Nekrasovga qo'shilib,
Matryonushka holiga
Kuz yoshi to'kkanlarim...
Silalmay yoshginamni,
Bukilmas boshginamni,
Dyomushka tobutiga
Jimgina bukkalarim...
Saveliy bobo bilan
Ne faryod chekkanlarim
Qog'ozda qolsin mayli...
...Manzillar o'tgan sari
Haqiqat urug'ini donalab ekkalarim
Qog'ozda qolsin mayli...
O'zbek she'rin charxladim
Rus she'rining charxiga...

Ozod Sharafiddinovning ijod charxi uzoq uqubatli tunlarda bir zum tinmadi. U XX asr o'zbek so'zini, XX asr badiiy tafakkuri, ilmiy-adabiy uslublarini dunyo adabiyotining rang-barang, dam quvnoq, dam dardnok, dam fojiali, dam hikmat yog'ilgan quyunlariga charxladi. Yurakdan chiqqan so'z ijtimoiy bo'ronlardan, cheksiz zahmatlardan, og'riqli alamlardan, tuzalmas kasalliklardan, keti

uzilmay keladigan ayriliqlardan kuchli ekanligini isbotlamoqchi bo'ldi. Uning so'zi bu talashlarda g'olib chiqdi. Qachon o'quvchi tolib bo'lsa, unga bag'rini ochib, peshvoz yuradi va: "Ol, o'qi! Bular sening xazinalaring. Qalbing to'rida saqla va serob qil!" – deb turadi.

Tarjimon o'zi uchun so'z boyliklarini yaratadi. U so'zlar, jumlar, obrazlar olamlari ichida yashaydi. Tarjimon so'zini yuragiga ekadi. So'z uning yuragining harorati va pokiza muhitida unadi, kurtak yozadi. Yerga tashlangan urug' xuddi shunday emasmi?

Lev Tolstoy "Iqornoma"da yashashning ma'nosini qidirgan. Uning xuddi shu "Iqornoma" bilan bir paytda yozgan "Mening hayotim" ("Moya jizn") va "Telbaning bitiklari" asarida ham og'riq-azoblar ichida hayotning, yashashning ma'nosini qidiradi. Bu uch asar bir-biriga qaratib qo'yilgan uch oynadir. Ularda Tolstoy butun dahosi, insoniyligining qudrati bilan ro'y-rost ko'rinib turadi. Tolstoy hayot boshdan-oxir bema'ni bir narsa va davosi yo'q va hech qachon bo'lmaydi degan fikrga kelgan. Inson nima qilmasin, qancha urinmasin, bari behuda degan fikr uni tark etmagan. Bu savollar va bu kabi fikrlardan telba bo'lib qolgan. Arzamas va Moskvaga borgan kezlari o'zini o'ldirib qo'yishdan bazo'r qutulgan.

Ozod Sharafiddinov Tolstoyning butun umr chulg'ab, uni hech qachon o'z fojiali iskanjasidan bo'shatmagan fikrlarni teran ilg'aydi. Tolstoycha ohangni topib o'zbekchaga o'giradi. O'sha paytlar buyuk Nitshe o'zining serog'riq "Insoniy, haddan ziyod insoniy" degan butun Yevropani talvasaga solgan asarini yangi nashrdan chiqargan edi. Tolstoy rus zaminida turib ularga jo'r bo'lgan edi.

Ozod Sharafiddinov asarni tarjima qilarkan, uning nomini lug'atlarimizda uchramagan so'z bilan atadi. Oddiy qilib "Iqror" deyish ham mumkin edi. Ammo "Iqornoma" deyish mumtoz adabiyotimiz, o'zbek o'quvchisining madaniy an'anasiga yaqin-roqmikin deb mulohaza qildi va lug'atimizga yangi bir tushuncha kiritdi. "Ispovedalnaya literatura" degan tushunchani nima deb tarjima qilishga o'ylanib o'tirardik. Mana endi bunga duch kelganda, uni aniq qilib "iqornomalar" deb aytaveramiz. Ozod Sharafiddinov Voynovichning romani nomini "monumental targ'ibot" deb

ataydi. Bu bilan shaxsga sig'inish davrining monumental san'ati va adabiyotiga, uning tub mohiyatiga ishora etganday bo'ladi. "Monumental" tushunchasini o'zbekchalashtirmay (holbuki, azim targ'ibot, azamat targ'ibot deb atashi ham mumkin edi) unga mos ekvivalent qidirmay tarixiy haqiqatni saqlaydi. Ozod Sharafiddinov tilimizga kirib kelgan tabdili bo'lmagan xorijiy so'zlarni sun'iy tarzda o'zbekchalashtirishga urinmaydi. Ularni o'z holicha, o'z ma'nosicha qo'llaydi.

Uning barcha tarjimalarida ilm kishisining tili, olimona til va yana ham aniqroq aytganda, tanqidchining tili, tanqidchining so'zi bo'rtib sezilib turadi. Uning tarjimalariga xos uslub qirrasining bir chekkasi xuddi mana shunday hosil bo'ladi. Uning tarjimonlik uslubida aniqlik, to'g'rilik, puxtalik, ortiqcha bezaklar va hashamlardan qochish ustun turadi. U asliyat uslubini qanday bo'lsa shunday ifodalashga, asliyatning jumla qurilishlariga ergashishga, nasrning ritmikasinini chiqarishga intiladi.

Ozod Sharafiddinov tarjimachiligi bilan tanqidchiligi bir-birini to'ldiradi, bir-birini fikr bilan boyitadi. Tarjimachilik ham xuddi tanqidchilik kabi juda ko'p o'qish, kitobparvarlik bilan bog'liq. Ozod Sharafiddinov ijodiy merosida bularni bir-biridan sira ajratib bo'lmaydi. U O'zbekistonda eng ko'p kitob o'qigan va eng ko'p kitob to'plagan, ajoyib kutubxona yaratgan noyob zotlardan edi. Bu jihatdan yigirmanchi-o'ttizinchi yillarda fidokorlik qilgan tanqidchi tarjimonlar Mannon Royiq, Sanjar Siddiq, Abdurahmon Alimuhamedov, Vahob Ro'zimatov, Jumaniyoz Sharipov (keyinroq G'aybulla Salomov) qatoriga kiradi. U tarjimonligida, xuddi tanqidchiligida bo'lganidek, teran ma'rifatparvar adib, chinakam ziyoli edi.

Ozod Sharafiddinov juda sinchkov inson edi. Uning sinchkovligi tabiiy edimi? yoki tug'mamidi? Yoxud doim olam-olam kitoblar ichida aylanganidan, olam-olam kitoblarga qiziqqanidan, ularni muk tushib o'qiganidan, ularga olam-olam havaslar tuyganidan va o'zi ham olam-olam kitoblar yozishni orzu qilganidan tug'ilganmidi, paydo bo'lganmidi? Aslida bu savolning o'zi unchalar ham muhim

emas. Usiz ham Ozod Sharafiddinov to'g'risidagi tasavvurlarimizni jonlantiradigan, uyg'otadigan hodisalar yetarli. Lekin bu siymo misolida bizni hayratlantiradigan ko'pgina narsalarga to'g'ri javob topaman desangiz, albatta, sinchkovlik ustida bosh qotirishga to'g'ri keladi. Sinchkovlikni har qanday odamda tug'ma deb olaylik. U farosat bilan egiz va xafsala bilan tug'ishgan. Bu uch ajoyib xususiyat tanqidchi tarjimonda haqiqatan tug'ma edi, birlashgan edi, tutashgan edi, Bular ijodkordagi adabiy va muallimlik talantining bosh xususiyatlarini tashkil etardi. Piyoza nega qavat-qavat bo'ladi-yu sarimsoq nega dona-dona bo'ladi? Mavhum savol. Lekin bu mavhumlik ichida tabiat va yaratilishning hech yechib va tagiga yetib borib bo'lmaydigan siri yashirinib yotadi. Nega bir odam juda sinchkov, xafsal bilan ishlaydi: Nega xuddi ushbu inson uchun nihoyatda zarur bo'lgan xususiyatlar boshqa ikkinchi odamda yo'q yoki mutlaqo yetishmaydi? Loaqal mana shu narsaning o'zi bu uch narsa va ulardan tashkil topgan iqtidor hamisha tug'ma ekanligini ko'rsatadi. Bular haqida so'z ochdik. Nega? Chunki ular adabiyotchi uchun, yozuvchi uchun, ijodkor, san'atkor, olim, tarjimon, tanqidchi uchun benihoya zarur bo'lgan hislatlardir.

Bularsiz adabiyotchi yo'q, yozuvchi yo'q, tanqidchi, san'atkor yo'q. Tanqid va tarjima bir-biriga juda tutashib ketgan hodisalar. Rostdan ham. Tarjima bilan shug'ullanmagan yozuvchi yo'q. Tanqidchi ham yo'q. Tarjima ijod maktabi. Fikrlar o't oladigan qo'ra. Bunda jumla mumtoz jumla va mumtoz namuna vositasida charxlanadi, o'z original shaklini topadi.

Ozod Sharafiddinovning adabiy-tanqidiy, publitsistik ijodi tarjimachilik faoliyati bilan chambarchas bog'langan: biri-biridan quvvat oladi, ilhomlanadi, doim biri ikkinchisiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Butun ijodiy yo'li davomida Ozod aka adabiy-tanqidiy, publitsistik va esseistik asarlarni tarjima qilishga juda katta e'tibor qaratdi. Maqolalar tarjima qilishga juda qiziqdi. U adabiy bilimlar o'quvchilar orasida keng tarqalishini istardi. Chamasi, buni o'zining muallimlik faoliyatining uzviy davomi deb bilardi. U odamlarning dunyoqarashlari keng bo'lishini istardi. Shu istagi uning tanqidchilik faoliyatiga ma'no va mazmun bag'ishlardi.

U dunyo adabiyoti namoyandalarining adabiy ijod, ma'rifat, ma'naviyat, insonning ruhiy borlig'ini ochishga bag'ishlangan maqolalar - esselarni zavq-shavq bilan o'zbek tiliga o'girdi. Qullik, mutelik ongining yashovchan asoratlaridan xalos bo'lish yo'lini qidirdi, dunyo adabiyoti, san'ati namoyandalarining insonparvarlik, ozodlik, tenglik, axloqiy kamolot yo'nalishidagi eng yaxshi maqolalarini o'zbek tiliga o'girish bu yo'lda eng samarali xizmat qiladi deb ishonadi va yeng shimarib ishladi. Bu asarlarni zaxmatkashlarcha, fidokorlarcha shiddat bilan tarjima qildi, bularning chiqishi onglarning o'zgarishi uchun, yangi nuqtai nazarlarning shakllanishi va kengayishi uchun shubhasiz buyuk xizmat qiladi deb e'tiqod qildi. Ha e'tiqod qildi. Chunki ushbu tarjimalarning bari e'tiqodning hosilalaridir. Yozuvchilar hamma narsalarni yozib tashlayvermaganlari singari tarjimonlar ham, duch kelgan asarlarni tarjima qilishga urinavermaydilar. Shunday tarjimonlar borki yoki bo'lganki, ular faqat o'zlariga yoqqan, o'zlari sevgan adiblarning asarlarinigina o'giranlar. Har qancha bo'lmasin, boshqa tarjimalarga qo'l urmaganlar. Yana boshqa tarjimonlar ham bo'ladi yoki bo'lganki, ular faqat o'zlarining g'oyaviy, insoniy e'tiqodlari, qarashlariga to'g'ri kelgan, shunga mos va munosib kitoblarnigina tarjima qilganlar. Tolstoy Mopasanning bir hikoyasini o'qib g'oyatda ta'sirlanib darhol uni tarjima qilgan.

Essenstik asarlarni tarjima qilish unchalar ham oson ish emas. Badiiy adabiyot tarjimasidan farqi, bunda juda katta bilim talab qilinadi. Ikkinchidan, mutaxassislikning butun sir-asrorlaridan xabardorlik. Terminlar, tushunchalar ichida bilimdonlik bilan mohir ixtisos egasi sifatida ishlash. Uchinchidan, rivojlantirilayotgan fikrlar va g'oyalarning nozik tovlanishlari va bog'lanishlarini anglash va tushunish. To'rtinchidan, buyuk qunt. Qunt va sabr-toqat bilan tarjima ustida o'tirish. Beshinchidan, qilayotgan tarjimang hech qanday moddiy manfaatdorlik keltirmasligini aniq bilish. Oltinchidan, qanday bo'lmasin, zamondoshing yoki kelajakning kishilari bu asarlarga muhtoj, ehtiyojmand ekanliklarini to'la ma'noda his qilish... Tarjimon Ozod Sharafiddinov o'z e'tiqodiga ko'ra,

o'qivchisining manfaatlarini ko'zlab, uning ongi va qarashlarini o'stirish, estetik olamni boyitish uchun ishlardi... Agar unda yuqorida so'z yuritganimiz sinchkovlik, farosat va xafsala yuksak bir tarzda shakllanmagan va jamlanmaganda edi, hech qachon bu ma'rifatchilik va muallimlik yo'nalishidagi ishlarni ado etmagan bo'lardi.

2 qism

IV. TARJIMANING LEKSIK MUAMMOLARI

§1. Kontekst va uning tarjimadagi ahamiyati

Muqobillar ma'nosi ko'p hollarda kontekstga bog'liq bo'ladi, ammo lug'atga murojaat qilish ham muhimdir. Tarjimada so'z ma'nolarini taxminiy tarjima qilishga yo'l qo'yilmaydi. So'z va uning ma'nolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki ularni lug'atdan topishi shart. Aks holda tarjimon "tarjimonning soxta do'stlari" tuzog'iga tushishi muqarrar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asliyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Bunday so'zlar odatda polisemantik, ya'ni ko'pma'noli hisoblanadi. So'z ma'nosining qaysi biri qo'llanilganini aniqlash tarjimonning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi. Bunda tarjimonni adashishdan, noto'g'ri so'z tanlashdan saqlaydigan til hodisasi bu – kontekst hisoblanadi. Ko'chma ma'noda aytadigan bo'lsak, kontekst tarjimonning yo'lchi yulduzi, mayog'idir. Kontekst tarjimonning eng ishonarli quroli sanaladi. Tilshunoslikda odatda kontekstning ikki – lingvistik va ekstralingvistik turi mavjud. Lingvistik kontekst o'z navbatida ikki turga – keng va tor ma'nodagi kontekstlarga bo'linadi. Tor ma'nodagi kontekst ibora va gap doirasida, keng ma'nodagi kontekst iboradan katta bo'lgan birlik hamda butun bir matnni o'z ichiga olishi mumkin. Aksariyat hollarda so'z ma'nosi kichik kontekst doirasida aniqlanadi. O'z ma'nosida qo'llangan so'zlar va ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Kontekstda odatda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanmaganda, ya'ni ko'chma ma'noda qo'llanganda tarjima muammosi paydo bo'ladi. Ba'zi hollarda so'z ma'nosini to'liq anglash uchun butun bir gapni tushunishimiz lozim bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlardan keragini tanlashda kontekstning ahamiyati katta. Masalan, ingliz tilidagi "bus" so'zini olaylik. Bu so'z ot ma'nosida

“avtobus yoki trolleybus” soʻzining qisqargan shakli, feʼl maʼnosida esa faqat Amerika va Kanadada “bolalarni bir xududdan ikkinchi xududga avtobusda tashimoq” maʼnolariga ega. Bundan tashqari bu soʻz talabalar oshxonasidagi lavhalarda ishlatilib, “oʻz-oʻziga xizmat qilish, yaʼni patnisni olib, uni ishlatib boʻlgandan keyin boʻshagan idishlar bilan joyiga olib borib qoʻymoq” maʼnolariga ega.

Baʼzan lingvistik kontekst ekstralingvistik omillar bilan juda yaqin aloqada boʻladi. Lingvistik kontekst soʻz maʼnosini toʻliq yoritib bera olmagan paytda namoyon boʻladi. Masalan, Bernard Shou qahramonlaridan biri shunday deydi: ... “He warns his interlocutor not to drive him too far, it is necessary to know that they are both sitting in the parlor and not in any vehicle”. Ingliz tilidagi “to drive” feʼli bu yerda biror holatga keltirmoq maʼnosida qoʻllangan. Gap neologizm haqida borganda baʼzan lingvistik kontekst maʼnoni ochishda hech qanday koʻmak bera olmay qolishi mumkin. Neologizm, yaʼni yangi soʻz yoki ibora, eski soʻzning lugʻatda koʻrsatilmagan yangi maʼnosi paydo boʻlganda tarjima tilida bu soʻzning muqobil varianti boʻlmasligi mumkin. Masalan, XX asrning 80-yillarida AQSH gazetalarida “Reagangate” soʻzi qoʻllangan edi. Bu soʻzning maʼnosini tushunish uchun 1972–74 yillarda “Watergate”, Vashingtondagi bir xudud nomi bilan bogʻliq siyosiy janjalni esga olish lozim boʻladi. “Reagangate” AQSH prezidenti Ronald Reyganning davlatni boshqarishdagi baʼzi siyosiy usullarini koʻrsatuvchi faktlar bilan bogʻliq boʻlgan tushuncha, yangi toʻqilgan soʻz boʻlgan. Bu soʻz maʼnosini tushunishda ekstralingvistik kontekstga murojaat etish “Reagangate” bu – saylov kompaniyasi davrida Ronald Reygan tomonidan qoʻllanilgan gʻirrom usul boʻlib, bu usuldan Nikson ham bir marta foydalangan.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, muayyan soʻz tarjimasini uning kontekstdagi tahlilidan boshlanadi va bu tarjimada tegishli va muqobil soʻzni tanlash imkonini beradi. Turli kontekstlar manba til, yaʼni asliyatdagi qoʻllangan soʻz maʼnosini ochishda qoʻl kelishi mumkin. Soʻz tanlashda muammo, asosan, tarjima tilida asliyatda qoʻllangan soʻzga qisman muqobil boʻladigan soʻz toʻgʻri kelganda hamda

muqobil soʻzning oʻzi yoʻq boʻlganda yuzaga chiqadi. Muqobili yoʻq soʻzlarni tarjima qilish bir qator muammo yaratadi. Bu muammolarni ijobiy hal etish tarjimondan chuqur bilim, mahorat, hamda tarjima usullarini yaxshi bilishni taqazo etadi.

§2. Leksik birliklar tarjimasi

Leksik birlik tarjimasi haqida soʻz yuritishdan oldin leksik birlik tushunchasi nimani ifodalashini aniqlab olish lozim. Leksik birlik deganda aksariyat hollarda soʻz tushuniladi. Leksik birlikni bunday tushunish leksikologik nuqtai nazardan olganda toʻgʻridir. Biroq leksik birlik tarjima nuqtai nazaridan olganda yuqoridagidek tushunganda oʻzini oqlamaydi. Leksik birlikni tarjima nuqtai nazaridan tushuntirib berish tarjima birligi tushunchasini hal etish bilan bevosita bogʻliq. L.S.Barxudarovning fikriga koʻra, tilda mavjud boʻlgan barcha birliklar, yaʼni fonema, morfema, soʻz, soʻz birikmasi hamda gap tarjima birligi boʻlishi mumkin. Stepanov esa tarjima birligi deb freymlarni (soʻz va gap tuzilmasini) olish mumkin deb hisoblaydi. Bizningcha, yuqoridagi aytilgan fikrlar maʼlum darajada toʻgʻridir, chunki til birliklari bilan tarjima birliklari bir-biriga toʻgʻri keladigan holatlar ham boʻladi, biroq bu narsa doimiy xarakterga ega emas. Shuni hisobga olib, biz tarjima birligini aniqlashdan oldin tarjimada leksik birlik nimaligini bilib olishimiz lozim.

Maʼlumki, tarjimada bitta tushunchaga bitta tushunchaning toʻgʻri kelish holatlari nisbatan kam uchraydi. Tajriba shuni koʻrsatadiki, tarjimada soʻzga soʻz, soʻzga soʻz birikmasi, soʻzga gap toʻgʻri kelishi mumkin. Shuning asosida tarjimadagi leksik birlik deganda biz soʻz va soʻz birikmasini, hatto bitta soʻzga toʻgʻri keladigan frazeologik birlikni ham tushunishimiz mumkin. Bunda ikki va undan ortiq soʻzdan iborat boʻlgan frazeologik birlik bitta soʻz maʼnosiga toʻgʻri kelgan boʻlishi lozim.

Agar asliyatdagi soʻzga tarjima tilida bitta soʻz toʻgʻri kelsa, u holda ikki tildagi soʻz maʼnolari toʻliq ekvivalentga ega boʻlgan hisoblanadi. Bunday soʻzlar sirasiga odatda atoqli otlar, geografik

va joy nomlari, korxona, tashkilot, muassasa, idora, kema va mehmonxona nomlari va shu kabilar kiradi. Ekvivalentlar aksariyat hollarda monosemantik, ya'ni bitta ma'noga ega bo'lgan so'zlardir.

Agar asliyatdagi so'zga tarjima tilida bitta so'z qisman to'g'ri kelsa, bunda biz qisman ekvivalentlar haqida fikr yuritishimiz lozim. Tarjima nazariyasida qisman ekvivalentlarning uch turi ham ajratiladi. Bunga sabab bir tilda boshqa tilga to'g'ri keladigan, ekvivalentdan tashqari yana bir nechta so'z ma'nolaridan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur ko'p ma'noli so'zning bittasi ekvivalent, qolganlari esa qo'shimcha ma'no sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi ko'p ma'noli "cover" so'zini oladigan bo'lsak, u o'zbek tilidagi "yopmoq", "solmoq", "to'shamoq", "ustiga yozmoq", "bekitib (yopib) qo'yimoq", "yashirmoq" hamda "(matbuotda, maqolada) yoritmoq" ma'nolariga ega.

Semantik munosabatning ikkinchi varianti qisman ekvivalent so'zga to'g'ri keladigan ma'noning kesishishi hodisasi. Bu degani ikki tildagi muayyan so'z bir xil ma'no yoki ma'nolarga ega bo'lishi mumkin va shunday bo'lsa ham ayni paytda ularning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan ma'nolari ham bo'lishi mumkin. So'zning bu ma'nolari turlicha bo'lishiga asliyat va tarjima tillari turli oilalarga mansub bo'lganligi, o'zlashtirilgan so'zlar boshqa tillardan olingani va boshqa bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillar sabab bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "ball"¹ va "ball"² omonim so'zlarni oladigan bo'lsak, quyidagi farqlarni ko'rish mumkin: "ball"¹ "koptok, to'p" va ball"² "bal (raqs kechasi)". O'zbek tilida "bal" so'zi faqat raqs manosiga ega. Demak, bu so'zlarni muqobilini topish kontekstning ahamiyati katta.

Munosabatlarning uchinchi varianti eng murakkab ekvivalentlar turiga kiradi. Gap shundaki, turli xalqlar ob'yektiv reallikni turlicha qabul qiladi va uni tilda turlicha, o'ziga xos ravishda aks ettiradi. Ma'lumki, ingliz tilida "qo'l" tushunchasini ifodalashni bir necha turi mavjud. O'zbek tilida "qo'l" tushunchasi bitta so'z bilan ifodalanadi. Ingliz tilida "hand" so'zidan tashqari bu tushunchani tilda ifodalash uchun yuqorida ko'rsatilgan so'z bilan birga ayni paytda "arm" so'zi

ham ishlatiladi. Bundan tashqari “hand” soʻzi koʻchma maʼnoda ham qoʻllanadi va ular ham oʻzbek tilidagi koʻchma maʼnolarning aksariyatga toʻgʻri kelsa ham, farq qiladigan jihatlari koʻp. Xuddi shu narsaning teskarisi oʻzbek tilida kuzatiladi. Oʻzbek tilidagi “amma, xola” soʻzlariga “aunt”, “togʻa, amaki” soʻzlariga “uncle”, “olcha, gilos” soʻzlariga “cherry” kabi bitta soʻz toʻgʻri keladi.

Uchinchi guruhga tegishli soʻzlar tarjimai alohida eʼtiborga molik, chunki shu va shu kabi soʻzlar tarjima jarayonida muammolar tugʻdiradi. Masalan, They both married their cousins gapini tarjima qiladigan boʻlsak muammo paydo boʻladi. Tarjimada muammo tugʻdiradigan soʻz “to marry” feʼli boʻlib, uning ikkita maʼnosi bor. Birinchi maʼnosi “uylan(tir)moq”, “turmushga chiq(ar)moq” tarjima uchun ikkinchi muammoli soʻz “cousin”dir. Uning oʻzbek tilidagi maʼnosi “jiyan”. Bu yerda tabiiy savol tugʻiladi gap qanday jiyani haqida borayotganini aniqlab olishimiz lozim. Ingliz tilida oʻgʻil jiyani va qiz jiyani uchun bitta “cousin” soʻzi qoʻllanadi: oʻgʻil jiyani (cousin), qiz jiyani (nephew). Yuqorida berilgan gapni tarjima qilish juda mushkul. Buning uchun kontekstni bilish lozim. Kontekstsiz bu gapni oʻzbek tiliga tarjima qilib boʻlmaydi.

Qisman ekvivalent boʻlgan soʻzlar orasidan eng toʻgʻrisini tanlash tarjimaning diqqat markazidagi hal etish zarur boʻlgan dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Bu tarjimada ekvivalenti (muqobili) boʻlmagan soʻzlar tarjimasiga bevosita aloqadordir. Bu soʻzlar sirasiga boshqa davlatlarda qoʻllanmaydigan ismlar, geografik va joy nomlari hamda xos soʻzlar kiradi. Xos soʻzlar tarjima nazariyasi adabiyotida realiylar sifatida qoʻllaniladi. Bunga, bir tomondan, ingliz tilidagi lobby, muffin, drugstore, ikkinchi tomondan oʻzbek tilidagi tandir, somsa, qiz uzatish, uloq va shu kabi tushunchalar kiradi.

§3. Leksik transformatsiyalar

Tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lugʻatlar maʼlum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatda

lugʻatlarda soʻz maʼnosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lugʻati qanchalik mukammal boʻlmasin, unda soʻzlarning barcha maʼnolari yoki maʼno nozikliklarini qamrab olishning iloji yoʻq, chunki lugʻat ikki til tizimi unsurlari bilan ish koʻradi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, nutq mahsuli boʻlmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon koʻp maʼnoli soʻzning qaysi maʼnosi qoʻllanilganligini kontekst asosida oʻzi aniqlamogʻi lozim.

Tarjimada turli soʻzma-soʻz, gʻaliz birikmalarni qoʻllashdan qochish, uning oʻrniga adabiy, hamma tushunadigan, yorqin soʻzlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Leksik transformatsiyalar tarjima nazariyasida soʻzlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Bunday transformatsiyalarning beshta turi mavjud.

1. Birinchi turdagi transformatsiyalar keng maʼnoli yoki maʼnosini aniqlash qiyin boʻlgan soʻzlarni tarjima qilishda qoʻllaniladi. Transformatsiyaning bu turi asliyat soʻziga aniqlik kiritish yoki uni konkretlashtirganda qoʻllaniladi. Bu aksariyat hollarda ingliz tilidagi feʼllarni oʻzbek tiliga tarjima qilish jarayonida ishlatiladi. Ingliz tilidagi feʼllar odatda umumiy va noaniq maʼnoda qoʻllaniladi. Bu ayniqsa tarjimada yaqqol namoyon boʻladi. Oʻzbek tilidagi feʼllar aniq va konkret ish-harakatni ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi “to get” koʻp maʼnoli feʼlini tahlil qilib chiqaylik. Bu feʼlni tarjima qilish uchun kontekst albatta zarur boʻladi, chunki uning maʼnolari bir-biriga bogʻliq boʻlmagan jihatlari ham mavjud. Uni oʻzbek tiliga “olmoq”, “ushlab olmoq”, “tushunmoq”, “oʻylantirmoq”, “aloqa qilmoq”, “yetib olmoq”, “aylanmoq”, “oʻzgarmoq”, “ketmoq” (masalan, “oqarib ketmoq”) va boshqa bir qator maʼnolarini ingliz tilida predlog bilan qoʻllangan feʼl maʼnosi ham butunlay oʻzgarib ketish xususiyatiga ega. Masalan, shu feʼlning oʻzi “to get out” shaklida ham bir nechta maʼnosi mavjud. U “chiqmoq”, “chiqib olmoq”, “tushmoq” maʼnolariga ega. Xuddi shu fikrni boshqa bir qator ingliz tilidagi feʼllar haqida ham aytish mumkin. Bular sirasiga “to be”, “to have”, “to make”, “to become” va boshqa feʼllarni kiritish

mumkin. Gap faqat ko‘p ma’noli fe’lning umumiy emas, balki aniq ma’nosini tarjimada berish haqida borishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan “to be” fe’lini olsak, uning quyidagi xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu fe’lning asosiy ma’nosi o‘zbek tilidagi “bo‘lmoq” fe’liga to‘g‘ri keladi. Biroq bu fe’lning ma’nosi shunchalik kengki, o‘zidan keyin kelgan so‘zga qarab, ma’nolari turlicha tovlanadi. Fe’l ma’nosining kengligi uning qaysi so‘z bilan kelishiga bevosita bog‘liqdir. Yordamchi fe’l sifatida bu ingliz tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan va keng ma’noli bo‘lgani uchun turli transformatsiyalarga uchraydi. “He is in Hollywood” hamda “He is in Cambridge” gaplarining tarjimasini qiyoslasak, yuqorida aytilgan fikrlar o‘z tasdig‘ini topganining guvohi bo‘lamiz. Shunday qilib, birinchi gap “U Holivudda ishlaydi” va ikkinchi gap “U Kembrijda o‘qiydi” deb tarjima qilinadi. Aksariyat hollarda bu yordamchi fe’l o‘zbek tilida tire (-) yoki –“dir” qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi. Bu fe’l bilan ot, sifat, son, ravish va boshqa so‘z turkumi qo‘llanishi mumkin va har gal fe’l ma’nosi shunga qarab o‘zgarib boraveradi. Tarjimada fe’llarning bu xususiyatlarini hisobga olish tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari semantik jihatdan neytral hisoblangan “thing”, “matter”, “stuff”, “challenge” va shu kabi keng ma’noli so‘zlarni tarjima qilishda transformatsiyadan foydalanish tavsiya etiladi, chunki bu so‘zlar har gal kontekstdan kelib chiqilgan holda turlicha tarjima qilinadi. Masalan, “thing” o‘zbek tiliga kontekstga qarab, narsa, ne’mat, omil, jihat, tomon deb tarjima qilinishi mumkin. Ba’zan tarjimada butunlay tushib qolish holatlari ham uchraydi. Tarjimada bunday so‘zlarni tushib qolishini kontekst talab etadi va bu so‘z tarjimada ortiqcha hisoblanadi. Masalan, “I don’t know this thing” gapini ikki xil tarjima qilish mumkin – “Men bu narsani bilmayman” yoki “Men buni bilmayman”. Tarjimadan ko‘rinib turibdiki, “thing” so‘zini tushirib qoldirish bilan tarjima mazmuniga putur yetgani yo‘q.

Tarjimada so‘zlarning nafaqat denotativ, balki konnotativ ma’nosini ham inobatga olish lozim. Ingliz tilidagi “to employ” fe’li

odatda ishga olmoq, ishga yollamoq ma'nolariga ega. Bu fe'l ijobiy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda kontekst taqozosi bilan salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Salbiy ma'noga ega bo'lgan fe'llar odatda o'ta umumiy fe'l bilan tarjima qilinadi.

Ingliz tilidagi "you" so'zi alohida e'tiborga loyiq. U o'zbek tiliga bir-biridan qo'llanish uslub hamda ma'no jihatidan farq qiluvchi "sen" yoki "siz" olmoshi bilan tarjima qilinishi lozim. Bu so'zni tarjima qilishda so'zning kimga nisbatan ishlatilayotganini, uning yoshi, jinsi, jamiyatdagi tutgan o'rni, so'zlovchi bilan bo'lgan munosabati va so'zning qo'llangan doirasi hisobga olinishi lozim.

2. Transformatsiyaning ikkinchi turi umumlashtirish nomi bilan ataladi. Tarjimada aksariyat hollarda aslyatda berilgan ma'noda tarjima tili normalarida ortiqcha hisoblangani bois ba'zi aniqliklar umumlashtiriladi. Ingliz tilida odamning bo'yi, og'irligi aniq raqamlarda berilishi qabul qilingan. O'zbek tilida bo'y balandligi novcha, baland, daroz so'zlari, vazn esa og'ir, yengil kabi aniqlovchilar bilan beriladi. O'zbek tilida bo'y va vaznga nisbatan ishlatilgan turli raqamlar ortiqcha hisoblanadi.

Umumlashtirish so'zning farq qiluvchi ma'nolarni tarjima qilishda ham keng qo'llaniladi. Tarjima amaliyoti, aksariyat hollarda umumlashtirish tarjimaning pragmatik xususiyatlariga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, aslyat matnidagi atoqli otlar o'sha tilda so'zlovchilar uchun informativ ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, lekin tarjima tilida bular hech qanday informativ ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bular sirasiga firma nomlari, do'konlar nomi, mahsulotlar nomi kiradi. O'zbek kitobxoniga bu nomlar, birinchidan, noma'lum, ikkinchidan yuqoridan aytib o'tganimizdek, hech qanday informativ qiymatga ega emas. Shuning uchun bu nomlarni tushirib qoldirib, ularning o'rniga firma qanday mahsulot ishlab chiqarishi, do'kon nomi egasining nomiga nima munosabat bilan bog'liqligi haqida ma'lumot berib, tarjimada so'zlarni umumlashtirib berish lozim bo'ladi. Xalqaro hamjamiyatga ma'lum bo'lgan nomlarni transkripsiya va transliteratsiya yo'li bilan berishning o'zi kifoya. Masalan, "Coca Cola", "Pepsi Cola", "Chevron", "Tayota" shular jumlasidandir.

3. Uchinchi turdagi transformatsiya ikki hodisa o'rtasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Ulardan bittasi asliyat matnini atasa, ikkinchisi uning tarjima varianti deb hisoblanadi. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan vaziyatning semantik hamda mantiqiy tahlilini talab etadi. Matndagi vaziyat o'z navbatida semantik jihatdan rivojlantiriladi. Agar vaziyat semantik jihatdan to'g'ri rivojlantirilsa, ya'ni asliyat matni va tarjima matnidagi fikrlar bir-birlarini semantik jihatdan sabab va natija sifatida bog'lasa, transformatsiya tarjima tili normalariga rioya qilgan holda, matndagi mazmunni berishga xizmat qiladi. Tarjimada sabab natija bilan almashtiriladi. Bunda eng asosiysi tarjimada til normasiga putur yetmasligi hisoblanadi. Amaliyotda natija sabab bilan almashtiriladigan hollar ham uchrab turadi: "I not only shared a cabin with him and ate three meals a day at the same table ..." gapining o'zbek tiliga tarjimasida xuddi shu narsa kuzatiladi. Bu gapni o'zbek tiliga "men u bilan bir kunda bitta stol atrofida uch marta uchrashar edim" deb tarjima qilish yuqoridagi fikrimizga yorqin misol bo'la oladi. Inglizcha gapni so'zma-so'z tarjima qilish o'quvchiga hech qanday ma'lumot bermasligi aniq. Bu gapning so'zma-so'z tarjimasida "Men u bilan nafaqat bir kupedamiz, balki u bilan bir stol atrofida uch mahal uchrashar edik ham". Ko'rinib turibdiki, "men u bilan nafaqat bir kupedamiz" gapi bu yerda ortiqcha.

4. Transformatsiyaning to'rtinchi turi antonimik tarjima hisoblanadi. Bu degani ba'zi hollarda asliyatda qo'llanilgan so'z tarjimada antonim bilan almashtirilishini anglatadi, boshqa qilib aytadigan bo'lsak, agar gapda inkor so'zi bo'lsa, u tarjimada tushirib qoldiriladi. "take it easy-tashvishlanaverma", "I don't want to cheat-Men to'g'risini aytaman" deb tarjima qilinishi mumkin.

Antonimik tarjimaga ehtiyoj paydo bo'lishining uchta asosiy sababi bor: 1) asliyat va tarjima tillari xususiyati; 2) kontekst talablari hamda 3) tarjima tilidagi an'anaviy normaning mavjudligi. Endi har bir sababni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

1) Antonim so'zlar guruhi asliyat va tarjima tillarida bir-biriga to'g'ri kelishi shart bo'lmagan hollarda: "armament" – "disarmament"

soʻzlari oʻzbek tiliga “qurollanish” hamda “qurolsizlanish” deb tarjima qilinadi.

2) Baʼzan antonimlar tarjimasida kontekstdagi maʼnoni beradigan eng maqbul usul boʻlib hisoblanishi mumkin: “a murder is only safe when he is in prison” - “qotil qamoqxonada boʻlsagina/boʻlgandagina xavfli emas”. Bu yerda alohida olingan “safe” soʻzi “ishonchli”, “xavf-xatardan holi” deb tarjima qilinadi. Biroq kontekst asosida uni “xavfli emas” deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Baʼzi hollarda yoki kontekst talabi bilan transformatsiya emotsional hamda stilistik boʻyoqdor matnlarni tarjima qilishda qoʻl keladi. “Why don’t you know he is deaf?” – “U soqov-ku!”. Bu gapni “Uning soqovligidan xabaring yoʻqmi?” tarjima qilsa ham boʻladi, ammo gapning avvalgisiga nisbatan emotsionallik darajasi ancha past.

3) Soʻnggi transformatsiya kompensatsiya yoki gapning tushirib qoldirilgan qismini toʻldirish deb ataladi. Bu odatda aslyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yoʻq boʻlgan hollarda qoʻllaniladi. Matnning stilistik jihatdan toʻlaqonli boʻlishida bir stilistik usul oʻrniga iloji boricha uning oʻrnini toʻliq bosadigan boshqa bir stilistik vositadan yoki stilistik usuldan foydalanish nazarda tutiladi. Kompensatsiyadan qahramon nutq xususiyatlarini tarjima qilishda, soʻz oʻyinini hamda qofiyadosh soʻzlarni berish keng qoʻllaniladi. Buning qoʻllanishidagi asosiy fikr nutq xususiyatlarini tarjimada saqlashga qaratilgan, chunki aslyat matnida berilgan stilistik maʼnoga ega boʻlgan soʻzlarning doim ham ekvivalentini topish imkoni boʻlarmaydi. Matnda muallif tomonidan maxsus qoʻllangan fonetik, grammatik, stilistik vosita va usullar aksariyat hollarda tushirib qoldiriladi va uning oʻrnini qoplash va mazmun muvozanatini saqlash, stilistik yoʻqotishni toʻldirish uchun kompensatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi. Bunda ayni stilistik usulning oʻrnini qoplay oladigan stilistik vosita va til unsurlaridan tarjimada keng foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, oʻzbek filmlaridan biri “Sevginator” deb ataladi. Bu soʻzning qoʻshimchasi amerikaliklarning “Terminator” – “Terminator”

filmiga qofiyadosh soʻz sifatida olingan. Stilistik qatlamlardan ogʻzaki nutqqa oid bu soʻz ayni paytda neologizm, yaʼni yangi soʻz deb qabul qilinishi mumkin. Uni ingliz tiliga “Loveminator” deyish oʻrniga “Love-abundant” deb tarjima qilish stilistik jihatdan muqobil va yuqoridagi oʻzbekcha soʻzning oʻrnini qoplaydigan birlik sifatida tanlanishi mumkin.

Tarjima nazariyasida kompensatsiyaning yana bir turi mavjud boʻlib, u aslyatda ayni oʻsha umumiy taʼsirni tarjima tilida yaratishni nazarda tutadi. Masalan, aksariyat yozuvchilar asarlarida qahramonlarning ogʻzaki nutqi, ularning nutqlaridagi kamchiliklar, savodsizligi tufayli notoʻgʻri soʻzlarni qoʻllashlari va shu kabilar uchraydi. Ingliz tilida tili chuchuklar [sh] tovushi oʻrniga [s] tovushini ishlatishi mumkin. Tarjimada agar iloji boʻlsa, buni oʻzbek tilida ham sh tovushini oʻrniga s tovushini ishlatish mumkin. Oʻzbek tilida aksariyat hollarda ham bunday holatlar uchrab turadi. Oʻzbek tilida yuqorida koʻrsatilgan fonetik kamchilikdan tashqari /r/ ning oʻrniga /l/ yoki /y/ ni ishlatish hollari ham uchraydi. Fonetik sathda qoʻllangan xususiyatlar tarjima tilining fonetik xususiyatlari, leksik sathda esa tarjima tilining leksik xususiyatlari va nihoyat tarjima tilining grammatik sathda esa uning grammatik xususiyatlari eʼtiborga olinishi lozim. Tilning leksik qatlamlari, leksik- stilistik vosita va usullardan oʻrinli foydalanish tarjimaning leksik muammolarini ijobiy hal etish va natijada tarjima sifatini oshirish, adekvatlik darajasiga erishish imkonini beradi.

Tarjimaning leksik muammolarini yuqorida koʻrib chiqilgan transformatsiyaning beshta turi yordamida hal etish mumkin. Qaysi transformatsiya usuli qayerda qoʻl kelishini belgilash tarjimonning mahorati va tajribasiga bogʻliq. Tarjimon ikki tilni mukammal bilishi bilan bir qatorda uning barcha sohalaridan xabardor boʻlishi juda muhim. Soʻz tanlashda uslub va janrning xususiyatlarini, imkoniyatlarini hisobga olish yaxshi natija beradi.

§4. Muallif va tarjimon : til topish muammosi

Ikki til xususiyatlarini bilish zahirida asarni har tomonlama o'rganish, uning lug'ati va realiyalari ustida ishlash tarjimon uchun juda muhim va bu uni ma'lum darajada olim va tadqiqotchi bo'lishini ham taqozo etadi.

O'zbek tilida "til topish" degan ko'p ma'noli ibora bor. Birovning qulf-kaliti ochilmagan yuragiga yo'l topishni aytishadi. Ikki odamning hayotda biror ish, muammo ustida bir-birini yaxshi tushunishi, bilishi va shunga ko'ra ish ko'rishi ham shu ibora bilan ifodalanadi. U o'zaro kelishish, ahd-paymon ma'nolarini ham ifodalaydi.

Tarjima qilinadigan muallif va uning asari bilan tarjimon o'rtasida ham shunday til topishish bo'lishi zarur. Bunda til topish deganda muallifning o'ziga xosliklarini va muayyan asarning badiiy xususiyatlarini teran anglash va shunga yarasha jarayonni tashkil etishni tushunamiz. Tarjima qilinadigan muallif va uning asarini tarjimon sevgandagina, uning o'z o'quvchisiga katta ma'naviy foyda keltirishini bilgandagina til topish juda katta ijodiy foyda keltiradi.

XX asr Yevropaning eng yirik adiblaridan biri, asarlari ko'p dunyo tillariga o'girilgan va o'zi ham tarjimalar qilgan va hatto tarjima nima ekanligini tushuntirib, o'z ijodiy laboratoriyasi tajribalaridan ibratli misollar keltirgan Umberto Eko "Aynan aytish. Tarjima haqida tajribalar" degan kitobida hali hamon gapni tarjima nima? degan savoldan boshlaydi. "Tarjima qilish nima degani? - deb savol qo'yadi o'z oldiga tarjimaning nima ekanligini o'z amaliyotida juda yaxshi bilgan Umberto Eko: – Birinchi qoniqarli javob shunday bo'lishi mumkin: aynan shu narsaning o'zini boshqa tilda aytib berish bu – tarjima" ("IL", 10-son, 2005 y.). Bu tarjimaning juda ibtidoiy, juda sodda va shu bilan birga eng to'g'ri ta'rifi. Bu ta'rifda yuzaki qaraganda, tarjimaning siri – uning ijod va san'at sifatidagi siri tamomila yo'qolib qolayotganga o'xshaydi. Ammo bu sodda ta'rif bari bir tarjimaning juda sirli va o'ta murakkab, og'ir soha ekanligini aslo inkor eto!maydi. Hatto juda buyuk adabiy tajribaga ega jahonga

mashhur adibning shunday ta'rif bilan chiqayotganining o'zi ham tarjima sirli soha ekanligini ko'rsatib turadi.

Braziliya va Argentinaning mashhur adibi Xorxe Luis Borxes dunyo adabiyotining fusunkor va juda sirli namoyandalaridan. Uning asarlarining tili va uslubi xaqida Peru adibi Mario Vargas Liosa shunday so'zlarni yozadi: "Borxesning hikoyalari va badialarini faqat mana shunday aqlli, kinoyali, matematikaday aniq, o'lchovli til bilangina yozish mumkin edi. Bunda zig'irdak ortiqcha so'z yuq. Ularda vazmin sovuq, nafosat va oqsuyaklarcha jasorat aks etib turadi. Bunda aql va donish hissiyotlar va kechinmalardan ustun turadi" ("IL", 10-son, 2005 y.).

Keling endi tarjimachiligimiz yuzasidan bu so'zlar ustida o'ylab ko'raylik. Xo'sh, aql va ilmdorlik hissiyotlar va kechinmalardan ustun turgan, oqsuyaklarcha jasorat va o'ta sovuq, nafosat aks etgan Borxes tilini hozirgi zamon o'zbek tilida qanday chiqarsa bo'ladi? Axir bunday til bizning uzoq asrlik Sharq an'analari ruhida tarbiyalangan adabiyotimizda bo'lgan emas-ku! Keyingi yillarda Borxesdan o'zbek tiliga o'girilgan ayrim namunalar juda odmi, Borxesdan Borxes qolmaganligi ham Borxesning har qanday tarjimon oldida juda qiyin, hatto ado etib bo'lmaydigandek vazifa turganligini ko'rsatadi.

Tarjima sirli narsa deganda biz mana shunday tarjima qilib bo'lmaydigandek ko'rinadigan hodisalarni ham ko'zda tutamiz. Lekin oshib o'tib bo'lmaydigandek bu devorni yengib o'tish yo'li yo'q emas, bor. U ikki til – bu yerda ispan va o'zbek tillarini chuqur bilish – shoir Shavkat Rahmon Lorkani tarjima qilish uchun ispan tilini ataylab o'rgangani va uni o'zbekchaga ispan tilidan o'giranligini eslaylik va eng muhimi – Borxesning o'sha o'ta kinoyali va oqsuyak tilini topish. "Til topish" tarjima muvaffaqiyatining chinakam garovi bo'la oladi.

2. Tarjimon xuddi talantli yozuvchi kabi katta hayot tajribalariga ega bo'lganidagina, uning tarjimaadagi so'zi yozuvchi so'zidek tiniq, shirali, aniq-ravshan chiqadi. Bunda Navoiyning o'sha mashhur "ravshan alfoz va ochuq ado" haqidagi benihoya oqil so'zi yoddan chiqmasligi kerakka o'xshaydi.

Tarjimon xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to'g'risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo'lgandagina, qobiliyat teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi ishonchli, tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta'sirchanlik kasb etadi.

Hayot haqidagi bilimlarning chalaligi va jo'nligi, asliyat asari va uni yaratgan adibning tarjimai holi, ijodiyoti, badiiy uslubi ijodiy-xayotiy qarashlarini tugal o'rganmaslik va bilmaslik, asliyat-asari atrofidagi fikr-mulohazalar, bahslardan bexabarlik – hech shubhasizki, tarjimaning umumiy badiiy sifat darajasiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarjimaga kirishmasdan burun tarjima qilinadigan asarni har tomonlama o'rganish, uning lug'ati va badiiy xususiyatlari ustida oldindan ish olib borish, asarning ichki tuzilishi, obrazlari, kahramonlar harakat qilayotgan ijtimoiy-tarixiy muhit, badiiy tasvir vositalari, uslubi haqida o'ziga xos material, ma'lumotnomalar tuzish tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratadi.

Yozuvchi yangi asar yozish uchun qanday izchillik bilan material yig'sa, tarjimon-yozuvchi ham shunday material to'playdi, asar va uning muallifi haqida o'z ma'lumotnoma daftarini yaratadi.

Rus tarjimoni Nikolay Lyubimov "yozuvchi-tarjimon" degan tushunchani ko'llagan. U tarjimachilikni ijodkorlik va ijodkorlikdagi sanatkorlik bilan uzilmas aloqada ko'radi. "Yozuvchi-tarjimon" yoki to'g'rirog'i, "tarjimon-yozuvchi" degan so'z kasb sohibiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. U asarni boshqa tilda qayta bunyod etarkan, o'z ustiga go'yo adibning mas'uliyatini oladi, uning boshqa til muhitidagi elchisi, vakiliga aylanadi. Asarni originalda o'qiganlar uni kanday qabul qilgan bo'lsalar, tarjimada o'qiganlar ham shunday qabul qilarmikinlar? Yoki tarjimada asarning obiyati qochib, o'quvchilar undan ta'sirlanishdan mahrum bo'larmikinlar? Tarjimon asarning badiiy darajasi, sifati uchun boshqa til o'quvchisi oldida javob beradi.

Tarjimaga tayyorgarlik bu – katta ijodiy jarayon.

Abdulla Kahhor Lev Tolstoyning "Urush vatinchlik" romanining tarjimasiga kirishishdan ilgari Rossiyada bo'lib, asarda tasvirlangan

voqealar kechgan joylar, qahramonlar yashagan muhitni eslatadigan holatlar bilan tanishgan, o'rgangan. Tolstoyning ilhomlantirgan hayotga chuqur nigoh solgan, bu ilhomning manbalarini tarjimon-adib o'z ko'ksidan o'tkazgan edi. U o'z oldiga Lev Tolstoy "Urush va tinchlik" ni XX asr o'zbek tilida qanday yozardi? – degan savolni qo'ygan. Shuning uchun Tolstoy tasvirlagan rus hayoti, rus kishilari ichki va tashqi dunyosining barcha nozikliklari, nafasoti va go'zalliklarini o'zbek tili vositalari, boyliklari orqali badiiy teran qayta gavdalantirib berolgan edi.

Dostoyevskiyning romanlarini o'zbek tiliga o'girishga jur'at etganda, bu satrlar muallifi asarni oldindan chuqur o'rganish, Dostoyevskiycha tasvirlari ichiga kirish, tasavvur va tushunchalarni charxlash naqadar muhim va naqadar ulug' ijodiy ahamiyatga ega ekanligini har qadamda o'z boshidan kechirgan. XIX asr Dostoyevskiy til muhitini, uning ruhini qanday yaratish kerak? Axir o'sha zamon til muhitining ruhi, oqimi, hozirgi zamon (60-yillar o'zbek tili muhiti va ruhidan) tilimizning ruhidan keskin farq kiladi-ku? – buni qanday chiqarish kerak? Cho'lpon Shekspirning "Hamlet"ini 30-yillarda o'girganda, asar tilini bekorga arxaiklashtirmagan ekan-da? - u til vositalari bilan Shekspir zamoni tilining ruhini qandaydir tarzda bo'lmasin, aks ettirishga uringan, izlangan ekan-da!

Kolumbiya adibi, Nobel mukofoti sovrindori Gabriyel Garsia Markesning "Buzrukning kuzi" modernistik fusunkor romanini o'zbek tiliga ag'darish uchun o'tirganda, Kolumbiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida bo'lib, romandagiga o'xshash voqealar va muhitni o'z ko'zim bilan kuzata olmaganimdan ancha o'kinganman va ko'p o'rinlarda koloritni chiqarishda o'ta qiynalganman. Bunda matnga savqi tabiiy(intuitsiya) bilan yondashgandagina mushkulliklardan qutulishga yo'l ochishini anglaganman. Fusunkor realizm adabiyotining eng go'zal namunalaridan birini o'zbek o'quvchisiga yetkazishdek insoniy-madaniy ehtiyoj soyasidagina bu ulkan ishga jur'at etganman.

Ijodiy hafsala zo'r bo'lgandagina tarjimada jonlanish ro'y beradi.

Savqi tabiiylik, ya'ni katta intuitsiya qudrati bilan ham tarjimada ulug' natijalarga erishiladi. Lekin savqi tabiiylik – intuitsiya bilan tarjimon hamma qiyinchiliklarni yengib o'tishga qodir emas. Bunda bilimlar va tajriba alohida ahamiyatga ega.

Asarni oldindan chuqur o'rganish, lug'atlarni ko'rish, turli qo'shimcha materiallarga murojat etish va izohlar tayyorlashdan ortiq, bunga teng keladigan narsa yo'q.

§5. Muqobili yo'q so'zlarni tarjima qilish

Bunday so'zlarni tarjima qilishning bir nechta usuli mavjud. Muqobili yo'q so'zlarni tarjima qilishning eng oson yo'li bu – so'zlarni transliteratsiya qilish, ya'ni so'z talaffuzini berish, saqlash hisoblanadi. Bu usuldan kishi ismlarini, joy nomlarini, geografik nomlarni, lavozimlarni, gazeta va jurnallar, ya'ni davriy nashr nomlarini, korxona, tashkilot, firma, kompaniya nomlarini, kema hamda mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng qo'llanadi.

Ba'zan ma'lum maqsadda transliteratsiyadan foydalaniladi. Tarjima nazariyasida mavjud adabiyotlarning ko'rsatishicha, transliteratsiyadan foydalanish afzalliklarga ega, chunki transliteratsiya aslyatda ishlatilgan so'zning talaffuz shaklini beradi. Transliteratsiya so'zning grafik jihatini hisobga oladi. Masalan, o'zbek tiliga ingliz tilidagi Hamlet so'zi ikki yo'l bilan beriladi – Gamlet hamda Hamlet. Ikkinchi usul o'zbek tili qonun-qoidalariga yaqin bo'lishi bilan birga talaffuzi ingliz tilidagi so'zga juda yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazkur so'zni transliteratsiyada beradigan bo'lsak, u Hemlit shakliga ega bo'ladi. Bu yuqoridagi talablarga javob bermaydi. Ba'zan ayni bir ism bir nechta usulda berilishi talab etiladi. Bu aksariyat hollarda matnning usuli va janriga bevosita bog'liq. Bundan tashqari tasvirlanayotgan voqea yoki hodisa qaysi davrda va qaysi mamlakatda yuz berayotgani tarjimon uchun juda muhim hisoblanadi. Ko'p hollarda ismni ham davr va matnning qaysi janrda yozilganiga qarab transliteratsiya qilinadi. Masalan,

Samarqand shahar nomini olaylik. O'zbek tilidagi bu shahar nomi ikki xil usulda berilishi mumkin. Ingliz tilida bu nom Samarqand hamda Samarkand shakllarida transliteratsiya qilinishi mumkin. Birinchi usulda transliteratsiya qilingan so'z aksariyat hollarda tarixiy matnlarda qo'llansa, ikkinchi usuli zamonaviy matnlarda ishlatiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, ikkinchi usul asosan rus tili ta'sirida shu shaklga kelib qolgani ma'lum. Ingliz tilidagi Isaac so'zining ham bir necha usulda transliteratsiya qilingan shakllari mavjud. Diniy matnda bu ism Isak, ilmiy va badiiy matnda Ayzek deb beriladi. O'zbek tilida bu diniy matnda Iso, ilmiy va badiiy asarlarda Ayzek, boshqa hollarda Isoq yoki Ishoq deb beriladi. Bu yerda matn uslubi va janridan tashqari transliteratsiya, transkripsiya hamda an'analar hisobga olinadi.

Qonun-qoidalardan tashqari an'ana yoki ba'zan noqobil tarjimonning xatosi to'g'riylanmay keng ommaga tarqalib ketgan hollar ham uchrab turadi. Bizning nazarimizda o'zbek tilidagi Farg'ona shahrining nomi yuqorida aytgan fikrimizning dalili bo'lishi mumkin. Bu so'zning ingliz tilida ikkita transkripsiyasi mavjud. Mazkur so'z o'zbek tilidan to'g'ridan-to'g'ri transkripsiya qilinsa, Farghana, rus tili orqali qilinsa, Fergana ko'rinishlariga ega bo'lishi lozim edi. Biroq hozir bu so'zning Ferghana, ya'ni na o'zbek tiliga va na rus tiliga to'g'ri keladigan shakli qo'llanilmoqda. Yana bu so'zning noto'g'ri transkripsiya qilinganini isbotlovchi ingliz tilidagi gh harf birikmasiga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Bu harf birikmasi o'zbek tilida "g'" harfining transkripsiyasiga to'g'ri keladi. Qiyoslang: Afghanistan – Afg'oniston.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu usuldan kishi ismlarini, joy nomlarini, geografik nomlarni, lavozimlarni, davriy nashr nomlarini, korxona, tashkilot, firma, kompaniya nomlarini, kema hamda mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng qo'llanadi.

Agar davriy nashr nomlarini transliteratsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bunda asosiy e'tibor gazeta va jurnallar nomiga va ayni paytda ular kimlarning manfaatiga xizmat qilishiga qaratilmog'i lozim. Chunki gazetalarning nomini faqat transliteratsiya qilish

bilan cheklanib bo'lmaydi. Masalan, "The Daily Express", "The New York Times" gazetalarini olsak. Gazetaning nomi mashhur bo'lishi mumkin, lekin ularning nomi o'zbek o'quvchilariga birdek ma'lumot bermaydi. The Daily Express ingliz konservatorlar gazetasi Deyli Ekspress deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq. Bu yerda transliteratsiya bilan bir qatorda tarjimaning ma'nosini rivojlantirishga e'tibor qaratilib so'zga, bu yerda gazeta nomiga aniqlik kiritilyapti. Xuddi shu narsani The New York Times gazetasiga ham nisbatan qo'llash lozim. Bu davriy nashr nomi bilan qatorda o'zbek o'quvchisiga ma'lumot berish va gazeta nomini transliteratsiyaga qilish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: AQShning milliy gazetasi Nyu York Tayms.

Shuni unutmaslik kerakki, asliyatda bevosita berilmagan qo'shimcha ma'lumotlar tarjimon tomonidan sahifa osti izohlarida va tushuntirishlar orqali beriladi. Buning uchun tarjimon juda chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Yasama, yangi qo'shma hamda kalkalash yo'li bilan olingan so'zlarni tarjima qilishda tarjimon topqirligini namoyon qilishi lozim, biroq bu narsalar til qonun-qoidalariga zid bo'lmasligi va uning qo'llanishini kontekst taqozo etishi lozim.

Tarjima qilinayotgan tilda muqobili yo'q so'zni tarjima qilishning keyingi yo'li ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish. Buni so'z analogiyasi bo'yicha tarjima qilish deb ham yuritish mumkin. Agar tarjima qilinayotgan tilda asliyatda qo'llangan so'zning muqobili bo'lmasa, tarjimada o'sha so'z ma'nosiga o'xshash va yaqin so'z tanlanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "halim", "holvaytar" va "sumalak" so'zlarini tarjima qilishda shunday yo'l tutish tavsiya etiladi. Buning uchun shu so'zlarga xorijiy tilda ma'nodosh yoki o'xshash so'z tanlanadi. Bunda bitta so'z o'rniga so'z birikmasi ishlatilishi mumkin. O'zbek tilidagi "halim" so'ziga inglizcha mos va muqobil bo'ladigan so'z yo'q, biroq bug'doy bilan uzoq qaynatiladigan biror o'xshash ovqat nomini tanlash mumkin. Tegishli so'z topilmaganda uni porridge with wheat and stewed meat shaklida berish mumkin. Bundan tashqari bu so'zni nutritious meat porridge deb ham berish mumkin. Qaysi so'zni tanlash kontekst va tarjimon mahoratiga bog'liq.

Tarjimaning yuqoridagi tilga olingan usulidan tashqari yana bir yo‘li – tasviriy tarjima hisoblanadi. Bunda bir so‘zning o‘rniga tarjimada so‘z birikmasi, ibora yoki butun bir gap qo‘llanishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “spacewalk” so‘zi o‘zbek tiliga “kosmosga chiqish”, o‘zbek tilidagi “havaskor” ingliz tiliga “amateur talent activities” deb tarjima qilinadi.

Shunday qilib, muqobili bo‘lmagan so‘zlarni tarjima qilishning beshta usulini – 1) transliteratsiya, 2) sarlavha osti izohlari va tushuntirish, 3) kalkalash, 4) o‘xshash so‘zlar bilan tarjima qilish, 5) tasviriy tarjima ko‘rib chiqdik. Ularning hammasida o‘ziga xos kamchiligi mavjud. Ba’zi tarjimada so‘z va iboralar faqat ayni tarjima doirasida qolib ketishi mumkin, izoh va tushuntirish esa tarjima matni hajmini ko‘paytirib yuboradi, o‘xshash tarjima esa tarjimaning sifatiga va aniqligiga putur yetkazadi. Biroq yuqoridagi usullardan oqilona foydalanish tarjimada berilgan ma’lumotni imkon qadar to‘liqroq saqlab qolishga va tarjima sifatini oshishiga olib keladi. Tarjima usulini tanlashda matnning uslubiy hamda janr xususiyatlarini hisobga olinadi. Har bir tilning so‘z birikmasi hosil qilish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

§6. So‘z tarjimaning ish materiali

Tarjimon hammavaqt so‘z bilan ish ko‘radi. Ikki yoki bir necha tilning muhiti va so‘zlari dunyosida ham ijodkor, ham tadqiqotchi lingvist va stilist sifatida harakat qiladi. Tarjimon original asarning mazmuni va mundarijasiga ko‘ra qo‘llangan so‘zlar, jumlar, gaplarning ma’nolarini chiqaradi va ularni asarning umumiy mundarijasi, uslubi, shakliga moslaydi, muvofiqlashtiradi.

Yana ham ochiqroq aytiladigan bo‘lsa, tarjima original asarning so‘zi, jumlası, gapi, ma’lum bir tugallangan parchasi va nihoyat, uning butun shakli hamda mundarijasiga teng muvofiq, muodil (ekvivalent) so‘z, jumla, gap, tugallangan parcha va nihoyat yaxlit shakl va mundarija topish deganidir. Shularning barchasi ancha yuksak sifat darajasida topilgan chog‘da ham, tarjima hech

asliyatday bo'lmaydi. Tarjima originalning boshqa tildagi yo'ldoshi, hamrohi, evazi, xolos. Faqat tarjimon mehnati va talantining qudrati bilan tarjima asliyatga har jihatdan hamohang jaranglashi mumkin.

Tarjimon jumla va gapni tashkil etuvchi alohida so'zlarning ma'nolarini faqat va faqat kontekstga va uning oqimiga qarabgina chiqaradi, so'zning ma'nosini jumлага, jumlaning ma'nosini gapga, gapning ma'nosini alohida tugallangan parchaga va parchaning ma'nosini asarning butun mundarijasi, shakli hamda uslubga moslaydi. Zero, so'zning, jumlaning maqsadi, vazifasi, undan muallif kuzatgan mazmun faqat kontekstda to'la ochiladi. Tilda har bir so'z bir nechalab ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Muallif, aytaylik, "bor" yoki "ko'z" so'zlarining o'nlarча ma'nolaridan ayni parchada qaysi ma'nosini istifoda etayapti, so'zning ustiga qanday vazifalarni yuklayapti- bularni tarjimon tarjima jarayonida "chaqib", "yechib", "ochib" boradi. Bunda uning tillarni keng bilishi va interpretatsiya salohiyati kuchga kiradi.

Taniqli shoira va tarjimon Zulfiya o'z she'rlarining boshqa tirlarga tarjimalari haqida so'zlarkan, "ammo gohida she'rlarimning tarjimasini o'qib, o'sha she'rlarimni birov yechintirayotganday uyalib ketaman", deb yozgan edi (Zulfiya, Asarlar. 3-jild. T., 1986 y. 138)

Shoiraning bu achchiq so'zlari ostida nimani nazarda tutganini anglash uchun uning mashhur she'rlaridan birining rus tiliga qilingan tarjimasidan bir parchani ko'rib o'taylik.

Zulfiya "Qatra" she'ridan:

Pona misol yorib taqdiring,

Men kirmayman uyingga zinhor.

Zero, hech on baxting va mehring,

Fikring chulg'ab, bermadim ozor...

Ruscha tarjimasi:

Я тайно не приду. Я не войду

В твой дом, в твою судьбу.

Подобно клину

Я не накличу на тебя беду...

Tarjimada to'rtlikning keyingi misrasi butunlay o'zgarib ketgan. U ruscha she'r sifatida chiroyli jaranglaydi. Lekin bu boshqa chiroy. Boshqa libos. Zulfiyaning chiroyi, Zulfiyaning libosi emas. Bunda ekvivalentlikning faqat bilinar – bilinmas shabadasigina esib turibdi. Albatta, bunday birov tomonidan unga tiqishtirilgan fikrdan shoira uyalgan-da. Yoki ruscha tarjimadagi birinchi satrdagi “Я тайно не приду” tugallangan, o'qday otilayotgan jumlaning oling. U ruschada juda kuchli ohang bilan jaranglaydi. She'r kayfiyatini taranglashtiradi. Lekin afsuski originalda, Zulfiyaning o'zbekcha she'rida yo'q. Bu tarjimonning ijodi. Lekin Zulfiyaday shoira hech qachon bunday so'zlarni aytmagan, yozmagan bo'lardi. Bundan qattiq andisha qilardi. Ruscha she'riy tafakkurda u mumkindir. Lekin Zulfiyaning milliy tafakkuri uchun u yot. Tarjimon shoira nomidan ijod qilib, u aslo aytmaydigan so'zlarni aytib, yozib yuborgan. Milliy fikrlash andozalari, tamoyillari butunlay hisobga olinmagan. Ruschada o'qiydigan o'quvchiga bu she'r juda chiroyli va jarangdor tuyulishi ehtimoldan uzoq emas. “Я тайно не приду” degan inkor so'zining tagida “Я тайно приду” degan yashirin o'qiladigan ma'no sharpasi ham borki, Zulfiyani uyaltirgan jihat bir yoqasi, xuddi mana shu.

Shu so'zlarning muallifi XX asrning yetishinchi yillarida Gi de Mopassanning “Azizim” degan hali hamon dunyoda katta qiziqish bilan o'qiladigan romanini o'zbekchalashtirishga intilgan edi. Ruscha tarjimasida asarning nomi “Милый друг” deb shuxrat qozongan. Uni fransuzchasiga mos va erkalovchi shoirona ma'noni ifodalaydigan “Azizim” degan ekvivalentini topguncha ancha vaqt o'ylangan, ko'p variantlar izlangan va talaffuz qilib yurilgan edi. “Jonim”, “jonginam”, “do'ndiqcham”, “shakarim”, “jononam”, “tasadduq” singari o'nlab so'zlar u yoki bu sabab bilan o'tmagan, ularning barchasidan “azizim” ustun chiqqan edi. Yoki shu roman tarjimasida tajribasidan so'z tanlash mashaqqatlariga yana bir misol: Romanda jurnalist ayol Madlen Forestyne asar bosh qahramoni Dyuraga de Marel xonimni ta'riflab, “bogema, da, da, nastoyashaya bogema” – deb aytadi. “Bogema” degan so'z va tushunchaning o'zbek tilida ekvivalenti yo'q. O'shanda “bogema” ni “antiqa

xotin”, “topilmas xotin” deb o’giran edim. Lekin bu “bogema” ga sira o’xshamayotganini doim sezib g’ashim kelib, o’z-o’zimdano rozi bo’lib yurganman. Asarning ikkinchi nashrida “parivash” deyilsa bo’larkan, degan fikrga keldim. Ammo shubham yo’qolmadi. Uchinchi nashr tayyorlanayotganda tugallanmagan qidirishlar o’zini ko’rsatdi. Bu safar fikrimga o’zbek tilida axir “ofatijon” degan so’z bor-ku, axir bu “bogema”ning xuddi o’zi-ku, jilla qursa, unga juda yaqin-ku, deb o’ylanib qoldim. Shu tariqa “bogema” nihoyat “ofatijon” bo’ldi va lug’atimiz yana bir so’z-tushunchaning nisbatan aniq yoki yaqin tarjimasi bilan to’ldi. Tillar nihoyatda boy. Qidirilsa, simvolik, shoirona aniq ekvivalentlar — muodilliklar topiladi. Topilmay iloji yo’q.

O’zbekistonda tog’lar ko’p. Lug’atimizda tog’lar bilan bog’liq juda ko’p so’zlar, tushunchalar, terminlar qayd etilgan. Chingiz Aytmatovning “Qulayotgan tog’lar” romanida “пещера” tushunchasi uchraydi. Bu asarni tarjima qilayotganda ancha o’ylanib yurdim. Buni “g’or” deb tarjima qilish kerakmi yoki “mag’ora”? Yo “ungur” deb olsam to’g’riroq bo’ladimi? “Ungur” deb olinsa, buni izohlash kerak bo’lishini o’yladim. “Mag’ora” deyilganda esa, birmuncha arxaiklashib ketadi. Shuning uchun “g’or” ga to’xtalindi.

Markesning “Buzrukning kuzi” avangard romanini tarjima qilayotganda, “горные терасы” degan so’zga bir necha marta duch keldim.

Lug’atimizda bu so’zning aniq tarjimasi qayd etilmagan. “Tog’ pog’analari”, “tog’ zinalari”, “zinapoyalari” deb tushuntiriladi. Lekin “terrasa” zinaga o’xshab ko’rinsa-da, lekin zina emas. Zinaga qaraganda ancha keng va terrasalarda bog’-rog’lar, ekinzorlar, daraxtzorlar barpo qilinadi. Ammo pastdan tog’ tepasiga qaralsa, ular zinaga o’xshaydi. Tilimizda bu tushunchani ifodalaydigan “terrasa” ma’nosidagi, unga ekvivalent bo’lgan aniq so’z borligiga ishonaman. Lekin u hali xalq shevalarida yashasa ham, lug’atimizga kirib kelib joylashmagan. Shuning uchun hozircha buni “tog’ pillapoyalari” deb olinsa, ma’qulroq ko’rindi. Balki “tog’ zinalari” ma’qulroqdir? Tarjima jarayonlarida “mistika”, “mistitsizm”, “misticheskiy”

degan soʻzlarga bot-bot duch kelaman. Lugʻatimizda uni “mistik”, “tasavvuf”, “tasavvufchi” deb olingan. Lekin bu taxminangina toʻgʻri, qisman toʻgʻri. Ammo ekvivalent boʻlolmaydi. “Buzruk” ning tarjimasida bu soʻzni “asroriy” deb oʻgirdim. Aslida ham oʻzi shunday. Bir soʻzning aniq ekvivalenti topilganday boʻldi.

Tarjimada soʻz tanlash va izlashda aniqlik mezoniga amal qilishning eʼtibori juda katta. Matematikada esa aniqlik mezonini bosh talab. Matematikada aniqlik poeziya darajasida.

Sifatli va toʻgʻri tarjima talablarida ham aniqlikning oʻrni birinchi darajada turadi. Aniq soʻzlar bilan fikrni aniq bayon qilish kishilararo munosabat va muammolarda, ilmda, adabiyotda eʼtiborli hamda teran madaniyat belgisidir. “Don Kixot”ning 1939 yilda oʻzbek tiliga oʻgirilgan parchasida Sanchoning quyidagi soʻzlari bor: Sancho “ответил, что трофеи по закону принадлежат ему, ибо его господин Дон Кихот завоевал их в бо”...

Tarjima:

“...qonun bilan oʻlja meniki, sababiki, ularni egam don Kixot jangda yengib oldi” ... Haqiqatdan “по закону принадлежат ему” degan jumla bunday toʻgʻri qarasa, “qonun bilan meniki” boʻladi. Lekin oʻzbek tilida hech qachon shunday deyilmaydi. “Oʻljalarni olishga haqim bor”, deyiladi. “Egam don Kixot” jumlasini ham toʻgʻri. Lekin “egam” soʻzini oʻzbek koʻproq “yaratgan egam” deb “ollohini” ning sinonimi sifatida ishlatadi. Kishiga nisbatan egam deyilmaydi. Bu oʻrinda “gospodin”ni “xoʻjam” deb oʻgirish toʻgʻriroq ekvivalent aniq topilgan boʻlardi. Tarjimalarda hali hanuzgacha bunday “toʻgʻri” til badiiyati jihatidan esa notoʻgʻri tarjimalar tez-tez uchraydi. Ular soʻz ustida ishlamaslik, masʼuliyatni his qilmaslik, tarjimoni yengil-yelpi ish deb tushunishdan tugʻiladi.

Tarjimada aniq soʻz, birdan-bir mos ekvivalent topilmasa, obrazli ifoda ham chiqmaydi. Bular tarjimonlik talanti bor-yoʻqligini koʻrsatadigan belgilardir.

Zulfiya Lesya Ukrainaning “Qarama sen oyga bahorda” degan sheʼrini juda shirali oʻzbekchalashtirgan:

Qarama sen oyga bahorda
Qarama qayinga dubora
(Не любуйся на месяц весною
Не любуйся березой плакучей...)

“Плакучая береза” tarjimada oddiy qayinga aylangan. “Плакучая” esa vaznga sig‘magan. Shohlari yerga yoyilib, egilib, ayniqsa bahor yomg‘irlarida yum-yum yig‘lab turganday ko‘rinadigan qayinni yig‘loqi deydilar. Lesyaning she‘rida bu obraz g‘amgin, og‘ir kayfiyatni o‘ta kuchaytiradi. “Qayin” deganda obraz hali aniq emas. “Plakuchaya” deganda obraz tugal tasavvur uyg‘otadi. U she‘riy obraz. Shuning uchun o‘zbekchada oddiy qayin haqida so‘z borayotgani obrazni tasavvur qilishni qiyinlashtiradi.

Ushbu harakterli parchani tarjimada obrazni chiqarishni tushuntirish yuzasidan tahlil qilgan tarjimashunos G‘aybullar Salomov “plakuchaya”ni ifodalash uchun tarjimada majnuntol obrazini qo‘llash maqsadga ancha yaqin kelgan bo‘lur edi”, deb o‘z taklifini bildirib o‘tadi. (G‘.Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. T., 1983 y., s.93). Ammo Lesya yig‘loqi qayin haqida gapirsa-da, o‘zbek tarjimon shoiri uni “majnuntol”ga aylantirib o‘girsar, albatta, endi bu butunlay boshqa holu boshqa tol bo‘lur edi.

§7. Tarjima jarayon va faoliyat mahsuli

Tarjima ayni paytda ham jarayon, ham faoliyat mahsuli hisoblanadi. Bunday faoliyat mahsuli sifatida bir tildan (asliyatdan) ikkinchi tilga tarjima qilingan matn nazarda tutiladi. Barcha talablarga javob beradigan tarjima sirasiga odatda 90 foizdan ortiq ma‘noni saqlab qolgan matnlar kiradi. Tarjimada qo‘llangan har bir so‘z ikki jihatga egaligini e‘tiborga olish zarur. Birinchisi ifoda plani, ikkinchisi esa ma‘no plani. Tarjimada ifoda plani o‘zgaradi, ma‘no plani esa o‘zgarishsiz qoladi.

Tarjima jarayonida ikkita til ishtirok etadi. Birinchisi asliyat tili va ikkinchisi tarjima tili. Masalan, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish haqida gap borganda ingliz tili asliyat tili hisoblanib, u “manba

tili”, hamda tarjima qilinadigan til o‘zbek tili bo‘lib, u “tarjima tili” deb ataladi.

Tarjima qilish muammolaridan biri butun matnning ma’nosi uning unsurlari ma’nosining yig‘indisi bilan cheklanmasligidir. Matnda berilgan ma’no so‘zlarning denotativ, konnotativ, stilistik, gaplarning sintaktik, gaplardan kattaroq birliklarning sintaktik ma’nolari, so‘z va so‘z birikmalarining supersegment hamda leksik-semantik ma’nolari o‘rtasidagi bevosita aloqalarga asoslanadi.

Har bir til leksik-grammatik maydonining maxsus strukturasiga egaligi bilan karakterlanadi, o‘zining leksik, morfologik hamda sintaktik tizimiga ega bo‘ladi. Aksariyat hollarda tarjimada ifoda usuli bir-biridan farq qiladi, ma’no esa yuqorida tilga olingan yaruslarda saqlanishi mumkin.

Shuning uchun ikki tilning, ya’ni xorijiy til va ona tili xususiyatlarini bilish yaxshi amaliy bilim hisoblanadi, biroq bu tarjima qilish uchun yetarli emas. Til xususiyatlarini bilishdan tashqari tarjimon tarjima nazariyasida ishlab chiqilgan bir qator prinsiplarini yaxshi bilish bilan birga yaxshi ishonchli malakaga ham ega bo‘lishi lozim. Tarjima nazariyasidagi prinsiplar lingvistik hamda ekstralingvistik omillarga asoslanadi.

Tarjimajarayonidatarjimon ikki tilning tipologik xususiyatlarini doim nazarda tutishi lozim. Chunki leksik jihatdan ifodalangan ayni fikr boshqa tilda grammatik vositalar bilan berilishi mumkin.

Masalan, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda ingliz tili german tillari oilasiga mansubligi, undagi so‘z tartibi, birikmalarning xususiyatlari, zamonning qo‘llanishi, majhul nisbatining keng tarqalganligi, ko‘p ma’noli so‘zlarning ishlatilishi, so‘zlarning sinonimik qatorda stilistik jihatdan farq qilishi va shu kabilarni hisobga olish lozim va o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida esa o‘zbek tilining turkiy tillar oilasiga mansubligini, so‘z tartibi ingliz tiliga nisbatan farq qilishini, zamonlar ingliz tiliga nisbatan ozroq sonni tashkil etishini, so‘z ma’nolari o‘zbek tilida kam va ko‘p ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi, o‘zbek tili leksik qatlamida arab, fors, mo‘g‘ul so‘zlarining mavjudligi kabi holatlarni hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Bundan tashqari soʻz qatlamlarining stilistik jihatdan oʻxshash va farq qiluvchi tomonlarini inobatga olish lozim. Matnning qaysi janr va qaysi uslubga xosligini aniqlash ham tarjimada adekvatlikka erishish imkonini beradi.

Matnlarning stilistik va janr jihatdan farq qilishini hisobga olish adekvatlikdan tashqari soʻz va iboralarning matn yaratish xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Har bir usul va har bir janrda qoʻllanadigan soʻz, soʻz birikmasi, gap tuzilishini bilish muhim ahamiyatga ega.

Tarjimada lingvistik omillardan tashqari ekstralingvistik (gʻayrilisoniy) omillar ham muammo yaratadi. Istalgan matn mazmuni gʻayrilisoniy realikka asoslangan boʻladi. Matn orqali muallifning kelib chiqishi, qaysi madaniyatga mansub ekani, qaysi tilda soʻzlashishi, uning qaysi urf-odatlariga amal qilishini aniqlash mumkin. Chunki har bir xalqning yozuvchisi oʻz xalqining tarixi, urf-odati, milliy mafkurasi, mentaliteti va shu kabilarini asarlarida aks ettiradi. Shularning barchasi tarjima jarayonida matndagi fikrning adekvat tarzda berilishi uchun hisobga olinishi lozim.

Tarjima boshdan oyoq ijodiy soha: xoh, ilmiy, xoh badiiy tarjima boʻlsin, u doimo ijodiy harakterga ega. Ijod yaratilish bilan bogʻliq. Shuning uchun uning oʻziga xos stixiyasi mavjud. Stixiyasiz ijod yoʻq. Shu bilan birga ijodkorlikning oʻz tartib-nizomlari, qonun-qoidalari, nazariyalari ishlangan, belgilangan, chegaralari aniqlab chiqilgan. Tarjimaning tuzuq-quruq nazariy qoidalari XIX asrdan eʼtiboran ishlana boshladi. Toʻla nazariya tusini u faqat XX asrning yigirmanchi yillaridagina oldi. Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslik fan sohasi sifatida shakllandi va shu asrda juda shiddat bilan ravnaq topdi. Sanʼatshunoslik fanining behad qiziqarli sohalaridan biri ekanligi maʼlum boʻldi. Hozirgi paytda dunyoda tarjima nazariyasining lingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika bilan chambarchas bogʻlangan yoʻnalishlari barq urib rivojlanmoqda. Dunyo universitetlarida rang-barang qiziqarli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bular naqadar ilmiy-nazariy jihatdan jozibali sohalar ekanligi Oʻzbekistonda Jahon tillari universitetida va Oʻzbekiston

Milliy universitetida keyingi ikki uch yil ichida o'tkazilgan tarjima nazariyasi va amaliyoti muammolari bilan bog'liq ilmiy konferensiyalarda o'qilgan rang-barang ma'ruzalarda o'z ifodasini topdi. Professor Gulandom Boqiyeva va professor Abduzohir Abduazizov yetakchiligida o'tgan bu ilmiy konferensiyalar tarjima nazariyasi va uning qiyosiy, kognitiv lingvistika bilan uzviy bog'langan muammolarini yechish ustida olib borilayotgan tadqiqotlar ilmiy sohaning muhim yo'nalishlarini qamrab olayotganligini yaqqol ko'rsatdi. Bu e'tiborli ilmiy konferensiyalarning materiallari alohida to'plamlar holida nashr etilgani tarjima nazariyasi sohasida yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirdi va tadqiqotlar o'tkazishga qiziqishlarni jonlantirdi.

Tarjima amaliyoti va uning nazariyasi muammolari bo'yicha qiziqishlarni "O'zAS" gazetasi, "Jahon adabiyoti" jurnali, "Filologiya muammolari" (O'zJTU jurnali) sahifalarida birmuncha muntazam suratda yoritilayotgan turli materiallar ham jonlantirmoqda. "Jahon adabiyoti" jurnalining "Tarjima maktabi" ruknida ancha izchillik bilan yoritayotgan materiallari zamonaviy tarjimalar tahlillari naqadar zarur ekanligini ayon ko'rsatmoqda. Ammo juda ko'p tarjimashunoslik muammolari hali qavat-qavat qalashib turibdi. Taniqli tarjimashunos olim Nosir Qambarov ularning ayrimlariga diqqat-e'tiborni qaratadi: "O'zbekistonda chet tillardan mutaxassislik sifatida o'rgatiladigan tillarni inobatga olsak, shu paytgacha ingliz, fransuz, nemis va ispan tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilishning lingvistik asoslari ishlab chiqilmagan... Qilingan tarjimalarning tahlili yo'qligi uchun aksariyat nashr etilgan

lug'atlarda so'z ma'nolari va ularning ma'no nozikliklari e'tibordan chetda qolgan...". Nosir Qambarov shu bilan birga yana ikkinchi bir muhim ahamiyatli masalani ham tilga olib o'tadi. U tarjima tahriri asoslari ishlab chiqilmaganligi va bunga mutlaqo e'tibor berilmayotgani, tarjima tahriri bo'yicha biron-ta ham qo'llanma yozilmaganligiga diqqatni qaratadi. Haqiqatan ham, hozirgi kunda chiqayotgan tarjima asarlarni o'qiganda g'o'r, shira-shakarsiz, o'ta g'aliz, pala-partish jumalarga har qadamda duch kelish mumkin. Bu

lingvistika, stilistika, sintaksis, uslub qoidalarini yaxshi o'rganmay turib yeng shimarib tarjimalarga kirishib ketilayotgani, tarjimaga nisbatan oson ish deb mensimay qaralayotganining natijasidir. Ko'p tarjimonlar o'ziga xos iboralar, joylar nomlari, ismlar, idoralarning atamalari – realiy deb ataladigan xos milliy hodisalarni aniq qanday o'girish to'g'risida yetarli tasavvur va bilimga ega emaslar. Xuddi shunday hollarni frazeologizmlar, ideomalar, turg'un birikmalarni o'girish tajribalarida ham kuzatish mumkin.

Ayrim tarjimashunoslar esa o'tgan asrning elliginchi - oltmishinchi yilari materiallari va qarashlaridan hali ham nari siljimaganlari ko'zga tashlanib qolmoqda. Chet el adiblari, chunonchi, Balzak, Defo to'g'risida yaxshi niyat bilan ularni hozirgi o'zbek o'quvchilariga tanishtirish uchun maqolalar yoziladi. Lekin bu adiblarning o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlari, ularni kim qachon tarjima qilganligi, tarjimalarning sifati va saviyasi qanday bo'lganligi haqida bir og'iz ham ma'lumot yo'q. Unda nima uchun yozildi bu maqolalar? Olimlar, qalamkashlar tarjima bo'yicha davra suhbatlarida so'zlar aytishadi, lekin hech kim muayyan tarjima asari va uning tajribasi haqida aniq gap, fikr aytmaydi. Allaqachon ma'lum bo'lgan quruq gaplarni olib qochish hozir kimga kerak va nima foyda beradi? O'n yildan beri "Jahon adabiyoti" jurnali chiqadi. Qanchadan-qancha jahon adabiyotining juda qimmatli namunalari o'zbek tiliga ag'darildi. Lekin ularning tahlili yo'q. Yolg'on bo'lmasin, yaqinda "Jahon adabiyoti" 2009 yil sentyabr sonida Ortiqboy Abdullayev, Xolmat Samadovning "Zakovat" xazinasiga ilk qadamlar" degan yaxshi, haqiqiy tahliliy maqolasi chiqdi. Unda Plutarx, Sitseron, Platon asarlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari batafsil ilmiy kuzatildi va e'tiborli mulohazalar o'rta qo'yildi. Holbuki, tarjima tahlili va tarjima matnlari tahriri masalalarini muntazam ko'zdan kechirib borish, ilmiy xulosalarni o'rta qo'yish tashlash tarjimachilikni rivojlantirish, uning saviyasini yuqoriga ko'tarish uchun g'oyatda zarur. Albatta, bunday aktual ishlarning o'chog'i "Jahon adabiyoti" jurnali hamda Adabiyot-san'ati gazetasi, umuman adabiy-badiiy nashrlar bo'lmog'iga talab nihoyatda kuchli. Tarjimashunoslikning yangi pog'onaga ko'tariladigan payti yetgan.

Tadqiqotchi Muattar Jo'rayeva "Tarjimon chizmakash emas, rassom!" degan shior-sarlavha ostida maqola e'lon qildi /"JA", 2009, X/.

Maqolani o'qib, birdan o'zimni elliginchi yillardagi tarjima muhitiga borib qolganday, eski dardlarim yangilanganday his qildim. Maqolada tadqiqotchi atoqli adib va tarjimon Asqad Muxtorning tarjima hamda tarjimashunoslikka qarashlarini eskiz tariqasida yoritadi. U Asqad Muxtorning elliginchi yillardagi bir maqolasida bildirilgan "Tarjimondan aniqlik talab qilmang. U chizmakash emas, rassom!" degan o'sha zamon uchun yorqin shiddatli so'zlarini keltiradi va uni asosan o'zinnng ayrim mulohazalarini tasdiqlash ma'nosida bayon etadi. Qanday yaxshi! Ammo tarjimoni ijodkorlik deb qarash undan aniqlik talab qilmaslik kerak ekan-da degan ma'no chiqarishga hech qachon asos bermaydi. Tarjimadan agar aniqlik - nazariya tili bilan aytganda, adekvatlik talab qilinmasa, bu bizni butunlay noto'g'ri yo'nalishga olib kirib ketadi. Aniqlik talab qilmaslik tarjimada istagancha yo'rg'alashlar va "olib qochishlar" - ayniqsa she'riy tarjimalarda - sabab bo'ladi va yo'l ochadi. Aniqlik har qanday tarjimaning bosh mezon. Aniqlik bo'lgandagina ekvivalentlik va uning turlari ravshan tus oladi. Aniqlik bilan ekvivalentliklar bir-birlari bilan g'oyatda nozik bog'lanishlar bilan chirmashib ketadi. "Anna Karenina"da Levin Anna haqida uni o'ziga yaqin olib o'ylaydi. Shu o'ylar ichida bir jumla o'tadi:

“женщину, которую нельзя было иначе назвать, как потерянною...»

Boshni qattiq qotiradigan jumla. Qancha variantlar tuzish mumkin.

Mirzakalon Ismoilov "poteryannoyu" so'zini o'ylab-o'ylab "yo'ldan ozgan" deb tarjima qilishga to'xtaydi. Anna eridan ajrab "yo'ldan ozgan, ko'p o'tmay Vronskiyning muhabbati ham soxta ekanligini sezadi, undan batamom ko'ngli soviydi, yana „yo'ldan ozadi". Jamiyat ichida boshqalar o'ziga aslo lozim ko'rmagan xatti-harakatlarni qiladi, chunki "yo'ldan ozgan"... va hokazo.

Bu jihatdan mavjud tarjima yaxshi. Ammo o'ylab qarasangiz, L.N.Tolstoy bunday demoqchi emas. «Yo'ldan ozgan» deyish bu

- qoralash, ayblash. Tolstoy hech qachon o'z suyukli qahramonini bunday deb yalang'och ayblamasdi.

Hech qachon! Xo'sh unda nima? Tolstoy bu so'z bilan Annaning shu iztirobli vaziyatlarda es-hushini yo'qotib qo'ygan, sarang bo'lib qolgan edi demoqchi. U haqiqatan ham esi og'ib to'g'ri yo'lni topolmay qolgan ayol. Tinimsiz og'ir o'ylar, orzularining ro'yobga chiqmaganligi uni shu ko'yga solgan. Shu yerda aniqlik talab qilmasak, «yo'ldan ozgan»ni hazm qilib ketaverishimizga to'g'ri keladi. Bu yerda esa ayni Tolstoyning ruscha so'zga mos, muodil ekvivalentlarni qidirib ko'rish, ta'rifga mos ta'rif topish naqadar maroqli. Tarjima mana shunday hodisalari bilan sof ma'nodagi ijod. Shu romanda Tolstoy ishlatgan «razvod» so'zi «taloq» deb o'giriladi.

Qabul qilsak bo'ladimi? Yo'q. Bo'lmaydi. Chunki "taloq" sof islom shariati tushunchasi. Uni Karenin va Kareninaga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Bu yerda universalroq "ajralish" tushunchasini ishlatish o'rinli bo'ladi. Xos so'zlar tarjimasi juda nozik. Bu yerda sof aniqlik talab etiladi. Aniqlikka erishib bo'lmaydigan o'rinlarda esa aniqlikka yaqinlashmoq kerak.

Tadqiqotchi Begoyim Xolbekova "She'riy tarjima mezonii" degan tahliliy maqolasini e'lon qildi /JA, 2009, XI/. Keyingi o'n yil ichida she'riy tarjimalar haqida e'lon qilingan noyob chiqishlardan biri. Tadqiqotchi o'z muhokamalarida mashhur tarjimon va bolalar shoiri Samuel Marshakning bir zamonlar aytgan "she'riy tarjima qilish mumkin emas. Har safar she'riy tarjimaga istisno sifatida qaralishi lozim" degan fikriga suyanadi. Marshak shunday kutilmagan bahsli fikrlarni ko'p aytgan. Lekin bu shoirona fikrlar aslo ilmiylikka da'vo qilmaydi. Har qanday she'riy asarni tarjima qilish mumkin. Tarjima qilib bo'lmaydigan tekst yo'q. Faqat hamma vaqt o'ta qunt, yurak qo'ri, zo'r xafsala va predmetga muhabbat kerak. Biz shunday xususiyatlardan tug'ilgan benihoya go'zal she'riy tarjimalarni bilamiz. Begoyim maqolada juda qiziq she'riy misollarni tahlil etadi. Shotland shoiri Berns o'z navqiron do'sti Robert Andersonga bag'ishlangan o'tkir bir she'rida do'stining sochlarini zog'day qopqora deb o'xshatgan ekan. Begoyim bunday o'xshatish shimol shoiri

uchun juda tabiiyligini aytadi. Lekin uning tahlilicha, Marshak bu she'rni rus tiliga tarjima qilib, o'xshatishni «mumday qora»ga aylantiribdi. qozoq shoiri bu she'rni Marshak tarjimasiga asoslanib qozoq tiliga o'girganda, o'xshatishni «ko'mirday qora» deb olibdi. Marshak matni asosidagi o'zbek tiliga tarjimada esa bu o'xshatish «tunday qora» tusiga kiribdi.

Tadqiqotchi tarjimalarda yuz bergan bu o'zgarishlarni milliy koloritdan kelib chiqib izohlashga va oqlashga intiladi. Ammo keling. mulohaza qilib ko'raylik. Berns oppoq yuzli yigitchaning to'sday qop-qora sochi va uning jingalaklari peshonasida to'lqinlanib turganini chizyapti. Tasavvur etsangiz, oq chehra uzra to'lqinlangan qora sochlar haqiqatan zog'ga - qanotini yozib yotgan zog'ga o'xshaydi. Tarjimonlar esa bu go'zal obraz bizning o'quvchilarimizga tushunarli bo'lmaydi, degan sub'yektiv mulohaza bilan shoir obrazidan voz kechib uning she'riga o'z obrazli ifodalarini kiritishgan. Natijada she'ring asl milliy koloritiga putur yetgan, she'ring original obrazli dunyosi buzilgan. Agar qunt va muhabbat bilan o'girilganda edi, shoirning obraz ma'nosi saqlangan, shotlandcha dunyoqarash va farosat anglashilgan, she'r shotland shoirining she'riday qabul qilingan bo'lardi.. Hozirgi holda esa Bernsning yarmigina qolgan tarjimada. Bunday olib qochishlar, o'zidan qo'shishlar she'riy tarjimalarda ko'p uchraydi. Ularning sababi tarjima qilib bo'lmaslikdan emas, ixlos va e'tiborning yetishmasligidan. Marshak boshqa bir tarjimasida she'r matniga Bernsda mutlaqo bo'lmagan Sulaymon payg'ambar obrazini kiritib yuboradi. Bu esa shotland shoiri asarida o'ta qovushmagan bir holatni vujudga keltiradi. O'zboshimchalik tarjimada og'ir xatolarga olib boradi. Bu esa aniqlik talab qilmaslikning natijasi. Aniqlik talabiga rioya qilinmasa, tarjimada mas'uliyatsizlik yuzaga chiqadi. Tarjimalardagi til g'aribliklari ham ana shu mas'uliyatsizlikdan. Albatta, tarjima nazariyasi prinsiplari «temir qonun» emas. Nazariya nisbiy, shartli qoidalarni bayon etadi. Ularga ijodiy qaramoq joyiz. Ularni bilmoq va ijodiy yondoshmoq tarjimonni turli mas'uliyatsizliklardan, xom-xatala ishlarni tarjima deb atashdan saqlaydi.

V. TARJIMANING GRAMMATIK MUAMMOLARI

§1. Tarjimada grammatik muvofiqlik

Ingliz, o'zbek va rus tillari tipologik va genetik jihatdan turli xil tillardir. Ingliz va rus tillari Hind – Yevropa tillari oilasining German va Slavyan guruhlariga mansubdir. O'zbek tili Oltoy tillar oilasining Turkiy tillar guruhiga mansubdir. Morfologik jihatdan ingliz tili analitik xususiyatga ega, rus tili esa sintetik xususiyatga ega, o'zbek tili agglyutinativ (grammatik shakl va yasama so'zlarning so'z o'zagi va negiziga affiksalar qo'shilishi natijasida yasaladigan) tildir.

Grammatik turlanishlar rus va o'zbek tillarida qo'llaniladigan asosiy vositalardir.

Ingliz tilida so'z tartibi qat'iydir. Misol uchun: Ega + kesim. Ega 1 – o'ringa joylashtiriladi, kesim esa 2 – o'rindan joy oladi. Agar kesim o'timli fe'l bilan ifodalansa 3 – o'rinda biz to'ldiruvchini ko'rishimiz mumkin: Ega + Kesim + To'ldiruvchi. Misol uchun: Ben sent ten men.

Gap bo'laklari tartibidagi har qanday o'zgarish ma'noni buzilishiga olib keladi. Misol uchun: Ten men sent Ben.

Ammo o'zbek va rus tillarida gap bo'laklarining tartibi qat'iy emas. Ularda so'zlarning o'rin almashinishiga yo'l qo'yadi.

Misol uchun: Ben 10 ta odam(ni) yubordi.

Бен послал 10 человек.

10 ta odamni Ben yubordi.

10 человек послал Бен.

Yubordi Ben 10 ta odam.

Послал 10 человек Бен.

Grammatik muvofiqlikning 3 turi mavjud: 1.to'liq; 2.qisman; 3.nomuvofiqlik.

Biz grammatik muvofiqlikni 2 qismga bo'lamiz: morfologik va sintaktik.

To'liq morfologik muvofiqlik bir xil grammatik kategoriyalar bor bo'lganida kuzatiladi: Misol uchun: zamon kategoriyasi, son kategoriyasi, nisbat kategoriyasi va h.z.

Boys – bolalar – дети

Qisman morfologik muvofiqlik tillardagi grammatik kategoriyalar bir – biriga mos kelmaganida kuzatiladi. Misol uchun: Ingliz tilida 2 ta kelishik bor, o'zbek tilida esa 6 ta. Grammatik kategoriyalardagi farqlar odatda tildagi boshqa vositalar bilan ifodalanadi.

Morfologik nomuvofiqlik tilda grammatik kategoriyalarni mos kelmaslik holatida kuzatiladi. Misol uchun: o'zbek tilida egalikning grammatik kategoriyasi mavjud. U affikslar orqali ifodalanadi, lekin bunday grammatik kategoriyalar ingliz tilida ham, rus tilida ham mavjud emas. Ular bunda olmoshlardan foydalanishadi. Misol uchun:

O'zbek tilida	Ingliz tilida	Rus tilida
bolam	my boy	мой мальчик
bolang	your boy	твой мальчик
bolasi	his boy	его мальчик

Ingliz tilida aniqlik va noaniqlik “a/an”, “the” artikllari orqali ifodalanadi. Lekin o'zbek va rus tillarida aniqlik va noaniqlikni ifodalash uchun leksik va sintaktik vositalaridan foydalanamiz.

Misol uchun:

Uni bizga qandaydir ahamiyati bor deb o'ylaysizmi?

Вы думайте, это имеет какое-то значение для нее?

Do you think it may have a difference?

Qandaydir ahamiyati bor deysizmi? Buning juda katta ahamiyati bor.

Имеет какое-либо значение? Она имеет большое значение.

A difference? It will make the difference.

To'liq sintaktik muvofiqlik tuzilishdagi muvofiqlik bo'lib gapdagi so'zlar tartibi. Misol uchun:

adj. + noun = red pen – qizil ruchka – красная ручка.

subject + noun = he laughed – u kuldi – он смеялся.

Qisman sintaktik muvofiqlik ma'noning muvofiqligi, ammo tuzilishida farq qiladigan deb tushuniladi. Misol uchun:

Glass + tube – N+N, shisha, naycha N+N, стеклянная труба – Adj+N/

Qisman sintaktik muvofiqlikni gapda biz soʻz tartibi, soʻz tushib qoldirish va soʻzlarning oʻrni almashtirishda bir-biriga toʻgʻri kelmasligini tushunamiz. Masalan:

It is forbidden to smoke here.

Bu yerda chekish man qilingan.

Курить здесь запрещено.

He blew out his candle.

U shamni oʻchirdi.

Он задул свечу.

Sintaktik muvofiqlikning yoʻqligi deganda tarjima uchun manba tilda ishlatiladigan, lekin tarjima qilinayotgan tilda maʼlum sintaktik tuzilishlarning boʻlmasligi tushuniladi. Masalan:

I heard the door open – Я слышал, как дверь открылась – Men eshikning ochilishini eshitdim. – Toʻldiruvchi ergash gap.

Bu yerda oʻrin almashtirish, oʻzgartirish kiritish, tushirib qoldirish va qoʻshimcha qoʻshishdan foydalanilgan.

Grammatik mos boʻlmaslik deganda bitta yoki boshqa grammatik shakl yoki konstruksiyalar oʻgirilayotgan tilda mavjud boʻlmasligi, shakl va konstruksiyalar ishlatilishida moslik boʻlmasligi, soʻzlarning birikishida farq boʻlishi, bir xil maʼnoga ega boʻlgan soʻz turkumlarining boʻlmasligi tushuniladi. Masalan:

She says he will go – U kelishini aytadi. Он говорит, что придет.

She said he would go – U kelishini aytdi. Он сказал, что он придет.

Ingliz tilida predlog va artikllar qoʻllaniladi, oʻzbek tilida esa ular qoʻllanilmaydi. Misol uchun:

There was a Miss Lich-Qandaydir miss Lich bor edi. Была некая мисс Lich.

Transpozitsiya – ayni tildagi lingvistik elementlar tartibi yoki oʻrni oʻzgartirishdir.

“At breakfast table”-soʻz almashtirish (nonushta vaqtida). Во время завтрака.

§2 Tarjima qilishdagi grammatik qiyinchiliklar

Tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatdir. Affikslar, grammatik qo'shimchalar va so'z yasalishi, sintaktik modellar, so'z tartibi, yordamchi so'zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari grammatik yoki shakliy ma'noni, leksik ma'nolarning aniq shaklini ko'rsatishga xizmat qiladi. Tarjima qilish jarayonida bu ma'nolarni ifodalash muhim muammodir.

Turli xil tillarning grammatik shakllari juda kam hollarda ularning ma'no va vazifasiga mos keladi. Qoida sifatida faqatgina qisman ekvivalentlikka ega, bu esa grammatik ma'nolar grammatik shakllar orqali ifodalanishidir, shunga qaramasdan ikki til o'zaro o'xshashdek ko'rinadi, faqatgina ularning ma'nolaridagi ba'zi qismlari mos keladi va o'xshash ma'nolar o'zaro farq qiladi. Misol uchun: otlardagi son kategoriyasi ingliz tili, rus tili, o'zbek tilida ham bir-biriga mos keladigandek ko'rinadi, aslida esa juda ko'p kelishik qo'shimchalarining qo'llanishida bir-biriga mos kelmaydi.

Lekin qo'shimchasi bo'lmagan boshqa so'zlarning ingliz tilidagi ko'plik shakli rus va o'zbek tillarida birlik shaklida ifodalanishiga ko'plab misollar keltirish mumkin:

Scissors – ножницы – qaychi

Birinci muammo aniq tarjima qilishning imkoni yo'qligidir. Tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatik tuzilishlari odatda o'xshash bo'lmaydi. Biz buni "logos" so'zini misol qilib keltirish orqali izohlaymiz. Ingliz tilidagi hech qaysi bir so'z unga aniq ekvivalent bo'la olmaydi. U so'z, fikr-mulohaza aytish, muhokama qilish, mazmun va boshqa ma'nolarni anglatadi. Tarjimon har bir vaziyatda eng yaxshi ekvivalentini tanlay olishi kerak. Grammatik muammolarni izohlaganimizda zamonlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Boshqa aksariyat tillarda bitta bo'lgan hozirgi zamon ingliz tilida ikkitadir: "Men boraman; Я иду"ning ma'nosini "I go/I am going" deb har ikkala shaklda ifodalanadi. Olmoshlar ham muammolarga to'ladir.

Xulosa qilib aytganda, bir matnning ikkinchi bir tilga so'zma-

soʻz aniq ekvivalentini topishni umuman imkoni yoʻqdir. Aksariyat hollarda tarjimon original (tarjima asarining asli) ning maʼnosini imkon qadar chuqurroq anglay olishga , soʻngra esa anglashilgan maʼnoni ayni tilga xuddi asliday tasvirlashga urinadi.

Antonimik tarjima elementar mazmun oʻz tarkibida sinonimlar va sinonimli soʻzlar lugʻati yoki ingliz tilining izohli lugʻatida bayon etiladi.

Antonimik tarzda qilingan tarjima grammatika nuqtai nazaridan olib qaraganda u nafaqat leksik, balki grammatik transformatsiya natijasi hamdir. Misol uchun:

Take it easy – не беспокойся – xavotir olma.

§3. Tarjima qilishda grammatik transformatsiyalardan foydalanish

Grammatik transformatsiyalar turli xil grammatik va leksik koʻrinishlarning paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Baʼzi hollarda ular bir-biriga juda yaqin bogʻliq va leksik-grammatik xarakterga ega boʻladi.

Tarjima qilishda grammatik transformatsiyadan keng foydalanishning sababi rus yoki oʻzbek tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi: gapda soʻz tartibi gaplarning joylashuv tartibidagi farq bosh gap va ergash gap tartibidagi farqdir.

Tarjimada biror bir soʻz turkumi boshqa bir soʻz turkumi bilan oʻzgartirilishi mumkin. Bu toʻliq yoki qisman transformatsiyalarga bogʻliqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, feʼl va ravish bilan almashinishi mumkin. Amerika xayotidan: White schools – schools for white – oq tanlilar uchun maktablar; white churches – churches for white.

Tarjima qilishda sifatlar koʻp hollarda ravishlar bilan oʻzgartiriladi. Bu grammatik transformatsiyaning badiiy asar va publitsistika (ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid adabiyot)da epitet (sifatlash) xodisaning mavjudligiga bogʻliqdir. Misol uchun: Lord Nesby stretched a careless hand. – Лорд Несби небрежно протянул руку. – Lord Nesbi istar-istamay qoʻlini choʻzdi.

Ba'zan, ingliz tilidagi ravish so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zgarishi sodir bo'ladi. Misol uchun:

The accusation has been disproved editorially. — Обвинение было опровергнуто в передовой статье. — Aybdorlik gazeta maqolasida oqlandi.

Ingliz tilida gapda so'z tartibida dastlab bosh bo'laklar: ega va kesim, so'ngra esa 2-darajali bo'laklari keladi. Rus tilining akademik (oliy) grammatikasida gapda so'z tartibi quyidagicha ko'rsatilgan: hol, kesim, ega; ingliz tilida buning aksi qabul qilingan. Misol uchun: Yesterday's deal was considered in court. Xabarning boshi gapning oxirida bo'lishi lozim. Rus tilidagi gapda so'z tartibi turlicha bo'lishi mumkin.

Deal was considered in court yesterday. Berilgan gapning markazidagi "deal" (gapning egasi) gapning boshida bo'lishi lozim.

Ba'zan, rus tiliga tarjima qilishda gapdagi so'z tartibi yakka tartibda va murakkab qo'shma gaplardagi ergash gapning o'rin almashish hodisasi sodir bo'ladi, ayniqsa doimiy bo'lmagan mazmunni ko'rsatish muhim bo'lganda. Misol uchun: В работе этой выставки примут участие фирмы, выпускающие электронное оборудование, многие из которых хорошо известны на мировом рынке.

Bu gapni ingliz tiliga tarjima qilishda ingliz tilining qoidalariga ko'ra turli xil o'rin almashtirishdan foydalaniladi va gapni 2ta sodda gapga ajratsa ham bo'ladi. Gapdagi so'zlar bir-biri bilan sintaktik bog'lanish orqali bog'langan. Ular 4ta: predikativ (ega va kesim o'rtasida); to'ldiruvchi (kesim va to'ldiruvchi o'rtasida); aniqlovchi vazifasida keladigan (aniqlanmish va aniqlovchi o'rtasida); va hol vazifasini bajaradigan (hol va u ergashgan so'z o'rtasida) so'zlar guruhi turli xil sintaktik bog'lanishlar orqali birikadi va u so'z birikmasi deb ataladi. So'z birikmasi qat'iy jumlar yoki ixtiyoriy so'zlardan tuzilishi mumkin. Dastlab ma'lum birikmani tarjima qilib olib so'ngra nutqning shaklini qo'shimcha (kelishik)larga moslab yangi bir birikmani hosil qilish lozim. So'zlarning birikish qoidasi turli xil tillarda turlichadir. Bunga har bir til dunyodagi narsa va

hodisalarning o‘zaro aloqasini turli xil usullarda tasvirlaydi deb izoh beriladi. Shuning uchun turg‘un(erkin) birikmalarni tarjima qilish mushkul bo‘lishi mumkin.

§4 Grammatik transformatsiyada o‘rin almashish xodisasi

Transformatsiya usullaridan biri o‘rin almashtirish bo‘lib, unda matndagi til element (birlik)larining o‘rni o‘zgartiriladi. Odatda, tarjima qilishda so‘zlar, so‘z birikmalar, gap qismlari va murakkab qo‘shma gapdagi ergash gaplarning o‘rni ko‘p holatlarda o‘zgartiriladi. O‘rin almashtirish grammatik o‘zgarishning eng muhim jihatidir va ular barcha turdagi lingvistik birliklarga ta‘sir ko‘rsatadi. So‘z shakllari va so‘z turkumlarini o‘rin almashuvi, xuddi ingliz tilidagi fe‘llardan xosil bo‘lgan va ish-harakatni ifodalovchi otlarning o‘rin almashuvi kabi o‘ziga xos xususiyatdir. Ingliz tilidagi gapning egasi ko‘p holatlarda rus tilida 2-darajali bo‘laklar to‘ldiruvchi va vaqt holi bilan almashiniladi. Misol uchun: I heard my mother go and close the door.

Я слышал как мама ушла и закрыла дверь. O‘xshashlik borligi ham to‘g‘ridir va bu “nomina arentus” (bu ingliz tilidagi “yer” suffiksi orqali ko‘zga tashlanadi) deb nomlanadi. Misol uchun: He is an early riser, John is a sound sleeper.

Bir so‘z bilan aytganda, ingliz tilidagi sifatlar rus va o‘zbek tillaridagi otlar bilan almashinishi mumkin. Misol uchun: Australian property. Avstraliya mulki. Имущество Австралии.

Ingliz tilidagi “higher”, “lower”, “shorter”, “longer”, “better” kabi sifatning qiyosiy shakllari ko‘p hollarda o‘zbek tiliga o‘girilganda ular asosi sifatdan kelib chiqqan otlar bilan ifodalanadi.

Misol uchun: They demand higher wages and better living conditions. Ular yuqori maosh va yaxshiroq sharoit talab qilyaptilar. Они требуют высокую зарплату и лучшее жизненное условие.

So‘ngra esa gap bo‘laklarining o‘rmini o‘zgarishiga duch kelamiz. Bu ba‘zan gapning qayta sintaktik tuzilishi deb ta’kidlanadi.

Misol uchun: Ingliz tilida ega 2-darajali bo'laklar o'rni bilan almashadi. Misol uchun: He was met by his sister. The new film is much spoken about. Last week we saw the 500 meeting the shop standard and trade union officials.

Shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tilidan tarjima qilinayotgan paytda gapning o'rin almashuvi, ya'ni qo'shma gapdagi sodda gapning o'rin almashuvi ingliz tilining strukturasi noaniq fe'l shakllari bilan ergash gap orqali ifodalash ko'p hollarda muxim bo'lib qoladi.

Misol uchun: I want you to speak English – Я хочу чтобы вы говорили по английски. Men sizning inglizcha gapirishingizni xohlayman.

Shuningdek transformatsiyaning barcha turlarini 4 guruhga ajratish mumkin: o'rin almashtirish, o'zgartirish, qo'shimcha qo'shish va tushirib qoldirish.

Tarjima qilishda gapning so'z tartibi va gapning tuzilishida so'z birikmalarining tartibini o'zgarishi tarjima jarayonidagi eng muhim jihatdir. Ma'lumki, ingliz, o'zbek, rus tillaridagi gapda so'z tartibi bir xil emas va buni tarjima jarayonida ko'rishingiz mumkin. Misol uchun: A suburban train was derailed near London last night – Вечера вечером вблизи Лондона сошел с рельса пригородный поезд – Kecha kechqurun London yaqinida shahar atrofida yuradigan poyezd izidan chiqib ketdi.

Gapdagi 1, 2, 3, 4-qismlar—ega, kesim, vaqtholi va o'rin-joy holi belgilangan tartibdadir. O'zbek va rus tillaridagi gaplarning tarkibiy qismlarining tartibi ingliz tilidagi gapning tarkibiy qismlarining tartibi bilan teskaridir. Tarjimada bunday hodisaga ko'p duch kelinadi. Bu esa turli xil tillarda sintaksis qoidalari turli xil (farqli) bo'lgani bilan izohlanadi. Murakkab qo'shma gapda bosh gap bilan ergash gapning o'rin almashuvi turli xil tillarda turlichadir. Ingliz tilida ergash gap bosh gapdan oldin keladi. Ba'zan ingliz tilidagi murakkab qo'shma gaplar boshqa bir tilga qo'shma gap sifatida tarjima qilinadi. Misol uchun: He took another look at my hat while he was cleaning them. — Он их чистил, а сам смотрел на мою шапку. U ularni tozalar edi, o'zi esa mening shapkamga qaradi.

Tarjimadagi o‘rin almashuvi murakkab qo‘shma gaplardagi gaplarning o‘rin almashuvi bilan uzviydir. Rus tilidagi tarjimasida bosh gap ergash gapdan oldin keladi. Misol uchun: If he ever is married his mother will probably call him – Наверно его мать будет знать это лишь только он когда-нибудь женится. Balki uning onasi qachonlardir u uylanganda bundan xabar topar.

Tarjima qilishdagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, so‘zma-so‘z tarjima qilmaslik kerak.

O‘rin almashuv gapning vazifaviy (funksional) ko‘rinishiga bog‘liq. O‘rin almashuv so‘zlar, gaplar kabi lingvistik elementlarning tartibining o‘zgarishidir va u asosan 2 qismdan: tema va rema. Bu bo‘linish so‘z tartibi bilan ifodalanadi. Tema gapning boshida, rema esa tema haqida yangilik beradi.

Ingliz tilida ergash gap turlicha belgilanadi. Murakkab qo‘shma gapda ergash gap gapning boshida, bosh gap esa gapning oxirida keladi.

Tilning grammatik tuzilishi til sistemasining muhim bo‘lagidir. Grammatik tuzilishning elementlari quyidagilar: affikslar, turlanish shakllari va yasalishi, sintaktik birikish, gapda so‘z tartibi va h.z. Ular grammatik yoki shakliy jihatiga ko‘ra leksik ma’nolarni farq qilish uchun xizmat qiladi. Tarjima jarayonida shu kabi ma’noni bayon qilish tarjima ekvivalentlarining umumiy muammosi kabi muhim muammodir. Turli tillarning grammatik shakllari ularning ma’no va vazifasini ifodalashda bir-biriga kamdan-kam holatlarda to‘g‘ri keladi. Odatda bu yerda qisman ekvivalentlik bo‘lib, u grammatik ma’nolarni grammatik shakllarda ifodalashdir, ko‘rinib turibdiki, ikki tilning o‘xshash jhati faqatgina ularning ma’nosi o‘xshash bo‘lishida, boshqa jihatlari bilan farq qiladi.

Bunga misol ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi otning shaxs-son kategoriyasi bir-biriga mos keladiganga o‘xshaydi, aslida esa ko‘p hollarda bir-biriga mos kelmaydi. Misol uchun: table – tables > стол – столы > stol – stollar; clock – часы – soat.

Shuningdek, bir qancha misollar keltirish mumkin, masalan, ingliz tilining ko‘plik shakli rus va o‘zbek tillarida birlik bilan

ifodalanishi mumkin. Bu esa birlik va ko'plik shakl orasida odatiy holatdir. Bunday farqni ko'p hollarda tarixan asoslab berish mumkin. Misol uchun: cats, onions, peas, suburbs... кошки, лук, горох, окраина – mushuklar, piyoz, no'xot, shaxar cheti.

Tildagi son shakllari ham otdan so'ng sonlar kelsa bir-biriga mos kelmaydi. Yana bir yaxshi misol bu zamon kategoriyasidir. Ingliz, o'zbek, rus tillarining hozirgi va o'tgan zamon fe'l kesim shakllari bir-biridan farqlidir.

Misol uchun: He lives in Moscow; he lived in Moscow. Он живет в Москве – U Moskvada yashaydi; Он жил в Москве – U Moskvada yashar edi.

Shuningdek, muayyan vaziyatlarda ingliz, rus va o'zbek tillarida fe'lining zamon shakllarini bir-biriga moslashuvi mavjud. Ingliz tilida har xil zamonlar moslashuvida qoida mavjuddir. Ingliz tilida agar bosh gap o'tgan zamonda bo'lsa, ergash gapda ham o'tgan zamon ishlatiladi, ammo rus va o'zbek tillarida shu o'rinda hozirgi zamon shaklini ham qo'llasa bo'ladi. Misol uchun: He said he lived in Moscow. – Он сказал, что живет в Москве – U Moskvada yashayman, – dedi.

Farq sezilarli darajadadir. Grammatik kategoriyalar bir-biridan juda katta farq qiladi. Misol qilib “род” kategoriyasini olishimiz mumkin. Rus tilida 3ta “род” mavjud: мужской, женский и средний bo'lib ular quyidagicha ifodalanadi: otlarning turlanish qo'shimchalari orqali, “prenominal substitution” vositalari orqali.

Ingliz tilidagi shu 3ta rod shakllari ham bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, ushbu tafovut faqatgina “prenominal substitution” orqali ifoda etiladi va bunda rodlar moslashuvi va turlanish qo'shimchalaridagi interferensiya kabilar bo'lmaydi. O'zbek tilida “prenominal substitution” mavjud emas.

§5 Tarjimada grammatik ekvivalentni tanlash

1. Biror shakl (forma)ning to'g'ri ma'nosini topa olish;
2. Ushbu jumlanı anglatuvchi mos shaklnı ayni tilda topa olishdir.

Ayni tildagi grammatik ekvivalentni tanlash quyidagi faktor (omil)lar orqali belgilanadi:

1. Grammatik shakldagi ma'noning mos bo'lishi, misol uchun: lives, lived.

2. So'zning leksik xususiyati yoki so'z birikmasini ko'rsatilgan shaklda qo'llash.

3. Uslub faktorlari: Masalan, ingliz, o'zbek va rus tillarida fe'l majxul nisbat shakllari.

Shuningdek, o'zbek tilida ushbu shaklning ishlatilishi asosan adabiy yoki kitobiy uslub bilan chegaralanadi.

Misol: At the station John was met by his brother – Jon uning akasi tomonidan vokzalda kutib olindi – Жона встретил его брат на вокзале.

Aniq artikl ko'phollarda gapda so'zning ma'nosini kuchaytirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun uning orttirma daraja ma'nosi bor va u orttirma darajadagi sifat orqali tarjima qilinadi. He continued to be in general estimation the English story-teller – U ko'pchilikning fikricha, eng ulug' ingliz yozuvchisi edi. – Он был, по общему мнению, самым выдающимся английским писателем.

Bog'lovchilarni tarjima qilishda ko'p qiyinchiliklarga duch kelamiz. Bog'lovchilar juda keng sistematik tuzilishga ega. "And" bog'lovchisi o'zbek tilidagi "va" bog'lovchisini, rus tilidagi "n" bog'lovchisini ifodalaydi. Ammo bu bog'lovchi buning aksini ham ifodalashi mumkin va hattoki voz kechish (rad qilish) ma'nosini ham beradi. Misol uchun: 1.The rebels seized general towns and were defeated and their leader, Pedro Albizi Compos was arrested after a sharp struggle" – Qo'zg'olonchilar nafaqat shaharlarni ishg'ol qilishdi balki ularni yakson qilishdi, ularning yetakchisi Pedro Albizi Campos esa shiddatli janglardan so'ng qamoqqa olindi. Метежники захватили города и их лидер Педро Албизи Компос был арестован после ожесточенных боев. 2.He was small and bughteyed and his name, A.K. will stay in my mind a long time and I hove never seer trim since that night – U past bo'yli, yorqin ko'zli edi, uning ismi sharifi A.K. men uni kecha kechqurundan beri uchratmagan bo'lsam

ham, mening хотiramda uzoq saqlandi. Он был небольшого роста, с яркими глазами, его имя и отчество А.К, хотя я его не встретил с вчерашнего вечера, но он долго остался в моей памяти.

Agar siz ingliz tili lugʻatiga murojaat qilsangiz, u “tarjima qilmoqchi” soʻzining maʼnosini bir tildagi soʻzning maʼno yoki ekvivalentini boshqa bir tildagisiga oʻzgartirish, “yoki” bir tildagi soʻzning oʻziga xosligini boshqa bir tilda ham saqlab qolishdir deb taʼriflanadi. Aniqrogʻi, maʼno ingliz tilidan oʻzbek tiliga qilingan tarjimaning muhim kontekstida qoʻllanilganda u juda ham kengayadi.

Bu maʼno boshqa tildagi soʻzlarni tushuntirmoq maʼnosini anglatuvchi “interpret” soʻzi bilan deyarli bir xildir. Hozirgi kunda tarjimonlar tomonidan qoʻllanilayotgan bu soʻz barcha maʼno kengayishlarini oʻzida jamlagan.

Ayni vaqtda “translation” atamasining umumiy maʼno koʻrinishlari quyidagilarda aks etadi. Tarjima asl matnning aksar qismini imkon qadar juda oz soʻzlar bilan ifodalay olishi va asl matnning mazmun va mohiyatini saqlab qolishi lozim. Tarjimon matnga bogʻliq boʻlmagan fikr va soʻzlarni qoʻshmasligi lozim. Uning vazifasi kengaytirish yoki izohlash emas, balki asl matnning taʼsirchanligi va ruhiyatini saqlab qolgan holda tarjima qilishdir. Maʼnodorlikni gapdagi soʻz tartibi orqali ifodalash ham muhimdir. Tarjima biror matnni boshqa bir tilga soddagina qilib oʻgirishdir.

“Translation” – soʻzning birinchi maʼnosi “tarjimonlik” bir tildan ikkinchi bir tilga qilinadigan faoliyatdir, ikkinchi maʼnosida esa “translation” – “tarjima” tarjima qilib boʻlingan. tugallangan natijadir.

Biz “translation” soʻziga duch kelganimizda uning ikkinchi maʼnosi “translation” (tarjima) bilan bogʻliq boʻlgan boshqa bir maʼnosidan farqlay olishimiz kerak.

Tarjima tilshunoslikda koʻp uchraydigan ichki bogʻlanishdir, hamda u psixologiya, etnografiya, mamlakatshunoslik bilan yaqindan aloqador. U tarjimadagi lingvistik nazariyaga asoslanadi. U turli xil sistemalardagi oʻxshash va farqli xususiyatlarni aniqlashda qiyoslaydigan qiyosiy tilshunoslikdan farq qilsa-da, tarjima nazariyasining oʻziga xos predmeti bordir.

Tarjima lingvistik asosning jarangdorligisiz tushunarsizdir va bu asos tarjima qilinayotgan va tarjima qilingan tillar o'rtasidagi jumalarning o'zaro bog'lanishi, hamda lingvistik hodisaning qiyosiy o'rganish orqali ta'minlanadi.

Tarjima tilning ichki aloqa vositasidir. Tarjimon ayni tilga axborotni tarjima qilish orqali turli xil tilda so'zlashuvchilar o'rtasida axborot almashish imkoniyatini yaratishi lozim.

Tarjimaning tuzilishi asl matnning tuzilishiga mos kelishi mazmunning ketma-ketligida yoki matn segmentlarining tartibi o'zgarmasligi kerak. Maqsad tarjimaning har bir segmenti tarjima qilinayotgan matnning tegishli qismi bilan imkon darajada bog'liqlik bo'lishini ta'minlovchi yuqori darajadagi tuzilishning parallel bo'lishidadir.

Tuzilishdagi paralellik tarjima va tarjima qilinayotgan matndagi tegishli bo'laklarni qiyoslay olish imkonini beradi, shuningdek ekvivalentlari bor bo'lgan va yo'q bo'lgan, hamda tarjimada tushirib qoldirilgan va qo'shilgan elementlarni topish kerak.

Xulosa qilib aytganda, matnning eng kichik segmentlarining bog'lanishida struktura (tuzilish)ning o'xshashligini saqlab qolish kerak.

“Tarjima” atamasi tilshunoslar va uning mos va aniq ma'nosini aniqlovchilar (tarjimonlar) uchun predmetning sub'yektidir.

VI. TARJIMANING FRAZEOLOGIK MUAMMOLARI

§1. Iboralar yoki frazeologik birliklar tarjiması

Odatda erkin birikmalarni tarjima qilish muammo tug'dirmaydi. Agar erkin birikmalardagi so'zlardan biri ko'chma ma'noda qo'llansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarning bir nechta turi mavjud bo'lib, ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Birinchi turdagi so'z birikmasi sifat+ot turi. Ularning semantik strukturasi bir-biridan katta farq qiladi. Bu birikmada qo'llangan otning xususiyatini va sifatini belgilaydi. Agar ingliz tilidagi "free educational institution" birikmasida free so'zi institution so'zi bilan aloqasi yo'q, bu degani ba'zi hollarda sifatlar otning xususiyatlari va sifatidan tashqari u bilan bog'liq tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Yana bir misol. Ingliz tilidagi "a medical man" birikmasini tarjima qilishda "a stout person" birikmasini tarjima qilishda qo'llangan usuldan foydalanib bo'lmaydi. Ingliz tilidagi "a stout person" o'zbek tiliga "to'ladan kelgan yoki semiz odam" deb tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi "a medical man" birikmasini o'zbek tiliga tarjima qilishda so'zma-so'z tarjima to'g'ri kelmaydi. Bu yerda ikki so'z bitta ma'noni ifodalaydi va u "shifokor" deb o'giriladi. O'zbek tilida ham bunday bitta ma'noni ifodalovchi birikmalarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, "tog' qo'yi", "malla sochli", "devor soati" va hokazo. Bir otni bir necha sifat aniqlab kelishi mumkin bo'lgan hollar ham uchraydi. Bunda aniqlanmish bo'lib ot kelishi mumkin. Masalan, "temir xotin", "ichkari uy kaliti" kabilar.

Ingliz tilida aksariyat hollarda otlarni aniqlab kelgan so'zlar (bular ot ham, sifat ham bo'lishi mumkin)ni qaysi biri ekanligini aniqlash mushkul bo'ladi. Masalan, "retail philanthropy business" birikmasi nima ma'noni anglatganini bir qarashda anglash oson emas, chunki uni ikki xil tushunish mumkin. O'zbek tilida bunday hollar deyarli uchramaydi.

Ingliz iboralarining yana bir xususiyati otni aniqlab kelgan

sifat tushirib qoldirilgan holatlar ham uchraydi. Masalan, “dry pruning” iborasini olsak. Bu iborani soʻzma-soʻz tarjimasini “quruq butash” boʻladi. Soʻz birikmasining maʼnosi daraxt shoxlari quruq boʻlgan paytda qilingan butashni ifodalaydi.

Tarjima jarayonida soʻz birikmalarining semantik hamda tuzilish xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda birinchi navbatda otni tarjima qilib olish tavsiya etiladi, chunki qanday aniqlanmish qoʻllanmasin hammasi otni aniqlab keladi va ot gapda eng muhim maʼnoni ifodalaydi. Tarjimonning keyingi vazifasi gapdagi maʼno guruhlarini ajratib olish hisoblanadi. Gapning maʼno guruhi ajratib olingach, ot va sifat oʻrtasidagi grammatik aloqalar turi aniqlanadi. Otdan oldin kelgan soʻz va soʻzlar, uni aniqlab keladi, ularni agar gap ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilinsa, uni oʻzbek tili grammatikasi qoidalari asosida va aksincha, agar gap oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinsa, ingliz tili grammatikasi normalariga asoslanib tarjima qilinadi. Aksariyat hollarda ingliz va oʻzbek tili erkin birikmalarining tartibi ikki tilda ham bir-biriga mos kelishi mumkin:

“Strategic Arms Limitation Treaty” – Strategik qurollarni cheklash shartnomasi.

Bunday tarkibda aniqlovchi boʻlgan iboralarni tarjima qilishning bir nechta usuli mavjud:

1. Ingliz tilidagi ot oldidan kelgan aniqlanmish oʻzbek tilida ham shu tartibda tarjima qilinadi: “a cheap ticket” – “arzon chipta”, “an expressive word” – “ifodali soʻz”.

2. Ingliz tilida ot+ot shakli kelgan ibora ham xuddi yuqoridagidek tarjima qilinadi, bunda oʻzbek tilidagi iboraga bir nechta ibora toʻgʻri kelishi mumkin: “opposition leader” – “muxolifat lideri”, “muxoliflar lideri”, “oppozitsiya lideri”.

3. Otni aniqlab kelgan inglizcha iboralar oʻzbek tiliga bogʻlovchilar yordamida tarjima qilinadi: “youth unemployment” – “yoshlar oʻrtasidagi ishsizlik”.

4. Ingliz tilidagi aniqlanmish va ot oʻzbek tiliga izohlovchi orqali tarjima qilinishi mumkin: “his millionaire friend” – “uning millioner doʻsti”.

5. Ba'zan ingliz iboralaridan biri qismi tasviriy yo'l bilan, ya'ni bir nechta so'z yordamida tarjima qilinishi mumkin: "a bargain counter" – "narxi tushirilgan (pasaytirilgan) mollar do'kon (bo'lim)i".

6. Ingliz tilining tarkibida aniqlovchi bo'lgan iboralarni tarjima qilishda aksariyat hollarda ibora tarkibidagi muayyan so'zni/otni boshqa otga o'zgartirish zarur va bu tavsiya etiladi. Masalan, "free educational institutions" o'zbek tiliga "bepul o'qiladigan oliy o'quv yurtlari" deb tarjima qilinishi lozim, chunki "free" so'zi "institutions" otini emas, balki "educational" so'ziga aloqasi bor. Xuddi shu fikr "Parliamentary Labour Party" birikmasiga ham aloqador. Bu iborani o'zbek tiliga "Leyboristlar partiyasining parlament fraksiyasi" deb tarjima qilish o'zbek tili grammatikasining qoidasiga to'liq muvofiq keladi.

Tarjimani to'liq berish maqsadida ba'zi hollarda aniqlovchini ayni shu gapda qo'llangan boshqa ot bilan tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol tariqasida "dismal array of titles" birikmasini ko'rib chiqaylik. Bu iborani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish ma'noga putur yetkazadi, shuning uchun uni "dismal" so'zining aniqlovchisi "titles" otini emas, balki "array" otini aniqlab kelganligi uchun birikmani "eng yomon (eshitiladigan yoki quloqqa yoqmaydigan) laqablar yig'indisi" deb tarjima qilishga to'g'ri keladi.

7. Aksariyat hollarda ingliz tilidagi aniqlanmishli iborlar o'zbek tiliga ravishli iboralar bilan tarjima qilinadi:

to be
to have
to give + A + N phrase
to take

Yuqoridagi namunalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin : "to have a good sleep" – "yaxshi (tiniqib) uxlamok", "to take a deep breath" – "chuqur nafas olmoq", "to give a loud whistle" – "qattiq hushtak chalmoq", "to have a good lunch" – "yaxshi (mazali taom yeb) tushlik qilmoq" va shu kabilar.

8. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda shunday hollar

uchraydiki, turli ekstralingvistik omillar ta'sirida tarkibida fe'lli iborali mavjud gaplar va ularning tuzilishi butunlay o'zgarib ketadi. Masalan, "He had "I don't know expression" in his face" – "Uning yuzi, uni hech narsa bilmasligini ifodalab turardi".

Bu borada O.V. Petrova shunday deb yozadi: "Tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari o'rtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma hamda tarjima tilidagi so'z birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi (Petrova. 2006, 18)".

Ingliz tilining o'ziga xos aniqlovchi va aniqlanmishdan tashkil topgan iboralari mavjud bo'lib, ular ichki predikatsiyasiga ega. Ularni tarjimasi asosan iboralarning stilistik xususiyatlariga bog'liq. Agar bunday aniqlovchilar yoyiq hamda ko'p qismdan tashkil topgan bo'lsa, ular odatda o'zbek tiliga to'ldiruvchi ergash gaplar yordamida tarjima qilinadi. Aniqlanmishli ibora tarkibida ot xususiyatini ifodalovchi so'zlar bo'lgan hollarda esa ular bitta ot orqali tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi: "a grab-it-and-run ... counter" - "yo'l-yo'lakay kirib ketiladigan mayxona" yoki "gazakxona".

§2. Milliy xususiyatga ega frazeologik birikmalar va ularning tarjimasi

Turg'un birikmalarni tarjima qilish erkin birikmalarni tarjima qilishdan farq qiladi. Turg'un birikmalar tarjimasi haqida gapirishdan avval ularning o'z va ko'chma yoki obrazli turlarini farqlab olish lozim. O'z ma'nosida qo'llangan turg'un birikmalarni tarjima qilish yuqorida fikr yuritilgan prinsiplarga asoslanadi. Eng muhim prinsiplardan biri – tarjima tili normalarini unutmaslik hisoblanadi.

Ko'chma yoki obrazli turg'un birikmalar tarjimasi alohida e'tiborni talab etadi. Bunday iboralarning asosiy xususiyati ularning komponentlari yig'indisidan ma'noni anglab olish qiyinligi bilan xarakterlanadi. Turg'un birikmalar ma'nosi alohida olingan so'zlardan emas, balki ularning yig'indisidan kelib chiqadi. Obrazga asoslangan turg'un birikmalar matnni ifodali hamda stilistik jihatdan

bo'yoqdor bo'lishini ta'minlaydi. Asliyat matnining bo'yoqdorligi tarjimada ham o'z aksini topishi va ifoda vositalarining to'liq saqlanishini talab etadi. Tarjimon matnning ifodali va bo'yoqdorligini ta'minlash maqsadida tarjima matnida ham adekvat obrazli turg'un birikmalarning variantini topishi lozim bo'ladi.

Tarjima nazariyasi bo'yicha nashr etilgan adabiyotlarda bunday birikmalarni tarjima qilishning to'rtta usuli borligi haqida ma'lumot beriladi (Qarang: L.Barxudarov, V.Komissarov, Fiterman, Levitskaya, O.Petrova va boshqalar). Ular quyidagilardan iborat: 1) obrazni qanday bo'lsa shundayligicha saqlash; 2) obrazni qisman o'zgartirish; 3) obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish va 4) tarjimada obrazni butunlay saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish.

1. Odatda universal yoki internatsional obrazlar tarjimada to'liq saqlanadi. Bunday frazeologik birliklar tarixiy, afsonaviy, diniy, mistik, mifologik va shu kabilarga asoslangan bo'ladi. Masalan, "in the seventh heaven" – "yettinchi osmonda". Bunday frazeologik birliklar asliyatning tarjima tilidagi ekvivalentlari deb ataladi. Tarjimada to'liq ekvivalentga ega frazeologik birliklar deyarli hech qanday muammo tug'dirmaydi, chunki ular stilistik hamda pragmatik jihatlardan bir xil qiymatga, ma'noga, ifoda usuli va ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Ba'zan asliyatdagi obrazli frazeologik birlikni tarjima tilida muqobili bo'lmasa ham saqlab qolish imkoniyati bo'ladi. Bunga kalkalash yo'li bilan erishish mumkin. Masalan, "nothing comes out of the sack but what was in it" – "qopda nima bo'lsa, shu chiqadi" yoki "qozonda bori cho'michga chiqadi". Bu usul obrazli frazeologik birlikning ma'nosi shaffof bo'lgan taqdirda, ya'ni uni hamma oson tushungan holdagina qo'llash mumkin. Frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanigan bo'lsa-da, ularning lug'aviy ma'nosi aniq bo'lsa, uni tarjima qilishda kalkalashdan foydalanish matnni, matndagi informatsiyani hamda matndagi g'oyani tushunishni osonlashtiradi, tarjima muqobilligini ta'minlaydi. Kalkalash aksariyat hollarda obrazli frazeologik birliklarni oddiy frazeologik, ya'ni erkin birikmalarga aylantirib

qo'yadi. Bu usulning qanchalik to'g'ri tanlanganligini tarjima sifati ko'rsatadi. Aksincha, frazeologik birlikma tarkibida qo'llangan so'z ma'nolari shaffof bo'lmasa, kalkalash usulidan foydalanish matnda qo'llangan ko'chma ma'noli so'zlarni qisman, ba'zan esa to'liq tushunmaslikka olib keladi. Masalan, ingliz tilidagi "*to send somebody to Coventry*" turg'un frazeologik birligini tushunish uchun undagi so'zlar ma'nosi yoki ma'nolar yig'indisi yetarli bo'lmaydi, chunki bu frazeologik birlik na "*yubormoq*" va na "*Koventri*" so'zining ma'nosiga bog'liq. Bu iboraning tarjimasi "*haykot qilmoq*" fe'liga to'g'ri keladi.

2. Aksariyat hollarda asliyat va tarjima tillarida bir xil fikr ifodalanadi, biroq ular obrazlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ularning har ikkisi bir xil ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Bunday hollarda obrazlar o'rtasida mavjud ozgina farq hisobga olinmasligi lozim. Bunda tarjima qilinayotgan frazeologik birlikdagi obraz tarjimada ba'zi bir aniqroq aytadigan bo'lsak, qisman o'zgarishga uchraydi. Shunday bo'lsa-da tarjima adekvat hisoblanadi: "*a fine suit does not make a gentleman*" – "kiyim odamni bezamaydi", "*a burnt child dreads the fire*" – "og'zi qaynoq sutga kuygan, qatiqni ham puflab ichadi". Ikkinchi misolda ingliz va o'zbek frazeologik birliklari o'rtasida muqobillik yo'qdek ko'rinadi. Chunki birlikning birorta so'zi bir-biriga to'g'ri kelmaydi, biroq frazeologik birlikda ifodalangan obraz deyarli bir xil – olovdan va qaynoq narsadan qo'rqish ma'nosi berilgan. Ikkala turg'un birlikda berilgan ma'no umumlashtirilgan. Yana bir-ikkita misolni tahlil qilib chiqaylik: "*look not a gift horse in the mouth*" – "berganning betiga qarama", "*to lay by a rainy day*" – "qora kunga saqlamoq/qoldirmoq" va hokazo.

3. Har bir xalqning til boyligi, jumladan frazeologik birliklari uning tarixi, madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi, mentaliteti va xarakterli xususiyatlari va shu kabilarni aks ettiradi. Hamma uchun bir xil fikrlar turli xalqlar tomonidan turlicha ifodalanadi: o'zbeklar "tuyaning dumi yerga tekkanda", "qizil qor yoqqanda", "xapshanba kuni" deganda inglizlar "*when pigs fly*" frazeologik birligini qo'llashadi. Ikkala frazeologik iboradagi leksik birliklar bir-biriga,

ayniqsa “tuya, qizil qor hamda xapshanba” butunlay to‘g‘ri kelmasada, “hech qachon sodir bo‘lmaydigan ish-harakat, voqea” asosiy fikr hisoblanadi. Frazeologik birliklar tarkibidagi aksariyat so‘zlar esa ikkinchi darajali unsur sifatida qo‘llangan. Bu yerdagi asosiy vazifa asliyatdagi frazeologik birlikka tarjima tilida xuddi shu fikrni ifodalagan va xuddi shunday stilistik ma’noga ega bo‘lgan turg‘un birikma topish.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, aksariyat hollarda asliyatdagi frazeologik birliklarning ekvivalentlari yo‘q bo‘lganda, ayni obraz qo‘llanmaganda obrazni butunlay almashtirish tavsiya etiladi. Tarjima tilida asliyatdagi frazeologik birlikka ma’no va stilistik ifodaliligi o‘xshash turg‘un birikma topish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Shunday hollar bo‘ladiki, tarjima tilida asliyat tiliga na ekvivalenti va na o‘xshash frazeologik birikma topiladi. Asliyatda ifodalangan fikrni aks ettira oladigan birlikning na ekvivalent va na o‘xshashi bo‘lganda, frazeologik birlik shaffof bo‘lmasa, kalkalash usulidan foydalanishning iloji bo‘lmaganda, turg‘un frazeologik birliklar tasviriy yo‘l bilan tarjima qilinadi. Tasviriy usul erkin ko‘chma ma’noga asoslanmagan frazeologik birliklarni qo‘llashni talab etadi: “a skeleton in the cup” – “oila siri”, “in a whole skin” – “bekamu-ko‘st, soppa-sog‘, sog‘-salomat, beziyon” va shu kabilar.

Ko‘chma, ya’ni obrazli frazeologik birliklarni tarjima qilishning asosiy usullari mavjud.

Frazeologik birliklarini tarjima qilish jarayonida so‘zlarning milliy xususiyatlarini hisobga olish lozim bo‘ladi. Milliy xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar, ya’ni realiy (xos so‘zlar) tarjimasi, frazeologik birliklar tarjimasi juda murakkab hisoblanadi, tarjimondan katta kuch va ko‘p vaqt talab etadi. Bir tomondan tarjimada milliy xususiyatlarni saqlash oson bo‘lmasa, ikkinchi tomondan tarjimonning erkinlikka yo‘l qo‘yishi natijasida tarjima tiliga asliyat tilining milliy xususiyatlarini olib kirish hollari uchrab turadi. Ma’no jihatdan “to carry coals to Newcastle” iborasi “Surxondaryoga xurmo olib bormoq, Marg‘ilonga atlas tashimoq”, “Chinozga baliq tashimoq” deb emas, balki neytral ma’noga ega “daryoga suv tashimoq”, “o‘rmonga o‘tin

olib bormoq” kabi neytral birikmalar topish, zarur bo’lsa, yangi erkin frazeologik birliklar yaratish tavsiya etiladi. Ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilingan frazeologik birliklar o’zbekchalashtirilishi lozim, lekin bu bilan tarjimaning o’zini oqlamagan usullardan foydalanish, uni suiiste’mol qilish nafaqat tarjima usuliga, balki mazmuniga ham putur yetkazadi, tarjima sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Belgilar umumiy va maxsus bo’lishi mumkin. Har qanday tilda oq rang soflik, adolat belgisidir. Shuningdek, qora – qayg’u, o’lim, gul – chiroy, sevgi, bulbul – chiroyli ovoz, bo’ri – hasislik, ochlik, tulki – makkorlik, imyon – donolik va hokazo. Bu belgilar umumiy belgilardir. Har xil geografik, iqtisodiy, ijtimoiy, insonlarning siyosiy holatlari bilan bog’liq maxsus belgilar ham mavjud. Shunga ko’ra bir frazeologik birliklarni tarjimada turli xil so’zlar bilan solishtiramiz. M: as red as a cherry – olmaday qizil; as harmless as a dove – musichaday beozor.

Har bir tilda o’zining milliy, madaniy xususiyatlariga ega bo’lgan frazeologik birliklar mavjud. Frazeologik birliklarning tarjimasi milliy, madaniy xususiyatiga chuqur e’tibor bergan holda qilinishi lozim.

Frazeologik birliklar har bir tilda tashkil topishi jihatidan ijtimoiy-tarixiy hodisalar, aqliy va ruhiy holatlar, din, milliy an’ana va urf-odatlarini o’z ichiga oladi. Turli xil geografik nomlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismi bo’lishi mumkin. M: Do in Rome as the Romans do. – Onasini uchqo’rg’ondan ko’rsataman. Frazeologik birliklar milliy xususiyatga ega bo’lganda boshqa tilga kalka orqali tarjima qilinadi. M: Golden wedding – oltin to’y.

Ingliz tilida inson tana a’zolariga ko’z, qovoq, bosh, quloq va xokazolarga asoslangan bir necha iboralar mavjud. Ba’zida notasviriy ifodaviy, iboralar bilan tarjima qilish muhim bo’lib qoladi, lekin ba’zida tillarda ishlatilishi mumkin. Tarjimon iboralarni va asliyat tilidagi boshqa idiomalarni yodda saqlab qolishni o’rganishi shart. Haqiqiy qiyinchilik iboralarni badiiy tomondan tarjima qilayotganda tug’iladi. Tarjimon tarjima tilidagi iboralarni qo’llanilishiga sezgirligini oshirish va ularning jonliligini ta’minlash uchun tabiiy

qo'llashi va asliyat tilidagi usulni saqlab qolishi kerak. Asliyat tilida ibora hisoblanmagan, lekin iboralar bilan yaxshi tarjima qilinadigan so'zlar bo'lishi mumkin. M: *Dutch courage* iborasi o'zbek tiliga *kayf, mastlik* so'zlari bilan tarjima qilinadi.

Evfemizm – bir so'z, iboraning boshqa so'z yoki ibora o'rniga qo'llanilishi.

Lekin evfemizm yoki qog'ozga o'rab gapirish nojo'ya iboraning, ijtimoiy tomonidan qabul qilinmagan, yoqimsiz bo'lgan so'zlardan qochish maqsadida qo'llaniladi. Hamma tillarda boshqa so'z o'rnida qo'llanuvchi ayniqsa jinsiy aloqa, o'lim va g'ayritabiiy holatlar doirasida qo'llaniladigan evfemizmlar frazeologik birliklari mavjud. Yahudiylar Xudo so'zi o'rnida jannat so'zini qo'llashgan. Ko'plab tillarda o'lim so'zining o'ringa boshqa so'zlarni qo'llash qabul qilingan. Inglizlar *pass away* – (narigi dunyoga ketmoq) va boshqa ifodalarni qo'llashadi. Jinsiy aloqa ko'p tillarda pardalab gapirish *as to know, to touch, to come together, to sleep with* singari frazeologik birliklari orqali qo'llaniladi. Qo'shma Shtatlarda qari odamlarni katta yoshdagi shaxslar (senior citizens) deb atashadi. Evfemizmlar tarjima tiliga mos keladigan evfemizm so'zlar bilan qo'llanilishi kerak. Tarjimon uchun eng muhim narsa shuki, u asosiy tildagi evfemizmning tabiiyligini eslab qolish va so'ng tarjima tilida qabul qilingan va to'g'ri keladigan so'zga tarjima qilishi kerak. Misol uchun: *He is sleeping with his father* iborasi: *U qishlog'iga ketdi* (Он уехал в деревню) deb tarjima qilinishi kerak. Biroq ba'zi tillarda *U o'ldi* (Он умер) deb tarjima qilinadi.

§3. Tarjimada frazeologik birliklarning mos kelishi

Frazeologik mos kelishlarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. To'liq moslashish. Misol: *to lose one's head* – kallasini yo'qotmoq – потерять голову.

2. Qisman moslashish, ular obrazlilik jihatidan yaqin, lekin leksik tuzilishi, sintaktik kelishuvidan va so'zlar tartibi jihatidan farqlanadi. Misol: *to get out of bed on the wrong foot* – встать не с той ноги – chap yoni bilan turmoq.

3. Moslashishning bo'lmashligi.

Har xil tillarda ko'p frazeologik birliklarning frazeologik moslashuvi mavjud emas. Ular realiyadir.

Realiyalar leksik birlik bo'lib, insonlar hayotidagi milliy urf-odatlar va ularga xos bo'lgan hodisalarni anglatadi.

Bunday frazeologik birliklarni so'zma-so'z, analogiya yoki tasviriy yo'l bilan tarjima qilish yaxshiroqdir. M: Cold war- sovuq urush (холодная война). So'zma-so'z tarjima. The apple of my eye – ko'zginamning nuri (мой самый дорогой). Tahlil orqali tarjima. To pull somebody's leg – mazax qilmoq (издеваться); to enter the House – parlament a'zosi bo'lmoq (быть членом Парламента).

Shunday qilib, frazeologik birliklarni tarjima qilishning qiyin muammolaridan biri, bu ularning vazifaviy va semantik tomondan ajralmas birliklar bo'lib hisoblanishidir. Ularning idiomatik ma'nosi bor va ular nutqda tayyor birlik sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklarning milliy madaniy xususiyatlari mavjud va ular tarjimada muammolar paydo qiladi.

Frazeologik birliklar bir tildan boshqa tilga to'rt yo'l orqali tarjima qilinadi:

1. Grammatik, semantik va uslubiy moslashishlar orqali.
2. Semantik ekvivalentlar orqali.
3. Kalka orqali.
4. Tasviriy (bayon) tarjima orqali.

To'liq frazeologik birliklarning moslashishi 2 ta tilda bir xil bo'lishi mumkin. Black frost – qora sovuq (суровый мороз); to lose one's head – kallasini yo'qotmoq (потерять голову)

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ularning tuzilishi va mazmunini solishtirish orqali funksional va semantik mustaqil birliklar tanlab olinadi. Bu prinsiplar til elementlarini o'xshashlik va mos kelishi orqali ifoda qilinadi. Ushbu birliklarning tuzilishi va ma'nosi mos kelishi mumkin yoki moslashishda ayrim kamchiliklar orqali taqdim etiladi.

Frazeologik birliklarning tuzilishi va mazmuni jihatidan to'liq mos bo'lishi kam kuzatiladi. Black frost – qora sovuq (суровый мороз).

Frazeologik birliklarning qisman mos kelishi uchun obrazlilik tomondan bir xil, lekin tuzilish va soʻz tartibi jihatidan bir-biridan farq qiladi. M: to dance to smb's pipe – birovning nog'orasiga o'ynamoq (играть в чужие дудки).

Ko'pgina frazeologik birliklarni rus va o'zbek tillarida ekvivaletlari mavjud emas. Quyidagi turdagi birliklarni tarjima qilayotganda so'zma-so'z tarjima, analogik va tasviriy tarjima turini qo'llash mumkin. M: cold war – sovuq urush (холодная война), the arm's race – qurollanish po'ygasi (гонкавооружение). Analogiya tomonidan tarjima qilish esa maxsus milliy xususiyat bo'lgan holda mumkin bo'ladi. M: The apple of my eye – ko'zginamning nuri (мой самый дорогой). Tasviriy tarjima frazeologik birliklarning, bu so'zlar tuzilishining erkin tarjimasidir. M: to enter the House – parlament a'zosi bo'lmoq (быть членом Парламента).

Frazeologik birliklarda komponentlarni almashtirish, tushirib qoldirish va qo'shish mumkin. Shuning uchun biz tarjimada quyidagi holatni ta'kidlashimiz lozim.

Tarjimada 2 tildagi frazeologik birliklarning asosiy tuzilishining grammatik shaklini saqlab qolish muhimdir. Aks holda uslubiy va pragmatik ma'nolar tarjimada aks ettirilmay qolishi mumkin. M: Devornitn ham qulog'i bor (У стены тоже есть уши) – Walls have ears – mumkin, lekin Wall has an ear – mumkin emas. Frazeologik birliklar to'liq moslashishda o'zining tuzilishi va ma'nosi leksik birliklarning soni jihatidan farqlansa ham, lekin semantik jihatdan farqlanmaydi. M: Qanday shamol uchirdi (Какой ветер дует) – what wind blows you here.

Asliyat tilidagi frazeologik birlikni ekvivalentini tarjimada topish uchun tarjima tilida mos keladigan variantini tanlanadi. Ushbu frazeologik birliklar leksik komponentlari jihatidan farqlanadi, lekin ularning asliyat va tarjima tilida mazmuni bir xil bo'ladi. Ular tarjimada bir-birlarining o'rnida qo'llanila oladi, chunki ularning o'rnida qo'llanishga to'siq bo'luvchi milliy xususiyatga ega emas. M: to have smth at one's finger ends – besh qo'lday bilmoq (знать как пять пальцев).

Ba’zida na ekvivalent, na mos keladigan ekvivalent yordam bera oladi.

Bunday holda tasviriy tarjima usuli qo’llaniladi. Bu frazeologik birliklarning erkin ravishda tarjima qilinishidir. M: It is greek to me – jumboq (китайская грамота).

§4. Frazeologizmlarda soʻzlarning birikishi va ularning tarjimasi

“Dress” soʻzi “to dress a chicken” va “to dress a child” iboralarida bir xil ma’noga ega emas. “To dress a chicken” – *patini yulish*, “To dress a child” esa *kiyimlarini kiyish* ma’nosida qo’llanilyapti.

“Collocation” soʻzi bir soʻz boshqasi oʻrnida qo’llanilishini bildiradi. Ba’zi soʻzlar tez-tez bir-biri bilan birga keladi va ba’zilari bir-biri bilan birga kelishi kuzatilmaydi. Qaysi soʻzlar bir-biri bilan birga kelishini bilish matnni toʻgʻri tushunish va toʻgʻri tarjima qilish imkonini beradi. Ba’zi soʻzlar birga kela olmaydi, chunki bular haqiqatdan bir-biridan yiroqdir. Ingliz tilida *cat’s wings* (mushukning qanotlari) demaymiz, lekin biz *bird’s wings* (qushning qanotlari) deb qo’llaymiz. Faqatgina fantastikada *mushukning qanotlari* deb qo’llash oʻzini oqlashi mumkin. Soʻzlarning birikishi turli tillarda farqlanishi mumkin. Misol uchun: ingliz tilidagi *have* soʻzi “dream” soʻzi bilan qo’llaniladi: *I have a dream*. Biroq rus va oʻzbek tillarida bu birikma qo’llanilmaydi. Men tush koʻrdim – Я видел сон.

Har qanday tilda birikmalar yoki frazeologik birikma aniqdir. Ular hamma vaqt aniq tartibda yoki birgalikda qo’llaniladi va ularni toʻgʻri tarjimasini bilish muhim. Ayniqsa ingliz tilidagi *spick and span*, *hale and hearty*, *to-for*, *now and then*, *neat and tidy* kabi birikmalarni va ularni aniq tarjimasini bilish kerak. Boshqa tillarda turgʻun birikmalar hisoblangan umuman turli birikmalar mavjud.

Aniq birikmalar odatda turgʻun tartibda birgalikda ishlatiladi. Agar tartibi oʻzgartirilsa, shu til soʻzlashuvchisiga natija notabiiy tuyiladi. Ingliz tilidagi *bread and Butter*, *day and night* (boshqa

tillarda nigh and day deyiladi), *knife and fork, black and white, black and blue, ladies and gentlemen, rant and rave* kabi ,birikmalarni tarjimon bilishi lozim. Ingliz tili soʻzlovchisiga agar kimdir “gentlemen and ladies” deydigan boʻlsa, bu gʻalati tuyiladi. Koʻp tillarda “*mother and father*” deyishadi, lekin hech qachon “*father and mother*” emas. Oʻzbek tilida “*ota va ona*”, lekin “*ona va ota*” emas. Iboralar maxsus qoʻllanishlar boʻlib toʻliq maʼnoga egadir. Lekin birikmalarning maʼnosi yaxlit soʻzlarning maʼnosi bilan bir xil emas. Ular koʻpgina leksik birliklar bilan bir xil maʼnosi bor boʻladi, lekin aniq moslashish boshqa tilda ifodalanmagan boʻladi. Misol uchun , ingliz tilida *kick the bucket* oʻlim bilan bir xil maʼnoga ega, lekin bu qandaydir hurmat koʻrsatish maqsadida ham qoʻllaniladi. Quyidagi misolda ingliz va oʻzbek tilidagi soʻzlarning tarjimasi berilgan, lekin har xil feʼllar qoʻllanilgan. Har qaysi tildagi shakli hali tabiiydir, lekin badiiy tomondan tarjima qilinsa, notabiiy tuyilardi.

To keep the law	Qonunga amal qilmoq
Ate wild honey	Asal ichdi
He was given wisdom	Aql oʻrgatdi

Shuning uchun iboralarni tarjima qilayotganda bunday hollarda eʼtibor qaratish zarur. Tarjimon birinchi navbatda iboraning mazmunini aniq bilishi va iborani toʻliq ifoda qilish uchun tabiiy ekvivalentini topishi shart. Baʼzida soʻzlarda paydo boʻladigan umumiy maʼno birikmalariga asoslangan holda qoʻllanishlarni taxlil qilish mumkin. Misol uchun, quyidagi gaplarning qoʻllanishlari toʻgʻridir.

Agar feʼl oʻzgartirilganda, natija notoʻgʻri maʼnoda yoki metafora maʼnosida boʻlib qolar edi. Birinchi ustunda shaxslarsiz ikkinchisida shaxslar bor qilib tarjima qilingan.

I <i>washed</i> the car	I <i>bathed</i> the baby
I <i>rented</i> a typewriter	He <i>hired</i> a secretary
The puppy <i>yelps</i>	The bay <i>screams</i>
He <i>sheared</i> the sheep	He <i>cut</i> the boy's hair.

Shunday qilib, frazeologik birlikmalar o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinmaydi. Quyida ingliz frazeologik birlikmalarining o'zbek tilidagi birlikmalarga moslashishi va ekvivalenti har xil bo'lishi mumkin bo'lgan misollar berilgan.

1. It gave me chance to sleep. I didn't sleep last night – Hechqisi yo'q, qaytanga uxlab oldim, kecha mijja qoqmagan edim.

2. “Tonight you will tell me everything” – said Rinaldi – “Kechqurun menga oqizmay-tomizmay hikoya qilib berasiz”, – dedi Rinaldi.

3. When we swaggered by twirling his new mustache, everybody stopped to look and admire – U endi sabza ura boshlagan mo'ylovini burab, savlat to'kib yurgan chog'ida xamma odamlar unga qarashar edi.

4. I sacrificed everything for something that never come – Ro'yobga chiqmagan ana shu narsani deb butun umrimni hazon qildim.

5. It was still raining hard – Yomg'ir hamon chelaklab quyay edi.

6. All right, I wash my hands of the matter. But I warn you all that a time's coming when you're going to feel sick whenever you think of this day. – Yaxshi bo'lmasa! Agar shunday bo'lsa, men qo'limni yuvib qo'ltig'imga uraman. Ammo sizlarga aytadigan bir gapim bor: bir kun keladi bu qilmishingizga pushaymon bo'lasiz va qilgan ishingizni eslashning o'zidayoq xushingiz ketib qoladi.

§5. Lug'atlar va frazeologik birliklar tarjimasi

Frazeologik birliklar nutqda tayyor holda uchraydi, ular turg'un birlikmalar bo'lib, funksional va semantik jihatdan bo'linmas yoki ajralmas birliklardir.

Ingliz, o'zbek va rus tillarining so'z birliklarining tez o'sishi natijasida yangi frazeologizmlarni o'z vaqtida lug'atlardan topa olmaymiz va tarjimon ularni lug'atsiz tarjima qilishiga to'g'ri keladi. Biz eski frazeologik birliklarni “Большой английский – русский

словар”dan va A.V.Kuninning “Ingliz–rustili frazeologik lug‘ati”dan topa olishimiz mumkin. Tarjimon mustaqil holda frazeologiyaning asosiy nazariyasi masalalarini hal qila olish, frazeologik birliklarni to‘g‘ri tanlay olish va ularning ifodaviy-uslubiy tarjimadagi vazifalarini belgilab bera olishi kerak.

Frazeologik birliklarning tarjimasining asosiy qiyinchiligi shundaki, lug‘atlarning hech biri matnda frazeologik birikmalarni qo‘llanishidagi rang-barangliklarni ta‘minlay olmaydi. Kuninning “Ingliz-rus tillari frazeologik lug‘ati”da frazeologizmlarning ko‘pchiligining tarjimasi bor. Masalan: *Charity begins at home*. Bu FB har xil lug‘atlarda turlicha tarjima qilingan. Myullerning “Англо-русский словарь” kitobida – “Savob o‘z uyingdan boshlanadi” deb izohlangan.

“Своя рубаша ближе к телу” birikmasining tarjimasi maqolning faqatgina negativ ma‘nosiini ko‘rsatayapti, insonning tabiiy fe‘l-atvori bo‘lishi, uning qiziqishlari va hudbinligini ta‘kidlayapti. BARSda berilgan tarjimada inson boshqa insonlar haqida o‘ylashi, qayg‘urish ifoda etilgan, lekin bu tarjimada kinoya yo‘q va u tabiiydir. Xornbayning lug‘atida shu FB “Charity begins at home” – *A person’s first duty is to help members of his own family*, deb keltirilgan.

Bu misol shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlarning lug‘atlarda har xil tarjima shakllari berilishi mumkin, tarjimon buni hisobga olishi zarur.

Rus, ingliz va o‘zbek tillarida frazeologizmlarning so‘zma-so‘z to‘g‘ri keluvchi ko‘pgina turlari bor. Masalan: *to play with fire* – играть с огнём – o‘t bilan o‘ynashmoq.

Frazeologizmlarni tarjima qilish chog‘ida shuni yodda saqlash kerakki, har qanday tilning frazeologizmi shaxsning ichki his-hayajonini ifodalash xususiyatiga ega.

Frazeologik birliklarni obrazli asosda tarjima qilayotganda, ularni ifoda qilishda aniq namunalar, qoidalar mavjudki, buning 4 xil yo‘lini ko‘rsatish mumkin:

1. Umumiy obrazlilikni saqlash.

2. Obrazlilikni qisman o'zgartirish.

3. Obrazlilikni umuman o'zgartirish.

4. Obrazlilikdan voz kechish.

· Fingers have light – Qo'li qing'irning dili qing'ir.

· Fingers beepers, loses meepers – Topgan niyoz, topmagan piyoz.

· Fiddle while Rome is burning – Kimga to'y, kimga aza.

· First think then speak – Oldin o'yla, keyin so'yla.

Umumiy bir tarzda aytganda, frazeologik birliklarni tarjima qilish hammavaqt ham oson emas. Frazeologik birliklarning ko'pchiligi emotsional va ekspressiv ma'no tashiydi va milliy hususiyatga ega bo'ladi.

VII. TARJIMA TURLARI

§1. Ketma-ket tarjima qilish

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi ogʻzaki axborot berilgandan soʻng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon soʻzlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy abzasni tinglaydi va soʻng tinglash chogʻida yozib olingan eslatmalar (note-taking) yordamida nutqni tarjima qiladi.

Tarjimon shu tariqa asosiy soʻzlovchi nomidan ketma-ketlikda soʻzlaydi. Baʼzi soʻzlovchilar bir nechta gap soʻzlab, soʻng tarjimonga tarjima qilishni taklif qilishadi. Tarjimon qisqacha yozib olmasdan ham ishlashi mumkin va u oʻz xotirasida aytilgan gaplarni saqlaydi. Shunday qilib, ketma-ket tarjima soʻzlovchining nutqini tinglangandan soʻng bajariladi. Bunday vaziyatda axborotning barcha mazmunini yodda saqlab qolish zarur. Ketma-ket tarjima muzokaralar, konferensiyalar davlat arboblari va siyosiy shaxslarning uchrashuvlarida va delegatsiyani kuzatib yurish chogʻida qoʻllaniladi. Ketma-ket tarjima muammosi ilmiy adabiyotlarda ham yetarlicha muhokama qilinmagan. Ketma-ket tarjima qilish vaqtiga koʻra 2 bosqichga ajratiladi.

Birinchi bosqich, soʻzlovchining nutqini oʻz ichiga oladi va bu bosqichda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda tarjimon aytilgan xabarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi.

Inson hotirasi barcha gapni (maʼlumotni) yodda saqlab qololmaydi. Tarjimon matnda fikrning mantiqiy zanjirini topishi va soʻzlovchi nutqining semantik asosini ochib berishi muhimdir. Shunday qilib, tarjimon soʻzlovchining gapini yodda saqlab qolish uchun butun matnni tushunish imkonini beruvchi va gapini asosini yodda saqlab qolishga yordamlashuvchi semantik asosni topib, uni tarjima qilishi zarur.

Inson odatda 7 yoki 5 ta semantik asosni yodda saqlay oladi. Gapning asosiy semantik asosi birinchi navbatda kesim va

egani o'z ichiga olishi kerak. Ba'zi tarjimonlar asosiy semantik asos birinchi navbatda kesim bilan ifodalanadi deyishadi. Lekin bir qator tilshunoslar kesim gapning mustaqil bo'lagi bo'lolmaydi deb yozishadi. Faqatgina ega bilan birgalikda gapning mazmuni anglanishi mumkin. Misol: Traktor zavodining 1200 ta ishchisi shu zavodning ma'muriyati tomonidan 240 ta ishchini ishdan bo'shatish uchun chiqargan buyrug'iga qarshi norozilik namoyishida qatnashdi.

Ushbu gapda biz avval egani topib olishimiz lozim, so'ng kesimni, so'ng gapning vositachi bo'lagini. Bu gapning semantik asosi "1200 ishchi 240 ishchini bo'shatilishiga qarshi norozilik mitingida qatnashdi" deyilganidir.

Ketma-ket tarjima qilishning 3 ta asosiy prinsipi mavjud: Anglash, tahlil qilish va qayta ifoda qilish.

Anglash prinsipida so'zlar emas, fikrlar tarjima qilinishi kerak. Agar tarjimon so'zlovchining nutqidagi biron bir so'zning tarjimasini bilmasa, u bu so'zning ma'nosini kontekstdan anglab yetishi zarur. So'zlovchining nutqini e'tibor bilan tinglash juda muhimdir. Ma'noni eslab qolish uchun asosiy fikrlarni va ular orasidagi bog'lanishlarni bilish muhimdir.

Har qanday nutqda 2 ta asosiy lahza mavjud. Ular nutqning boshlanish va tugashidir. Tarjimon aynan shularga o'z e'tiborini qaratishi lozim. Agar u aniq bo'lmasa va o'tkazib yuborgan bo'linsa, so'zlovchiga fikringizni oydinlashtira olasizmi? deb savol bering. Tarjimon so'zlovchining fikrini o'zining so'zlari orqali ko'proq ifoda etsa, tarjimaning sifati yahshiroq bo'ladi. Tarjimon ko'proq ijodiy yondoshsa, uning tarjimasi to'g'ri bo'ladi.

§2. Vizual tarjima qilish (Sight translation)

Ba'zi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin yozma ravishda rejalashtiradigan matnni ko'rib chiqadi. Kabinada, matnni ko'rib tarjima qilish, yozma matnni o'qishga o'xshab emas, balki og'zaki nutq singari eshitilishi kerak.

Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Vizual tarjima qilish bir tilda yozilgan matnni boshqa

tilga o'girib o'qishga aytiladi. Og'zaki va yoziladigan axborotni ko'rish jarayoni qamrab olinganligi sababli ko'rib tarjima qilishni yozma tarjimaning maxsus turi, shuningdek, og'zaki tarjimaning o'ziga xos varianti sifatida qabul qilish mumkin. Vizual tarjima qilish ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak.

Vizual tarjima qilish sinxron tarjimaga yaqinroqdir. Matn ham og'zaki, ham yozma ravishda talabalarga taqdim qilinadi. Bunday hollarda talabalarda nutqning yozma nusxasini tayyorlashda 5,10 daqiqa vaqtlari bo'ladi. Ushbu tayyorgarlikka asoslanib, so'ng ular xuddi naushniklar orqali o'qib berilayotgandek ko'rib tarjima qilishlarini so'rashadi. Talabalar so'zlovchini tinglashlari shartligi aytiladi va bu ko'rib tarjima qilish mashqi bo'lsa ham, matnni shunchaki o'qishlari so'raladi.

Vizual tarjima qilish shunday qurolki, ushbu bo'limda tarjimonda matndagi texnik terminlarni ko'rib chiqish olish va o'zi mutaxassis bo'lmagan sohadagi terminlarni tarjima qila olishga tayyorgarlik ko'rish imkonini bo'ladi. Qiyin so'zlarning talaffuzini ko'rib olish mumkin. Bundan tashqari vizual tarjima qilish qiyin matnlar mazmunini konferensiya boshlangunga qadar ko'rish imkonini beradi.

Sinxron tarjimada vizual tarjima qilish uning eng yuqori pog'onasida qo'llaniladi. Har doim tarjimon eshitishi kerak bo'lgan ishning nusxasini ustida ishlaydi. Biroq, vizual tarjima qilishga qo'shimcha sifatida tarjimon so'zlovchi yozma matndan tashqariga chiqmayotganiga amin bo'lishi kerak. Tarjimaning bu shaklida, tarjimon ilmiy va texnik majlislarda qiyinchiliklarga duch keladi. Hayratli tomoni shundaki, ko'pchilik tarjimonlar imkoniyat bo'lgan vaqtda yozma matnni juda aniqlik bilan kuzatishni tanlashadi. Faqatgina eng yaxshi tarjimonlar aynan shu qiyinchiliklar ustida yozma matnsiz jonli tarjima qiloladilar. Yozma material yuqori tezlikda o'qilgan bo'lsa ham, tarjimon o'rta hisobda bir qancha vazifalarni bajarishi kerak: 1. So'zlovchining gaplarini yaxshi anglaganini tekshirishi; 2. Axborotni yakunlash; 3. Tarjima qilish mumkin bo'lgan ko'p axborotni ko'rib tarjima qilish.

Soʻzma-soʻz tarjima hech qachon qabul qilinishi kerak emas, talaba matnni bir necha martadan tahlil qilishi lozim. Ravon va mantiqiy ifodalanmagan har qanday mazmuniy birikma agar lozim boʻlsa, matnga bogʻlanmagan holda talaba tomonidan qaytarilishi lozim. Oʻqituvchilar talabalar matnga qaramay javob berishlarini foydali deyishadi, balkim toʻliq tinglovchining rolini ijro etishlari lozim. Vizual tarjima qilish har qanday tarjimonni oʻqitish jarayonining asosiy qismidir. Vizual tarjima qilish boʻlajak tarjimonlarni kelajakdagi kasblariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu ularning tezlik va jadal tarjima qilish mahoratlarini oshiradi. Tarjimon vizual qancha tez tarjima qilsa, uning tarjimasi shuncha taʼsirchan boʻladi.

§3. Sinxron tarjima va uning tarixi

Sinxron tarjimada, tarjimon tarjima qilish kabinasida oʻtiradi va naushnik (quloq eshitgich) orqali soʻzlovchini tinglaydi, soʻng tinglash chogʻida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni naushnik orqali tinglashadi.

Sinxron tarjimon imo-ishoralar orqali ham bajariladi (kar va soqovlar uchun). Soʻzlangan tildan imo-ishora tiliga tarjima qilinadi. Imo-ishorada tarjimonlar kabinada oʻtirishmaydi: ular soʻzlovchini koʻra oladigan va boshqa qatnashchilarga koʻrina oladigan konferensiya xonasida turishadi. Pichirlab tarjima qilish sinxron tarjimaning shunday shakliki, bunda, tarjimon konferensiya xonasining kabinasida emas, balki tarjima kerak boʻlgan delegatning ortida oʻtiradi va nutqning asosiy mazmunini delegatning quloqlariga pichirlaydi.

Tarjimonning bu shakllardan foydalanishi konferensiya muhitida chegaralanmagan. Sinxron tarjima, misol uchun katta konferensiyalarda, forumlarda ishlatiladi va pichirlab tarjima qilish biznes uchrashuvlarda ishlatilishi mumkin.

Konferensiya tarjimonlari, oʻz navbatida, ular tarjima qilayotgan delegatlar oʻrnida boʻlib qolishadi. Ular birinchi shaxs,

delegat nomidan gapiradi. “U dediki, o‘ylashicha, bu yaxshi fikr ekan” kabi gaplarni tarjima qilmaydi. Konferensiya tarjimoni delegatning gapirish ohangiga tushgan holda tarjima qilishi lozim. Konferensiya tarjimoni nutqning qanday davomiylikda bo‘lishiga qaramasdan uni tarjima qila olishi kerak. Ular tarjima texnologiyasini o‘rganib olgan bo‘lishlari lozim. Amaliyotda, agar tarjimonlar 5 daqiqalik nutqni qoniqarli deb xisoblashsa, ular har qanday davomiylikdagi nutqni tarjima qila olishlari zarur.

Konferensiya tarjimonlari aniq vaqtda ishlaydilar. Hattoki ketma-ket tarjima chog‘ida ham ular so‘zlovchi gapini tugatgandan so‘ng tezda harakatga tushishlari va ularning tarjimasi tez va maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, tarjimonlar faqatgina taxlil va fikrlarni qayta sintez qilishga emas, balki juda ham tez bajarish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Hozirgi kunda sinxron tarjima mahsus moslamalar bilan bajarilyapti: delegatlar kabinada so‘zlanayotgan gapni naushnik orqali tinglab o‘tirgan tarjimonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mikrofondan gapirishadi: tarjimonlar tarjimoni eshitishni istayotgan, naushnik kiyib olgan delegatlarga mikrofon orqali tarjima qilishadi. Ba’zi hollarda moslamalar mavjud bo‘lmasa ham, sinxron tarjima pichirlash orqali amalga oshiriladi. Qatnashchilardan biri so‘zlaydi va bir vaqtning o‘zida tarjimon tarjima xizmatini talab qiluvchi bir yoki ko‘pi bilan ikki insonning quloqlariga pichirlab tarjima qiladi.

Shu ayonki, sinxron tarjimaga ketma-ket tarjimaga qaraganda kamroq vaqt sarflanadi. Bundan tashqari, sinxron tarjima bilan ko‘p tillilik tarjimoni ta’minlash imkoni ko‘proqdir, xuddi olti tillilik (BMT) yoki yetti tillilik (Yevropa jamiyati)ga o‘xshab. Ushbu imkoniyat berilgach va xalqaro tashkilotlar orasidagi hamkorlik kengaygach, ko‘proq tarjimalar sinxron tarzda qilinmoqda. Sinxron tarjima Birinchi jahon urushi paytida vujudga kelgan. O‘sha davrda fransuz tili xalqaro til hisoblangan va muhim xalqaro uchrashuvlar Fransiyada bo‘lib o‘tgan. Birinchi jahon urushi davrida tarjimonlar ko‘magiga muhtoj bo‘lgan yuqori martabali Amerika va Britaniyalik muzokara olib boruvchi shaxslar fransuz tilini bilmasdilar. Ayniqsa,

Nuremberg (Nuremberg) va Tokio (1946–1968) sud jarayonlaridan so‘ng konferensiya tarjimasi keng qamrovli bo‘lib ketdi. Hozirda bu keng tarzda faqatgina konferensiya emas, balki radio va televideniya dasturlarida ham qo‘llanilyapti.

Ilk sinxron tarjima tajribasi 1928-yilda VI Komintern Kongressida bo‘lib o‘tgan. O‘sha davrda telefonlar yo‘q edi. So‘zlovchining nutqi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimonning quloqlariga yetib borar edi. Ilk kabina va naushniklar 1933-yil Kominternning ijro etuvchi 13-yalpi majlisida paydo bo‘lgan. Rossiyaning Moskva shahrida bo‘lgan bir guruh sinxron tarjimonlari Nuremberg sud jarayonlariga xizmat ko‘rsatuvchi konferensiya tarjimonlarining guruhini tuzdi va boshqalari Yaponiya urush jinoyatchilari ustidan bo‘lgan Tokio sud jarayonlarida qatnashdi. Ana shu dastlabki konferensiyalarda ishlagan tarjimonlar ilk sinxron tarjimonlar sifatida ish bajargan. Ular Chet tillar harbiy instituti (1942-yil Chet Tillari Moskva pedagogika Institutining Harbiy Departamentiga asoslangan holda tashkil qilingan)ning yosh bitiruvchilari edi. Ular u yerda harbiy yozma va og‘zaki tarjimonlar sifatida mashq qildirilgan. Tarjimonlarning mashq jarayonlarida Moskva universiteti va Falsafa institute, shuningdek, Tashqi vazirlik a‘zolari va chet davlatlar bilan madaniy aloqalar jamiyati xodimlari qatnashganlar. 1952-yil Moskvada o‘tgan halqaro iqtisodiy konferensiya majlisida 50 ta sinxron tarjimon xizmat ko‘rsatgan. Konferensiya oltita – rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan va xitoy tillarida olib borilgan.

1962 yildan beri Moskvadagi Birlashgan Millatlar Tillar bo‘yicha tayyorlov kursi, Chet el Tillari Moskva tilshunoslik universiteti qoshidagi har yili 5 tadan 7 tagacha sinxron, konferensiya tarjimonlari tayyorlaydigan maktab Rossiya Birlashgan Millatlar Kotibiyati kabinasi Nyu York va Venaga tarjimonlar tayyorlab beradi. 10 yildan so‘ng, 1971-yilda aynan shu kollejdagi yuqori yozma va og‘zaki tarjimonlar maktabining bakalavrlari sinxron, konferensiya tarjimonlarini tayyorlaydigan 2 yillik kursini taqdim etdi.

Shunday qilib, sinxron tarjima darslari ko‘p kanalli magnitofonning yaratilishidan so‘ng boshlangan va 60-yillar oxirlari

va 70-yillar boshlarida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi (Xenri Barek (AQSH), D.Gerver (Angliya), I.A.Zimnaya (Rossiya) va boshqalar).

1960 va 1970-yillarning boshlarida ba'zi ruhshunoslar va tilshunoslar sinxron tarjima aspektlari ustida ruhiy va tilshunoslikning bir qancha tajribaviy tarjima darslariga qiziqib qolishdi va asosiy tilning har xil usullari, qabul qilish tezligi, xabar olingan vaqt o'rtasidagi va o'zga tilga o'girilish vaqti o'rtasidagi vaqt shovqin, nutq yetib kelishdagi to'xtashlar kabi masalalarni o'rganishgan. Hozirgi kunda o'zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga sinxron tarjima qilish metodlari va nazariyalari ustida yetarli darajada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Ko'rilganidek, sinxron tarjima va ketma-ket tarjima konferensiya va boshqa tadbirlarda foydalaniladi. Tarjimon notiqning nima qilayotganiga emas, nima so'zlayotganiga ahamiyat beradi. Tarjimon va tinglovchilar uchun maxsus jihozlar mavjud. Sinxron tarjima bir qancha darajalardan iborat bo'lib, ularning har birining bir necha pog'onalari bor. Ulardan eng muhimi: moslashtirish, muqobilini izlab topish, qaror toptirish va ijro etish. Agar asiyat tilida gapirilish ohangi sekinroq bo'lsa, tarjima qilinayotgan tilda ham shu ohang saqlanishi lozim. Ketma-ket tarjimada tarjimon so'zlovchini keyingi so'zini kutib turishi lozim. Bu juda qulay va oddiy tarjima usulidir.

Xo'sh, siz lug'atsiz tarjima qila olmaysiz, shundaymi? Hech bir tarjimon lug'atsiz muhim bir matnni tarjima qila olmaydi. Mohir tarjimon uning ma'nosini aytib bera oladi, biroq izohsiz to'liq tarjimaga yetishmoqchi bo'lsangiz, lug'atlarga murojaat qilishingizga to'g'ri keladi. Istalgan yirik lug'atlarda bir so'zning o'rtacha 3-4 ma'nosi beriladi.

Nima sababdan tarjima dasturi emas, qilingan mukammal tarjima afzalroq? Chunki tillar ko'p ma'nolilikka boy. Muayyan tildagi har bir so'zning birdan ortiq ma'nosi bor, ulardan foydalanish esa vaziyatga bog'liq. Ingliz tilidagi har bir so'zni o'zbek tilidagi varianti bilan oddiygina bog'lab qo'ya olmaysiz. Ma'noning

mosligini faqatgina inson ongi seza oladi. Kompyuterda bunday qobiliyat yo'q, u faqat so'zning o'zinigina chiqara oladi. Bu inson tarjimasi va tarjima dasturi o'rtasidagi farqdir, to'g'ri tarjimani yuzaga chiqarishda kompyuterlar insonlar bilan musobaqalasha olmasligining yana bir sababidir.

Masalan: kompyuterda "than you like to be engaged" – qizcha nima bilan band bo'lishini yoqtirishini so'raganda, tarjima dasturi buni sizga "unashtirilishni xohlayapsiz!" deb tarjima qiladi. "Bored by you" – sizni tashlab ketyapti, deb tarjima qilinadi. Agar qiz bola siz bilan zerikayotganligini aytayotgan bo'lsa, tarjima dasturi, usiz zerikib qolayotganidan tashvishlanayotgan, deb ifodalaydi. "Refuses" – to'y marosimi ma'nosida ham kelishi mumkin. Agar ayol haqiqatda "divide" ajrashmoqchi bo'lsa, demak buni u xohlayapti. "No respect at all" tarjima dasturida "Any respect in general" deb ifodalanadi. "Call" – "bell" – "qo'ng'iroq" ma'nosida qo'llaniladi. Bu misollar tarjima dasturi orqali qilingan tarjimalardan edi.

Madaniy aloqalarga kelsak, ular o'rtasida juda katta farq bor. Ikki tilda tabiatga oid, bir xil tasvirlangan birgina narsa boshqasida uzunroq ifodasini topishi mumkin.

Bunga eng yaxshi misol "active rest". Rus tilida "rest" ta'til vaqtni maroqli o'tkazmoq, ish bilan band bo'lmagan payt deb tushuniladi. "Active rest" -- "quyosh nuridan bahramand bo'lib xordiq" chiqarish emas, sport bilan shug'ullanish, xiyobonda sayr qilish va shunga o'xshash narsalar tushuniladi. Tarjima dasturi buning ma'nosini to'liq ochib bera olmaydi. Buning to'g'ri tarjimasi – "maroqli xordiq chiqarishdir".

Bir so'z ustida qancha bahs yuritishimiz mumkinligi haqida tasavvur ham qilolmaymiz, biroq biz yuz foyiz haq ekanligimizni isbotlaymiz. Agar shunday bo'lmasa buni sizga qo'yib beramiz. (Mos variantni birga izlaymiz). Biroq tarjima dasturining ikkinchi bor o'ylab ko'radigan miyasi yo'q, u lug'atidan bor so'zni olib, matnga mos kelish kelmasligidan qat'iy nazar boricha tarjima qiladi (ba'zida qavs ichida boshqa ma'nosini ham beradi). Agar bunday noaniqliklar

tez-tez uchramasa, ma'no chiqara olasiz, biroq har 3 so'zdan so'ng savol tug'ilaversa, pichandan igna qidirishdek tuyuladi. Siz matnni tushundim deb o'ylaysiz, ammo bu sizningcha tushunarli, siz matnni haqiqatga yaqinroq tarjima qildim deb bilasiz. Biroq fikrlaringiz to'g'rimikan?

Shunisi muammo-da. Agar ingliz tili grammatikasini bilsangiz, demak, gapdagi so'z tartibi (ega+kesim+to'ldiruvchi+hol) haqidagi ma'lumotga egasiz. O'zbek tilida esa so'z tartibi turlicha tuzilgan, tarjima dasturi so'zma-so'z tarjima qilishga qaramasdan bu qoidagi amal qilmaydi. Masalan: "bear was killed hunter" ayiqni ovchi o'ldirdi ma'nosida tarjima qilinadi.

Endi, so'zma-so'z tarjima qilinmaydigan idiomalarga kelsak, xato qilish insonga xos. Inson xatolarini ko'rishga qodir, biroq tarjima dasturi xatoni tarjimasiz qoldirib ketadi. Bu esa ba'zan gapning ma'nosiga umuman salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarjimonlik bu – kasb. Mukammal va yuzaki tarjima o'rtasida juda katta farq bor. Masalan: Ko'pchilik kishilar oddiygina mix qoqa oladi yoki nimanidir tuzatishi mumkin. Ammo buni ustasi tez va sifatli bajaradi. Biroq tarjimonlik mashina haydash, mix qoqishdan ko'ra ancha murakkabdir. Texnika kolleji talabalarining ko'pchiligi matematikani biladi, biroq hammasi ham o'qituvchilaridek hech qanday ashyosiz integralni bajara olmaydi. A'lochi talaba uning nima ekanligini, yo'llarini o'rganib chiqib, eng oddiyini tanlab oladi. Ingliz tiliga qaytsak, tarjimon "havaskor" dan ko'ra ko'proq narsani bilmog'i lozim.

Nimanidir tarjima qilish uchun qancha vaqt sarflaysiz? O'rtacha hisoblaganda bir tarjimon bir kunda 10000 so'zni tarjima qila oladi. Murakkabroq matn tarjimasida hamkasblarga va lug'atlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Oddiy tarjimalarga kelsak, soatiga 5000 harfga to'g'ri keladi.

Sifatli tarjimaning asosi nimada? Asliyat matnni yetarli darajada tushunish, bu sohaning ustasi bo'lish.

§4. Tarjima jarayonida eslatma yozuvlar (Note-taking)

Bog'lovchilar *therefore, because* va boshqalar kiritiladigan eslatmalarda eng muhimdir. Eslatmalar matnning asosiy mazmunini o'z ichiga oladi. Ular nutqning tashqi shaklini ta'minlaydi.

Asosiy fikrlar ega, kesim va to'ldiruvchi orasida bo'lishi zarur. Eslatma-yozuvlar sahifada chapdan o'ngga yozilishi lozim. Belgilar matnni umumiy, aniq tuzilishini ko'rsatuvchi deb hisoblanadi.

Eslatma-yozuvlar belgilardan tashkil topadi. Belgilar xususiyatlariga ko'ra quyidagicha.

Misol: "O" – dumaloq stol atrofidagi muzokarani bildiradi. Bu konferensiya, kongress, uchrashuv, forum, seminar, anjuman, sessiya va shu kabi boshqa tushunchalarni birlashtirish mumkin.

"O" – belgisi do'stlik, hamkorlik, kelishuv kabi tushunchalarni ham anglatadi.

- – belgisi har qanday tilda mamlakat, yer kabi so'zlarni ifodalaydi.

Belgilar grammatik tomondan farq qiladi. Ular har qanday so'z bo'laklari va so'z turkumlari o'rnida ishlatilishi mumkin.

- – belgisi har xil so'z turkumlarining o'rnida qo'llanilishi mumkin. Ko'plik shaklini ifodalash uchun "2" soni qo'llaniladi.

x – xalq, x² – xalqlar. Q – boshliq, Q² – boshliqlar.

(1) Eslatma-yozuvlar tarjimonni jismoniy, shuningdek ruhiy ko'mak bilan ta'minlaydi.

(2) Eslatma-yozuvlar habarning to'liqligini ta'minlaydi.

(3) Eslatma-yozuvlar yordamida tarjimon sonlar, kunlar, statistikalar va atoqli otlar kabi qiyin kontekstlashtirilmagan xabarlarni xotirasida saqlash mashqi bilan shug'ullanishi mumkin.

(4) Eslatma-yozuvlar nutqning to'liq davomiyligini ta'minlovchi va aytilgan gapning aniq nusxasini berish imkonini beruvchi, so'zlovchi nutqining asosiy mazmunini tarjimon o'z vaqtida bera olish imkoniga ega.

(5) Intervyudan so'ng, tarjimonning yozgan eslatmalari yig'ilgan xabar ilovasiga berish uchun hizmat qilishi mumkin.

Misol uchun, aytilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki aytilmagan ma'lumotlarni bilib olish mumkin.

Bundan tashqari, muhokama chog'ida o'rta tashlangan asosiy mavzuni aniqlashga yordam beradi. Nihoyat, aniqlik kiritish maqsadida tarjimondan aytilgan gaplarni qayta ko'rib chiqishni yoki qaytarish istagini bildirilganda asos bo'lishi mumkin. Tarjimonlar tez-tez "Men eslatmalarni qanday tilda yozishim kerak?" deb savol berishadi. Tarjimon ishlaydigan tilda eslatmalarni yozib olishi yaxshiroq deb qabul qilingan. Eslatmalarni asosiy tilda yozib olinishidan tarjimani tezda tugatish mumkin. Tarjima qilinayotgan tilda eslatmalarni yozib olish odatda tarjimaning ravon bo'lishida juda qulaydir.

Eslatmalarni yozib olish tartibi shaxsiylashtirishini ham ta'kidlash muhimdir. Ko'p tarjimonlar boshqa va asosiy tildagi so'zlarning qisqartmalar va akronimlar, shuningdek, tilda mavjud bo'lmagan maxsus belgilarning keng turdagi hillaridan foydalanib eslatmalarni yozib olishadi.

Ta'kidlanishi lozim bo'lgan narsalar nutqning tahlil qilinishiga mantiqiy bog'langan. Ta'kidlanish lozim bo'lgan birinchi narsalar asosiy fikrlar bo'lishi kerak. Asosiy fikrlarga ishlatiladigan eslatmalar nutqning tashqi shaklini ta'minlaydigan, tarjimonga yodda saqlashga yordam berishi lozim. Ega, kesim va to'ldiruvchi asos qilgan holda, tarjimon nutqqa to'g'ri keladigan fikrlarni moslashishini eslatmalarida topa olishi mumkin. Bu tarjimonga bir fikrdan tezda boshqa fikrga o'tishga, nutqni qayta taqdim etishga yordam berishi kerak. Biz eslatmalar nutqqa uning tuzilishiga aks etishini ta'kidladik. Lekin bu amaliyot qanday bajariladi?

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, asosiy fikrlar ega – kesim – to'ldiruvchi taxlili asosida amalga oshirilishi kerak. Varaq betida buni aks ettirish uchun, tarjimon 3 ta qismni aniq ajratishi kerak va eslatmalarning har birini bir hil holatda joylashtirish lozim. Bu holatlar varaqning betida chapdan o'ngga, yuqoridan pastga harakatlanuvchi diagonal o'qda yoziladi.

Shunday qilib, fikrlarning sonlari bir sahifada birlashadi.

Har bir gapning boshlanishi varaq betining chap tomondan orqaga harakatlanishi bilan aniq qilib yoziladi. Tarjimon albatta, faqatgina ega, kesim va to'ldiruvchini yozish bilan chegaralanmaydi, lekin ana shu tuzilishiga asoslangan holda agar xohlasalar boshqa tafsilotlarni yozishlari mumkin.

Bu yoki boshqa fikrning belgisi tarjimon tomonidan tanlanadi. Faqatgina shunda uning xotirasida semantik asosga ega bo'lishi mumkin.

Belgilar fikr bilan emas, balki so'z orqali bog'lanadi. Odatda so'zlarning boshlang'ich xarfi tanlanadi, semantik chegara bilan karakterlanadi. Masalan: U.S (United States) L-life. Ular faqatgina bir fikrni ifodalaydi.

Assotsiativ belgilar bir necha tushunchani ifodalaydi va ular bilan bog'lanadi. Misol: IIIIII – bu belgi rivojlanish, rozilik beruvchi tushunchalar bilan bog'lanadi. Agar “x” belgisi xalqni bildirsa va umumlashgan “(x)” odamlar bo'ladi. “?” – delegat, elchixona xodimi, “(?)” – delegatsiya, elchixona.

Eslatma-yozuvlarni kiritishda 6 ta asosiy belgi vaqtni ifodalash uchun ishlatiladi.

\$ – hozirgi vaqt, 9 – kelasi, 8 – o'tgan, < – harakatning boshlanishi, > – harakatning tugashi, / – vaqtning qandaydir payti.

Narsalarning sifati va asosiy belgilar – belgisi bilan ifodalanishi mumkin.

Kesim belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin.

“<” – olmoq, qabul qilmoq, “?” – “yaxshilamoq, kuchaytirmoq, “\” – kamaytirmoq, pasaytirmoq.

VIII. TARJIMA METODLARI

§1. Kompressiya va uning tarjimada ishlatilishi

Kompessiya jarayoni tarjimada ma'lumotni ixchamlash, uni kam so'zlar bilan ifoda etish va asosiy ma'noni berish bilan ifodalanadi. Masalan:

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda sintaktik, lug'aviy va semantik izohlash ro'y berishi mumkin:

1) Murakkab gapning bir necha oddiy gaplarga bo'linishi. Misol: *I saw the beautiful place where I remembered how I had spent the days with my girl friend there. Men juda chiroyli joy ko'rdim. Keyin qiz o'rtog'im bilan u yerda o'tkazgan kunlarim yodimga tushdi.*

2) Ergash gap o'rniga sifatdosh yoki sifatdoshli qurilmalar ishlatish mumkin. Masalan: *The book which was written last year was sold* – O'tgan yili yozilgan kitob sotildi.

3) Sifatdosh yoki sifatdoshli birikmalar o'rniga ot va otli birikmalar. Masalan: *A piece of electric equipment used for cutting into very small pieces* – maydalagich yoki go'sht maydalaydigan.

4) So'z guruhlari o'rniga bitta so'z va davlatlar yoki tashkilotlar to'liq nomi o'rniga qisqartishlari ishlatiladi. Masalan: *The United States of America involving the use of force* – majburiy;

5) Lug'aviy siqish, ya'ni kam so'z bilan ifoda etish. Miss. – *In particular, attention should be given to the use of appropriate and immediate technology where possible* – kerakli va o'rtacha texnologiyaga e'tibor qaratilishi kerak.

6) Semantik kompessiya; bu jonli otlar o'rniga olmoshlarning ishlatilishidir. Masalan: *Tom and John went to the garden* – Ular boqqa ketishdi.

Ingliz va o'zbek nutqining bir xil ketishi uchun. Tarjima qilayotgan tilning murakkab gaplarini bir necha oddiy gapga aylantirishdir.

Bir tildagi murakkab gapni ikkinchi tilga tarjima qilganda uni oddiy qilib ikkita oddiy gap bilan tarjima qilish mumkin.

Masalan:

The question of Namibia which is now before the general Assembly for consideration is the question without doubt which reveals fully the deadly consequences of apartheid, racism and colonialism, these scourges of humanity, thus one can see from the impressive number of speakers on this question the particular importance that practically all members of our Organization attach to the present deliberations within the assembly. My delegation which has carefully followed the debate and carefully studied the reports of the United Nations Council for Namibia and the special Committee of 24 regarding Namibia feels a deep -seated concern with regard to the clear deterioration of the situation in that territory throughout the period covered by those reports. , Indeed we see clearly from the two documents that the apartheid regime of South Africa flouting the resolutions adopted at the thirty second session and other resolutions of the United Nations concerning Namibia in particular.

Security Council resolution 385 (1976) which established the framework for an acceptable international settlement of the Namibian question has accentuated further its system of oppression and inhuman exploitation of the Namibian people, thus the racism colonialist regime of Pretoria with its typical distorted attitude has perpetration frenetically brutal acts of repression against the people of Namibia characterized by unwarranted massacres of the civilian population as well as massive arrests of the south west African people's organization. To express their domination in that part of Southern Africa the apartheid regime has perpetrated multiple acts of provocation and aggression against Angola and Zambia causing considerable numbers of casualties and material damage.

Namibiya muammosi Bosh Assambleya oldida turgan chigal masaladir.

Aparteidning yomon asoratlari, irqchilik, kolonializmga qarshi kurash-bu muhim masaladir.

Mening delegatsiyam BMT kengashining va alohida komitetning hisobotini juda puxta o'rganib chiqdi.

Namibiya territoriyasida vaziyat yomon ekanligini xabar keldi.

Xavfsizlik kengashining 385 (1976)-rezolyutsiyasi o'z diqqatini Namibiya xalqini beshafqat ekspluatatsiya qilish, irqchilik, kolonial rejim, yoppasiga qamoqqa olish kabi qo'pol harakatlarga qaratdi.

Aparteid rejimi Angola va Zambiyaga qarshi agressiya ham uyushtirgan.

Uzbekistan airways is one the youngest air companies in the world and within its short time of existence has already become internationally known taking its place in the world market.

It was founded five years ago in January 1992 it is a member of International Civil Aviation Organization, a full member.

Uzbekistan airplanes carry out regular flights from Tashkent to various international airports, such as New York, Amsterdam, London, Frankfurt, Athens, Istambul, Pekin, Delhi, Seoul, Kuala-Lumpur in total more than 20 international destinations, about 19 destinations within CIS and 16 destinations in side of the Republic as well

The extent of Uzbekistan airways air routes is more than 2 million kilometers. New routes are being rated regularly.

Uzbekistan airways boosts a vast fleet of air craft including Airbus A 310'S Boings, IL 62'S IL- 86'S, TU-154'S and IL- 76' S. The airbus 310 has been used successfully as I international routes. At the end of 1996 and March 1997 two new Boeing -767'S were added to the fleet. Recently, the British French liner RJ-85 began to fly the Uzbekistan sky, providing passengers with international style services

O'zbekiston havo yo'llari eng yosh havo yo'llari kompaniyasidir. U dunyoda qisqa vaqtda allaqachon tanildi va dunyo bozorida uz joyini egalladi.

5 yil ilgari 1992-yil yanvarda tashkil qilingan va u xalqaro fuqarolar aviatsiya tashkilotining to'liq a'zosi bo'ldi.

O'zbekiston samolyotlari muntazam ravishda: Toshkentdan har xil xalqaro aeroportlarga ya'ni Nyu York, Amsterdam, London, Frankfurt, Afina, Istambul, Pekin, Dehli, Seul umumiy hisobda 20 ta xalqaro 19 ta MDH va mamlakat ichkarisida 16 ta joyga uchadi O'zbekiston havo yo'llarning yo'nalishi 2 million kilometrdan oshgandir. Yangi reyslar qushilmoqda.

O'zbekiston havo yo'llarida katta tez uchadigan samolyotlar mavjud. Ular A 310, Boing, IL ' 62 S, IL 86 S, TU 154 S va IL 76 S.lardir. 310 samolyotlari xalqaro masofaga muvaffaqiyatli uchadigan reysdir. 1996-yil oxirida va 1997-yil martda ikkita yangi Boing – 767 samolyoti qo'shildi. Yaqinda Britaniya Fransuz layneri RJ-585 ucha boshladi. O'zbekiston osmonida passajirlarga xalqaro usulda xizmat ko'rsatiladi.

Ba'zan ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish davomida kesimning tushirib qoldirilishi gaplarning asl ma'nosi va aloqadorligini buzmaydi. Bunday holatda o'zbek tilidagi gapning oxirgi so'ziga "dir" suffiksini qo'shish mumkin.

I now give the floor to the distinguished delegate of Tanzania. Mr President, the question of Namibia is the question for consideration before the General Assembly. Without doubt These are the deadly consequences of apartheid, racism and colonialism, scourges of humanity Solutions to the problems of development are best formulated within the context of the over all socio-economic and technological framework of the particular country. In this way, available resources are utilized to the maximum extent and dependence on imported technologies is diminished	Soʻz Tanzaniya delegatiga. Janob rais, Namibiya – Bosh Assambleya koʻrib chiqadigan masaladir. Shubhasiz, ular aparteidning yomon asoratlari, irqchilik va kolonializmning insoniyatga zararlidir. Muammolarni eng yaxshi hal etish sotsial-iqtisodiy va texnikaviy vaziyatdagi har bir mamlakatga tegishlidir. Shunday qilib, resurslar maksimal ravishdadir – manbalar va import texnologiyasi kamdir.
---	--

Tarjimon nutqning asosini tashkil qiluvchi fikrlarni anglashi va tarjima qilish davomida ularga yetarlicha urgʻu berishi kerak. Nutqni tushunishning birinchi yoʻli – bu nutqning asosini tashkil etuvchi tushunchalarni aniqlab olish boʻlsa, ikkinchisi esa oʻsha tushunchalar oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qilish. Nutq bu gaplar yigʻindisi emas, balki bu gaplar bir-biri bilan maʼlum bir qoidalar bilan bogʻlanganligidir va aynan shu bogʻlanish nutqning asosiy mazmunini aniqlab beradi.

§2. Qaytarish (shadowing)

Qaytarish tarjimonlarni tayyorlashda eng muhim usullaridan biridir. Bu usul quloq eshitgichlar (naushniklar) yordamida qoʻllaniladi. Bu usulda odatda ona tilidagi gapni eshitib va uni bir vaqtning oʻzida shu ona tilida qaytarishga oʻrgatiladi, chet tiliga tarjima qilib qaytarish keyingi bosqichda amalga oshiriladi.

Eshitish va bir vaqtning oʻzida eshitganini qaytarish – bu oʻrganadigan qobiliyat. Tarjimonlar bu qobiliyat bilan tugʻilishlari

shart emas. Bu ishni eplay olmagan tarjimonlar o'zlariga yomon odatlarni orttiradilar. So'zma-so'z qaytarish tarjimonlarni tayyorlashda mashg'ulotlarda qo'llaniladi. U ikkiga bo'linadi. Fonemik (shadowing) qaytarish va iborali (phrasal) qaytarish. Fonemik (phonemic) qaytarish – bu butun ma'no yoki so'zni kutmasdan turib har bir tovushning qanday eshitilgan bo'lsa shunaqa takrorlashdir. Ikkinchisi esa, bu iborali qaytarish ya'ni talaba so'zlovchining nutqini boshidan oxirigacha takrorlaydi. Tovushmatovush qaytarish iborali qaytarish usulidan oldin o'tilishi kerak. Bu usul odatda eshitib, ham bir zumda gapirish qobiliyatini o'stirishda ishlatiladi. Iborali qaytarish bu tarjimonning orqada qolib ketishketmasligini aniqlash uchun ham foydasi bor. Mazkur usul tarjimonni tayyorlashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Qaytarish tezligi ko'p tadqiqot ishlarning mavzusi bo'lgan. Orqada qolgan vaqt tarjimaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qaytarish texnikasi bu tarjima qilishdan oldin qo'llanadigan usul. Gapni eshitib uni ozgina kechikish bilan qaytarish jarayoni – qaytarish deyiladi.

§3. Tarjima davomida ma'lumotlarni esda saqlab qolish

Tarjima qilish davomida eng muhim narsalardan biri bu – ma'lumotlarni esda saqlab qolishdir.

U o'z ichiga doimiy, qisqa, o'rta va uzoq muddatli xotirani talab qiladi:

a) (ketma-ket tarjima uchun) matnlarni eslatma yozuv orqali belgilab chiqish

b) chet tilidagi kishi nomlarini yaxshi eshitish, raqamlar va hajmlarni esda olib qolish qobiliyatiga ega bo'lish.

Bular uchun kerakli tayyorlov zarur. Tayyorlov mashqlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– she'r, fraza va radio yangiliklarni yodlash.

– birinchi ona tilida, keyin esa ingliz tilida kishi nomlari, raqamlar va hajmlar ustida doimiy diktant yozish. Oxirida ikkala tilni ishlatib bitta diktant yozish.

Ongli tarjima qilish, tekstlar aniq kalit soʻzlar (yoki belgilar) asosida yaratilishi va matnni qisqartira olish qobiliyatlarini talab qiladi. Buni bilish uchun kalit soʻzlar metodologiyasini oʻrganish kerak. Quyida asosiy variantlarni keltiramiz:

– Ona tilida kalit soʻzlar beriladi va vazifa shularni ishlatib ona tilida maʼnoli matn yaratish.

– Kalit soʻzlar ingliz tilida beriladi va shulardan maʼnoli matn yaratish.

– Kalit soʻzlar ona tilida beriladi va ingliz tilida matn yaratish vazifasi qoʻyiladi.

– Kalit soʻzlar ingliz tilida beriladi va uni ona tiliga oʻgiriladi.

– Kalit soʻzlar ham ona tili va ingliz tilida beriladi va uni ona tiliga matn sifatida oʻgiriladi.

– Kalit soʻzlar ham ona tili va ingliz tilida beriladi va uni ingliz tilida matnga aylantiriladi.

Soʻzlar bilan ishlash quyidagi tajriba va koʻnikmalarni rivojlantirishni talab qiladi.

Sinxron tarjima uchun :

– Eshitish davomida gapira olish.

– Tugallanmagan gaplarni tugatish yoʻllari ustida ishlash.

Shunga qaramay, raqamlarni, kerakli joylarni yozib olish yoki esda saqlab qolish juda katta yordam beradi. Eng muhimi, fikrlarni joy- joyiga qoʻyib ularni eslash, tahlil haqida gaplashganimizda, biz asosan ikkita elementga oʻz eʼtiborimizni qaratamiz. Bular: asosiy fikrlar va oʻsha fikrlar oʻrtasidagi aloqadorlik. Bunga eʼtibor qaratgan holda tarjimon avtomatik ravishda uning strukturasi haqida oʻylashni boshlaydi. Va nutqni eslab qolish osonroq boʻladi, garchi fakt haqida gap ketsa ham. Agar xotirangizda shu strukturani aniq olib qolsangiz, oʻsha strukturani saqlab qolish uchun asosiy elementlarni nomerlab qoʻyish foydalidir.

Shunda tarjimon matnni shaklini tayyorlaydi va ularni lugʻat boyligidan foydalanib tarjima qiladi. Masalan:

“We feel that the free market approach to provision of social services, with its insistence on minimum state intervention,

freedom of competition, deregulation and costeffectiveness, though theoretically sensible has proven in practice to be a disaster. And why? Because in all cases, hospitals and health services, public transport, education, no free competition has been really possible. The service user has been faced in any one given area by a single private service provider facing no effective competition, which is able therefore to function as a monopoly. Those who are too destitute to pay for private services may, if they are lucky, fall back on residual public services, starved of money by the government and therefore unable to provide an adequate service. No real competition, no free market. And we are left with a dual society. Those who can afford to be exploited by private service-providing monopolies and those who cannot and therefore have to put up with inferior services”.

Bizning fikrimizcha, ochiq bozor tamoyili ijtimoiy xizmatlarni ta'minlab beradi, o'zining ichki mamlakat aralashuvi, raqobatchilikning to'g'ri ekanligi, garchi bu nazariy jihatdan amalda qo'llanilganda kasofatga aylanadi. Nega? Chunki hamma sharoitlarda kasalxonalar va tibbiyot, yordam ko'rsatish xizmatlari, transport, ta'lim sohalarida raqobatchilik bo'lishi mumkin emas. Xizmat ko'rsatuvchi faqat bitta xizmat ko'rsatish tashkilotida bo'lsa, birona sezilarli raqobatchilikni sezmaydi va bu monopoliyaga o'tishni tezlashtiradi. Shaxsiy xizmatlar uchun to'lamaydiganlar esa, umumiy xizmatlardan qolib ketishi mumkin. Na raqobatchilikka ochiq bozorni ko'rsatishimiz mumkin bu yerda. Shularni to'lay oladiganlar va ololmaydiganlar ham umumiy xizmat ko'rsatish shakllaridan foydalanishlari kerak.

Qayta to'g'ri tarjima qilish:

–Ochiq bozor tamoyili (to'rt uzviy bog'liqlik) – Free market approach (4 components) to social services failed in practice.

–Nimaga raqobat yo'q – Why no competition (3 areas quoted)

–Bitta xizmat bilan ta'minlaydigan tashkilot – Single private service provider

– Shuning uchun monopoliya – Therefore monopoly

– Faqat “raqobat” tashkil topgan sektordan – Only “competition” from underfunded public sector.

– Raqobat yoʻq – bozor yoʻq – No competition, no market

– Ikki xil jamiyat (tasvirlang) – Duel society (describe)

Bu qolipdan tarjimon butun matnni tuzish uchun foydalanish mumkin.

Tarjimon nutqdagi matnning asosiy mazmunini ana shu soʻzlarni bogʻlab tuzishi mumkin. Buni esa hamma gaplarning umumiy maʼnosidan chiqarish mumkin.

Toʻldirish yoki soʻzlarni tushirib qoldirish. Toʻldirish matnda qaysiki soʻz tushib qolganligini topib oʻrniga qoʻyishdir, aytaylik har oʻnta soʻzdan bittasi va talabalardan uni toʻldirish soʻraladi.

Fikrlarni segmentatsiya qilish. Tarjima jarayonida matnning semantik maʼnosiga savol qoʻyish bilan matnning semantik komponentlarini topish mumkin. Ularga nima? nega? qanday? qayer? kim? savollarini berish orqali matn yoki gapning asosiy mazmunini anglab olish mumkin.

Tarjimon matnda oʻz eʼtiborini har bitta xabarga qaratishi kerak: xabarning egasi kimligini, unig maqsadi, xabar qayerda boʻlayapti va uning qanday yetib borishini oʻylashi kerak. Fikrni chiroyli va aniq ifodalash uchun soʻzlovchining fikrlarini soʻzma-soʻz aytib bermasdan, balki uning fikrlarini tushunishimiz kerak, chunki aynan oʻshalar tarjima qilinishi kerak. Soʻzlovchi nutqidagi soʻzlarni tushunishga harakat qilmay, balki uning asosiy fikriga, nutqining mazmuniga eʼtibor qaratishimiz kerak.

Shuning uchun tarjimon nafaqat soʻzlarni, balki fikrlarni yaxshi tushunishi kerak. Soʻzlovchining nutqidagi har bir soʻz va iboralarni tushunmasdan va oʻsha soʻzlarni tarjima davomida qayta ishlatmasdan turib, yaxshi tarjima qilib boʻlmaydi. Deylik, tarjimon matndagi baʼzi soʻzlarni tushunmay qoldi. Shunga qaramay bu uning butun matnni tushunmaydi degani emas. Uning asosiy mazmunini oʻzining lugʻat boyligidan kelib chiqib tarjima qilishi zarur. Tarjimaning sifatli boʻlishida bir semantik maydonga kiruvchi soʻzlar yoki iboralarni yoki sinonim soʻzlarni bilish va ulardan biri esdan chiqsa ikkinchisini ishlatish tarjimaning asosiy mazmuniga taʼsir etmaydi.

Gapning asosiy semantikasi birinchi navbatda kesim va egada ifodalanadi. Ba'zi tarjimonlarning fikricha, asosiy semantika avvalambor kesimda ifodalanadi, lekin professor Kolshanskiy esa kesim gapning asosiy semantikasini bermaydi, u faqat ega bilan birgalikda butun bir ma'no beradi deydi.

Tarjimon so'zlovchining nutqini qayta qurish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tarjimon fikrlar ketma-ketligiga e'tibor berishni esda saqlashi kerak.

§4. Tarjima qilishda gaplarning qayta qurilishi

Faqatgina asliyat tilida gapiruvchining nutqi judayam oddiy bo'lgan taqdirda, biz tarjimada ma'lum bir yaxshi natijaga erishishimiz mumkin. O'zbek va ingliz tillari o'rtasida parallellik yo'qligi tufayli tarjima qilishda so'zlarni parallel tarjima qilish imkonini bermaydi. Faqatgina tarjimon o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda sintaktik o'zgartirishlar kiritish unga yordam beradi. Tadqiqot natijasiga ko'ra o'zbek tilida uyushiq bo'lakli gaplarni ingliz tiliga tarjima qilinganda uyushiq bo'laklarni gapning egasiga aylantirish tarjimini to'g'ri chiqarishda asqatadi. Bunday gaplarni qaytadan qurib chiqish tarjimonga tarjima qilish paytida osonlik tug'diradi. Bunday holatda gapning fe'li majxul formasini oladi. Masalan:

Qishloqda bozor mexanizmlarini rivojlantirish, dehqonlarni uyg'otish, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini keng rivojlantirish asosda ro'y berishi mumkin.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplariga ta'limning insonparvarlashuvi, inson qobiliyatlarini va ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarning qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi kiradi.

Bobur Mirzoning Agradan qaytishi, uning Shimoliy G'arbga qilgan yurishi va o'limidan so'nggi bo'lgan to'rt-besh oy orasidagi voqealar, qizi Gulbadan Begim va tarixchi Abul Fazl va boshqa oilaga daxldor bo'lgan voqealar yoritilishga harakat qilingan.

The development of market mechanism in villages, several of the feeling of ownship among farmers, improving property relation, development of farm and individual subsidiary farms are the ways of development of market mechanisms in villages. The same picture can be seen in the following example too.

Humanization of education - the exposure of human abilities and satisfaction of people's various educational requirements, securing of priority of national and common to all mankind's values and humanization of relations of personality, society and environment are the principles of continuous education

Bobur Mirzo's return from Oghra, his north western advance, before his death four-five month's events, his daughter Gulbadan Begim and the historian Abdul Gazl and other family events were tried to be described.

Tarjimada "micro-review" usulidan foydalanish so'zlovchining nutqidagi semantik ketma-ketliklarni yaratishni osonlashtiradi. "Micro-review" usuli ma'lumotning asosiy mazmunini ifodalab beradi. Bu ko'pincha taxmin qilish va mazmunni payqash qobiliyatlarini shakllantiradi. Shuning uchun, "micro-review" usuli matnni tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

Nyu-York yaqinidagi bir shahardareaktivsamolyotlarishlab chiqaradigan 4 ta “republika aviyeysin” zavodining ishchilari ish tashlashdi. Kasaba soyuz ma’muriyatining aytishicha, to‘qnashuvda 1200 ta ishchi qatnashgan.	.Near New York there was a strike of 1200 workers in four aircraft plants.
Bundan 18-yil muqaddam mana shu binoda mana shu yuksak minbar orqali O‘zbekistonning mustaqilligini va ijtimoiy yo‘nalishdagi bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq Demokratik davlat barpo etishdan iborat, deb qa’tiy azm-u qaror etganligimizni ma’lum qilgan edik.	18 years ago we proclaimed independence designed to build democratic state based on socially market oriented economy.

Mikro-revyu usuli notiq matnidagi ba’zi bir muhim joylarni esda saqlashga katta yordam beradi.

Shunday qilib, tarjimon xabarni birdan to‘laligicha olmasdan, sekin-astalik bilan oz-oz qabul qiladi. Shu bois, ma’lumot qabul qilish dinamik jarayondir. Izlanishlar o‘zbekchadan inglizchaga tarjima qilishning boshqa yo‘llarini ochib berdi.

Agar o‘zbek tilida so‘zlovchining nutqida “-ligi” qo‘shimchasi bilan tugaydigan so‘zlar yoki konstruksiyalar paydo bo‘lsa, shunda o‘sha murakkab o‘zbekcha qo‘shma gapning ingliz tilida bir necha oddiy gaplarga bo‘lib tarjima qilish yaxshiroqdir. Masalan: O‘qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxlit tayyorgarlik ko‘rmaganligi ularni bilim va kasbi saviyasi pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. – Teachers, pedagogics and educators, majority part of them are not well trained, their knowledge and educational skill are poor, it is a problem, and the skilled pedagogical personnel is lacking.

Xuddi shu usul “-yotgan” suffiksi bilan tugaydigan soʻzlarning oʻzbekcha murakkab qoʻshma gaplarida uchrasa, ularni ingliz tiliga tarjima qilganda ikki, uchta sodda gaplar bilan tarjima qilish tavsiya etiladi. Masalan:

Aziz doʻstlar! Oliy Majlisning bugungi sessiyasida koʻrib muhokama qilinayotgan, hayotimiz uchun muhim masalalar qatorida taʼlim- tarbiya tizimini tubdan oʻzgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga koʻtarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor qonun loyihalarini yaratishdir.

Dear friends! Oliy Majlis's today's session is discussing the important questions. They are reformation of the educational system, promotion of it to homogenously developed generations' draft laws.

Koʻrinib turibdiki, ingliz tilidagi “of” predlogi oʻrnida (oʻs) ning ishlatilishi soʻzlovchi va tarjimonning nutqini bir xil holatda saqlab turishga yordam beradi.

Feʼldan yasalgan semantik soʻz guruhlari. Oʻzbek tilidagi koʻp soʻzli semantik soʻz guruhlarini ingliz tilida oddiy bir-ikkita soʻz yordamida tarjima qilish mumkin. Masalan:

Bu kishi o'zini yomon ekanligini va salbiy sifatga ega ekanligini tan oldi (o'z aytiga iqror bo'ldi).

Bu voqea bir xil paytda yuz berdi.

Bu kitobning ayrim qismlari nashriyotda chop qilindi va radio orqali o'qib eshittirildi.

Siz xohlamasangiz ham men sizga bu yerda axloq-odob yuzasidan o'zingizni qanday tutishingizni aytmoqchiman.

Bu ish tajribadan o'tgan.

Janob Braun bu sohada ko'p o'qigan, tushunadigan va biladigan inson.

U qo'li hilan mushukni qattiq bosdi.

Kitoblar, daftarlar, gazeta va jumallar ustma-ust qilib joylashtirildi.

Janob Braun xafa bo'lgandek yoki birorta kishi xafa qilgandek bo'yini egib yurardi.

Kecha men jurnal va gazeta nusxalarini doim olib turish uchun pul to'ladim.

U markazdan uzoqroqda shaharga yaqin joyda yashaydi.

Hozirgi vaqtda bu masala eng dolzarb muammodir.

Men sizni xursand bo'lishingiz uchun bu ishlarni qildim.

U aqlsizlik qilib kishilar va guruh obro'siga zarar yetkazdi.

U o'zi xoxlamagan ishdan qattiq xafa edi.

Bu yerdagi maktablarga e'tibor ko'proq qaratilishi kerak.

Shoshilinchlik yaramaydi, puxta o'ylab, ehtiyotkorona, taroziga solib, fikr qilish kerak.

Ular dushmandan o'z yerlarni himoya qilish uchun baland devor, qal'a va boshqa qurilmalar bilan o'rab olishdi.

Agar bilsangiz, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o'tgan jinoyatchilarni tutish uchun axborot almashishda politsiyaga yordamlashuvchi xalqaro tashkilot bor.

Biz bu ishni har xil tomonlarini o'rganib chiqamiz.

Kasalligi tufayli o'zini boshqalardan ajratib yurar edi.

Qaynab turgan suvda tuxumni pishirasiz.

Yangilik magnit tasmasiga yozib olindi.

This man was self-confessed.

This event was serial.

The book was serialized.

I am going to sermonize with you.

This work was shakedowned.

Mr Brown is a sofisticated man.

He squeezed the cat.

The books, note-books, newspaper and magazines were stacked

Mr Brown was stalking.

Yesterday I subscribed

He is a suburbanite.

At present this question is topical.

I tributed you.

She disgraced the reputation of the people.

The work disgusted him.

The schools here must be foregrounded.

We must forthought.

They fortified their place.

You know, there is an Interpol.

We lavour this work.

Because of his illness he isolated himself.

You poach the eggs.

The news was recorded.

Ko'p so'zlardan tashkil topgan fe'ldan yasalgan o'zbek tilidagi so'z guruhlari, ingliz tilida ularning inkor ma'nosini hosil qilish uchun so'z o'zaklariga inkor prefikslari qo'shish orqali uzun jumlani qisqaroq qilib tarjima qilish mkmkin.

Komanda shunchalik kuchli ediki, konkursda uni yutish juda qiyin edi.	The team was unbeatable
Bu voqea aniq ma'lum emas va tushunarsiz edi.	This event was uncertain.
Ko'pchilikning rozilgisiz bu amalga oshirilgan edi.	The work was undemocratic.
U yer hali ekin ekish uchun chopiq qilinmagan edi.	It was uncultivated.
U ancha vaqt ish topolmay yurdi.	He was underemployed.
Bu shaharda juda kam odamlar istiqomat qilar edi.	Few people were underpopulated.

Sinonimlar qo'llash tarjimonga osonlik tug'diradi va nutqning mahsuldorligini oshiradi. Masalan:

Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida, shuningek Amerika Qo'shma shtatlarida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga, uning davlat arbobi, sarkarda ekanligiga, ulug'vor ziddiyatli ishlariga qiziqish hech qachon so'ngan emas.

In foreign countries, especially in European developed countries, in the USA Zakhridin Mukhammad Bobur as a person, statesman and his great military activity, great difficult work are still appreciated (instead of using the expression «to be interested in»).

Agar o'zbek tili nutqida sifatdosh bo'lsa, murakkab qo'shma gapni oddiy gapga aylantirib tarjima qilish mumkin. Masalan:

"Boburnoma" yozilgandan qariyb 400 yilgacha vaqt o'tgach, asliyat sohibiga qardosh bo'lgan turkiy tilga tarjima kilindi.

Boburnoma was written 400 years ago and it was translated into the Turkik language.

§5. Tarjima qilishning yo'llari

Xo'sh, kelajak tarjimonlarga nimani o'rgatish kerak?

Bu bilimlar quyidagilardan iborat:

1. Ona tilida eshitish.
2. Ona tilida tushunish.
3. Ona tilida ma'lumotlarni esda saqlab qolish.
4. Ongli tarjima qilish, ona tilidan ingliz tiliga tarjima qilinayotganda ma'lumotlarni toraytirish va to'g'rilab chiqish.
5. Ketma-ket tarjima uchun: nihoyat xabarni ingliz tilida berish uchun so'zlarni ishlatishni bilish.
6. Sinxron tarjima uchun: ona tilida ma'lumotning yangi qismini eshitish bilan uni darhol ingliz tilida ifodalash.

Tarjimonlarning o'z sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun qanday xususiyatlar va qobiliyat kerak? Bu haqida quyidagilarni aytib o'tamiz:

1. Aktiv va passiv tillar, madaniyat haqida chuqur bilimga ega bo'lish;
2. Tezda tushunish va aytilayotgan gapning asosiy mazmunini tez bayon qila olish;
3. Ma'lumotlarni chiroyli qiroat qilib, tiniq ovozda yetkazib berish;
4. Chuqur umumiy bilimga va qiziqishga ega bo'lish, yangi ma'lumotni olishga intiluvchan bo'lish;
5. O'zini konferensiyaning ma'lum bir a'zosi deb sezish.

Ottava Universiteti tarjimonlik fakulteti bilan Bryussel tarjimonlik institutlarining dasturlari nafaqat ketma-ket tarjima sohasida va balki sinxron tarjima yo'nalishida ham mukammal o'qitish kursi bilan ta'minlangan. Ularning rejasi o'z ichiga majburiy va ixtiyoriy kurslar, ikkinchi kursga qabul qilinishdan oldin bo'ladigan imtixon, amaliyot va imtixon oluvchi komissiyasiga topshiriladigan yakuniy imtixon. Dasturlar har ikki yildan so'ng almashiladi. Bu dastur avvalambor sirtqida o'qiydigan talabalar uchun mo'ljallangan

bo'lib, kirish imtixonlarini yaxshi topshirgan talabalar to'liq dastur asosida o'qishadi. Tarjimaning mohiyati madaniyatning belgisi sifatida xizmat qilish mumkin. Tarjimon ikki madaniyat o'rtasidagi farqlarni bilishga intiladi. Tillar, ularning strukturasi, grammatika va fonetikasi, tarixi va adabiyoti, shevalari haqida yetarli bilim talab etiladi.

§6. Tarjimonlikda interferensiya hodisasi

Tilshunoslikda interferensiya muammolari odatda ichki bog'lanishlarga bog'liq bo'ladi va interferensiyaga "Ikki tilning o'zaro qoidalari va o'zaro bog'lanishdagi me'yorlarni buzilishi (ya'ni farq qilishi)" deb ta'rif beriladi.

"Interferensiya" atamasini tilshunoslik faniga Praga tilshunoslik maktabining olimlari kiritgan va bu atamaga kengroq ta'rif Vaynrayxning "Languages in contact" ("O'zaro muloqotdagi tilar") asarida keltirilgan.

Ikki tilda yoki ko'p tillarda muloqot yuritish interferensiyaning namoyon bo'lishiga muhim shartdir. Lingvistik (tilshunoslikdagi) interferensiyani keltirib chiqaruvchi bir tilni ikkinchi bir tilga tarjima qilayotgan shaxsning o'zidir. U bir til sistemasidagi ba'zi elementlar, fenomen (hodisa) va funksiya (vazifa)sini boshqa bir til sistemasidagi element va funksiyalariga moslashtirishga uringanda ma'noning buzilishiga va asliyatdan uzoqlashishga yo'l qo'yadi.

1950-yillarga qadar interferensiya tushunchasi psixolingvistlarning oldin o'rgangan tajribasi ikki tilda muloqot yuritish sharoitida yangi tajriba yutuqlarini o'zlashtirishga faqatgina salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Shunga qaramay hozirgi kunda interferensiya nafaqat salbiy, balki mahorat, tajriba, bilim va hattoki xotira sohalarida ijobiy ta'sir ham ko'rsatadi deb hisoblanadi. V.N.Komissarov o'zining "Problems of Interference in Theory of Translation" ("Tarjima nazariyasida interferensiya muammolari", Moskva, 1984 y) asarida tarjima qilayotganda interferensiyaning barcha ko'rinishlari: nomaqbul va maqbul elementlarini hisobga olish lozim deb yozadi.

Interferensiyani o'rganishda nazariy va amaliy yutuqlarga e'tibor qaratgan holda, lingvistik interferensiya tushunchasida ijobiy bo'lishi mumkin bo'lgan muloqot tillarining o'zaro interferensiyasi tushuniladi va bu bir tilda ikkinchi til ta'siri ostida kelib chiqqan me'yor tafovutini ikkinchi til ta'siri ostida bir tildagi odatlarning mukammallashuvi va kuchayishini ifodalaydi.

Lingvistik interferensiya 5 ta turga bo'linadi: 1. fonetik; 2. morfologik; 3. sintaktik; 4. leksik; 5. semantik.

Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, tarjimalar o'rganilayotganda tarjimonlar yo'l qo'ygan interferensiya turlari namoyon bo'ladi:

1. Fonetik tovush yoki taqlid yo'li bilan hosil qilingan (fonetik, fonologik va qayta ishlangan tovush) interferensiya – Dutch – Holland magazine – journal;

2. Orfografik interferensiyalar, boshqa bir tilda so'zlarni yozishdagi elementlarning interferensiyasi; appeal – apellyatsiya;

3. Grammatik (morfologik, sintaktik) interferensiya;

4. Leksik interferensiya;

5. Semantik interferensiya;

6. Stilistik interferensiya.

Til ichidagi interferensiya tarjima qilingan til ta'siri ostida namoyon bo'ladi: работа (ish) – work, работы – work (works emas) – job emas, balki jobs bo'ladi. (V.V.Alimov. "Теория перевода", Москва, 2005 y. 20- bet).

Ba'zan (murakkab) qo'shma so'zlardagi leksik – semantik interferensiya bir tildan boshqa bir tilga qilingan tarjimada yo'l qo'yilgan leksik, grammatik, fonetik va boshqa xatolar sababli kelib chiqadi.

Foydali interferensiya ijobiy interferensiyalarni bir til sistemasini boshqa bir til sistemasiga o'girilganda kelib chiqadigan interferensiyalar (morfemalar, so'zlar, iboralar) sifatida qo'llanilishi orqali tilda bir xil namoyon bo'ladi.

Ona tilida (ya'ni tarjima qilinayotgan tilda) vujudga kelgan xatolarni tartibga solish va uning ta'siri tarjima uchun juda muhimdir.

Ona tilining ta'siri ko'p hollarda ingliz va o'zbek tillarida

ifodalanayotgan soʻzlarning semantik tuzilishi muvofiq kelishida namoyon boʻladi, misol uchun “to take” feʼlining barcha maʼnolari bilan oʻzbek tilidagi “olmoq” feʼlini ishlatilishi (imtihon olmoq – “to take an exam” oʻrniga “to give an exam” boʻlishi lozim; dam olmoq – “to take a rest” oʻrniga “to have a rest” qoʻllaniladi) qoʻpol leksik xatodir, chunki “to take” feʼli bilan na shakl jihatdan, na uning semantik maʼnolarining tuzilishi jihatdan toʻgʻri keladi.

Biz koʻp hollarda leksik meʼyorlarni interferensiyasiga duch kelamiz. Ona tilidagi semantik tuzilishdagi soʻzning aynan maʼnosini ifodalovchi oʻzaro mos keluvchi soʻz ingliz tilida boʻlmasligi mumkin. Misol uchun: Bu voqea menga katta maktab boʻldi. – “This event was a good school to me”ni oʻrniga “This event was a good lesson to me” boʻladi.

Ingliz va ona tillardagi soʻzlarning leksik valentligi meʼyoriy jihatlarini koʻp hollarda oʻzaro farqlidir va bu interferensiyaga sabab boʻlishi mumkin. Misol uchun, oʻzbek tilidagi “koʻtarmoq” feʼli “qoʻl” va “stul” soʻzlari bilan birika oladi, ammo bu soʻzni ingliz tilidagi “raise” soʻzi bilan ifodalanganda, u faqatgina “hand” soʻzi bilan birika oladi, lekin “chair” soʻzi bilan emas (to lift a chair).

Bu interferensiyalarni bilmagan tarjimon: “to lift a chair”ni oʻrniga “to raise a chair” deyishi mumkin.

Sinonimlar va ularning maʼnolaridagi farqlarni qoʻllash interferensiyaga sabab boʻlishi mumkin. Bu turdagi xatolar ona tilidagi bir soʻzni bir nechta sinonim qatorlari bilan ifodalaganda topish mumkin.

Misol uchun, oʻzbek tilidagi “qabul qilmoq” soʻzini ingliz tilida bir nechta sinonim qatorlari bilan ifodalash mumkin: “to accept”, “to admit”, “to adopt”, “to receive”, “to take”...

Biz bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilayotganimizda turli xil qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ingliz tilidan oʻzbek tiliga yoki rus tiliga tarjima qilinayotganda soʻz birikmalariga eʼtibor qaratish lozim. Tarjimaning qiyinchiligi soʻzni turli xil birikuvda qoʻllay olishda. Tarjima qilish usuli kontekstdagi leksik birliklarni toʻgʻri angʻlay olishga bogʻliq. Misol uchun: 1. to take place – sodir boʻlmoq

– происходит; 2. to take care of – g'amxo'rlik qilmoq – заботится; 3. to take tea – choy ichmoq.

Tarjimada internatsional so'zlarga ham e'tibor qaratish shart. Ularni tarjima qilishdagi qiyinchilik ularning turli xil ma'nolariga duch kelishda. Misol uchun: a) Thousands of people participating in the meeting of the protest against H-bombs. – Minglab kishilar neytron bombasiga qarshi uyushtirilgan mitingda qatnashdilar. – Тысячи людей участвовали в митинге протеста против нейтронных бомб.

b) Their last meeting was difficult. – Ularning oxirgi uchrashuvlari juda og'ir bo'lgandi. – Их последняя встреча была трудной.

Birinchi gapdagi "meeting" so'zi internatsional xalqaro so'z sifatida qo'llanilgan. Ikkinchi gapda halqaro so'z sifatida qo'llanilmagan. Tarjima qilish usuli kontekstdagi ma'nosiga bog'liqdir.

Ingliz tilidan o'zbek yoki rus tiliga so'zlarning milliy bo'yog'ini tarjima qilish ham mushkuldir. Tarjima qilishdagi qiyinchilik ularni boshqa tillarda ekvivalentlari yo'qligida. Tarjima qilish usuli transliteratsiya (bir alfavitdagi harflarni boshqa alfavitdagi harflari bilan yozish)dir, chunki pragmatik maqsad ingliz tilidagi milliy bo'yoqni saqlab qolishdir. Misol uchun: The streets in London are measured by the mile. – London ko'chalari milyalab o'lchanadi. – Улицы Лондона измеряются в длину миль.

4. Leksik transformatsiya aksariyat kelishiklarni tarjima qilishning usulidir. Misol uchun: Mr Brown scraped his knee painfully. – Janob Braun oyog'ining tizzasini qattiq urib oldi. – Мистер Браун сильно ободрал колено.

Bunda biz "scraped painfully" so'zlarini ingliz, o'zbek va rus tillarida o'zaro birikuvidagi nomoslikni ko'rishimiz mumkin.

5. Ba'zan ingliz tilidagi bo'lishli gap o'zbek yoki rus tiliga inkor (bo'lishsiz) shaklida tarjima qilinadi. Misol uchun: "The case was of little consequence" – Ish biroz yaxshi emas edi. – Дело было неважной.

Tarjima qilishdagi qiyinchilik ingliz tilidagi “The case was of little consequence” gapi bo‘lishli shaklda bo‘lganida, tarjima qilinayotganda bo‘lishsiz shakldagi so‘zlar “yaxshi emas”, “неважный” qo‘llanilgan.

Tarjima qilishdagi qiyinchilik polisemantik predlog tufayli ham kelib chiqishi mumkin. Misol uchun: At the corner of the street Robert stopped for a glass of beer and a cigar. — Ko‘cha burchagida Robert bir stakan pivo ichish va sigaret chekish uchun to‘xtadi. — Робет остановился, чтобы выпить стакан пива и выкурить сигарету.

Bunda tarjima qilishdagi qiyinchilik xohish, istakni ifodalovchi polisemantik predlog “for” bilan bog‘liqdir. Predlogni o‘zbek va rus tiliga tarjima qilinganda predlog ma‘nosiga “ichish”, “chekish uchun”, “чтобы выпить, курить” so‘zlari qo‘shildi.

Tushirib qoldirish to‘g‘ri tarjima qilishning usullaridan biri. Misol uchun: Look at these houses. They are in an excellent state of preservation. — Mana bu uylarga qara! Ular juda yaxshi saqlangan. — Посмотри на эти дома! Они хорошо сохранились.

Tarjima qilishdagi qiyinchilik o‘zbek va rus tilida “state” so‘zining semantik qisqartirish bilan bog‘liqdir. Bunda tarjima qilish usuli “state” so‘zini tushirib qoldirib, nutqning bir qismini otdan fe‘lga o‘zgartirishdir: noun — verb — yaxshi saqlangan — хорошо сохранились.

Noaniq fe‘l shakllarini tarjima qilish ham qiyindir. Misol uchun: Excuse my interrupting you. — Gapingizni bo‘lganim uchun uzr. — Извините, что перебил вас.

“My interrupting” gerundiylı ibora; grammatik shakllarning ifodalanishidagi kamchilik; tarjima qilish usuli grammatik transformatsiya yoki gerundiylı iborani ergash gapga almashtirish.

IX. She‘riy tarjima

She‘riy tarjima asrlar davomida filologlar, shoirlar, she‘rshunos olimlar, she‘riy tarjima masalalari bilan maxsus shug‘ullangan

mutaxassislar diqqat markazida bo‘lib kelgan. She‘riy tarjima nasriy tarjimadan ko‘p jihatdan farq qilsa-da, ular o‘rtasida mushtaraklik mavjud. Ular tillararo poetik yoki she‘riy kommunikatsiyaga xizmat qiladi. She‘riy matndagi informatsiya nasriy matndagi informatsiyadan tubdan farq qiladi. She‘rdagi informatsiya mazmuni turli-tuman, bir-biriga zid va hatto biri ikkinchisini inkor etishi mumkin. She‘riy informatsiya o‘z ichiga faktual hamda konseptual, ya‘ni ma‘noga bog‘liq informatsiyani oladi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va ayni paytda ular bir-biriga dinamik qarshi bo‘ladi. Faktual va mazmuniy informatsiya tashqi real yoki noreal dunyo haqida muayyan fakt, hodisa, voqealar asosida ma‘lumot beradi. Badiiy nutq sirasiga kiradigan she‘riy matn tarjimasi she‘r tuzilishi qonun-qoidalarini hisobga oladi. Bunda nasr tahlilida qo‘llanadigan ritm, ohang, sintaktik qurilish, badiiy obraz va boshqa badiiy unsurlar diqqat markazida bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan tushunchalar va atamalar she‘riy matn tahlilida ham qo‘llaniladi, biroq ular she‘riyatning qat‘iy qonun-qoidalari asosida amalga oshiriladi. Har gal tarjimon she‘riy tarjima tajribalarini o‘rganish, she‘riy tarjimalarning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, she‘riy tarjima tahlili natijalari asosida ba‘zi tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilgan. She‘riy tarjimaning eng asosiy vazifasi – yaxshi she‘r tarjimada yomon she‘rga aylanib qolmasligiga harakat qilish, tarjima mazmunini iloji boricha to‘liq saqlab qolish, she‘riy matn shakllarining she‘r mazmuniga mos ravishda ham vaznini, ham ohangni saqlab qolish hisoblanadi. Tarjimaning yaxshi-yomonligini nafaqat tarjimon, balki o‘quvchi ham bir o‘qishda sezishi lozim.

She‘riy tarjima? Umuman? tarjima ijodiy jarayon bo‘lib, boshqa tilda asarni qayta yaratish san‘atidir. Tillar she‘riy tizimlar, vazn, musiqaviy omillar orasida farq mavjud. Biroq mazkur farqlarni tarjimada qayta yaratish orqali tarjima matni yaratiladi.

She‘riy tarjimada asliyat va tarjima matni, ikki til she‘riy sistemasi qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, har bir she‘r o‘ziga yarasha noyob asar sanaladi. Ma‘lumki, she‘riyat muayyan ritmga asoslanadi. She‘ryat qonuniyatlari metrik birliklarda va ularning

turli ko‘rinishlarida ifodalanadi. She‘riy musiqadorlik xos va ular turli xarakterga ega. Bunda so‘zning ma‘no va ifodaviy uyg‘unligi, so‘z kuchi va hamohang ishlatilishi nazarda tutiladi. She‘r musiqasi, o‘z navbatida, so‘z jarangi, so‘z shakli va ma‘no birligi natijasi hisoblanadi. She‘rda qo‘llanadigan turli san‘at she‘riy musiqani amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu bois har bir she‘riy sistema o‘z xususiyati, an‘anaviy vazni, ritmi hamda ohangiga ega. She‘riy tarjimada asarning hamma unsurlarini to‘liq saqlab qolish imkoniyati yo‘q, biroq ba‘zi tarjimashunos olimlarning fikriga ko‘ra she‘rdagi obraz, she‘riy hamohanglik saqlanishi lozim. She‘riy obraz va hamohanglikning qanchalik saqlanishi tarjimon mahorati bilan belgilanadi. Ingliz tarjimashunosi Steynli Kunitsning shahodat berishicha, she‘riy muqobilikka erishish uchun tarjimonlar, odatda, “formal talablar hamda semantik aniqlik o‘rtasida” mutanosiblikni saqlashga harakat qilar ekan. Rus tarjimashunoslari asosiy e‘tiborni she‘riy tarjimaga talabni undan ham balandroq qo‘yib, she‘riy tarjimada formal aniqlikka qaratish lozimligini targ‘ib qiladilar.

She‘riy muqobilikka erishish she‘ryatda keng qo‘llaniladigan alliteratsiya, assonans, qofiya, o‘zbek she‘ryatida bunga qo‘shimcha ravishda radif fikrni chiroyli va mazmunli, ifoda etishga xizmat qiladi. Agar yuqorida zikr etilgan fonetik stilistik vosita va usullar fikrni chiroyli va mazmunli ifoda eta olmasa va bu tarjimada formal vazifanigina bajaradigan bo‘lsa, she‘r mazmuniga putur yetadi, aksariyat hollarda she‘riy tarjima matni asliyat matnidan uzoqlashib qoladi. Qo‘llangan ifoda vositalari badiiy taassurotni kuchaytira olmasa, she‘r ohangi, ritmi va asosiysi mazmuni o‘zgarib qoladi, she‘rdan tegishli estetik zavq olish qiyinlashib, mazmun sayozlashadi va ifoda vositalari shunchaki tovushlar yig‘indisidan iborat bo‘lib qolishi mumkin. She‘riy musiqa, asosan, ritm tuzilishiga, she‘riy ritm nasriy ritmdan farqli o‘laroq sintaksidan emas, aksincha vazn asosida o‘zi she‘rning sintaktik tuzilishiga ta‘sir etadi.

She‘riy sintaksis oddiy og‘zaki nutq hamda badiiy sintaksisdan ancha farq qiladi, chunki unda odatiy so‘z tartibi buziladi. Bu esa she‘r uchun qonuniyat hisoblanadi. Tarjimada she‘r sintaksisi alohida

emas, balki she'riy matn talablari asosida, ya'ni vazn, ritm, ohang, qofiya va shu kabilarni amalga oshirish natijasida hosil bo'ladi.

Xorijiy tillardan, xususan, ingliz tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilishga talab XX asrning 90-yillaridan, ya'ni O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng kuchaydi. Bundan 15–20 yillar oldin chet tillaridan bevosita o'gira oladigan tarjimonlar juda kam bo'lgan. Shu bois badiiy asarlar o'zbek tiliga, asosan, o'sha paytda vositachi til vazifasini bajargan rus tili orqali tarjima qilinar edi.

Xorijiy tillardan bevosita o'zbek tilida tarjima qilish esa lug'atchilikni – leksikografiyani rivojlantirishni taqazo etadi. Rus tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish bo'yicha respublikamizda boy tajriba orttirildi. Xorijiy tillardan tarjima qilingan asarlarni tahlil etish, ular bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda hali bajariladigan vazifalar ko'p.

Respublikamizda ko'zga ko'ringan aksariyat shoir va yozuvchilar ayni paytda mohir tarjimonlar hisoblanadi. Bularning orasida G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Yusuf Shomansur, Jamol Kamol, Ibrohim G'afurov va boshqalarni tilga olish mumkin. Ular tom ma'noda she'riy tarjima bo'yicha maktab yartishgan, degan fikrni aytsak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston tarjima maktabi otasi hisoblangan G'aybulla Salomov o'zining qator maqola, monografiya, qo'llanma va darsliklarida she'riy tarjima asoslari xususida teran fikr yuritgan va tavsiyalar bergan. G'.Salomovning shogirdi va izdoshi N.Komilov hozirda uning tarjima sohasidagi ishlarini davom ettirib kelmoqda.

XX asrning 70-yillaridan boshlab ingliz, nemis, fransuz tillaridan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni boshlandi. Shoirларimizdan Jamol Kamol ingliz tilidan, Abdulla Sher nemis tilidan, Shavkat Rahmon ispan tilidan asliyat tilini maxsus o'rganib, asarlarni bevosita asliyatdan tarjima qilishga qo'l urisha boshlashdi. XX asrning oxiriga kelib o'zbek tilidan xorijiy tillarga bevosita tarjima qilishga bel bog'lagan mutarjimlar safi kengaydi. S.Saidov, Y.Parda, X.Rahimov, Sh.Karimov, Sh.Imyaminova, Poshali Usmon o'g'li, M.Toshtemirov, B.Ermatov, A.Ko'chiboyev, S.Doniyorova,

A.Iminov, D.Sultonova, B.Xolbekova shular jumlasidandir.

Tarjima nazariyasining asosiy prinsiplari haqidagi batafsil ma'lumotlarni mustaqillik davridan to shu kungacha tarjima nazariyasi, xususan, she'riy tarjima bo'yicha bajarilgan nomzodlik va doktorlik ishlarida topish mumkin.

Rossiyalik tarjimashunos olimi T.A.Kazakova o'zining "Badiiy tarjima bo'yicha praktikum" o'quv qo'llanmasida shunday deydi: "Tarjimon she'rni tarjima qilganida uning shakliga qarab ikki asosiy kategoriyadan birini tanlashiga to'g'ri keladi. Shulardan biri erkin she'r, boshqasi esa klassik tuzilishga ega bo'lgan she'r. shuning uchun ham she'r o'zgarmas she'r vazni, ritm hamda turoqqa ega bo'ladi" (Kazakova, 2003: 22). An'anaviy she'r ko'proq hissiyotga taalluqli bo'ladi.

Erkin she'r haqida gapirishimizga sabab, an'anaviy she'rlar qatorida erkin she'r XX asr ingliz she'riyatida keng tus olgan. Ingliz she'riyati deganda biz bu yerda Amerika va Buyuk Britaniya she'riyatini nazarda tutamiz. Aslida an'anaviy she'rni tarjima qilishdan ko'ra erkin she'r kamroq mehnat talab qiladi, biroq bu she'riyatning ham o'ziga xos xususiyatlarini tarjima jarayonida hisobga olish lozim. Bunda erkin she'rning tarjimasida uning sintaktik va semantik tuzilishlari turlicha shakl olishi mumkin.

An'anaviy she'rlarni tarjima qilish murakkab bo'lib, u o'z ichiga bir qator muammoni oladi. Bunda she'rning vazni, turog'i, qofiyasi, ohangi, hamohanginigina emas, balki she'rning turli kombinatsiyada kelgan turini, xususiyatini, muallifning individual uslubi bilan bir qatorda har bir tildagi she'r xususiyatini hisobga olishga to'g'ri keladi. Bu she'r tarjimonidan chuqur bilim, ikki til an'analarini, milliy xususiyatlarini, lingvomadaniy jihatlarini, she'rdagi asosiy g'oya, obraz, stilistik vosita va usullarning qo'llanish sabablarini, she'riy informatsiyani o'quvchiga ifodali yetkazishda ishtirok etgan til unsurlari har birining vazifasi, she'r yozilgan davr xususiyatlari va shu kabilarni hisobga olish talab etiladi. Bundan tashqari tilchi sifatida tarjimon xorijiy mamlakat she'riyatidagi o'zgarishlardan boxabar bo'lishi, she'r shakllari, turlari, janrlari haqida atroflicha

ma'lumotga ega bo'lishi lozim. She'r tarjimonida mantiq birinchi o'rinda, shakl esa ma'no bilan chambarchas bog'liq holda qabul qilinishini zarur. Tarjimon o'quvchining she'riy asar tarjimasidan asliyatda berilgan informatsiyani to'liq olishini hamda estetik zavqlanishini ta'minlovchi vositachisi, qolaversa, uning ishongan "tog'i" sifatida gavdalanishi lozim.

Ingliz an'anaviy she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilishdan avval ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi farqlarni yaxshi bilish lozim. Qiyosiy tipologik jihatdan yuqoridagi ikki tilni tahlil qilsak, german tillari oilasiga mansub ingliz tili hamda o'rol-oltoy guruhiga tegishli turkiy tillar oilasiga kiradigan o'zbek tilining she'riy sistemasidagi, agar mavjud bo'lsa, o'xshash va farq qiluvchi tomonlariga alohida e'tibor berish lozim. Ulardagi leksik, grammatik va fonetik, uslubi va shu kabi farqlar she'riy tarjimada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Grammatik jihatdan olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi so'z tartibi bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Leksik jihatdan so'z qatlamlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz tilida lotin, fransuz, italyan, ispan, ya'ni roman tillaridan o'zlashgan, o'zbek tilida esa fors, arab, rus tillaridan o'zlashgan so'zlar lug'at boyligining asosini tashkil etganining guvohi bo'lamiz. Ikki tilni fonetik jihatdan qiyoslasak, ingliz tilida o'zbek tiliga nisbatan unlilar soni (ularning cho'ziqligi hisobiga) ko'pchilikni tashkil etadi. Undoshlar soni ikki tilda ham miqdor jihatidan deyarli bir xil. Stilistik jihatdan ikki til o'rtasida sezilarli farq mavjudligini aniqlashimiz mumkin. Mana shu qisqa qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillarining bir-biridan farqi juda kattaligini ko'rsatib turibdi. Bu farqlarni she'riy sistemada ko'rish mumkin.

Ingliz tilida yamb, xorey, daktil, stopa kabi atamalar ishlatiladi. Hozir Bayronning to'rt stopali yambda yozilgan she'rini ko'rib chiqamiz.

1. She walks in beauty, like the night (a)
2. Of cloudless climes and starry skies; (b)
3. And all that's best of dark and bright (a)
4. Meet in her aspect and her eyes; (b)

5. Thus mellow'd to that tender light (a)
6. Which heaven to gaudy day denies. (b)

(Byron)

Endi o'zbek tilida yozilgan biror she'rmi olib, dastlabki tahlildan o'tkazamiz. O'zbek tili she'riyatida turoq, bayt, rukn, aruz, misra, qofiya, radif va shu kabi atamalar keng qo'llaniladi. Yuqorida tilga olingan "bayt" atamasini ko'rib chiqsak. "Bayt aruz ilmiga ko'ra har biri bir necha rukndan tashkil topgan qofiyali yoki qofiyasiz ikki misra she'r demakdir" (A. Hojiahmedov 1998: 36).

"Aruz" atamasini tahlil qiladigan bo'lsak, bu o'lehov tizimi haqida bir oz batafsilroq to'xtashga to'g'ri keladi.

Birinci bo'lib turkiy tilda aruzda ko'plab lirik she'rlar yozilgan. Shu o'lehov asosida XI asrda Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari dunyoga keldi.

XII asrdan bizgacha yetib kelgan "Hibat ul-haqoyiq" dostoni aruz nazariyasi va amaliyotining o'zlashtirilishidan dalolat beradi. XIII–XIV asrlar davomida Nosriddin Rabg'uziy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroyi kabi shoirlar turkiy asarlarida keng qo'llashgani ma'lum.

XV asr o'zbek aruzi rivojida alohida bosqich sanalgan. O'zbek adabiy tilining asoschisi A.Navoiy bilan bir qatorda Atoiy, Sakkokiy, Durbek singari turkiyzabon shoirlarning aruz vazni imkoniyatlaridan foydalanib, yuzlab lirik she'rlar yozishga muvaffaq bo'lishgan.

Bobur Alisher Navoiy an'analarini nafaqat davom ettirdi, balki aruz vaznida she'r yozish imkoniyatlarini yanada yuqori bosqichga ko'tarishga katta hissa qo'shdi. Bu sohada Mashrab, Nodira, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Hamza, Avloniy kabi ilm ahllarining aruz vaznini takomilga yetkazishdagi xizmatlar beqiyosdir.

XX asrning 20-yillaridan keyin H.Olimjon, G'afur G'ulom, Oybek hamda Uyg'un kabi zabardast shoirlarimiz eng yaxshi lirik she'rlarini barmoq vaznida yaratdilar. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy kabi shoirlarimiz aksariyat hollarda she'rlarini mazkur vaznda yozishgan.

XX asrning 60-yillariga kelib shoir Erkin Vohidov aruzning qayta jonlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu asrning 80-yillariga kelib Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Oydin Hojiyeva, E'tibor Oxunova kabi yoshlar she'riyatida aruz vaznining imkoniyatlari, uning go'zalligi, ko'pqirraligi ochib berildi.

A.Hojiahmedovning fikriga ko'ra, "60-yillar she'riyatida ham aruz ... zamondoshimiz qalbidagi nozik va murakkab tuyg'ularni shaffof misralarda aks ettirish ishiga munosib xizmat qilib kelmoqda" (Hojiahmedov: 1998, 13).

Shunday qilib shunday xulosaga kelish mumkin – aruz o'lchov tizimi asoida yaratilgan asar baytlaridagi birinchi misraning oxirgi rukni o'rni nomi. Misradagi shu rukn o'qilgandan so'nggina she'rning qaysi bahr hamda vazn asosida yaratilganligi, misraning tanlangan o'lchovga muvofiqligi, shoirning vazn tanlash, ohang yaratish mahoratini aniqlash mumkin bo'ladi.

O'zbek aruzi arab-fors aruzidan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Aruz fonetikasi – hijolar – bo'g'inlarning tuzilish va turlari, asl ruknlarning hosil qilinishi va xilma-xil ko'rinishlari, bahrning tashkil topishi, zihoflar – o'zgarishlarning xususiyatlari va turlari arab, fors-tojik aruzi kabi o'zbek aruziga ham xosdir.

O'zbek aruzida qo'llanadigan bahrlarning o'zbek tili xususiyatlari bilan belgilanadigan vaznlar doirasi mavjud. O'zbek aruzida mavjud 44 xil o'zgarishning 23 turigina she'riyatda qo'llanadi. O'z navbatida har bir nom arabcha so'zlar bilan ataladi.

Masalan, Boburning quyidagi baytining vaznini aniqlash uchun tahlil qilamiz:

*Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim.*

Bahr nomi, baytning necha ruknli ekanligi, ruknlarning nomlari she'r vaznini ifodalaydi. YUqorida keltirilgan Boburning bayti barcha ruknlari mafoiyun asliga teng, baytdagi ruknlar soni esa sakkizta. Binobarin, she'r hazaj bahrining sakkiz ruknli o'lchovida yozilgan

bo'lib, ruknlari aslining o'zigagina tengligi uchun she'r vazni hazaji mumammani solim deb ko'rsatilishi joiz hisoblanadi. (Aruz haqida qarang: A.Hoji Ahmedov O'zbek aruzi lug'ati. T.: "Sharq", 1998).

Ikki yevropa va turkiy tillar she'riy tuzilishi qiyosiy o'rganish ular o'rtasida nafaqat she'riy atamalar, balki she'riy tizimlarda katta farq borligini ko'rsatdi. Hali tarjima nazariyasida ingliz yambi, xoreyi yoki doktili o'zbek tiliga qaysi vaznda tarjima qilish mumkinligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q, bori ham yetarli emas. Ingliz she'riarini o'zbek tiliga o'girish bo'yicha tavsiyalar to'liq ishlab chiqilmagan. Bu degani ingliz tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga she'rlar tarjima qilinmayapti degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Samarqand davlat chet tillari instituti "Tarjima nazariyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi Dinara Sultanova ko'p yillardan beri ingliz, amerika she'rlarini o'zbek tiliga, o'zbek she'rlarini ingliz tiliga bevosita tarjima qilib kelayotgan amaliyotchi mutaxassis hisoblanadi. U Dushan Fayzi Zarafshoniyning "Xillari xonim Samarqandda", Vohid Abdullaning "Samarqand sayli" dostonlarini ingliz tiliga o'giran. Bundan tashqari u Byorns, V.Shekispir, E.Po she'rlari bilan bir qatorda o'zbek shoirlaridan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va boshqa bir qator atoqli va she'riyatga endi qadam qo'yib kelayotgan yosh iste'dodli shoirlar asarlarini ingliz tiliga bevosita tarjima qilib kelayotgan iqtidorli tarjimonlardan biridir.

She'riy tarjima bo'yicha dadil qadam tashlab kelayotgan yana bir amaliyotchi-tarjimon Andijon davlat tillar instituti katta o'qituvchisi, shoira Begoyim hisoblanadi. U Byorns hamda Jeyms Joys she'rlarini aslyatdan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilib, ingliz adabiyoti namunalarini o'zbek xalqiga tanishtirishda katta hissa qo'shib kelmoqda.

Ilmiy-tanqidiy adabiyotlarda she'riy tarjimada shakl va mazmunning, musiqaviy garmoniyaning dialektik bog'liqlikda qayta aks ettirish zarurligi haqidagi fikrlar ko'p uchraydi, ammo misollar asosida kengroq va atroflicha yoritib berilmaydi. Shu boisdan biz jahon adabiyoti dardonalaridan bir necha asarlarning aslyatdan bevosita o'zbek tiliga o'girilgan tarjimlariga murojaat etamiz. Avvalo

shuni aytib o'tmoqchimizki, vatanimiz mustaqilligi sharofati bilan ijod ahliga, jumladan tarjimonlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor tufayli yurtimizda xorijiy tillardan bevosita ona tilimizga va ona tilimizdan bevosita xorijiy tillarga tarjima qila oladigan iste'dodlar bo'y ko'rsata boshladi. Bu quvonchli hodisa, albatta, negaki biz bevosita tarjimalar orqaligina badiiy tarjima sifatini yaxshilashga erishamiz. Quyidagi she'rni o'zbek tilidagi bevosita tarjimasi bilan muqoyasa etib ko'ramiz:

Ae Fond Kiss

By Robert Burns

Ae fond kiss, and then we sever,
Ae fareweel, and then for ever!
Deep in heart-wrung tears I'll pledge thee,
Vidolashdik garchi pichirlab,
Warring sighs and groans I'll wage thee.

Who shall say that fortune grieves him,
While the star of hope she leave him
Me, nae cheerful twinkle lights me;
Dark despair around benights me.

I'll ne'er blame my partial fancy,
Naething could resist my Nancy;
But to see her, was to love her,
Love but her, and love for ever.

Had we never lov'd sae kindly,
Had we never lov'd sae blindly!
Never met-or never parted,
We had ne'er been broken-hearted.

Fare-thee-weel,thou first and fairest!
Fare-thee-weel,thou best and dearest!
Thine be like a joy and treasure,
Peace, Enjoyment, Love and Pleasure!

Ae fond kiss,and then we sever!
Ae fareweel,alas,for ever!
Deep in heart-wrung tears I'll pledge thee,
Warring sighs and groans I'll wage thee.

Co'nggi bo'sa

Robert Byorns

Astagina o'pishdik giryon,
Ayri tushdi yo'llar har tomon!
Vidolashdik garchi pichirlab,
Faryod soldi yurak qon yig'lab.

Taqdir ekan ne ham qildik biz,
Umidni chin baxt deb bilibmiz.
Ammo bugun ko'zlarimda yosh,
Yorsiz yo'lim yoritmas quyosh.

Qalbda tug'yon urib ehtiros,
Ishqda yondim Nensini deb rost.
Uni ko'rmoq-sevmoq-ku o'zi,
Uni sevmoq mangu dard o'zi.

Oh qaydanam ko'rishdik bizlar,
Oh qaydanam sevishdik bizlar!
Sevmasaydik bunchalar intiq,
Abgor etmasmidi ayriliq.

Mayli omon bo'lg'in, sen gulim,
Ko'ngil mulkim aziz sevgilim.
Hamroh bo'lsin qalbingga abad,
Tinchlik, Shodlik, Rohat, Muhabbat!

Astagina o'pishdik giryon,
Ayri tushdi har tomon!
Vidolashdik garchi pichirlab,
Faryod soldi yurak qon yig'lab.

Ushbu she'r tarjimasi tarjimonning asarni ijodkor sifatida katta ehtiros bilan sevganini, shoirning fikr-o'ylari, ifoda uslublari, she'rning maromi, ohangini butun vujudi bilan his eta olganini yaqqol namoyon etib turibdi. She'rning qofiyalanish tartibi uning tarjimasida ham asliyatdagidek boshdan oxirigacha bir xil aa,bb shaklda aks etgan. Shotland shoiri Byornsnining ruhiy olati, qalb iztiroblarini o'zbek tarjimoni Begoyim Xolbekova o'z ona tilimizda yuksak poetik mahorat bilan qayta yarata olgan. Buni quyidagi misralarda yanada aniqroq ko'rish mumkin, ya'ni asliyatdagi quyidagi "Hech qachon ko'rishmaganimizda, bunchalik mehr bilan sevishmaganimizda, ayrilmaganimizda yuraklarimiz bunchalik siniq bo'lmasmidi" degan mazmun o'zbek tilida asliyatga mos ichki dard bilan ifoda etilgan.

Quyidagi she'r esa ko'tarinki ruhda, tantanavor ohangda yozilgan. Qofiyalanish tartibi abab shaklda. She'rda shoirning xush kayfiyati, o'ziga ishonchi uning tarjimasida ham aks etgan:

Louis, what reck I by thee,
Or George on his ocean.
Dyvor, beggar louns to me,
I reign in Jeanie's bosom!
Let her crown my love her law,
And in her breast enthrone me;
Kings and nations swith awa
Reif randies, I disown ye!

Dengiz qiroli Jorj, Lui,
Kim bo'libdilar oldimda!
Jiynday aziz yorning o'yi,
Yashab turganda qalbimda!
Yor ko'nglining qiroliman,
Baxtim bo'ylaydi ko'k qadar.
Mening oldimda qirollar,
Qirolmas, yo'q – bir darbadar!

She'riy asarlar tarjimasi eng murakkab masalalardan biri. Shunga qaramay tarjimonlarimiz bu zahmatli vazifani ado etishda o'ziga xos ijodiy izlanishlar olib bormoqdalar.

She'rda alliteratsiya, assonans, qofiya hamda bir qator tovush takroriga, vazn takroriga, turoq takroriga asoslangan she'riy unsurlar qo'llanadi. Tovush takrorini ikkiga, ya'ni metrik hamda hamohanglik (evfonik) unsurlar bo'lish mumkin. Evfonik unsurga hamohanglik, xushohanglik, alliteratsiya, assaonans, epifora, anafora hamda naqoratlarni kiritish mumkin. Metrik unsurlarga esa vaznni, bandni, qit'a, she'r va turoqlarni kiritish mumkin.

She'r va uning sarlavhalarida ham tovush takrorlaridan keng foydalaniladi. Unli va undosh tovushlarning takrorlanishi bir-biridan farq qilishi mumkin. Undosh tovush nafaqat turoq ichida, balki band yoki she'r davomida bir necha ko'rinishda takrorlanishi mumkin. Masalan:

Let her crown my love her law,
And in her breast enthrone me;
Kings and nations swith awa
Reif randies, I disown ye!

She'riy tarjimada tovush takrorini berish imkoniyati juda cheklangan bo'ladi. Ammo asliyatning ifoda usulini saqlash, she'ring ovozli obrazini berish lozim bo'ladi. Bunda aynan tovushlar takrorini emas, balki ular talaffuziga yaqin tovushlar takrori orqali fonetik usul qayta yaratiladi.

O murk, murk in midnight hour (R.Burns)
Tun, tun zulmat bosganda tun (D.Sultonova tarjimasi).

Ayrim hollarda undosh tovushning jaranglisi o'rniga jarangsiz yoki aksincha jarangsiz undosh o'rni jarangli undosh takrorlanadi. Bu ko'p jihatdan tarjimon mahoratiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Zuhro yulduz miltillab, xira xanda otganda.

As Venus smiled a sad smile me high (D.Sultonova tarjimasi).

Mazkur bir qator she'r tarjimasi "xira xanda "so'z birikmasidagi [x] tovushining takrori [s] tovushi orqali, [z] tovushi [s] tovushi orqali berilgan.

Fonostilistik usullardan biri hisoblangan assonans she'rga musiqa bag'ishlaydi, xushohang qiladi. Unli tovushlar takroriga asoslangan assonans ko'pincha turoq ichida, band ichida hamda qofiyada uchraydi.

Kuz yoysa ham yo'llarga xazon,
Qor ko'msa ham borliqni butun,
Ko'klam kelib, ursa ham xandon
Eshigingdan o'tarman bir kun.

(Omon Matchon, "Eshigingdan o'taman")

Though on the ways dead leaves lie,
Though it snows all night and day,
Let awakened nature cry?
I'll pass by your door some day (D.Sultonova tarjimasi).

Asliyatlardagi [y] tovush takroriy tarjimada [ei] hamda [ai] diftonglari orqali qayta yaratilgan.

She'riyatda muhim unsurlardan biri qofiya hisoblanadi. Qofiyalar ikkiga, ya'ni to'q va och turlarga bo'linadi. Tarjimada asliyat shaklini qayta yaratishda uning qayerda qo'llanilgani va qanday shaklda berilgani muhim ahamiyatga ega. Chunki she'rni qayta yaratishda ularning o'rni va shakli iloji boricha saqlanishi lozim.

I saw the weep – the sapphire's blaze
Beside thee ceased to shine
It could not match the living rays
That filled glance of thine (Byron, "I Saw thee Weep").

(a,b,a,b)

Sen kularsan – qarshingda

Feruza tosh o'zgarar.
O'tli qarog'ingga
Teng kelolmay bo'zarar
(D.Sultonova tarjimasi).

She'riy asarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ham ingliz sh'ye'riyati xususiyati, qonun-qoidalariga amal qilinadi hamda qofiyalarning tabiiy, jarangdor, hamohanglari tanlanadi. Tarjimonning mahorati she'r qofiyalarning qanchalik mazmunga mutanosib tanlanganligi va qayta yaratilganligi bilan belgilanadi. She'rni o'qiyotgan o'quvchi asarni tarjima asari deb emas, balki o'zbek tilida yozilgan she'rdek qabul qilishi lozim. Shu yerda bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joiz. O'zbek kitobxoni o'zbekcha asar o'qishi bilan birga xorijiy shoir asarida bahramand bo'layotganini his etishi lozim. Bu degan she'rning milliy xususiyati ham iloji boricha to'liq saqlanishi talab etiladi.

Sochlarimga tushsa hamki oq,
Peshonamni bossa ham ajin,
Kirganda ham gavqdamga titroq
Eshigingdan o'turman bi kun.
(a b a b)

And though your hair has turned stay,
And on my face wrinkles stay,
And shudder comes over me,
I'll pass by your door some day (D.Sultonova tarjimasi).
(a a b a)

She'r unsurlaridan yana biri – anafora. Anafora degani bir so'zning yoki bir xil tovushning ga pyoki so'z boshida takrorlanib kelishiga aytiladi. Masalan:

Friends, if me have ever been,
Friends, me cannot now remain.

Do'stim, so'zi takroriga adashdimi til,
Do'stlik rishtasi saqlay olmas endi dil
(D.Sultonova tarjimasi)

D.Sultonovaning fikriga ko'ra, "So'nggi yillarda ingliz tiliga xos bo'lgan an'anaviy vaznlar bilan birga "hijo" vazni ham ishlatila boshlandi vash u bois o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilganda shu vaznni qo'llash mumkin".

Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

(Abdulla Oripov) (7+7)

Then I brought you to my mind, o my first love.

And was lost in thoughts of mine. O my first love (D.Sultonova tarjimasi). (7+5)

Mirzo Boburning "Charxning men ko'rmagan ..." deb nomlangan g'azali ingliz tiliga 6,5 stopali yamb vazni bilan tarjima qilingan.

Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimi?

Xasta ko'nglim chekmagan dardu balosi qoldimi?

And is there any grief or grame that I've not held yet?

And is there pain or smart that my sore heart's not held yet?

Umuman olganda, she'riy tarjima tarjimondan til bilish bilan bir qatorda, uning dunyoqarashi keng bo'lishini, ikki tilning she'r sistemalarini, she'r bilan bog'liq an'ana (qofiya, radif, vazn, turoq, hijoni qo'llash xususiyatlari) hamda she'r yozish va tarjima qilish sohasidagi yangiliklardan boxabar bo'lishini talab etadi.

¹ Misollar D. Sultonova va Sh. Yo'ldoshevaning bevosita saboqlari qo'llanmasidan olindi. Qarang: Dina Sultonova, Shakhnoza Yuldasheva. A Manual of Immediate Translation. Samarqand, 2005.

² Ko'rsatilgan adabiyot, 13-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbek tilidagi adabiyotlar

1. Akbarova S. A. Лингвостилистические средства и когнитивно-прагматическая значимость художественного портрета (на материале английских художественных текстов) Авторы дис. канд. фил. наук – Ташкент, 2005.
2. Allomalar, buyuk siymolar, 1-4 kitob. Toshkent, 1995.
3. Arnold I. V. Стилистика современного английского языка. – М.: Просвещение, 1990.
4. Axmanova O. S. Словарь лингвистических терминов. Москва. 1966.
5. Ashurova D. Стилистика текста в парадигме когнитивной лингвистике // Filologiya masalalari. – Toshkent 2003.
6. Barxudarov L. S. Язык и перевод. Москва, 1978.
7. Barxudarov L. S. Что нужно знать переводчику? Тетради переводчика. Москва. 1978.
8. Boldareva E. F. Языковая игра как форма выражения эмоций. Авторы. дисс. канд. фил. наук.- Волгоград. 2002.
9. Vejbitsskaya A. Язык. Культура. Познание.- М.: Русские словари, 1996.
10. Vinogradov V. S. Перевод: Общие и лексические вопросы. Учебное пособие. М. “Книжный дом “Университет”. 2006.
11. Vladimirova N. V. «Некоторые проблемы художественного перевода с русского на узбекский», дисс. на соискание ученой степени кан. фил. наук. Т. 1958.
12. Vlahov S., Florin S. Непереводимые в переводе. Москва. 1980.
13. Gak V. G. Курс перевода. Французский язык. М., 1970.
14. Gachechiladze G. R. Введение в теорию художественного перевода. Тбилиси. 1978.
15. Glushak V. M. Атрибутивные измерения текста как лингвистический феномен концептуальной связи. Дис. кад филол. Наук. – М., 2001.

16. Gospodenox E. A. Изучение эмоциональных и когнитивных характеристик психических состояний на модели нормальных родов. Автор. дисс. канд. фил. наук. – Санктпетербург, 2002.

17. Dementeva M. Yu. Номинативно-когнитивный аспект семантики фразеологизма и слова. Автор. дисс. канд. фил. наук. – М., 2002.

18. Dimitrova E. V. Трансляция эмотивных смыслов русского концепта «тоска» во французскую лингвокультуру. Автор. дисс. канд. фил. наук. – Волгоград, 2001.

19. Esenboev R. Tarjima san'ati. 1,2,3,4 kitoblar. Toshkent. 1986

20. Zikova I. V. Гендерный компонент в структуре и семантике фразеологических единиц современного английского языка: Автор. дисс. канд. фил. наук. – М., 2002.

21. Yovenko V. A. Общий перевод испанского языка. М., 2001.

22. Kamilov N. «Хорезмская школа перевода» (проблемы типологии и сопоставительное исследование), дисс. док. ф. наук. Т. 1987.

23. Karamatov X. S. Истоки, оригинал и узбекский перевод. Трагедия К. Марло «Тамерлан великий». Дисс. на канд. ф. н. Т. 1990.

24. Kibrik A. A. Когнитивные исследования по дискурсу // Вопросы языкознания. 1994. №5

25. Kovshovya M. L. Национально-культурная специфика фразеологических единиц (когнитив аспекты): . Автор. дисс. канд. фил. наук. – М., 1996.

26. Kojanev N. Вопросы истории и теории художественного перевода. Минск. 1972.

27. Komilov N. Tarjimachiligimiz an'analari. «Shar? yulduzi» jurnali. 1968, 8-son.

28. Komissarov V. N. Лингвистика перевода. Москва. 1980.

29. Komissarov V. N. Общая теория перевода. М. 2003.

30. Komissarov V. N. Современное переводоведение. М. 2004.

31. Kunin A. V. Фразеология современного английского языка. – М., 1970.

32. Latinov L. Ch. Роль английских и русских фразеологических единиц в формировании модальности в тексте. Авторев. дисс. канд. фил. наук. – Волгоград, 2002.

33. Latishev L. K. Проблемы эквивалентности в переводе. Москва. 1983.

34. Leviy I. Искусство перевода. Москва. 1974.

35. Lvovskaya Z. D. Теоретические проблемы перевода. Москва. 1985.

36. Мастерство перевода. Сборник статей. Москва. 1959.

37. Musaev. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent 2005.

38. Reimov B. X. Фразеологические единицы английского языка, характеризующие эмоциональное состояние человека. Диссертация канд. фил. наук. – Ташкент, 2005.

39. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent "Ў?ituvchi" – 1983.

40. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T. 1990.

41. Semenets O. История перевода. Киев. 1991.

42. Suleymanova P. K. «Из истории взаимоотношений литератур Востока и Запада» (древн. период). Дисс. на ф. к. Т. 1991.

43. Teliya V. N. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологические аспекты – М.: Языки русской культуры, 2000.

44. Federov A. V. Основы общей теории перевода. Москва. 1968.

45. Pyodorov A. Теория перевода. М., "Высшая школа". 1976

46. Chernov R. V. Основы синхронного перевода. Москва. 1987.

47. Chernov G. V. Синхронный перевод: речевая компрессия – лингвистическая проблема. М., 1989.

48. Sharipov J. Badiiy tarjimalar va moxir tarjimonlar. Toshkent. 1977.

49. Shveytsar A. D. Перевод и лингвистика. М. 1973.

50. Shveytsar A. D. Перевод в лингвистике. М., 1985.

51. Shiryaev A. F. Синхронист синхронного перевода. М., 1971.

52. G'ofurova G. O'zbekistonda tarjimaning rivojlanishi. Toshkent. 1973.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Andre Lefevere. Translation/ History/ Culture. Australia. 2001

2. Bloomfield L. Language, N. Y., 1964.

3. Catford J. C. A linguistic theory of translation. Lnd., Oxford Univ. Press. 1965.

4. Encyclopedia of Britain. London. 2000.

5. Graham I. Difference in Translation. Carnell University Press, 1985.

6. Greenberg. The M. I. T. Press, Cambridge, Massachusetts, 2002

7. Haberland H. Linguistics and pragmatics // Journal of pragmatics/ - Amsterdam: John Benjamin's, 2001.

8. Hartman R. I. Contrastive textology and translation. London. 1981.

9. Hockett Ch. A Course in Modern Linguistics, N. Y., 1960

10. Hoof H. V. L'histoire de la traduction en Occident. Paris. 1991.

11. Hornby A. S. Oxford student's Dictionary of Current English. – Moscow, Oxford, 1984.

12. Kennedy A. G. Current English. – USA, 2001.

13. Mildred A Guide to Cross Language Equivalence, Z., 1984.

14. Muminov O. Guide to Simultaneous translation. T., 2005.

15. Muminov O., Sunnatov O. History of Translation. T. 2008.

16. Newmark P. A. Textbook of Translation. London. 2002.

17. Newmark P. Approaches to translation. L. 2001.

18. Nida E. Towards a science of translation. Leiden. 1964.

19. Nida E. Taber Ch. The theory and practice of translation. Leiden. 1969.

20. Peter Newmark. A textbook of translation. Singapore. 2000.

21. Peter Newmark. Approaches to translation. G. B. 2002.
22. Robert Lado, Linguistics across Cultures, Applied Linguistics for Language Teachers, Ann Arbor 1961.
23. Roger. N. Bell. Translation and translating, (theory and practice). London, New York. 2001.
24. Savory T. The art of Translation. London. 1957.

Internet sources:

[www. Links-guide. ru](http://www.Links-guide.ru)

[www. Raspisanie. rsuh. ru](http://www.Raspisanie.rsuh.ru)

[www. Syntagma.h1.ru](http://www.Syntagma.h1.ru)

[www. Bicss.mdx.ac.uk/css/public/mods/TRA2000htm](http://www.Bicss.mdx.ac.uk/css/public/mods/TRA2000htm)

[www. Computer-museum.ru](http://www.Computer-museum.ru)

**I.G'afurov, O.Mo'minov,
N.Qambarov**

TARJIMA NAZARIYASI

«TAFAKKUR-BO'STONI» MCHJ
100190. Toshkent shahri Yunusobod tumani 9-13.

Tel: 199-84-09, e-mail: tafakkur0880@mail.ru

Bosh muharrir:	M.Saparov
Muharrir:	R.Yarlaqabov
Musahhih:	Z.Ostonov
Sahifalovchi:	U.Vaxidov

Litsenziya № AI-190. 10.05.2011 y.

Terishga berildi 30.05.2012 y. Bosishga ruxsat etildi 28.06.2012 y.
Ofset qog'ozi. Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturası.
Shartli bosma tabog'i 13,5. Ofset bosma. Adadi 500 dona.
Buyurtma № T-17.

«TAFAKKUR-BO'STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Chilonzor ko'chasi 1 uy.